



OSIYO XALQARO  
UNIVERSITETI



# OSIYO XALQARO UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal  
Научно-теоретический и методический журнал  
Scientific theoretical and methodical journal

2024, №3

EDITION 3

<https://scientificjournal.uz/>



Osiyo Xalqaro  
Universiteti

# “OSIYO XALQARO UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI”

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2024-yil, 3-son

Jurnal 2024-yildan chiqa boshlangan

BUXORO – 2024



**Muassis: OSIYO XALQARO UNIVERSITETI**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi  
huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
2024-yil 04-aprel №25-0649-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.



**Bosh muharrir:**

Elov Ziyodullo Sattorovich, Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent.

**Jamoatchilik kengashi raisi:**

Dexkanov Suxrob Sobirovich, Osiyo xalqaro universiteti rektori

**Mas'ul kotib:**

Sattorov Mirshod Erkinovich

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 2 oyda bir marta o'zbek, rus va ingliz  
tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 200100, O'zbekiston Respublikasi,

Buxoro shahri Namozgoh ko'chasi 24-uy,

E-mail: [sjkamolot@gmail.com](mailto:sjkamolot@gmail.com)

Jurnal sayti: <https://scientificjournal.uz/>



1936



*Maqolada keltirilgan faktlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir.*



## ТАХРИР НАҲАТИ – РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

|                      |                                                                                                  |
|----------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------|
| DEKCANOV S.S.        | Osiyo xalqaro universiteti rektori                                                               |
| ABDULLAYEVA B.S.     | Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor                                                     |
| MAKSIMENKO S.D.      | Psixologiya fanlari doktori, professor, (Ukraina fanlar akademiyasi, Kiyev)                      |
| QODIROV U.D.         | Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor                                                     |
| URAZBAYEVA D.A.      | Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor                                                     |
| KARSHIYEVA D.A.      | Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor                                                     |
| JABBOROV X.X.        | Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent                                                       |
| GANJIYEV F.F.        | Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent                                                       |
| JUMAYEV U.S.         | Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent                                                             |
| CHUDAKOVA V.P.       | Psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina fanlar akademiyasi, Kiyev)                                  |
| OLIMOV L.Y           | Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent                                      |
| BAFAYEV M.M.         | Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent                                      |
| YANAKIYEVA YE.K.     | Pedagogika fanlari doktori, professor (N.Rilski nomidagi Janubiy G'arbiy Universitet, Bolgariya) |
| ROMM T.A.            | Pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat universiteti, Rossiya)                 |
| OLIMOV Sh.Sh.        | Pedagogika fanlari doktori, professor                                                            |
| HAMROYEV A.R.        | Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor                                                      |
| JO'RAYEV X.O.        | Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor                                                      |
| IZBULLAYEVA G.V      | Pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent                                                        |
| KOZUBSOV I.N.        | Pedagogika fanlari doktori, dotsent (Kiyev, Ukraina)                                             |
| DAVRONOVA Sh.F.      | Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent                                       |
| KAMILOVA U.K.        | Tibbiyot fanlari doktori, professor                                                              |
| IBODULLAYEV Z.R.     | Tibbiyot fanlari doktori, professor                                                              |
| SALIMOV Sh.T.        | Tibbiyot fanlari doktori, professor                                                              |
| IXTIYAROVA G.A.      | Tibbiyot fanlari doktori, professor                                                              |
| BABADJANOV A.X.      | Tibbiyot fanlari doktori, professor                                                              |
| YUSUPBEKOV A.A.      | Tibbiyot fanlari doktori, professor                                                              |
| YUSUPALIYEVA G.A.    | Tibbiyot fanlari doktori, professor                                                              |
| BERNATSKIY G.G.      | Yuridik fanlari doktori, professor (A.S.Karmin nomidagi Santk Peterburg universiteti)            |
| KARIMOV B.Sh.        | Sotsiologiya fanlari doktori (DSc), dotsent                                                      |
| MUSTAFA SAID ARSLON. | Filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)                                                  |
| O'RAYEVA D.S.        | Filologiya fanlari doktori, professor                                                            |
| TO'XSANOV Q.R.       | Filologiya fanlari doktori, professor                                                            |
| QILICHEV B.E.        | Filologiya fanlari doktori, professor                                                            |
| RO'ZIYEVA M.YO.      | Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent                                       |
| TILEUKULOV G.S.      | Tarix fanlari doktori, dotsent (M.Avezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti)              |
| VOHIDOV Sh.X.        | Tarix fanlari doktori, professor (Tojikiston davlat pedagogika instituti, Penjikent)             |
| HAYITOV Sh.A.        | Tarix fanlari doktori, professor                                                                 |
| TO'RAYEV H.H.        | Tarix fanlari doktori, professor                                                                 |
| QILICHOV O.A.        | Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent                                                             |
| ORZIYEV M.Z.         | Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent                                            |
| ERGASHEV J.Yu.       | Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent                                            |
| SHODIYEVA Sh.S.      | Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent                                            |
| ABDURAHMONOV M.A.    | Iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Qozog'iston davlat universiteti)                         |
| NAVRUZZODA B.N       | Iqtisodiyot fanlari doktori, professor                                                           |
| MAHMUDOV N.M.        | Iqtisodiyot fanlari doktori, professor                                                           |
| BO'TABOYEV M.T.      | Iqtisodiyot fanlari doktori, professor                                                           |
| QODIROV A.A          | Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent                                                       |
| URAYEV G.A.          | Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (A.S.Karmin nomidagi Santk Peterburg universiteti)          |
| NAVRUZZODA L.B.      | Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent                                      |

## NAJOT – TA'LIMDA, NAJOT – TARBIYADA



© Suxrob DEXKANOV

Osiyo xalqaro universiteti rektori

Tarbiya haqida soʻz ketar ekan, buyuk maʼrifatparvar, Turkistonda jadidchilik harakatining yorqin namoyandasi Abdulla Avloniyning: **“Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir”**, degan soʻzlari yodimizga tushadi. Darhaqiqat, tarbiya insonning asl siyratini koʻrsatuvchi shaffof oinadir.

Tarbiasiz inson ham, kishilik jamiyati ham mavjud boʻla olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini taʼminlaydigan qadriyatlar faqat tarbiya tufayli bir avloddan boshqasiga oʻta oladi.

Bugungi kunda yurtimizda taʼlim va tarbiyaning uzviyligiga yuqori darajada eʼtibor qaratilmoqda. Ertamiz egalari boʻlgan dilbandlarimizning taʼlimu tarbiyasiga eʼtibor davlat siyosatining asosiy maqsad va yoʻnalishlaridan biridir. Buni Prezidentimizning 2023-yilga **“Insonga eʼtibor va sifatli taʼlim yili”** deya nom berganining oʻziyoq isbotlab turibdi.

Bugun Yangi Oʻzbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan taʼlim tizimidagi oʻzgarishlar haqida toʻlqinlanib soʻzlamaslikning iloji yoʻq.

Mamlakatimizda soʻnggi yillarda taʼlim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish boʻyicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev taʼkidlaganidek: **“Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli boʻlib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, koʻplab ijtimoiy muammolarni echish imkoni tugʻiladi. Shunday ekan, Yangi Oʻzbekiston**



**ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o‘ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo‘llab-quvvatlaydi”.**

Bugun ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta’lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019-yil 8-oktyabrda farmoni bilan tasdiqlangan **O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi** sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi.



Konsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta’lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o‘quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta’lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta’lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish,

ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e’tirofga erishish hamda boshqa ko‘plab aniq yo‘nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta’lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko‘tarish uchun xizmat qiladi.

Bugungi kunda jahondagi nufuzli oliy ta’lim muassasalari ilm-fanning yirik o‘choqlari hisoblanishi hech kimga sir emas. Hozirda yangi-yangi oliy o‘quv yurtlari, dunyodagi etakchi universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda. Misol uchun, so‘nggi 5 yilda mamlakatimizda 47 ta yangi oliy ta’lim muassasasi, jumladan, xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilib, oliy o‘quv yurtlarining soni 125 taga etdi.

Davlat-xususiy sheriklik tizimi asosida nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyati yo‘lga qo‘yilmoqda. Aholi fikrini o‘rgangan holda, sirtqi va kechki ta’lim shakllari qayta tiklandi, qabul kvotalari oshirilmoqda. Maktab bitiruvchilarini oliy ta’limga qamrab olish darajasi 2016-yilgi 9 foizdan 2020-

yilda 25 foizga etdi. Professor-o‘qituvchilarning xorijdagi oliy ta’lim hamda ilmiy-tadqiqot maskanlarida malaka oshirishi va stajirovka o‘tashini ta’minlaydigan mexanizm yaratildi.

Oliy ta’limga ajratiladigan davlat grantlari soni kamida 25 foizga oshirilganligi, oliy o‘quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar sonini 2 barobarga ko‘paytirib, 2 mingga etkazilishi oliy ta’limga qamrab olish ko‘lamini yanada kengaytirdi.

Ta’lim tizimidagi eng muhim yangiliklardan biri oliygohlar va ta’lim tizimining quyi bo‘g‘inlari o‘rtasidagi uzviylikni kuchaytirish maqsadida 65 ta akademik litsey oliy o‘quv yurtlari tasarrufiga o‘tkazilishi, shuningdek, 187 ta texnikum ham o‘z yo‘nalishi bo‘yicha turdosh oliygoh va tarmoq korxonalariga biriktirilishi bo‘ldi.

Axborot va kommunikatsiya va texnologiyalar asri deb nom olgan XXI asrda hayotning barcha jabhalarida – sanoat, qurilish, kimyo, qishloq xo‘jaligi, to‘qimachilik, mashinasozlik va boshqa sohalarda yuksak taraqqiyotni yuzaga keltirish uchun ilm-fanni rivojlantirish, bu borada yangiliklar yaratish hayotiy zaruratga aylandi. Bu jarayon endilikda dunyoda taraqqiyot yo‘lini tutgan barcha mamlakatlarda e’tirof etilmoqda. Respublikamizda ham ana shu jarayonga alohida e’tibor berilmoqda.



Mamlakatimiz Prezidenti, rahbar sifatidagi faoliyatini yurtimiz akademiklari, etakchi olimlari, umuman, ilm ahli bilan uchrashuvdan boshlaganligi, yurtimizda ilm-fan rivojini ishlab chiqarish taraqqiyoti bilan uyg‘unlantirishga qaratganligi bejiz emas.

Davlatimiz rahbarining shundan keyin sog‘liqni saqlash tizimi faoliyatini yaxshilash, kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitobxonlikni kuchaytirish, respublikada yangi erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish, mamlakatni yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish, Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi” ishlab chiqilishi, Imom



Termiziy xalqaro markazini tashkil qilish borasida va shu kabi boshqa ko‘plab qabul qilingan qarorlari, farmonlari, farmoyishlarida ilm-fanni yuksaltirish asosiy masalalardan biri sifatida belgilanishi ham ana shu e’tiborning amaliy ifodasi edi.

Ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish, ularning yutuqlarini yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotga aylantirish jarayonida intellektual mulkning ishonchli himoya qilinishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, intellektual mulk ulushi Yevropada yalpi ichki mahsulotning 45, Xitoyda 12, Rossiyada 7 foizini tashkil etadi. 2020 yilning 12 oktyabr kuni Prezidentimiz raisligida bo‘lib o‘tgan yig‘ilish ham “Intellektual mulkni himoya qilish – Uchinchi uyg‘onish davri uchun ishonchli poydevor bo‘lib xizmat qiladi” mavzusiga bag‘ishlangan edi. O‘shanda davlatimiz rahbari patent egalari va tadbirkorlar o‘rtasidagi hamkorlikni ta’minlash zarurligiga alohida e’tibor qaratdi.

Xususan, ta’lim tizimida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bu – **“Ta’lim to‘g‘risida”**gi qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi bo‘ldi. Mazkur qonunga asosan ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar, ta’lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo‘yildi.

Shuningdek, qonunga ko‘ra, davlat oliy ta’lim, o‘rta maxsus, professional ta’lim muassasalari va ularning filiallari, davlat ishtirokidagi oliy, o‘rta maxsus, professional ta’lim tashkilotlari va ularning filiallari Prezident yoki hukumat qarorlari bilan tashkil etiladigan bo‘ldi. Nodavlat ta’lim muassasalarini tashkil etish ularning ta’sischilari tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Nodavlat ta’lim tashkilotlariga litsenziya Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladigan bo‘ldi.

Shunga ko‘ra, mazkur Qonunning qabul qilinishi hamda amaliyotga joriy etilishi ham ta’lim sohasida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bo‘ldi deyishimiz mumkin.



So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar Osiyo xalqaro universitetida ham izchil amalga oshirib kelinmoqda. Binobarin keyingi ikki yil ichida fakultetlar soni sezilarli ravishda oshdi va natijada o‘z-o‘zidan kafedralar soni va ta’lim yo‘nalishlari soni ham salmoqli ravishda o‘zgardi. Bugun, universitetimiz 27 ta yo‘nalish bo‘yicha qabul ishlarini amalga

oshirmoqda. Universitetda magistratura mutaxassisliklari soni esa 7 taga etdi. Qisqa muddat ichida dunyoning 5 ta xalqaro universiteti bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yilishining o‘zi ham yosh universitet uchun juda kata natija hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan bunday islohotlarga mos ravishda bugun Osiyo xalqaro





universitetida 15000 dan ortiq talabalarning tehsil olayotganligi, bu dargohda ishlar qanday tashkil etilayotganligidan dalolat beradi.

Shu bilan birga bugun Osiyo xalqaro universiteti yangi o'quv yilida talabalar uchun yanada qulay bo'lishini o'ylagan holda, 2 ta yangi binoni tez kunlarda foydalanish uchun topshirishga tayyorgarlik ko'ryapti. Bu universitet rahbariyatining Mustaqilligimizning 33-yilligiga sovg'a bo'ladi desam mubolag'a bo'lmaydi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan istiqbolli vazifalar, o'zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko'lamda davom ettirish davr talabidir.

Har qanday jamiyatda yoshlarning ta'lim-tarbiyasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etar ekan, ularni bu borada etuklikka etaklash biz pedagoglarning asosiy va muhim vazifamiz bo'lib qolaveradi. Shunday ekan, har birimiz Vatan hamda millat ravnaqi uchun o'z vazifamizni sidqidildan, yuksak mas'uliyat bilan ado etmog'imiz darkor. Zero, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan "Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda" g'oyasining mazmuni ham aynan shunga qaratilgan.

The background of the page is an abstract composition of concentric, swirling brushstrokes in various shades of blue, ranging from light sky blue to deep navy blue. These strokes are set against a white background, creating a dynamic, organic circular pattern that frames the central text. Scattered throughout the blue areas are small, dark blue and black ink splatters, adding to the artistic, hand-painted feel of the design.

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

**ROSSIYA VA AFG‘ONISTON MUNOSABATLARIDAGI TO‘SIQ VA MUAMMOLAR D.N. LOGOFET TALQINIDA**

© **Haitov Shadmon Axmadovich**  
*Buxoro davlat universiteti, Buxoro*



© **Ahmadov Ahmadjon Asror o'g'li**  
*Buxoro davlat universiteti, Buxoro*

**Annatatsiya.**

**KIRISH:** Ushbu maqolada sharqshunos, Rossiya imperiyasi polkovniki D.N. Logofet asarlari orqali Turkiston chegara postlarida xizmat qilgan rus harbiylarining moddiy-maishiy turmushi, ijtimoiy-ruhiy holati haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.

**MAQSAD:** XIX asr oxirlari – XX asr boshlarida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy ahvol, shuningdek, rus harbiylari va aholisining o'sha davrdagi yashash sharoitini o'rganish va tadqiq qilish.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Turli tarixiy adabiyotlar va shuningdek, Rossiya imperiyasi polkovniki D.N. Logofet asarlari asosiy materiallarni tashkil etadi. Mavzuni xronologik izchillik, qiyosiy tahlil, tarixiylik usullaridan foydalangan holda yoritdik.

**XULOSA:** D.N. Logofetning asarlari XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda Rossiya-Eron, Rossiya-Afg'oniston, Buxoro-Afg'oniston chegara va bojxona postlarida xizmat qilgan ko'p sonli rus harbiylarining ahvoli, muammolari, ijtimoiy-ruhiy holati, tarixiy taqdirlari, mahalliy aholi bilan munosabatlari haqida aniq tarixiy ma'lumotlar olish uchun muhim manbaviy asos bo'la oladi. Uning kitob va asarlarini atroflicha o'rganish orqali rus-o'zbek xalqlari o'rtasidagi do'stona munosabatlarga oid aniq tarixiy dalillardan xabardor bo'lish kelajak uchun ham muhimdir.

**Tayanch so'zlar:** Beklik, afg'on, chegara, chegara posti, Kelif, Patta-Hisor, Ayvaj, Kavarzor, savdo-sotiq, Buxoro amirligi, Angliya, Rossiya, musulmon, anglo-afg'on urushi, mahalliy aholi, birinchi jahon urushi.



## ПРЕПЯТСТВИЯ И ПРОБЛЕМЫ В ОТНОШЕНИЯХ РОССИИ И АФГАНИСТАНА ПРИ ИНТЕРПРЕТАЦИИ ЛОГОФЕТА

### Аннотация.

**ВВЕДЕНИЕ:** В данной статье востоковед, полковник Российской империи через произведения Логофета Д.Н. выражались мнения о материальной и бытовой жизни, социальном и духовном состоянии русских воинов, служивших на пограничных заставах Туркестана.

**ЦЕЛЬ:** Изучение и исследование общественно-политической ситуации в Туркестане в конце XIX - начале XX века, а также условий жизни русских воинов и населения в то время.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** По данным различной исторической литературы и полковника Российской империи в работах Логофета Д.Н. используются основные материалы. Мы освещали тему, используя методы хронологической последовательности, сравнительного анализа и историчности.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** Д.Н. Логофета работы описывают ситуацию, проблемы, социально-психологическое состояние, исторические судьбы, местные события и могут быть важной ресурсной базой для получения точных исторических сведений об отношениях с населением. Важно и в будущем осознавать яркие исторические свидетельства дружественных отношений между русско-узбекскими народами посредством детального изучения его книг и произведений.

**Ключевые слова:** Афганистан, граница, погранзастава, Келиф, Патта-Хисар, Айвадж, Каварзор, торговля, Бухарский эмират, Англия, Россия, мусульмане, англо-афганская война, местное население, Первая мировая война.

## OBSTACLES AND PROBLEMS IN THE RELATIONS OF RUSSIA AND AFGHANISTAN IN THE INTERPRETATION OF LOGOFET

### Annotation.

**INTRODUCTION:** In this article, orientalist, colonel of the Russian Empire Through the works of D.N. Logofet, opinions were expressed about the material and household life, social and spiritual condition of the Russian soldiers who served at the border posts of Turkestan.

**AIM:** Study and research of the socio-political situation in Turkestan at the end of the 19th - beginning of the 20th century, as well as the living conditions of the Russian military and population at that time.

**MATERIALS AND METHODS:** According to various historical literature and the Russian Empire colonel D.N. Logofet works are the main



materials. We covered the topic using the methods of chronological consistency, comparative analysis, and historicity.

**CONCLUSION:** D.N.Logofet's works describe the situation, problems, socio-psychological condition, historical destinies, local can be an important resource base for obtaining accurate historical information about relations with the population. It is also important for the future to be aware of the clear historical evidence of the friendly relations between the Russian-Uzbek peoples through a detailed study of his books and works.

**Key words:** Afghan, border, border post, Kelif, Patta-Hisar, Ayvaj, Kavarzor, trade, Bukhara Emirate, England, Russia, Muslim, Anglo-Afghan War, local population, World War I.

**R**ossiya imperiyasi Buxoro amirligini protektoratga aylantirganidan so'ng (1873), amirlikka qo'shni bo'lgan Afg'oniston chegaralariga yaqinlashib qoldi. D.N. Logofet Buxoro-Afg'oniston aloqalari yaxshi qo'shnilik va do'stlikka asoslangani, amirlik orqali Afg'oniston-Rossiya munosabatlari yo'lga qo'yish imkoniyatlari haqida fikr bildirgan. Afg'on amiri Sheralixon Rossiya davlatiga nisbatan simpatiyasi borligi, shu sababli Qobulda rus elchixonasini ochishga ruxsat berganligi manbalarda qayd etilgan. General Stoletov boshchiligidagi Qobulda 1877-yilda rus missiyasi faoliyat yuritib, ikki mamlakat yaqinlashuvida muhim rol o'ynagan. Biroq 1878-1880-yillarda yuz bergan 2-anglo-afg'on urushi davrida Angliya Rossiyadan afg'on masalasiga aralashmasligi bilan bog'liq 1869, 1873-yillardagi shartnoma shartlarini so'ragan. Shundan so'ng Afg'oniston bo'ylab general Nikolay Ivanovich Grodekov (1843-1913 yy) harakatlari ham samarasiz ketgan. Amir Abdurahmon hukmronligi yillarida (1880-1901 yy) anglichanlar tazyiqi bilan rus-afg'on munosabatlari taqiqlangan. Rus savdogarlarini afg'on chegaralaridan o'tkazmaslik, ular bilan savdo-sotiq qilmaslik joriy etilgan. Shunday vaziyatda rus savdogarlari afg'on bekliklari bilan Buxoro amirligi savdogarlari orqali savdo munosabatlariga kirishgan.

Har qanday ta'qiqlarga qaramay rus-afg'on chegarasidan afg'on fuqarolarining erkin o'tib qaytishiga ruxsat etilgan. Shu sababli afg'on amirining "yopiq eshiklar" siyosati kutilgan natijasini bermagan. Rossiya hukumati Taxtabozor, Kushka, Temiz, Kerki, shaharlaridagi savdo faktorlarida afg'on savdogarlariga erkin savdo qilishga imkon bergan. Bu esa afg'on aholisining rus hukumatiga nisbatan munosabatiga ijobiy tendensiyalar yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Ayniqsa Kaspiyorti viloyati chegaralari bo'ylab afg'onlarning Turkistonga o'tishi, ulardan ishchi kuchi sifatida foydalanish orqali o'zaro aloqalar davom etgan. Afg'onlar Kushka qal'asi va O'rta Osiyo temir yo'li qurulishida ishtirok etishgan. Rus harbiy chegara qismlari 1200 kmga cho'zilgan chegarada joylashganligi, ular afg'on chegarachilari bilan muloqotda bo'lib turishi o'zaro munosabatlardagi to'siqlarni bartaraf etishga xizmat qilgan[1].



D.N. Logofet Buxoro amirligi savdo agentligi vakillari Eski Buxoro shahrida va Kelif, Sherobod bekliklarida faoliyat yuritishini qayd etgan.

Amirlik Afg'oniston bilan yaqin hududlarda joylashgan. Kelif, Sherobod, Qobodiyon, Qo'rg'ontepa, Ko'lob, Dorboz bekliklari orqali hamda chegaraga yaqin amlokdorlardan Bassaga, Kelif, Patta-Hisor, Ayvaj, Jelikul, Saroy, Porxor, Chubek, Sari-Chashma, Panj, Shaxsti kabilar bilan bog'lanib turgan. Savdo vakillari yuborish, maktubiy aloqalar do'stona munosabatalar rivojlanishiga xizmat qilgan.

Rossiya imperiyasiga qarashli Samarqand viloyati savdogarlari bilan savdo-sotiq aloqalarida ham Samarqand-Afg'oniston o'rtasida buxorolik savdogarlar vositachilik qilgan. D.N. Logofet rus-afg'on munosabatlaridagi to'g'ridan-to'g'ri aloqa noqulay siyosiy sharoitda (ingliz-rus raqobati) kutilgan natijaga olib kelmasligiga e'tiborni qaratgan. Agar afg'on savdogari Buxoro amirligi bekliklari va amlokdorlarda qarzдор bo'lib qolsa, uni hibsga ushlash tartibi joriy etilgan. Afg'onistondan tashrif buyurgan boshqa savdogarga qarzдорni jarimasini to'lash talab etilgan. Agar jarima to'lanmasa, savdo-sotiq munosabatlariga kirishishga ruxsat berilmagan [2].

Afg'oniston-Rossiya chegarasida rus qo'riqchilari Buxoro amirligi bekliklari tomonidan noqonuniy qamab qo'yilgan afg'on fuqarolari manfaatini himoya qilish huquqiga ega bo'lgan. Shuningdek, 1907-yilga qadar fuqarolar manfaatini himoya qilish markaziy hukumat va Afg'oniston Chorviloyatini gubernatori ixtiyorida bo'lsa, ko'rsatilgan yildan boshlab bu vakolat mahalliy chegara postlari boshliqlariga berilgan. Bu bilan savdogarlarni, o'tib-qaytuvchilarni chegara postlarida uzoq vaqt ushlab qolishdan xalos bo'lingan. Rus chegara postlaridan barchasida afg'on fuqarolari o'tib-qaytishlari uchun imkoniyat birdek yaratilgan. Shu sababli afg'on savdogarlari va ishchilarining Turkiston viloyatlariga erkin kirib kelish holati ta'minlanib, Kaspiyorti viloyatini ishchi kuchi va zaruriy tovarlar bilan ta'minlashga qulaylik yaratilgan [3].

Sharqshunos olim Buxoro amirligida passport tizimini joriy qilinganligi xorij fuqarolarining amirlik hududiga kirib kelishida qulayliklar yaratganini eslatib o'tgan. Ayniqsa, Rossiya bilan O'rta Osiyo va Afg'oniston masalasida ziddiyati hamda raqobati kuchli bo'lgan ingliz ayg'oqchilari "Hindiston musulmonlari" nomi ostida amirlik bekliklari bo'ylab tarqalgan. "Hind savdogari" deb o'zini tanitgan Angliya ayg'oqchilari O'rta Osiyo haqida, rus-mahalliy aholi munosabatlari to'g'risida ma'lumot to'plashgan. To'plangan ma'lumotlar Britaniya Hindistoni (Kalikutta) orqali Londonga uzatib turilgan. Hatto islomning ismoiliylar oqimiga kiruvchi tojik millatiga mansub, diniy yo'l boshchi Og'axon (Sulton Muhammadxon) Hindistonning Bombay (Mumbay) shahrida istiqomat qilib, ingliz ma'muriyati unga juda katta subsidiya (nafaqa) belgilagan. Og'axonga moddiy shart-sharoit yaratib berish orqali, Buxoro amirligi Sharqiy Bekliklarda inglizlar manfaati targ'ib etilgan. Og'a Muhammadxon o'z izdoshlari – eshonlar orqali inglizlar taqdim etgan mablag' va to'plangan zakotni

kambag'al musulmonlarga tarqatish orqali mavqe va obro' hosil qilgan. Uni ismoiliylar ruslarga qarshi targ'ibotda ma'naviy-ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlashgan [4].

D.N. Logofet ingliz ayg'oqchilarini pumdetlar deb ataydi. Ingliz ayg'oqchilari Afg'oniston va Hindiston orqali Makka va Madina haj ziyoratiga jo'nab ketgan ziyoratchi musulmonlarni o'zlari tomonga og'dirish choralarini ko'rganligini bildirib o'tgan.

Angliya poroxodlarida Afg'onistonda etib olish rus, turk, yunon poroxodlaridan bir necha barobar arzon bo'lgan, ayrim kambag'al musulmonlariga yo'l chiptasi tekin edi. Bu vosita bilan inglizlar musulmon ziyoratchilarini Hindiston orqali ko'proq jo'nab ketishlariga erishishni ko'zlagan. D.N. Logofet ingliz-rus raqobati mintaqada goh zimdan goh ochiq holda muttasil davom etayotganligiga alohida urg'u bergan. Rossiya-Afg'oniston chegarasidagi rus postlari va zastavlari faoliyati Angliya hukumatini tashvishga solgan. Chegara hududlari orqali rus-afg'on aloqalari o'rnatilsa, Rossiyaning Afg'onistonga kirib kelish yo'li ochilishidan inglizlar tashvishga tushgan. 1900-yil 6-fevralda Londondagi rus elchisi janob fon-Stalga Angliya hukumati nota berib, unda rus-afg'on chegarasidagi qo'shinlar "Afg'oniston Angliya ta'sir doirasida" ekanligi bilan bog'liq kelishuvga qat'iy amal qilishi talab etilgan.

**Ikki tarixiy voqelik:** 1901-yilda ingliz-bur urushida Angliya muvaffaqiyatsizligi va Amir Abdurahmon vafoti kabilar Rossiyaning 1873-yildagi Angliya-Rossiya shartnomasini qayta ko'rib chiqishga turtki bo'lgan. 1901-yilda general Kuropatkin Marvgacha kelib, jinoyatlari uchun qamalgan 6 nafar afg'on fuqarosini hibsdan bo'shatgan. Harbiy vazir o'z nutqida: "Afg'onistonga baxtsizlik keldi. Amir Abdurahmon vafot etdi, uni o'rniga taxtga o'g'li Habibullaxon (1901-1919) keldi. Biz ruslar hamma vaqt Afg'onistonni do'st deb bilganmiz, ya'ni amir davrida ham shunday do'st bo'lib qolishni istaymiz. Biz afg'onlar ozod bo'lishini tarafdorimiz" [5] – degan.

Amir Abdurahmon vafotidan so'ng, undan oldin afg'on taxtini boshqargan Sheralixonning to'ng'ich o'g'li Sardor Isakxon o'zini taxt vorisi deb hisoblab kelardi. U Samarqand shahrida Kavarzor (Bog'i afg'on) mahallasida rus hukumati homiyligida nafaqa hisobida umurguzaronlik qilib kelgan. 1901-yilda Sardor Isakxon Samarqanddagi afg'onlarni to'plab o'zini taxt vorisi deb e'lon qildi, vakillarini Shimoliy Afg'oniston erlariga yubordi. Rossiya Sardor Isakxon taxtga chiqishidan manfaatdor bo'lsada, ushbu shaxzodani afg'on hukmdori bo'lishiga ko'zi etmagan. Chunki uning Afg'onistonda ijtimoiy-siyosiy himoyasi kuchli emasdi. Yuqoridagi holatdan kelib chiqib, Rossiya yangi amir, ya'ni Habibullaxon bilan munosabatlarni yaxshilash, rus-afg'on erkin savdosiga asos solish siyosatini qo'lladi[6].

Rossiya matbuoti Afg'onistonda rus savdogarlarining erkin faoliyatini ta'minlash, rus-afg'on savdosini uzluksiz yo'lga qo'yish, o'zaro tovar aylanmasini kuchaytirishni targ'ib qilib chiqqan. Jumladan 1903-yil 19-avgustda



“Новое время”, 1903-yilda 4-sentabrda “Биршевными ведомостями” kabi matbuot organlarida bu masalalarda maxsus maqolalar bosilgan. Rossiyaning Hindiston chegaralari tomon intilishi Angliyaning Rossiyani Oʻrta Osiyo siyosatini boʻshashtirishi uchun harakatni kuchaytiradi. Shu sababli rus matbuoti “Angliya hushyorligini oshirish” emas, oshirish” emas, balki rus afgʻon savdosotigʻini kuchaytirishi masalasiga eʼtiborni qaratgan.

Amir Habibullaxon 1902-yil rus hukumatidan bayonot qabul qilib, unda afgʻon karvon savdosi uchun Kushka-Hirot, Kushka-Qobul yoʻllarini ochib qoʻyish, rus erlarida afgʻon savdogarlari erkin savdo qilishi uqtirilgan. Angliyaning Afgʻonistonga Rossiya tazyiq oʻtkazishi bilan bogʻliq bayonoti asossiz ekanligi rus bayonotida alohida taʼkidlangan. Angliya Amir Habibullaxonni “u inglizparast amirga aylantirish maqsadini koʻzlagan, yoxud afgʻon qabilalari nazdida Habibullaxon inglizparast” ekanligi gavgdalanitirilishi kerak boʻlgan. Bu oʻrinda D.N. Logofet Rossiya hukumatining Afgʻonistonga siyosatini “doʻstona”, “begʻaraz”, qilib koʻrsatib, inglizlar siyosati ekspansiyachilikdan iborat degan gʻoyani targʻib qilgan. Aslida Angliya ham Rossiya Oʻrta Osiyo va Afgʻonistonga nisbatan buyuk davlatchilik, mustamlaka siyosatini yuritgandi.

Afgʻoniston Angliya bilan munosabatlarini keskin yomonlashuviga yoʻl qoʻymaslik siyosatini qoʻllagan. Soʻngi amir Abdurahmon zamonidagi kelishuvga muvofiq inglizlar Afgʻonistonga har yili 1 mln 800 ming rubl subsidiya berib turgan. Ushbu olib turilgan mablagʻni yoʻqotishini Afgʻoniston tomoni hech qachon xohlamasdi [7].

D.N. Logofet Angliya-Rossiya, Rossiya-Afgʻoniston munosabatlariga oid maʼlumotlardan toʻla voqif boʻlish uchun Rossiyaning Buxoro amirligi siyosiy agentligi, Rossiya tashqi ishlar nozirliqi, Turkiston general-gubernatorligi devonxonasi, diplomatik xizmati, Londondagi rus elchiligi, Angliya diplomatik idorasi va Hindiston vitse-qiroli, Qobuldagi Britaniya vakolatxonasi oʻrtasidagi oʻzaro yozishmalarni atroflicha oʻrganishni taflik etadi. Afgʻoniston maʼmuriyati josuslik qilgan xorij fuqarolarini hibs qilish, tan jazosi berish, mol-mulkini musodara qilish, hatto, oʻlim jazosi berish kabi vositalarni qoʻllagan. Rus savdogarlari mollariga yuqori boj belgilash, jarima solish, ayrim hududlarga savdo qilishni taʼqiqlab qoʻyish afgʻon amaldorlari tomonidan qoʻllanilgan holatlar ham yuz bergan.

Biroq chegara hududlariga rus va afgʻon harbiylari oʻrtasida maktubiy munosabatlar, sovgʻa-salomlar bilan almashinuvlar, kontrabandachilarni birgalikda toʻxtatib qolish kabi doʻstona aloqalar ham mavjud boʻlgan[8].

D.N. Logofet Buxoro amirligiga tegishli boʻlgan Shugʻnon, Voxan va Roshan bekliklari 1895-yilda Rossiya tasarrufiga oʻtganidan soʻng, afgʻon savdogarlarining manfaatlari rus qonunlari bilan himoya qilingani toʻgʻrisida maʼlumot bergan.

Xullas, Rossiya-Afgʻoniston munosabatlari XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida oʻta ziddiyatli va murakkab kechganligi bir qator omillar bilan bogʻliq. 1869, 1873-yillardagi ingliz-rus shartnomasi, 1878-1880-yillardagi ikkinchi anglo-afgʻon urushi, 1897, 1901, 1902-1903 yillardagi qoʻshimcha shartnomalar, 1907-yil Antanta shartnomasi kabilar rus-afgʻon aloqalariga oʻz taʼsirini oʻtkazdi. Birinchi jahon urushiga qadar Oʻrta Osiyo va Afgʻoniston masalasida ingliz-rus ziddiyati saqlandi.

D.N. Logofet Rossiya imperiyasining Afgʻonistondagi siyosati bilan bogʻliq toʻsiq va muvaffaqiyatsizliklar sababini nafaqat sharqshunos olim sifatida balki, siyosatchi sifatida ham talqin etishda oʻzida jurʼat topa olgan.

### ADABIYOTLAR ROʻYXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. Том II. –С-Петербург. -С.215-216.
2. Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. Том II. –С-Петербург. С.219.
3. Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. Том II. –С-Петербург. -С.223.
4. Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. Том II. –С-Петербург. -С.224.
5. Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. Том II. –С-Петербург. -С.238-239.

### MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

**Haitov Shadmon Axmadovich**

Buxoro davlat universiteti “Jahon tarixi” kafedrası  
Tarix fanlari doktori, professor

**Ahmadov Ahmadjon Asror oʻgʻli**

Buxoro davlat universiteti  
“Arxeologiya va Buxoro tarixi” kafedrası  
Tarix fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)  
[ahmadoff920@gmail.com](mailto:ahmadoff920@gmail.com)

**Iqtibos uchun:** Haitov Sh.A, Ahmadov A.A. Rossiya va Afgʻoniston munosabatlaridagi toʻsiq va muammolar D.N. Logofet talqinida. // Osiyo xalqaro universiteti axborotnomasi. 2024. №3. B.9–15.

## BUXORO SHAHRI INSHOOTLARIDA AMALIY BEZAK NAMUNALARINING AKS ETISHI



© **To'rayev Anvar Ismoilovich**  
Buxoro davlat universiteti, Buxoro shahri



© **Hayotov Feruz Umidjonovich**  
Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro shahri

### **Annotatsiya.**

**KIRISH:** Ushbu maqolada Buxoro shahrida mavjud bo'lgan qadimgi inshootlarda Buxoro xalq amaliy bezak san'atiga xos bo'lgan bezak namunalari, ularning o'ziga xosligi, sabablari va turlari haqida so'z boradi.

**MAQSAD:** Buxoroda mavjud bo'lgan binolar va xonadonlarni bezashning uslublari va turlari to'g'risida ma'lumot berish, ularning hali-hanuz xalq orasida mavjud bo'lib, hali kitobxonlarga taqdim etilmaganligi sabab ularni o'quvchiga etkazishdan iborat.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Maqolada Buxoro amaliy bezak san'atining o'ziga xos turlari, ularning naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi, ganchkorlikka bo'linib ularning binolarda qo'llanilishi, naqqoshlikning turlari hisoblangan garihli, islamiy va murakkab naqshlar haqida so'z bordi. Har bir inshootning qaysi kategoriyaga kirishi belgilab berildi. Shuningdek, jamoat binolari (masjid, madrasa, xonaqoh va boshqalar), saroylar va aholi turar joylari, xonadonlarda qo'llangan uslublari va ularning o'ziga xos ko'rinishi haqida aytib o'tildi.

**XULOSA:** O'rganilgan tadqiqotlar asosida Buxoro amaliy bezak san'ati namunalarining turlari qadimiy inshootlarda aks etishi va nafaqat eski inshootlar, balki zamonaviy yangi binolar, asosan masjidlarda Buxoro uslubining butun Respublika bo'ylab qo'llanilishi manbalar asosida yoritilib berildi.

**Kalit so'zlar:** Buxoro amaliy bezak san'ati, Buxoro, Ismoil Somoniy maqbarasi, madrasa, masjid, xonaqoh, saroy, xonadon, naqqoshlik, ganchkorlik, oyinapardoz, guldasta va guldon, yog'och o'ymakorligi, garih, islamiy, murakkab naqsh, mehrob, uslub, maktab, Jannatmakoniy saroyi.



## ПРАКТИЧЕСКИЕ ОБРАЗЦЫ УКРАШЕНИЯ БУХАРЫ В ГОРОДСКИХ СООРУЖЕНИЯХ БУХАРЫ

### Аннотация.

**ВВЕДЕНИЕ:** В данной статье рассказывается о характерных для бухарского народного декоративно-прикладного искусства образцах оформления старинных построек города Бухары, их своеобразии, причинах и видах.

**ЦЕЛЬ:** Она заключается в том, чтобы дать информацию о существующих в Бухаре стилях и типах отделки зданий и домов, донести их до читателя, поскольку они еще доступны в народе и еще не представлены читателям.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** В статье говорилось о конкретных видах прикладного декоративно-прикладного искусства Бухары, их росписи, резьбе по дереву, их использовании в постройках, разделенных на ганчкоры, затейливые, ислими и сложные узоры, которые считаются видами росписи. Определено, к какой категории относится каждый объект. Также говорилось об общественных зданиях (мечеть, медресе, дом и т. д.), дворцах и резиденциях, стилях, использованных в домах, и их неповторимом внешнем виде.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** На основе исследований отмечено, что типы образцов практического декоративно-прикладного искусства Бухары отражены в старинных постройках и что бухарский стиль используется по всей республике не только в старых постройках, но и в современных новостройках, преимущественно в мечетях.

**Ключевые слова:** Бухарское практическое декоративное искусство, Бухара, мавзолей Исмаила Самани, медресе, мечеть, дом, дворец, дом, живопись, украшения, зеркало, букет и ваза, резьба по дереву, гирих, исламский, сложный узор, михраб, стиль, школа, Дворец Джаннатмакони.

## PRACTICAL SAMPLES OF BUKHARA DECORATION IN BUKHARA CITY CONSTRUCTIONS

### Abstract.

**INTRODUCTION:** This article talks about the patterns of decoration typical of Bukhara folk decorative art in the old buildings in the city of Bukhara, their uniqueness, reasons and types.

**GOAL:** It is to provide information about the styles and types of decoration of buildings and houses existing in Bukhara, to convey them to the reader because they are still available among the people and have not yet been presented to the readers.

**MATERIALS AND METHODS:** The article talked about the specific types of Bukhara applied decorative arts, their painting, wood carving, their use in buildings divided into ganchkor, intricate, islimi and complex patterns that are considered types of painting. It was determined which category each facility belongs to. Also, it was mentioned about public buildings (mosque, madrasa, house, etc.), palaces and residences, styles used in houses and their unique appearance.

**CONCLUSION:** Based on the studies, it was mentioned that the types of examples of Bukhara practical decorative art are reflected in ancient buildings and that Bukhara style is used throughout the Republic not only in old buildings, but also in modern new buildings, mainly in mosques.

**Key words:** Bukhara practical decorative art, Bukhara, Ismail Somani mausoleum, madrasa, mosque, house, palace, house, painting, jewelry, mirror, bouquet and vase, wood carving, girih, Islamic, complex pattern, mihrab, style, school, Jannatmakoni palace.

**J**ahonda amaliy bezak san'atining shunday namunalari borki, ular bebaho madaniy me'ros obyektlari qatoriga kiritish mumkin. Tabiiyki, har bir o'lkaga xos san'at asarinini ikkinchisi takrorlay olmaydi va shu jihatdan ular qimmatli bo'lib hisoblanadi. Shularning qatoriga Buxoro amaliy bezak san'atini kiritish mumkin.

Buxoro xalq amaliy bezak san'ati Buxoro shahrida qadimdan vujudga kelgan, O'rta Osiyo o'lkasida o'zining originalligini saqlab qolgan va o'zining maktabi uslubini yo'qotmagan san'at turidir. Buxoro imoratlaridagi amaliy bezak san'atining eng dastlabki namunasini faqatgina Ismoil Somoniy maqbarasida uchratish mumkin bo'lib, undan ilgari mavjud bo'lgan binolar bizgacha saqlanib qolinmaganligi tufayli qadimgi inshootlar haqida biron so'z aytish qiyin.

Avvalambor, maqolada asosiy o'rin tutgan tushunchaga izoh beradigan bo'lsak, amaliy san'at o'ziga xos juda ko'p namunalarga, rang-barang turlarga ega. Amaliy san'at naqqoshlik, ganchkorlik va badiiy bezakning boshqa ko'rinishlarida namoyon bo'ladi [4.13]. Buxoro inshootlarida Buxoro amaliy san'atining ko'plab ko'rinishlari aks etgan bo'lib, imoratlar yuzasiga ishlangan naqshlar muhim rol o'ynaydi.

Jumladan, naqqoshlik san'ati naqsh yaratish, buyumga jilo berish san'ati bo'lib, ushbu san'at turi ibtidoiy jamoa tuzumi davridan mavjud bo'lib hisoblanadi. Jumladan, naqshlarning uch xil turi mavjud bo'lib, ulardan birinchisi girih<sup>1</sup> naqshlar, ikkinchisi islimiy<sup>2</sup> va uchinchisi, murakkab<sup>3</sup> naqshlar bo'lib hisoblanadi.

Qadimiy me'moriy inshootlarda, jumladan, Ulug'bek madrasasi, Abdulazizxon madrasasi, Mir Arab madrasasi, Gavkushon madrasasi, Masjidi

<sup>1</sup> Girih - to'g'ri chiziqli elementlardan geometrik shakl hosil qiluvchi naqsh turi

<sup>2</sup> Islimiy naqsh - egri chiziqli o'simlik shaklidagi elementlardan iborat naqsh turi

<sup>3</sup> Murakkab naqsh - islimiy va girix naqshlarning birga ishlatilgan turi

Baland, Ko'kaldosh madrasasi, Fayzobod xonaqohi va Nodir devonbegi xonaqohi kabi inshootlarda Buxoroga xos bo'lgan islamiy naqshlar aks etgan. Sitorai Mohi Xosa saroyiga kirish darvozasi, Amir Olimxon madrasasi, Chorminor madrasasi, Minorai Kalon, Ismoil Somoniy maqbarasi, Namozgoh masjidi hamda Turkman madrasalarida girih naqshlar keng qo'llanilgan. Murakkab naqsh turi esa Buxoroning ko'plab inshootlarida uchrab, shaharning o'ziga xos uslublaridan biriga aylangan. Ularning qatoriga Masjidi Kalon, Nodir Devonbegi madrasasi, Abdullaxon va Modarixon madrasalari, Boloi Havz masjidi va boshqa ko'plab qadimiy inshootlarda uchraydi.

Buxoro naqqoshlik san'atining o'ziga xos jihati shundaki, Farg'ona, Toshkent va Samarqanddan farqli ravishda<sup>4</sup> Buxoro naqshi kompozitsiyalarining murakkabligi va jozibadorligi bilan ajralib turadi. Buxoro naqshlarida murakkab girihlar aniq va puxta o'lchamda ishlatilishi, o'simliksimon naqshlarning yaproq, meva, gul barglar ritmiga alohida e'tibor berilishi bilan farqlanadi[7].

Shuningdek, Buxoroning aksari imoratlarida jonli tasvirlar ham uchrab turib, ushbu uslub, Buxoro va Samarqandga xos ulublardan bo'lib hisoblanadi. Jumladan, Abdulazizxon madrasasi, Nodir Devonbegi madrasasi va Samarqanddagi Sherdor madrasalari bunga misol bo'la oladi. Nodir Devonbegi madrasasi (1622-1623) ning peshtoq qismida Semurg' (boshqa ma'lumotlarga qaraganda bu semurg' emas, balki Buxoro afsonalarida uchraydigan ajdarho) tasviri tushirilgan bo'lib, changalida o'ljasi: kiyik bolasini ushlab bormoqda.



Ushbu uslub Samarqanddagi Sherdor (1619-1635) madrasasida ham uchrab, yirtqich hayvon bu ilmi tolib, o'lja esa talaba o'zlashtirgan bilim timsollari bo'lib hisoblanadi. Xuddi shunday semurg'ning tasviri Abdulazizxon madrasasida ham takrorlangan bo'lib, peshtoqning pastki mehrob<sup>5</sup> shakllaridan

<sup>4</sup>Samarqand naqshlari Toshkent, Farg'ona naqshlariga o'xshab ketadi. Samarqand naqshlari o'ta guldorligi, barg va gullarining o'ta harakatchanligi, jonliligi bilan farq qiladi. Naqshlar avval zangori, keyin esa yashil rang gammasida ishlangan.

<sup>5</sup>Mehrob (arab. -harb joyi, janggoh; bu yerda namoz paytida shayton bilan imom o'rtasidagi urush joyi ma'nosida) -masjidning Makka (Ka'ba)ga qarata yo'naltirib devor ichiga ishlangan ravoq shaklli joy, sajdagoh.



birida tasvirlangan. Ammo, xalq orasida shunday rivoyatlar yoki tushunchalar borku, Abdulazizxon madrasasining masjid peshtoqiga hukmdor Abdulazizxonning tasviri tushirilganligiga ishonish bor. Haqiqatdan, mehrobda bir qarashda inshon portreti shaklini ko'rish mumkin, lekin o'sha davrning o'zida maxsus ishlanmagan bo'lib, yillar mobaynida devoriy naqshlarning to'kilishi natijasida vujudga kelgan.



XX asrga kelganda binolar qurilishi va bezak san'atida inqilob yuz berib, ko'pgina me'moriy loyihalar rus-yevropa andozasida quriladigan bo'ldi. Buxoroda bir vaqtlar joylashgan Amiri Jannatmakoniy [5.20] va Shirbudun saroylaridan farqli ravishda Buxoro shahrining shimolida joylashgan joylashgan Sitorai Mohi Xosa (XX asr) saroyi evropa uslubida bunyod etilgan binolardan bo'lib hisoblanadi. Saroy qurilishiga nafaqat Buxoroning eng yaxshi me'morlari, balki rus me'morlari ham jalb qilingan. Shuning uchun saroyning tashqi va ichki ko'rinishi Rossiya va Yevropaning


mamlakatlari qarorgohlariga o'xshaydi. Saroy erkaklar va ayollar uchun mahsus ikki qismga bo'lingan[6]. Saroy qurilishida turli uslubdagi naqshlardan foydalanilgan bo'lib, ichkaridagi xonalar islmiy naqshda, katta zallar ganchkor oyinapardoz uslubida devorlar markazida o'sha davr texnikalarining tasvirlari tushirilgan. Tashqi devorlarda asosan girx naqshlar aks etadi.



Xuddi shunday Buxoro xonadonlari ham bezaklardan xoli bo'lmagan. Ko'pchilik o'rtahol va boy xonadonlarda ham islmiy naqshlar bitilgan gullar tasviri mavjud bo'lgan. Hanuzgacha ushbu naqshlar Eski Shahardagi xonadonlarda saqlanib qolgan. Misol tariqasida Fayzullo Xo'jayevning uy muzeyi, Xo'ja nurobod ko'chasida joylashgan Buxoro qozisi uy-muzeyi va boshqalarni aytib o'tish mumkin. Xonadonlarda ayniqsa ganchkor naqshlar asosiy o'rin egallab, ularning aksariyatida islmiy naqshlar bilan



birgalikda guldasta va guldonlarning tasvirlari Buxoro xonadonlariga xos jihatlardan biri hisoblangan. Yog‘och o‘ymakorligi asosan eshik va bag‘dodi darchalarda<sup>6</sup> aks etgan. Ichkari xonalarning devorlarini ganchkor ravoqchalar bezab turgan.



Shuningdek, bezak sifatida jamoat inshootlari (madrasa, masjid, xonaqoh va boshq) da Qur‘oni Karimdan oyatlar turli xil yozuv turlarida ishlatilgan. Misol uchun Masjidi Kalonning fasad qismida suls va kufiy xatlarida, Sahrison qismidagi Tagbandbofon masjidida esa nasta‘liq xatida mehrobda ishlangan.

Ba‘zan ushbu xat turlari gullar shaklida ifodalanib, gullik kufiy xati vujudga kelgan. Bunday xat turini asosan, Imom al-Buxoriy muzeyi devorlarida uchratish mumkin. Bundan tashqari boshqa xatlar Nasx, ta‘liq va rayhoniy xatlari orqali bezatilgan binolarning soni ham talayugina bo‘lgan.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, Buxoro amaliy bezak san‘ati o‘ziga xos takrorlanmas san‘at uslublaridan bo‘lib hisoblanib, ko‘plab o‘lkalarning naqqoshlik san‘at uslubiga ta‘sir ko‘rsatgan san‘at turi bo‘lib hisoblanadi. Ushbu san‘at uslubi hozirda ham saqlangan bo‘lib, asosan Respublikadagi masjidilarni bezashda qo‘llanilib kelinadi.

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ашуров. Я.С., Гелах. Т.Ф., Камалов. У. Х. Бухара. Краткий справочник. –Т.: “Ўзбекистан”, 1963. –С. 102.
2. Бахромов Қ. Бухоро мадрасалари. “Меҳнат”. -Т.: 2013. -Б. 80.
3. Жуманиёзов Р. Эски ўзбек ёзуви. -Т.: “Ўқитувчи”, 1989. -Б. 276.
4. Qo‘ziyev T, Abdurasulov S, Nurtoiyev O‘, Sulaymonov A. Tasviriy san‘at. -Т.: “Sharq”, 2012. -Б. 128.
5. Sadriddin Ayniy. Sudxo‘rning o‘limi. -Т.: “Yangi asr avlodi”, 2016. -Б. 240.
6. <https://uzbekistan.travel/uz/o/sitorai-mohi-xosa-songi-buxoro-amirining-shahar-tashqarisidagi-qarorgohi/>
7. <http://www.kompy.info/jabborov-qobil-latifovich-naqsh-elimentlarini-kompyuter-texnol.html?page=13>

<sup>6</sup> Buxorodagi deraza ustini yopib turuvchi ikki tabaqali eshikchalar.

MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

**To'rayev Anvar Ismoilovich**

Osiyo xalqaro universiteti katta o'qituvchisi  
Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

**Hayotov Feruz Umidjonovich**

BuxDU 4-bosqich talabasi  
Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri  
[Feruzfirstname@gmail.com](mailto:Feruzfirstname@gmail.com)

**Iqtibos uchun:** To'rayev A.I, Hayotov F.U. Buxoro shahri inshootlarida amaliy bezak namunalarining aks etishi. // Osiyo xalqaro universiteti axborotnomasi. 2024. №3. B.16–22.

## ZAMONAVIY MAHALLA-ETNOLOGIK TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA



© **Sadullayev Umidjon Shokir o'g'li**  
Osiyo xalqaro universiteti, Buxoro shahri

### **Annotatsiya.**

**KIRISH:** Yangi O'zbekistonda mahallalarga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Mustaqillik yillarida yurtimizda mahalla tizimida misli ko'rilmagan o'zgarishlar amalga oshirildi. Xalqimiz ongi, dunyoqarashi o'zgardi. Rivojlanayotgan yangi O'zbekistonda mahallaning o'rni beqiyos, albatta. Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan mahalla tizimini isloh qilish bo'yicha bir qancha farmon va qarorlar qabul qilindi va amaliyotga joriy qilinmoqda.

**MAQSAD:** O'zbekistondagi mahalla tuzilmasida olib birilayotgan islohotlar va ularning samarasi xususida ilmiy tadqiqot olib borish natijasida, sohadagi yangilanishlar natijalarini tahlil qilish.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tavsifiy va qiyosiy tahlil hamda dala tadqiqot usullaridan keng foydalanildi.

"Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi Prezident farmoni, Mahallada yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori, "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora –tadbirlari tog'risida"gi prezident farmoni.

**XULOSA:** Hokim yordamchilari, mahalla etakchilari, soliqchi, ijtimoiy xodim har bir mahallada ish faoliyatlarini boshladilar va aholining farovonligiga o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Yurtimizda mahalla tizimida bo'layotgan islohotlarni boshqarish va nazorat qilish maqsadida Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi tashkil etildi. Yuqorida nomlari sanab o'tilgan lavozimlarning oylik maoshlari yuqori qilib belgilab qo'yildi. O'z ishida faol, mahalla tizimidagi islohotlarda jonbozlik ko'rsatgan xokim yordamchilariga "Yangi O'zbekiston islohotchisi "ko'krak nishoni bilan taqdirlanishi belgilab qo'yildi.



**Kalit soʻzlar:** mahalla, islohotlar, urf-odat, yoshlar etakchisi, hokim yordamchisi, ijtimoiy xodim, yoshlar etakchisi.

## СОВРЕМЕННАЯ МАХАЛЛЯ КАК ОБЪЕКТ ЭТНОЛОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ.

### Аннотация.

**ВВЕДЕНИЕ:** В новом Узбекистане внимание к соседям поднялось до уровня государственной политики. За годы независимости в нашей стране в системе соседства произошли беспрецедентные изменения. Сознание и мировоззрение нашего народа изменились. Роль соседства в новом, развивающемся Узбекистане, конечно, бесподобна. Президент Ш.Мирзиёевым Ряд указов и решений по реформированию системы микрорайонов был принят и реализуется на практике.

**ЦЕЛЬ:** Проанализировать результаты реформ в структуре добрососедства в Узбекистане и результаты научных исследований их эффективности.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** В исследовании широко использовались историко-сравнительный, описательно-сравнительный анализ и полевые методы исследования.

Указ Президента «О приоритетах государственной политики по развитию предпринимательства в махалле, обеспечению занятости и сокращению бедности, а также о мерах по коренному совершенствованию системы работы с молодежью махалли» Указ Президента «О мерах по совершенствованию системы работа с семьей и женщинами, поддержка соседей и интеллектуалов».

**ВЫВОД:** Помощники хокима, общественные деятели, сборщик налогов, социальный работник начали работать в каждом населенном пункте и вносят свой вклад в благосостояние населения. В целях управления и контроля реформ, происходящих в системе соседства в нашей стране, было создано Агентство по соседской работе и развитию предпринимательства. Ежемесячная заработная плата на перечисленных выше должностях установлена выше. Было решено наградить знаком «Новый Узбекистан реформатор» заместителей хакима, активно работающих и проявивших энтузиазм в реформировании системы соседства.

**Ключевые слова:** махалля, реформы, традиции, молодежный лидер, помощник хакима, социальный работник, молодежный лидер.

## MODERN MAHALLA AS AN OBJECT OF ETHNOLOGICAL RESEARCH.

### Abstract.

**INTRODUCTION:** In new Uzbekistan, attention to mahallas has risen to the level of state policy. During the years of independence, unprecedented changes were made in the mahalla system in our country. The consciousness and outlook of our people have changed. The role of the mahalla in the new, developing Uzbekistan, of course, is incomparable.

**GOAL:** To analyze the results of the reforms in the neighborhood structure in Uzbekistan and the results of scientific research on their effectiveness.

**MATERIALS AND METHODS:** Historical-comparative, descriptive and comparative analysis and field research methods were widely used in the research.

Presidential decree "On the priorities of the state policy on developing entrepreneurship in the mahalla, ensuring employment and reducing poverty, and on measures to fundamentally improve the system of working with youth in the neighborhood" presidential decree, "On measures to improve the system of working with family and women, supporting the mahalla and religious".

**CONCLUSION:** Community leaders, tax collector, social worker have started working in each neighborhood and are contributing to the well-being of the population. In order to manage and control the reforms taking place in the mahalla system in our country, the Neighborhood Work and Entrepreneurship Development Agency was established. The monthly salaries of the positions listed above have been set high. It was decided to award the "New Uzbekistan reformer" badge to the deputy governors who are active in their work and have shown enthusiasm in the reforms of the neighborhood system.

**Key words:** mahalla, reforms, tradition, youth leader, governor's assistant, social worker, youth leader.

**B**ugungi globallashuv jarayonida, XXI asrda dunyoning turli mintaqalarida kechayotgan kuchli ijtimoiy-iqtisodiy bo'htonlar sharoitida xalqning azaliy urf-odatlarini beshigi bo'lgan mahalla tizimini taqdiq etish har qachongidan ham dolzarb masala hisoblanadi. Bugun dunyo mamlakatlarida kechayotgan ijtimoiy begonalashuv sharoitida bu masala tadqiqi muhimligi yanada oydinlashadi. Uzoq tarixni har tomonlama o'rganish orqali, Vatanga, asrlar davomida osha o'z qadr qimmatini yo'qotmagan qadriyatlar, urf odatlarimizga, ajdodlar merosiga umuman olganda o'tmish tariximizga hurmat, mehr oqibat va ayni paytda ertangi kunimizga ishonch paydo bo'ladi. So'nggi yillarda O'zbekistonda yuz berayotgan islohotlar va ijobiy o'zgarishlar hayotning barcha sohalariga jadal rivojlanmoqda. Davlatning faol ichki siyosati tufayli xalqimizga barcha sohalarida yaratib berilayotgan keng imkoniyatlar aholiga boshqaruv jarayonlarida, avvalo, mahalliy bo'g'inida faol ishtirok etish imkoniyatini berdi. Bu esa fuqarolik jamiyati qurish sharoitida mahalla institutining davlat va jamiyat hayotidagi tutgan o'rnini baland ekanligini



ko'tsatadi. Shu boisdan, an'anaviy mahalla tuzilmasining o'zbek xalqi turmush tarzidagi, ijtimoiy va madaniy hayotidagi, oila va jamiyat hayotidagi o'rnini tarixiy nuqtai nazardan tadqiq etish ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu xususta mamlakat Prezidenti "... bugun mahalla katta ijtimoiy kuch sifatida maydonga chiqishi zarur. Chunki faollar, ko'pni ko'rgan oqsoqollar, tajribali nuroniylarimiz, agar istasa, jamoatchilik bilan bigalikda har qanday muammoni hal qilishga, xato qilgan yoshlarni to'g'ri yo'lga solishga qodirdir<sup>7</sup>, - deb ta'kidlaganligi ushbu tuzilmaning jamiyat hayotidagi o'rni beqiyos ekanligidan dalolat beradi. Hozirgi globallashuv jarayonida, mahalla jamiyat hayotining barcha sohalarida ijtimoiy institut sifatida yanada rivojlanib bormoqda. Qadimdan mahalla mahalliy hokimiyatning ajralmas bo'g'ini hisoblangan. O'lkamiz tarixi haqida eng qadimgi manba hisoblanmish "Avesto"da ham oilalarning ma'lum hududda uyushib yashaganligi haqida ma'lumotlar bor<sup>8</sup>. IX asr tarixchisi Muhammad Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida Buxoroda ko'plab mahallalar, guzarlar mavjud bo'lganligi haqida yozadi<sup>2</sup>. Yurtimizning turli joylaridagi mahallalar hududiy o'ziga xosliklarga ega. Buxoro shahri mahallalari vujudga kelishi va tarixiga bag'ishlangan O.A.Suxarevaning asarlari anan'anaviy o'zbek mahallalari tarixiga bag'ishlanganligi bilan diqqatga sazovordir.<sup>3</sup> Qadimdan o'zbek mahallalari jamiyat ijtimoiy hayotining tayanchi bo'lgan, xususan, istiqlol yillarida o'z-o'zini boshqarish organlari tizimini isloh qilish, ularning moddiy-texnik bazasini yaxshilash borasida tizimli ishlar amalga oshirildi. Mahalla tizimini takomillashtirishning huquqiy asoslari yaratildi. Mahalla-taraqqiyot poydevori bo'lib xizmat qilyapti. Bugungi kundagi zamonaviy mahallada hokim yordamchisi, yoshlar etakchisi, xotin-qizlar faoli kabi lavozimlar joriy qilindi. Ular bevosita prezidentning joylardagi vakili sifatida mahalla aholisining o'ziga tegishli qatlamlari bilan faoliyat olib boradilar. Bevosita mahalla hayotidagi ijtimoiy muammolarni echishda joylarda jonbozlik ko'rsatadilar. Yuqoridagi lavozimlarning faoliyatini tartibga solish maqsadida huquqiy asos ham yaratildi. Jumladan, "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi prezident farmoni, "Mahallada yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi prezident qarori, "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi prezident farmoni<sup>1</sup>. Mahalla yoshlarini ilm-fanga va kasb-hunarga yo'naltirishda, ishsizlarni ish bilan ta'minlash va bandlikka ko'maklashish masalalarida muhim ijtimoiy obyekt hisoblanadi. Aholi

<sup>7</sup> Mahalla tinchlik va osoyishtalik obodlik va farovonlik markaziga aylanadi.// O'zbekiston Respublikasi Shavkat Mirziyoyev raisligida 12-fevral kuni mahalla tizimini takomillashtirish, mahallalarda tinchlik osoyishtalik mustahkamlash, jinoyatchilikni oldini olish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'lishi//Xalq so'zi.N32.-Toshkent,2020.

<sup>8</sup> Авесто тарихий-бадий ёдгорлик /Асқар Маҳкам таржимаси. – Тошкент:Шарк,2001.-В.34

<sup>2</sup> Абу Бакр Мухаммад ибн Жаъфар ан- Наршахий.Бухоро тарихи.-Тошкент,1993.-В.45-67

<sup>3</sup> Сухарева О.А Квартальная община позднефеодального города Бухары.-Москва:Наука,1978.-С.22

<sup>1</sup> "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi prezident farmoni.

muammolarini hal etish, tadbirkorlikni rivojlantirish, yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish, oila va xotin-qizlar masalalari–bugungi kundagi zamonaviy mahallalarning muhim ijtimoiy muammolari hisoblanadi. Yuqoridagi masalalar bilan ishlashning samarali tizimini yaratish maqsadida har bir mahallada “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” shakllantirildi.

“Temir daftar –ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti o‘g‘ir hamda sektor rahbarlari tomonidan alohida nazoratga olingan oilalarni qayd etish, muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borish bo‘yicha ma‘lumotlar bazasi.

“Ayollar daftari – ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo‘llab-quvvatlashga, bilim va kasb o‘rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo‘lgan, ishsiz xotin-qizlarning muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borish bo‘yicha ma‘lumotlar bazasi. Ushbu daftarga kiritish bo‘yicha xotin-qizlar faoli amaliy ishlar olib boradi, ma‘lumotlar bazasini yaratadi va nazoratini olib boradi.

“Yoshlar daftari” - ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy qo‘llab-quvvatlash, bilim va kasb o‘rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo‘lgan, ishsiz yoshlarning muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib boorish bo‘yicha ma‘lumotlar bazasi. Yuqorida sanab o‘tilgan ma‘lumotlar bazalari mahallalardagi ijtimoiy muammolarni hal etish jarayonini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Mahalla jamiyatimizning mustahkam poydevori, aholi muammolarini hal etishning muhim mexanizmiga aylanayapti.

Aholi muammolarini hal etish, tadbirkorlikni rivojlantirish, yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish maqsadida “mahallabay”, “xonadonbay”, “fuqarobay” ishlash tizimi joriy qilindi. Joriy yil hokim yordamchisi, yoshlar etakchisi, xotin-qizlar faoli lavozimlari joriy qilindi. Har bir lavozimga munosib oylik maoshlari belgilandi. Mahallalarda yangi lavozim egalarining amalga oshirishi kerak bo‘lgan vazifalari belgilab qo‘yildi.

Quyidagilar hokim yordamchisining asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlaridir.

1. Mahalladagi ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatni “xonadonbay” o‘rganish
2. Doimiy daromadga ega bo‘lmagan ishsiz aholini, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarning qiziqishlarini o‘rganish orqali ularni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘rgatuvchi o‘quv markazlariga yo‘naltirish hamda o‘qishni tamomlagan bitiruvchilarning bandligini ta‘minlashga yordam berish
3. Mahallada istiqomat qiluvchi aholining oillaviy tadbirkorligini rivojlantirish
4. Aholi tomorqalaridan foydalanishni samarali tashkil etish
5. Mahalladagi mavjud bo‘sh ish o‘rinlari hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mavsumiy ishchilarga bo‘lgan talabini aniqlash orqali ishsizlarni birinchi navbatda “temir daftar” va “yoshlar daftari” kiritilgan yoshlar va xotin-qizlarni bo‘sh ish o‘rinlariga joylashtirish hamda haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb etish.

Quyidagilar mahalladagi yoshlar etakchisining asosiy vazifalaridir.

1. Yoshlar balansini shakllantirish, yoshlar to‘g‘risidagi zarur ma‘lumotlarni “Yoshlar daftari” va “Yoshlar portali” elektron platformalariga kiritib borish, ular bilan samarali ish tashkil qilish



2. Mahallada yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish

3. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste'dodi va tashabbuslarni rag'batlantirish hamda hayotda o'z o'rnini topishlariga ko'maklashish

4. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularning intellektual jihatdan kamol toptirish

5. Huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo'lgan yoshlar bilan tizimli ishlash, jazoni ozod etish muassasalaridan ozod qilingan, ixtisoslashtirilgan o'quv –tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan yoshlarning ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilinishi va moslashuviga ko'maklashish<sup>1</sup>

Mahalladagi xotin – qizlar faolining asosiy vazifalari quyidagilardir.

1. Xotin-qizlarni mahallalar va mehnat jamoalarida ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab – quvvatlash, ijtimoiy – siyosiy faolligini oshirish, ma'naviyatini yuksaltirish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, zamonaviy namunali oilani shakllantirish, uning ma'naviy-axloqiy muhitini va an'anaviy oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

2. Xotin-qizlarning tadbirkorlik g'oyalarini amalga oshirish, ular faoliyatiga kredit, subsidiya va boshqa yordam choralari jalb qilish bo'yicha mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha tuman xokim yordamchisi bilan hamkorlik qilish;

3. "Ayollar maslahat kengashlari" bilan hamkorlikda ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni tadbirkorlikka o'qitish, biznesga oid namunaviy rejalarni ishlab chiqish va kredit olishda ularga ko'maklashish, "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlar bilan manzilli ishlarni amalga oshirish;

4. "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlar bilan manzilli ishlarni amalga oshirish;

5. Xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin –qizlar, jumladan, nogironligi bo'lgan ayollar bilan yakka tartibda hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlarni olib borish, ularga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish ishlarini tashkil etish<sup>2</sup>

Bundan tashqari mahallalardagi kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan ayollar bilan ishlash xotin-qizlar faoli lavozimining asosiy vazifalaridan biri qilib belgilandi. Ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik, qo'llab quvvatlashga bilim va kasb o'rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo'lgan, ishsiz xotin-qizlarning muammolarini aniqlab ularni "Ayollar daftari"ga kiritish bo'yicha ham xotin-qizlar faoli amaliy ishlar olib boradi. "Ayollar daftari" bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratadi va nazoratini olib boradi.

Yangi O'zbekistonda mahalla boshqaruvida yoshlar bilan ishlashning o'ziga xos tizimi yaratilmoqda, unga ko'ra yoshlar to'g'risidagi ma'lumotlar "Yoshlar daftari", "Yoshlar portal" elektron platformalariga kiritilib, ular bilan samarali ishlash tashkil etilgan. Ma'lumotlarga qaraganda maktabni bitirib, uyda ishsiz qolayotgan yoshlar orasida ayollar salmog'i ancha yuqori 51 foizni tashkil etadi. 18 yoshga etgan dan keyin ushbu k'rsatkich yanada yuqorilab 71 foizga



etmoqda<sup>1</sup>. Joriy 2023-yilda Buxoro viloyatida 534 ta maktablarda 21 ming 944 ta yosh maktabni tugatib, kata yo‘lga qadam qo‘ymoqda. Bu yoshlar bilan manzilli ishlash yoshlar etakchisi zimmasida bo‘ladi. Yoshlar bo‘sh vaqt deganda ishdan (mehnat faoliyatidan) tashqari vaqtini (34,1 %), dam olish vaqtini (19,1 %), o‘qishdan ortgan vaqtini (17,3 %), uy ishlaridan ortgan vaqtini (16,4 %), bekorchilik vaqtini (7,3 %) va faqatgina 11,8 % i biror ishni bajarish uchun oldindan rejalashtirilgan vaqtini tushunadi. Demak, yoshlar orasida kundalik hayotni rejalashtirishda qator tushunmovchiliklar mavjudki, bu holat ular orasida vaqtini to‘g‘ri taqsimlash rejasi mavjud bo‘lmagani bois, aksariyat holatlarda mazkur vaqtdan hech qanday samaraga erishilmasligi bilan tugaydi. Bunda mehnat faoliyatida ham ko‘pincha ijro intizomiga rioya qilmaslik ham taqsimotdagi boshqa vazifalarning umuman rejalashtirilmay qolishi va amalga oshirilmasligiga olib keladi. Statistik ma‘lumotlarga qaraganda, sotsiologlar tomonidan XX asr oxirlarida yoshlarning bo‘sh vaqtdan samarali foydalanishning 500 dan ortiq turi hisoblab chiqilgan. Yoshlarning aksariyati bo‘sh vaqtini uyda (79,4 %), ma‘lum bir qismi esa uydan tashqarida (20,6 %) o‘tkazadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yoshlarning 74,4 % i bo‘sh vaqtida bajaradigan ishlarni oldindan rejalashtiradi, 25,6 % i esa vaziyat va sharoitga qarab yo‘l tutar ekan. Yoshlar bo‘sh vaqtlarini kitob o‘qishga (25,5 %), yosh oilalarda esa farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanishga (20,5 %), do‘st va yaqinlar bilan o‘tkazishga (18,6 %), shuningdek, ko‘pchilik yoshlar o‘z bo‘sh vaqtini Internet tarmoqlarida (18,2 %) o‘tkazsa, ayrimlari televizor ko‘rish yoki radio tinglash (17,7 %) uchun sarflaydi<sup>1</sup>. Bunda o‘z ustida ishlaydigan, a‘lo baholarga o‘qiydigan, o‘z tadbirkorligini yo‘lga qo‘ygani holda ish joyiga ega bo‘lgan iqtidorli va ijtimoiy faol yoshlarni “yaxshi” toifaga, turmush taqozosi bilan rasmiy sektordan ish topa olmagan, lekin iqtisodiy faol, kelajakka ishonuvchi yoshlarni “o‘rta” toifaga, shuningdek, davlatning g‘amxo‘rligi va e‘tiborini kutayotgan, ko‘makka muhtoj yoshlarni “ahvoli og‘ir” toifaga alohida ajratib, ular bilan tizimli ishlashga doir aniq chora-tadbir ishlab chiqilmoqda. Buxoro tumani “Qavola Mahmud” MFY da aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash, ishsizlikni bartaraf etish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash orqali ish o‘rinlarini yaratishga qaratilgan ishlar ham ham amalga oshirildi. Statistik ma‘lumotlardan ko‘rinishicha, 2022 yilda olib borilgan ishlar natijasida “Temir daftar”dan 98 nafar, “Ayollar daftari”dan 77 nafar fuqaro, “Yoshlar daftari”dan 36 nafar yigit-qiz chiqarilgan. Ularga o‘zlari ishlab, daromad topishlari uchun sharoit yaratib berilgan.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.03.2022 yildagi PF-81-son “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” prezident farmoni.//lex.uz

<sup>1</sup> <https://yuz.uz/uz/news/mahalladagi-yoshlar-etakchisi-hududlardagi-ogil-qizlarning-muammosini-hal-etishda-koprik-vazifasini-otaydi>

<sup>1</sup> ХАКНАЗАРОВ ХУДОЙБЕРДИ ДИЛМУРОДОВИЧ ЎЗБЕКИСТОН ЁШЛАРИНИНГ КУНДАЛИК ТУРМУШ ТАРЗИ /Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси АВТОРЕФЕРАТИ Тошкент – 2019



2. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi nutqi-Mamlakatimiz xotin-qizlari uchun munosib sharoit yaratib berish-doimo e’tiborimiz markazida.//”Milliy tiklanish” 2023-yil 8-mart

3. “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi prezident farmonii.2021- yil 3-dekabr 29-son.lex.uz

4. “Mahallada yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident farmoni.2022-yil 19-yanvar 92-son.lex.uz

5. “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora–tadbirlari tog‘risida”gi prezident farmoni. Prezident farmoni.2022-yil 1-mart 81-son.lex.uz

Alimova G., Yo‘lchiyeva G., Miraxmedova M. Fuqarolar yig‘inlari huzuridagi “Ota-onalar universitetlari” ishini tashkil etish. – Toshkent: 2014. – B. 5-7.

6. Арифханова З.Х. Современная жизнь традиционной махаллы г. Ташкента. – Ташкент, 2000. – С. 4-31

7. Yui Shin Ne. “Globallashuv jarayonida mahalla instituti va milliy an‘analar transformasiyasi” (O‘zbekiston va Janubiy Koreya misolida). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertasiyasi Avtoreferati. T., 2017

8. Umarova G. O‘zbekistonda o‘zini o‘zi boshqarish organlarining shakllanishi va takomillashtirish tarixi. (1991-2001 y). Tarix fan nomz. diss. avtoreferati.- Toshkent, 2002. B. 12

#### MUALLIFLAR HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

**Sadullayev Umidjon Shokir o‘g‘li**

Manzil: O‘zbekiston, 200100, Buxoro shahri

[sadullayevumidjon2701@gmail.com](mailto:sadullayevumidjon2701@gmail.com)

ORCID: 0000-0001-9437-9741

**Iqtibos uchun:** Sadullayev U.Sh. Amonaviy mahalla-etnologik tadqiqot obyekti sifatida. // Osiyo xalqaro universiteti axborotnomasi. 2024. №3. B.23–30.



The background of the page is an abstract, artistic composition. It features a large, central white circle that resembles a lens or a bright light source. This circle is surrounded by thick, expressive brushstrokes in various shades of blue, ranging from light sky blue to deep navy blue. The brushstrokes are dynamic and layered, creating a sense of movement and depth. Scattered around the central circle and within the blue strokes are numerous small, dark blue and black dots, some of which appear to be splatters or fine droplets. The overall effect is a vibrant, textured, and somewhat ethereal design.

**11.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**



## XATO TAHLILI ORQALI O'QUV MATERIALLARINI KORREKSIYA QILISH



© Teshaboyev Akram Yuldashevich

Andijon davlat chet tillar instituti, Andijon shahri

### Annotatsiya.

**KIRISH:** Ushbu maqola, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quv materiallaridagi xatolarni aniqlash va ularni tahlil qilish jarayonini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot korreksion metodologiya asosida olib borilgan bo'lib, o'quv materiallaridagi mazmunining chalkashligi, noto'g'ri yoki eskirgan ma'lumotlar, va yozuv xatolari kabi asosiy xato turlari tahlil qilingan. Tahlil natijalari, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillarni aniqlashga yordam bergan. Tadqiqotning maqsadi o'quv materiallaridagi xatolarni tuzatish orqali ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatishdan iboratdir. Natijalar o'qituvchilarga va ta'lim muassasalariga o'quv materiallarini muntazam ravishda yangilab turishning zarurligini ta'kidlaydi va kelajakdagi tadqiqotlar uchun yangi yo'nalishlarni taklif etadi.

**MAQSAD:** Ta'lim sifatini oshirishda o'quv materiallarining roli beqiyosdir. Shu sababli, bu materiallarning to'g'ri va samarali tuzilgan bo'lishi ta'lim jarayonining muvaffaqiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Biroq, ta'lim amaliyotida o'quv materiallarida uchraydigan xatolar ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada pasaytirishi mumkin. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi o'quv materiallaridagi xatolarni aniqlash va ularni tahlil qilish orqali o'quv jarayonini yaxshilashning muhimligini ko'rsatishdan iboratdir.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Bu tadqiqot, o'quv materiallaridagi xatolarni aniqlash va ularga korreksiya kiritish jarayonini baholash uchun kesishgan dizaynli korrelatsion tadqiqot sifatida rejalashtirilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi xatolarni tahlil qilish orqali o'quv materiallarini qanday qilib takomillashtirish mumkinligini aniqlashdir. Xato tahlili uchun olingan ma'lumotlar statistik dasturlar yordamida tahlil qilindi. Xatolarni tahlil qilishda, chi-kvadrat testi, t-testi va ANOVA kabi statistik usullar qo'llanildi. Bu usullar xatolarning o'quv jarayoniga ta'sirini aniqroq o'lchash imkonini beradi. Natijalarni tushunarli qilish uchun, grafik va diagrammalar ham tayyorlandi. Ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonida, xatolarning sabablari va ularning ta'lim

sifatiga ta'sirini aniqroq tushunish maqsadida, sabab-oqibat bog'liqligi ham o'rganildi. Shu tarzda, yig'ilgan ma'lumotlar asosida o'quv materiallaridagi muammolarni aniqlash va ularni qanday korreksiya qilish mumkinligi haqida xulosalar chiqarildi.

**XULOSA:** Ushbu tadqiqot orqali o'quv materiallaridagi xatolarni aniqlash va ularni tahlil qilishning o'quvchilarning ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlash mumkin bo'ldi. Xato tahlilining samaradorligi o'quv materiallarining mazmuni, tuzilishi va ma'lumotlarining dolzarbligini yaxshilash orqali o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Xatolarni tuzatish orqali o'quv materiallarini optimallashtirish, o'quvchilarning akademik natijalarini yaxshilaydi va umumiy ta'lim sifatini oshiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quv materiallaridagi mazmunining chalkashligi, eskirgan ma'lumotlar va yozuv xatolari kabi muammolarni bartaraf etish, o'quv jarayonini yanada samarali qiladi. Shuningdek, o'qituvchilar va ta'lim muassasalari uchun o'quv materiallarini muntazam ravishda yangilab turish va xatolardan xoli qilish muhimligini ta'kidlaydi.

**Kalit so'zlar:** O'quv materiallari, xato tahlili, ta'lim sifati, korreksiya, akademik natijalar, o'quv jarayoni, pedagogik tuzatishlar, ta'lim metodologiyasi, o'zlashtirish darajasi, ta'lim texnologiyalari.

## КОРРЕКЦИЯ УЧЕБНЫХ МАТЕРИАЛОВ ПОСРЕДСТВОМ АНАЛИЗА ОШИБОК

### Аннотация.

**ВВЕДЕНИЕ:** Данная статья посвящена изучению процесса выявления и анализа ошибок в учебных материалах в общеобразовательных школах. Исследование проводилось на основе коррекционной методики и анализировались основные виды ошибок, такие как путаница содержания учебных материалов, неверная или устаревшая информация, ошибки в написании. Результаты анализа помогли определить основные факторы, влияющие на уровень мастерства учащихся. Цель исследования – показать возможности повышения качества образования путем исправления ошибок в учебных материалах. Результаты подчеркивают необходимость того, чтобы учителя и образовательные учреждения регулярно обновляли учебные материалы и предлагали новые направления для будущих исследований.

**ЦЕЛЬ:** Роль учебных материалов в повышении качества образования несравненна. Поэтому правильное и эффективное составление этих материалов оказывает большое влияние на успех учебного процесса. Однако ошибки в учебных материалах в образовательной практике могут существенно снизить эффективность образовательного процесса. Основная цель данной статьи – показать важность совершенствования

образовательного процесса путем выявления ошибок в учебных материалах и их анализа.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** Это исследование было задумано как корреляционное исследование с поперечным дизайном для оценки процесса обнаружения и исправления ошибок в учебных материалах. Основная цель исследования – определить пути улучшения учебных материалов путем анализа ошибок. Данные, полученные для анализа ошибок, анализировались с помощью статистических программ. При анализе ошибок использовались статистические методы, такие как критерий хи-квадрат, t-критерий и дисперсионный анализ. Эти методы позволяют более точно измерить влияние ошибок на процесс обучения. Чтобы результаты были понятны, были также подготовлены графики и диаграммы. В процессе анализа данных, чтобы более четко понять причины ошибок и их влияние на качество образования, также изучалась причинно-следственная связь. Таким образом, на основе собранных данных были сделаны выводы о выявлении проблем в учебных материалах и способах их исправления.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** Благодаря данному исследованию удалось доказать, что выявление ошибок в учебных материалах и их анализ положительно влияют на качество обучения студентов. Эффективность анализа ошибок может значительно повысить эффективность обучения учащихся за счет улучшения содержания, структуры и актуальности учебных материалов. Оптимизация учебных материалов путем исправления ошибок улучшает академические результаты учащихся и повышает общее качество образования. Результаты исследования показывают, что устранение таких проблем, как путаница, устаревшая информация и ошибки в написании учебных материалов, делает образовательный процесс более эффективным. В нем также подчеркивается важность регулярного обновления и безошибочности учебных материалов для учителей и учебных заведений.

**Ключевые слова:** Учебные материалы, анализ ошибок, качество образования, коррекция, академические результаты, учебный процесс, педагогическая коррекция, методика обучения, уровень владения, образовательные технологии.

## CORRECTION OF EDUCATIONAL MATERIALS THROUGH ERRORS ANALYSIS

### Abstract.

**INTRODUCTION:** This article is devoted to studying the process of identifying and analyzing errors in educational materials in secondary schools. The study was conducted on the basis of a correctional methodology and analyzed the main types of errors, such as confusion in the content of educational materials, incorrect or outdated information, and writing errors. The results of the analysis



helped to identify the main factors influencing the level of students' mastery. The purpose of the study is to show the possibilities of improving the quality of education by correcting errors in educational materials. The results highlight the need for teachers and educational institutions to regularly update teaching materials and suggest new directions for future research.

**TARGET:** The role of educational materials in improving the quality of education is incomparable. Therefore, the correct and effective compilation of these materials has a great influence on the success of the educational process. However, errors in educational materials in educational practice can significantly reduce the effectiveness of the educational process. The main purpose of this article is to show the importance of improving the educational process by identifying errors in educational materials and analyzing them.

**MATERIALS AND METHODS:** This study was designed as a correlational study with a cross-sectional design to evaluate the process of error detection and correction in educational materials. The main goal of the study is to identify ways to improve educational materials by analyzing errors. Data obtained for error analysis were analyzed using statistical programs. Statistical methods such as chi-square test, t-test and analysis of variance were used in error analysis. These methods allow us to more accurately measure the impact of errors on the learning process. Graphs and charts were also prepared to make the results clear. In the process of data analysis, to more clearly understand the causes of errors and their impact on the quality of education, cause-and-effect relationships were also examined. Thus, based on the collected data, conclusions were drawn about identifying problems in educational materials and ways to correct them.

**CONCLUSION:** Thanks to this study, it was possible to prove that identifying errors in educational materials and their analysis have a positive effect on the quality of student learning. The effectiveness of error analysis can significantly improve student learning by improving the content, structure, and relevance of learning materials. Optimizing learning materials through error correction improves student academic outcomes and improves the overall quality of education. The study results show that eliminating problems such as confusion, outdated information and errors in the writing of educational materials makes the educational process more effective. It also emphasizes the importance of regularly updated and error-free teaching materials for teachers and educational institutions.

**Key words:** Educational materials, error analysis, quality of education, correction, academic results, educational process, pedagogical correction, teaching methods, level of proficiency, educational technologies.

Ta'lim sifatini oshirishda o'quv materiallarining roli beqiyosdir. Shu sababli, bu materiallarning to'g'ri va samarali tuzilgan bo'lishi ta'lim jarayonining muvaffaqiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Biroq, ta'lim amaliyotida o'quv materiallarida uchraydigan xatolar ta'lim jarayonining samaradorligini

sezilarli darajada pasaytirishi mumkin. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi o'quv materiallaridagi xatolarni aniqlash va ularni tahlil qilish orqali o'quv jarayonini yaxshilashning muhimligini ko'rsatishdan iboratdir.

Xato tahlili, o'quv materiallarida uchraydigan xatolarni, ularning sabablarini va ta'lim jarayoniga ta'sirini chuqur tushunish uchun qo'llaniladigan metodologiyadir. Bu tahlil natijalari o'qituvchilarga o'quv materiallarini qayta ko'rib chiqish va kerakli joylarda korreksiya kiritish imkonini beradi. Shunday qilib, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini yuksaltirish va ta'lim sifatini oshirish mumkin.

Xato tahlilining ta'limdagi ahamiyati shundaki, bu usul bilan o'quv materiallaridagi xatolar aniq va objektiv tarzda aniqlanadi, bu esa o'z navbatida o'quv dasturlarini yanada mukammal va samarali qilishga yordam beradi. Xatolar tahlili orqali o'quvchilarning qiyinchiliklarga duch keladigan joylari aniqlanib, shu asosda ta'lim metodlari va yondashuvlari optimallashtiriladi.

Tadqiqot savollari quyidagilardan iborat:

1. O'quv materiallaridagi xatolar o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
2. Xato tahlili orqali aniqlangan muammolar qanday korreksiyalarni talab qiladi?
3. Korreksiya qilingan o'quv materiallari o'quvchilarning akademik natijalariga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Bu tadqiqot, o'quv materiallaridagi xatolarni aniqlash va ularga korreksiya kiritish jarayonini baholash uchun kesishgan dizaynli korrelyatsion tadqiqot sifatida rejalashtirilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi xatolarni tahlil qilish orqali o'quv materiallarini qanday qilib takomillashtirish mumkinligini aniqlashdir.

Tadqiqotda ishtirok etuvchi namuna sifatida, turli yoshdagi o'quvchilarni o'z ichiga olgan, xilma-xil sinflardan iborat namunalar tanlandi. Jumladan, boshlang'ich, o'rta va oliy sinflardagi o'quvchilar o'z ichiga olindi. Har bir sinf darajasidan tasodifiy tanlab olingan 30 nafar o'quvchi ishtirok etdi, bu esa jami 90 nafar o'quvchini tashkil etadi. Namuna tanlashda sinflarning geografik joylashuvi, iqtisodiy va ijtimoiy omillar ham hisobga olindi.

Ma'lumot to'plash uchun o'quvchilarning o'quv materiallaridan olingan test natijalari, o'qituvchilarning kuzatuvlari va o'quvchilarning o'z baholari ishlatildi. Shuningdek, sinf kuzatuvlari va o'quvchilarga berilgan so'rovnomalar orqali qo'shimcha ma'lumotlar yig'ildi. Bu usullar yordamida o'quv materiallaridagi xatolarni aniqroq tahlil qilish imkoniyati yaratildi.

Xato tahlili uchun olingan ma'lumotlar statistik dasturlar yordamida tahlil qilindi. Xatolarni tahlil qilishda, chi-kvadrat testi, t-testi va ANOVA kabi statistik usullar qo'llanildi. Bu usullar xatolarning o'quv jarayoniga ta'sirini aniqroq o'lchash imkonini beradi. Natijalarni tushunarli qilish uchun, grafik va diagrammalar ham tayyorlandi. Ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonida,

xatolarning sabablari va ularning ta'lim sifatiga ta'sirini aniqroq tushunish maqsadida, sabab-oqibat bog'liqligi ham o'rganildi.

Shu tarzda, yig'ilgan ma'lumotlar asosida o'quv materiallaridagi muammolarni aniqlash va ularni qanday korreksiya qilish mumkinligi haqida xulosalar chiqarildi.

Bu tadqiqot doirasida o'tkazilgan xato tahlilining asosiy topilmalari o'quv materiallaridagi xatolarning o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Xatolarni tahlil qilish orqali aniqlangan asosiy muammolarni bartaraf etish bo'yicha aniq ma'lumotlar to'plandi.

Statistik tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quv materiallaridagi xatolar asosan quyidagi uch asosiy kategoriyaga kiradi: mazmunining chalkashligi, noto'g'ri yoki eskirgan ma'lumotlar, va yozuv xatolari. Mazmunining chalkashligi o'quvchilarning mavzuni to'liq tushunishiga to'sqinlik qiladi, bu esa ularning test natijalarida past ko'rsatkichlarga olib keladi. Noto'g'ri yoki eskirgan ma'lumotlar esa, o'quvchilarning fan bo'yicha umumiy bilim saviyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yozuv xatolari, garchi kamroq uchrasa-da, o'quvchilarning o'qish va tushunish qobiliyatini pasaytiradi.

Eng ko'p uchraydigan xatolar orasida mazmunining chalkashligi eng yuqori foizni tashkil etdi. Bu turdagi xatolar, ayniqsa, fanlararo bog'liqliklar va murakkab mavzularni o'z ichiga olgan fanlarda ko'proq uchraydi. Statistika shuni ko'rsatadiki, bu turdagi xatolarga duch kelgan o'quvchilarning 65% mavzuni to'liq tushunmasdan keyingi mavzuga o'tishga majbur bo'ladi. Noto'g'ri yoki eskirgan ma'lumotlar 25% holatda uchragan bo'lib, asosan tarix va geografiya kabi fanlarda ko'zga tashlanadi. Yozuv xatolari esa asosan til va adabiyot fanlarida ko'proq ta'sir qiladi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, xato tahlilidan olingan ma'lumotlar asosida o'quv materiallarini korreksiya qilish orqali o'quvchilarning akademik natijalari sezilarli darajada yaxshilanishi mumkin. Tadqiqot shuningdek, o'qituvchilar va ta'lim muassasalari uchun o'quv materiallarini doimiy ravishda yangilab turishning ahamiyatini ta'kidlaydi.

Bu tadqiqotning natijalari, o'quv materiallaridagi xatolarni tahlil qilish va ularni tuzatishning o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Xato tahlili orqali aniqlangan muammolarni bartaraf etish, ta'lim sifatini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi ko'rinib turibdi.

Topilgan natijalar shuni ko'rsatadiki, mazmunining chalkashligi, noto'g'ri yoki eskirgan ma'lumotlar hamda yozuv xatolari kabi muammolar o'quvchilarning o'zlashtirish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu xatolarni tuzatish orqali o'quvchilarning akademik natijalarini yaxshilash mumkinligi aniq. Mazkur tadqiqot natijalari, ta'lim materiallarini qayta ko'rib chiqish va korreksiya qilishning zarurligini ta'kidlaydi, bu esa o'quvchilarning ta'lim olish sifatini yuksaltirish imkonini beradi.

Tadqiqotning asosiy cheklovlari quyidagilardan iborat: namuna hajmining cheklanganligi, geografik cheklovlar va boshqa turli xil ta'lim muassasalaridagi farqlarning inobatga olinmaganligi. Bu omillar tadqiqot natijalarining

umumlashtirilishiga ta'sir qilishi mumkin. Kelajakdagi tadqiqotlar uchun ko'proq turli xil ta'lim muassasalarini qamrab olish va kengroq geografik doirada tadqiqot olib borish tavsiya etiladi.

1. Mazmunining aniqligi: O'quv materiallarini ishlab chiqish va yangilash jarayonida mazmunining aniqligi va tushunarli bo'lishiga alohida e'tibor berish kerak. Bu jarayonda o'qituvchilar va ta'lim mutaxassislaridan fikr-mulohazalar olish muhim.

2. Ma'lumotlarni yangilash: Fanlar tez rivojlanib borayotgan hozirgi kunda, o'quv materiallaridagi ma'lumotlarni doimiy ravishda yangilab turish talab etiladi. Bu, ayniqsa, tez o'zgaruvchan sohalarida, masalan texnologiya va fanlarda juda muhimdir.

3. Yozuv xatolari va imloviy tuzatishlar: O'quv materiallarida imloviy va yozuv xatolari minimal darajada bo'lishi kerak. Buning uchun tahririy nazoratni kuchaytirish va maxsus dasturlardan foydalanish mumkin.

4. O'qituvchilar uchun treninglar: O'qituvchilarga o'quv materiallaridagi xatolarni qanday aniqlash va ularni qanday tuzatish mumkinligi haqida maxsus treninglar va seminarlar tashkil etish.

Tadqiqot natijalari o'quv materiallaridagi xatolarni aniqlash va korreksiya qilishning o'quv jarayoniga ijobiy ta'sirini yana bir bor tasdiqlaydi. Bu jarayon ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi va kelajakda ham shu borada izlanishlar davom ettirilishi lozim.

Ushbu tadqiqot orqali o'quv materiallaridagi xatolarni aniqlash va ularni tahlil qilishning o'quvchilarning ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlash mumkin bo'ldi. Xato tahlilining samaradorligi o'quv materiallarining mazmuni, tuzilishi va ma'lumotlarining dolzarbligini yaxshilash orqali o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Xatolarni tuzatish orqali o'quv materiallarini optimallashtirish, o'quvchilarning akademik natijalarini yaxshilaydi va umumiy ta'lim sifatini oshiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quv materiallaridagi mazmunining chalkashligi, eskirgan ma'lumotlar va yozuv xatolari kabi muammolarni bartaraf etish, o'quv jarayonini yanada samarali qiladi. Shuningdek, o'qituvchilar va ta'lim muassasalari uchun o'quv materiallarini muntazam ravishda yangilab turish va xatolardan xoli qilish muhimligini ta'kidlaydi.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun quyidagi yo'nalishlarni kengaytirish va chuqurlashtirish mumkin:

- Geografik qamrovni kengaytirish: Turli mintaqalardagi ta'lim muassasalarini qamrab olish orqali tadqiqot natijalarini umumlashtirish imkoniyatini oshirish.

- Interdisiplinar yondashuvlar: Xato tahlilini boshqa fanlar bilan bog'liq holda olib borish, masalan, psixologiya va pedagogika sohalarini integratsiya qilish.

- Texnologik echimlar: Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali o'quv materiallaridagi xatolarni aniqlash va tuzatish usullarini takomillashtirish.

- O'qituvchilarning professional rivojlanishi: O'qituvchilarni xato tahlili va korreksiya metodlari bo'yicha qo'shimcha o'qitish, ularning ushbu jarayondagi faolligini oshirish.



Ushbu tadqiqot asosida olingan ma'lumotlar ta'lim sifatini oshirishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan muhim strategiyalar va yondashuvlarni taklif etadi. Kelajakdagi tadqiqotlar ushbu yo'nalishlarni chuqurlashtirib, ta'lim sifatini yanada yaxshilashga xizmat qilishi mumkin.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Qosimov, I. (2019). "O'zbekiston maktablarida o'quv jarayonini optimallashtirish." O'zbekiston Pedagogika Jurnal, 2, 14-29.
2. Rahimov, A. (2020). Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Sodiqov, S. (2021). "O'quv materiallarini tuzatishning pedagogik asoslari." Ta'lim va Tarbiya, 4, 45-59.
4. Karimov, J. (2017). "Ta'limda yangi pedagogik yondashuvlar." O'zbekiston Ta'limi, 3, 18-22.
5. Abdulloyev, O., & Mamatqulov, N. (2020). "O'zbekiston ta'lim tizimida o'quv materiallarini yaxshilash usullari." O'zbekiston Pedagogika Ilmiy Tadqiqotlari, 1(1), 32-47.
6. Niyazova, B. (2022). "Maktab ta'limida o'quv jarayonini baholashning zamonaviy usullari." O'zbek Pedagogi, 6, 53-65.
7. Turdiyev, A. (2021). "O'zbek maktablari uchun yangilangan o'quv dasturlari va metodikalar." Ta'lim Strategiyalari, 2, 30-44.
8. Ellis, R. (2003). Task-based Language Learning and Teaching. Oxford: Oxford University Press.

#### MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

**Teshaboyev Akram Yuldashevich**

Andijon davlat chet tillar instituti dotsenti

Manzil: O'zbekiston, 200100, Andijon shahri

**Iqtibos uchun:** Teshaboyev A.Y. Xato tahlili orqali o'quv materiallarini korreksiya qilish. // Osiyo xalqaro universiteti axborotnomasi. 2024. №3. B.31–38.

The background of the page is an abstract, artistic composition. It features a large, central white circle that is surrounded by thick, expressive brushstrokes in various shades of blue, ranging from light sky blue to deep navy blue. The brushstrokes are dynamic and layered, creating a sense of movement and depth. Scattered around the central circle and within the blue areas are numerous small, dark blue and black dots, resembling ink splatters or stars. The overall effect is a vibrant, textured, and modern aesthetic.

**13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

## BO'LAJAK TARBIYACHILARNING FASILITATORLIK SIFATI VA KASBIY KOMPETENTSIYAGA ASOSLANGAN YONDASHUV VA METODLARI



© **Tairova Madinabonu Baxtiyarovna**

Andijon davlat pedagogika instituti, Andijon shahri

### **Annotatsiya.**

**KIRISH:** Ushbu maqolada bo'lajak tarbiyachilarning fasilitatorlik sifati va kasbiy kompetentsiyaga asoslangan yondashuv va metodlari shuningdek, kasbiy faoliyatning o'zgaras talablari, 21-asr zamonaviy tarbiyachisiga qo'yilgan talab va turlar, bilimlar asosida turli xil murakkablikdagi muammolarni hal qilish qobiliyati bilan belgilanadi, pedagogning turli xil muammoli vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati natija sifatida ko'rib chiqiladi va ta'lim natijalari muhim fasilitator sifatida o'ziga xosligi, bolalar va pedagog xodimlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning tabiati kabilar keltirib o'tilgan.

**MAQSAD:** maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lg'usi tarbiyachilarning fasilitatorlik sifati va kasbiy kompetentsiyaga asoslangan yondashuv va metodlarini namoyon etilishini aniqlash va ularning kasbiy kompetentlik bilan o'zaro mutanosib rivojlanishi asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Zamonaviy pedagogikada bo'lajak tarbiyachilarning fasilitatorlik sifati va kasbiy kompetentsiyaga rivojlanishi muammosini o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilar ekanmiz, ulardagi pedagogik kompetentsiya shunday tizimli hodisa tushuniladiki, uning mohiyati pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirishga, pedagogik aloqa jarayonini maqsadli tashkil etishga imkon beradigan, shuningdek tarbiyachining shaxsiy rivojlanishi va takomillashishini o'z ichiga olgan pedagogik bilim, tajriba, xususiyatlar va fazilatlarining tizimli birligidan iborat. Bir qancha ilmiy adabiyotlarning tahliliga asoslanadigan bo'lsak bo'lajak tarbiyachilarning fasilitatorlik sifati va kasbiy kompetentsiyaga doir tadqiqotchilar tomonidan turlicha yondashuvlar mavjudligini ko'ishimiz mumkin.

**XULOSA:** Maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentsiyaga asoslangan yangi bilimlari shu bilan



birga qaror qabul qiluvchi sifatida bolalarning epistemik bilimlarini muvaffaqiyatli oshirishi va bilim mualliflari roliga kirishiga fasilitator sifatida beradigan bir qator osonlashtiruvchi harakatlarni aniqlashdan iborat hamda bo'lajak tarbiyachilarni fasilitator sifatida kasbiy faoliyatga tayyorlashning didaktik imkoniyatlari (reproduktiv, produktiv, ijodiy, yuqori darajada ijodiy) darajalarini nazariy va amaliy mashg'ulotlar mazmuniga optimallashtirish asosida takomillashtirilgan hamda bo'lajak tarbiyachilarning fasilitatorlik sifati o'ziga xos tarzda shakllangan kasbiy va kommunikativ kompetentlik kabi omillarga bevosita bog'liqligi ijtimoiy-psixologik kompetentlik, kasbiy faoliyati samaradorligini belgilashga va shaxs barkamolligini ta'minlashga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** bo'lajak tarbiyachi, fasilitatorlik sifa kasbga tayyorlash, kasbiy kompetentsiya, rivojlantirish, takomillashtirish, pedagogik, muammo, dolzarb, maktabgacha ta'lim, ahamiyati, ta'lim va tarbiya jarayoni.

## ПОДХОД И МЕТОДЫ, ОСНОВАННЫЕ НА ФАСИЛИТАТОРНОМ КАЧЕСТВЕ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГИ

### Аннотация.

**ВВЕДЕНИЕ.** В данной статье определены подходы и методы, основанные на качестве фасилитации и профессиональной компетентности будущих учителей, а также постоянные требования профессиональной деятельности, запросы и типы современных учителей XXI века, умение решать проблемы различной сложности, основанной на знаниях, способность педагога решать проблемы, способность действовать в различных проблемных ситуациях рассматривается как результат, а результаты обучения приводятся в качестве важных факторов, таких как идентичность, характер взаимодействия между детьми и педагогическим коллективом.

**ЦЕЛЬ:** Он заключается в определении проявления фасилитаторских качеств и профессиональных компетентностных подходов и методов у будущих воспитателей дошкольной образовательной организации, а также разработке практических рекомендаций, основанных на их взаимном развитии с профессиональной компетентностью.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** В современной педагогике при анализе научных исследований, направленных на изучение проблемы качества фасилитации и развития профессиональной компетентности будущих учителей, педагогическая компетентность у них понимается как такое системное явление, сутью которого является эффективная реализация. Целенаправленная организация процесса педагогического общения состоит из системного единства педагогических знаний, опыта, характеристик и качеств, обеспечивающих и включающих личностное развитие и



совершенствование педагога. На основе анализа ряда научной литературы мы видим, что существуют разные подходы исследователей относительно качества фасилитации и профессиональной компетентности будущих педагогов.

Научная новизна статьи заключается в том, что новые знания будущих педагогов, основанные на профессиональной компетентности, являются одновременно выявлением ряда способствующих действий, которые позволяют детям успешно повышать свои эпистемические знания как лиц, принимающих решения, и входить в роль авторов знаний и будущих педагогов как фасилитаторов. Дидактические возможности (репродуктивный, продуктивный, творческий, высокотворческий) уровни подготовки к профессиональной деятельности совершенствуются на основе оптимизации содержания теоретической и практической подготовки, качества фасилитации будущих учителей. Непосредственно связана с таким фактором, как профессионально-коммуникативная компетентность, которая формируется уникальным образом социально-психологической компетентности, служит для определения эффективности профессиональной деятельности и обеспечения целостности личности.

**Ключевые слова:** будущий воспитатель, профессиональная подготовка, профессиональная компетентность, развитие, совершенствование, педагогическая, проблемная, актуальная, дошкольная, значимость, учебно-воспитательный процесс.

## APPROACH AND METHODS BASED ON THE FACILITATORY QUALITY AND PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE EDUCATORS

### Abstract.

Практическая значимость исследования заключается в организации социально-психологической службы в системе государственных образовательных учреждений, в устранении условий, вызывающих девиантное поведение в деятельности учащихся-подростков.

Выводы и рекомендации, разработанные на основе результатов исследования, могут быть широко использованы практикующими школьными психологами, преподавателями государственных образовательных учреждений, родителями, дисциплинами «Психология онтогенеза», «Психологическое консультирование и психокоррекция». использование их при составлении учебных пособий, учебников, совершенствовании психологических словарей.

**Ключевые слова:** девиант, общество, суицид, стресс, настроение, эмоция, расстройство, смерть, намерение, онтогенез, возрастные периоды, депрессия, аффект, пол.

## SUICIDE AS A SOCIAL-PSYCHOLOGICAL PROBLEM AMONG ADOLESCENTS WITH DEVIANT BEHAVIOR

### **Abstract.**

**INTRODUCTION:** Today, the problem of suicide is becoming the main problem of any society, and the work of various communities to prevent this negative psychological problem is analyzed. Also, the article focuses on the psychological causes of cases committed by adolescents with deviant behavior and analyzes the increase of such cases among adolescents.

**GOAL:** It consists in developing the necessary recommendations on the psychological mechanisms of correction based on the identification of suicidal tendencies in adolescents.

**MATERIALS AND METHODS:** The existence of differential differences in manifestation of suicidal motivation in adolescents with deviant behavior is based on the integration of anxiety with social pessimism, aggression with affectivity, maximalism.

In the social adaptation of adolescents, the methods of corrective influence on the motives of suicidal behavior are based on the priority of self-acceptance, emotional comfort, internality, striving for superiority.

Due to the differential manifestation of aggressive behavior in adolescents with suicidal tendencies, the primacy of the emotional-conative component has been proven.

**CONCLUSION:** The scientific significance of the results collected in the study is that they are enriched with new theoretical and methodological information aimed at eliminating the deviant behavior manifested in the activities



of adolescent students of secondary schools, and the obtained results contribute to the improvement of the theoretical basis of this study, smir helps students overcome deviant behavior and provides a scientific approach to the activity of a practicing school psychologist.

The practical significance of the research is in the organization of social-psychological services in the system of public educational institutions, in eliminating the conditions that cause deviant behavior in the activities of teenage students.

Conclusions and recommendations developed on the basis of the research results can be widely used by practicing school psychologists, teachers of public educational institutions, and parents. psychology", "Ontogeny psychology", "Psychological consultation and psychocorrection" disciplines are determined by the possibility of using them in the preparation of training manuals, textbooks, and improvement of psychological dictionaries.

**Key words:** deviant, society, suicide, stress, mood, emotion, disorder, death, intention, ontogenesis, age periods, depression, affect, gender.

Jahonda «suitsid» - lotincha «oʻzini oʻldirish», oʻz joniga qasd qilish – jamiyatning muammosi sifatida dolzarblashib bormoqda. JSST mamlakatlarni suitsidni oldini olishning keng qamrovli milliy Strategiyasi orqali **LIVE LIFE - HAYOTNI YASHA** dasturini amalga oshirish choralarini koʻrish muhimligiga jahon ommasini chaqirmoqda<sup>9</sup>. Hayotda oʻzini-oʻzi oʻldirishga qaratilgan urinishlarning oʻn barobar ortiq kuzatilishi tufayli 2018 yilda tashkil etilgan Milliy qoʻmita tomonidan 2021-2026 yillarda suitsid xatti-harakatlarini oldini olish boʻyicha keng qamrovli strategik vazifalarni bajarish zarurligi belgilanganligi, ayniqsa, zaif guruh sifatida – oʻsmirlik va yoshlik davridagi oʻlim sabablari orasida suitsidning yuqori darajada sodir etayotganligi tufayli uning ijtimoiy-psixologik omillarini oʻrganish, bartaraf etish - bugungi kunda insoniyat oldida turgan global muammolardan biri boʻlib qolmoqda<sup>10</sup>.

Jahon taʼlim va ilmiy-amaliy markazlarida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda suitsid yuzaga kelishining asosiy ijtimoiy-psixologik sabablari va omillari, qadriyatlar tizimi, suitsident yashayotgan oila, taʼlim olayotgan, faoliyat yuritayotgan jamoadagi psixologik muhitni oʻrganish hamda korrektsiyalashning psixologik mexanizmlarini yaratish masalalariga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Bu borada suitsidentlar yoki suitsid haqida oʻylaydigan odamlar toʻgʻrisida maʼlumot toʻplash, ularning ruhiy holati va hatti-harakatlarini kuzatish, aholi orasida alkogol va giyohvand moddalarni isteʼmol qilishni kamaytirish, sogʻlom turmush tarzini targʻib qilish, taʼlim muassasalarida oʻqituvchi-oʻquvchi munosabatlarida yuzaga keladigan nizolarning yoshga bogʻliq psixologik muammolarini aniqlash asosida bartaraf etish, Butunjahon oʻz joniga qasd qilishning oldini olish kuni 10

<sup>9</sup> Who.int/publication/i/item/9789240026629

<sup>10</sup> <https://apps.who.int/iris/handle/10665/152893>



sentyabrni har yili Yer sayyorasi miqyosida nishonlash bo'yicha tadbirlarni targ'ib qilish, o'smirlar bilan ishlaydigan psixolog-mutaxassislar faoliyatini takomillashtirish, masalalariga ahamiyat berish zarurati ko'rinmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda o'smir va yoshlar orasidagi o'z joniga qasd qilishning sabablarini o'rganish, aholi ruhiy salomatligini saqlashga qaratilgan vazifalarni bajarishning zaruriy xuquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi: «O'tgan vaqt mobaynida aholining ruhiy salomatligini muhofaza qilish milliy xizmatini takomillashtirish, ruhiy xolat buzilishidan aziyat chekuvchi shaxslarni aniqlash, davolash va reabilitatsiya qilish bo'yicha sog'liqni saqlash tizimining barcha darajalarida muayyan ishlar amalga oshirildi»<sup>11</sup>. Suitsid muammosida psixologik omillardan - insonlarning shaxsiy xususiyatlari, qadriyatlari, ularning dunyoqarashi, e'tiqodi, hayotning mazmuni, o'zini-o'zi baholash xususiyatlarini shakllantirishda psixokorreksiya sifatini oshirish hamda takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha nazariy echimlarni topish uchun mustahkam asos yaratildi.

**Ilmiy tahlillar va mulohazalar:** Jahonda deviant xulq-atvorli o'smirlarda suitsidal holatlarni o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar jahonning etakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Amerika Psixologiya Assotsiatsiyasi (Amerika Qo'shma Shtatlari); University of Michigan (AQSh), Kaliforniya universiteti (AQSh), Leiden University (Niderlandiya), Vuppertal Universiteti (Germaniya), University of Haifa (Isroil), Jiangsu University (Xitoy), The University of Queensland (Avstraliya), A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogik universiteti (Rossiya Federatsiyasi), Rossiya Fanlar Akademiyasi huzuridagi Psixologiya ilmiy-tadqiqot instituti (Rossiya Federatsiyasi), M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetlarida (Rossiya Federatsiyasi) ta'lim tizimi va ijtimoiy institutlarda mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar o'tkazilmoqda.

Jahonda o'smirlar xulq-atvorida suitsidal holatlarning sabablari, turli omillari hamda ijtimoiy-psixologik muammolarini aniqlash va o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: o'smirlarda suitsidal xulq va holatlarni yuzaga keltiruvchi omillar o'rganilgan (Amerika Psixologiya Assotsiatsiyasi, Amerika Qo'shma Shtatlari); yoshlarda «normadan og'ish» va «deviant xulq-atvor» tadqiq etilgan; yoshlarni turli salbiy holatlarda o'zini psixologik himoya qilish mexanizmlari sifatida reabilitatsiya qilish mashqlari yaratilgan (University of Michigan, Amerika Qo'shma Shtatlari); psixodiagnostik usullar orqali o'smirlardagi psixologik barqarorlikni ta'minlashning ilmiy-nazariy asoslari va yoshlar bilan olib boriladigan xulq og'ishlarining oldini olish bo'yicha maxsus dasturlar yaratilgan (Kaliforniya universiteti, Amerika Qo'shma Shtatlari); o'smir va yoshlardagi hayotiy motivatsiyasini oshirish xususiyati va refleksiv jarayonlari takomillashtirilgan (Leiden University, Niderlandiya); o'smir va yoshlarda suitsid yuzaga kelishining asosiy ijtimoiy-psixologik sabablari va omillari aniqlangan (Vuppertal Universiteti, Germaniya); suitsid haqida o'ylaydigan odamlar

<sup>11</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2019 йил 13 февралдаги ПҚ-4190-сон «2019-2025 йилларда Ўзбекистон Республикаси aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konseptsiasini tasdiqlash to'g'risida»gi Qarori.



to'g'risida ma'lumot to'plash, ularning ruhiy holati va hatti-harakatlarini kuzatish ishi amalga oshirilgan (University of Haifa, Isroil), sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ta'lim muassasalarida o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarida yuzaga keladigan nizolarning yoshga bog'liq psixologik muammolarini aniqlash (Jiangsu University, Xitoy), ta'lim muassasalari, shahs faoliyati maskanlarida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, munosabatlarni yaxshilash, yuzaga keladigan nizolarni oldini olishga bog'liq psixologik muammolarini aniqlash (The University of Queensland, Avstraliya); o'smir va yoshlarda suitsid yuzaga kelishining asosiy ijtimoiy-psixologik sabablari, talaba-yoshlarni o'quv va kelgusidagi kasbiy faoliyatiga yo'naltirish, ularning hatti-harakatlarini kuzatish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, mehnat jamoalaridagi shaxslararo munosabat tizimini ilmiy va ijtimoiy-psixologik tamoyillar yordamida asoslab beruvchi konsepsiya yaratilgan (A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogik universiteti, Rossiya Fanlar Akademiyasi huzuridagi Psixologiya ilmiy-tadqiqot instituti, M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Rossiya Federatsiyasi).

Jahon psixologiya fani sohasiga zamonaviy bilim, ilg'or xorijiy tajribalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish asosida, o'smir yoshlarda namoyon bo'luvchi deviant xulq-atvor va uni oldini olishning ijtimoiy-psixologik chora-tadbirlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan: o'smir yoshidagi shaxslarda jamiyatda dezadaptatsiya jarayonlari, emotsional-irodaviy boshqaruv, individual-tipologik xususiyatlar, o'smirlarda ta'lim muhitida ijobiy emotsional muhitni ta'minlash, turli yosh bosqichlarida namoyon bo'ladigan inqirozli holatlarni o'rganish tizimini shakllantirish, o'smirlardagi o'zini-o'zi boshqarish va nazorat qilish mexanizmlarini aniqlash, muvaffaqiyatli o'quv faoliyatini shakllantirishda irodaviy jarayonlarning ahamiyatini tizimli tahlil qilish, deviant xulq-atvor namoyon bo'lishidagi gender tafovutlarni aniqlash masalalari shular jumlasidandir.

Mamlakatimiz psixolog olimlaridan Y.M.Asadov, Z.R.Ibodullayev, N.G'.Kamilova, E.J.Nurimbetova, B.M.Umarov, G'.B.Shoumarov, U.D.Qodirov Z.S.Elov va boshqalar<sup>12</sup>ning tadqiqotlarida shaxs, xulq, deviant xulq, suitsidal xulq-atvor namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan A.G.Ambrumova, A.V.Boeva, D.S.Isayeva, Y.G.Kasperovich, I.A.Kudryavsev, M.M.Kochenov, A.E.Lichko, I.I.Mamaychuk, A.M.Sisoyeva, F.S.Safuanov,

<sup>12</sup>Asadov Yu.M. Ruhiy holatlar diagnostikasi va korreksiyasi // Uzluksiz ta'lim 2000, № 4. – B. 3-7.; Baratov Sh.R. Социально-психологические и научно-практические основы создания психологической службы в Узбекистане. Автореферат дисс.докт.психол.наук. – Т.,1998. – 37 с.; Shoumarov G'.B., Qodirov U.D., Suitsid – ijtimoiy muammo sifatida // "Psixologiya"jurnali, №3, 2015. – B.13-19; Ibodullaev Z.R. Asab va ruhiyat. Ilmiy ommabop risola.-toshkent 2019. – 312 b.; Sog'inov N.A. O'zbekistonda suitsid holatlarini tadqiq etish: muammo va yechimlar. // O'zR.IIV OHTBYu "Suitsid holatlarini oldini olishda psixologik tayyorgarlik masalalari" ilmiy-amaliy seminar materiallari to'plami. 2013 yil 18 oktyabr, – Toshkent, 2013. – B. 9-12; Kamilova N.G'. Xulqi og'ishgan yoshlar psixologiyasi // O'quv qo'llanma. - Tashkent, 2017. 176- s.; Umarov B.M. O'zbekistonda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik muammolari: Psixol. fan. doktori ... dis. – T., 2009.; O'zMU 2019. 52 b.; Z.D.Nurimbetova. Qoraqalpog'iston Respublikasida suitsidning ijtimoiy-psixologik muammolari va ularni oldini olish. psixol.f.n. disser avtoreferati: 19.00.05. – T., NDPU 2021. 48 b.



A.A.Frolova, M.Y.Fenomenov, I.V.Vachkov va boshqalar<sup>13</sup> tomonidan o'smir yoshdagi o'quvchilarda xulqi og'ishganlik va addektiv xulq shakllari borasidagi tadqiqotlar keng qamrovli o'rganilgan.

Xorijiy psixolog olimlardan V.Arango, A.Bandura, V.Boysex, J.Vedrin, E.Dyurkgeym, K.Lorens, Ch.Lomborzo, J.J.Man, K.Menninger, Z.Freyd va boshqalar<sup>14</sup> tomonidan suitsidal xulq motivatsiyasining komponentlari va funksiyalari masalalari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.

Bugungi kunda butun dunyo bo'ylab har yili 1 mln odam suitsid orqali hayotdan ko'z yumadi (*Jahon sog'liqni Saqlash Tashkilotining keyingi ma'lumotlariga ko'ra*). Bu ko'rsatkich 100 000 aholiga o'rtacha 16 kishini tashkil qiladi. Dunyo miqyosida suitsid bo'yicha eng oldinda borayotgan davlatlardan Rossiya (26,5), Litva (25,7) va Qozog'iston (22,8). Janubiy Koreya (20,2), Belgiya (15,7), Yaponiya (14,3), AQSh (13,7), Fransiya (12,1), Shvesariya (11,3), Germaniya (9,1), Isroil (5,2) kabilarda muayyan darajadagi suitsidal xarakatlar tendensiyasi kuzatilmoqda. Ushbu ko'rsatkichlar har yili o'zgarib turibdi.

Ayni paytda, suitsidal xulq motivatsiyasi shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillarini belgilash va ularning har birini chuqur o'rganish uchun tegishli usullarni tanlash va saralashga to'g'ri keldi. Unga ko'ra, ko'p yillik tajriba va tegishli ilmiy adabiyotlar ustida olib borilgan tahlillarimizga asoslanib, suitsidal xulqning psixologik xususiyatlarini aniqlashga yo'naltirilgan maxsus metodikalar va o'smirlar orasida suitsidal xulqqa moyillikning namoyon etilishini tadqiq qilish bilan bog'liq tadqiqot uslubi belgilandi.

Dastlab tadqiqot muammosiga muvofiq tarzda ishlab chiqilgan so'rovnoma orqali deviant xulq-atvorli o'smirlarda suitsidal holatlarga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar o'rganildi, 1-jadvalga qarang.

<sup>13</sup> Амбрумова А. Г. Непатологические ситуационные реакции в суицидологической практике // Научные и организационные проблемы суицидологии. - М., 1983. - С. 40-52.; 37. Боева А.В. Клинические и социально-психологические характеристики суицидентов и методы краткосрочной кризисной психотерапии: на материале общемедицинской лечебной сети: Автореф. дис.... канд. мед.наук: 14.00.18 / Гос. науч. Центр соц. и судеб. психиатрии им. В.П. Сербского МЗ РФ. - М., 2004. - 23 с.; Исаев Д.С. Психология суицидального поведения. - Самара, 2000. - С. 23-45; Касперович Ю. Г. Психологическое обеспечение профилактики суицидов среди сотрудников органов внутренних дел: Дис. ... канд. психол. наук. - М., 2004. - С. 39-49.; Кудрявцев И. А. Судебная психолого-психиатрическая экспертиза. — М., 1988. Гл. 5.2. посмертная КСППЭ особенностей личности при самоубийствах; Коченов М.М. Теоретические основы судебно-психологической экспертизы: Автореф. дис. ... док. психол. наук. - М., 1991. - 45 с.; Мамайчук И.И. Экспертиза личности в судебно-следственной практике: Учебное пособие. — СПб: Речь, 2002. - С. 215-236; Личко А. Е. Особенности саморазрушающего поведения при различных типах акцентуации характера у подростков // Саморазрушающее поведение у подростков. - Л., 1991. - С. 9-14; Сысоев А. М. Психология аутоагрессивного поведения и его предупреждение: Дис. ... канд. психол. наук: 19.00.06. — Рязань, 2002. - 220 с.; Сафуанов Ф.С. Судебно-психологическая экспертиза в уголовном процессе: Научно-практическое пособие. - М.: Гардарики, Смысл, 1998. - С. 170-178; Фролова А.А. Клинические особенности пограничных психических расстройств у работников опасных профессий // Рос. психиатр. 1998. № 4. - С. 49-51; Феноменов М. Я. Причины самоубийств в русской школе. - М., 1914. - 130 с.; Вачков И. В. Психология тренинговой работы: Содержательные, организационные и методические аспекты ведения тренинговой группы. - М., 2007.

<sup>14</sup>Arango V., Mann J. J. Neurobiology of suicide and attempted suicide. Suicide an unnecessary death. — Martin Dunitz, 2001. — P. 29-34.; Bandura A. Social learning theory of identificatory processes // Handbook of socialization theory and research / Ed. by D.A. Coslin. Chicago, 1969. -P. 159.; Бойцех В. Ф. Клиническая суицидология. - С.

1-jadval.

«Suitsidal xulq-atvorni aniqlash so‘rovnomasi» бўйича olingan dastlabki statistik tahlillar, U-Manna- Uitni mezoni, (n=620)

| Omillar              | Deviant xulq-atvorli o‘smirlar | O‘smirlar | U-Manna-Uitni mezon, | <i>p</i> |
|----------------------|--------------------------------|-----------|----------------------|----------|
|                      | M (o‘rtacha qiymat)            |           |                      |          |
| Havotirlanish        | 13,6                           | 7,2       | 1094                 | 0,005    |
| Umidsizlik           | 10,9                           | 6,7       | 726                  | 0,005    |
| Tajovuzkorlik        | 9,9                            | 8,9       | 832                  | 0,018    |
| Dezadaptatsiya       | 11,9                           | 7,4       | 892                  | 0,005    |
| Suitsidal xulq-atvor | 46,3                           | 30,2      | 1014                 | 0,005    |

Izoh: \*-p<0,05, \*\*-p<0,01,\*\*\*-p<0,001.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘smirlar orasida **suitsidal** holatlarga moyillik aniqlanmadi, ammo ba’zi omillarga ko‘ra, natijalar biroz yuqoriligini ko‘rishimiz mumkin. Jadvaldagi ma’lumotlarga ko‘ra, 1-guruh respondentlarida yuqori darajadagi havotirlanish aniqlandi (12-16 ball yuqori darajadagi xavotirlanishni anglatadi). Havotirlanish darajasini yuqori bo‘lishi asosan ekstremal vaziyatlarda o‘zini namoyon qilish bilan belgilanadi. Bu holat o‘smirlardagi oddiy holatlarda ham tez-tez kuchli tashvishlarni boshdan kechirish tendensiyasi bilan tavsiflanadi. Havotirlanish omili yuqori bo‘lgan talabalar muammoli vaziyatlarga, qiyinchiliklarga haddan tashqari kuchli munosabat bildirishadi. Bundan tashqari mazkur holatning yuqori bo‘lishi ulardagi o‘quv faoliyatidagi muvaffaqiyatsizliklarni, aqliy jihatdan tez toliqishlarga olib keladi. Havotirlanish ruhiy holatlarni belgilaydi, hissiy sohaga, xulq-atvorga va kasbiy shakllanish jarayoniga ta’sir qiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, havotirlanish o‘z joniga qasd qilish xatti-harakati uchun xavf omillaridan biri bo‘lishi mumkin. 2-guruh o‘smirlarida esa xavotirning past darajasini ko‘rishimiz mumkin. Deviant xulq-atvorli o‘smirlar hamda o‘smirlar orasida mazkur omil bo‘yicha ishonchli farq kuzatildi (U=1094, p≤0,005).

«Umidsizlik» omilida ham 2 ta guruh sinaluvchilari orasida ishonchli statistik farqlar kuzatildi (U=726, p≤0,005). Deviant xulq-atvorli o‘smirlarda mazkur omil bo‘yicha yuqori natijani ko‘rishimiz mumkin (10-15 ball yuqori darajadagi umidsizlikni anglatadi). Ma’lumotlarga ko‘ra emotsional tushkunlik ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan o‘smirlarda o‘z ehtiyojlarini qondirish darajasi past darajada bo‘ladi. Umidsizlik shaxslarda butun e’tiborini muammoga va uni hal qilishga qaratilishini ta’minlaydi. «Tajovuzkorlik» shkalasi bo‘yicha har ikkala guruhda sezilarli farqlar kuzatilmadi. Har ikkala guruhda ham tajavuzkorlik nisbatan past darajada ekanligini ko‘rishimiz mumkin (U=832, p≤0,018).

«Dezadaptatsiya» omilida ham 2 ta guruh orasida statistik farq kuzatildi (U=892, p≤0,005).

Bu shuni ko'rsatadiki, o'smirlarlar uchun yangi vaziyatlarni idrok etishdagi qiyinchiliklar, har bir holatlarga kuchli emotsional munosabatda bo'lish, xulq-atvordagi muammolar, mavjud muammolarni bartaraf etishdagi qaror qabul qilish darajasining passivligini bildiradi. «Dezadaptatsiya» omiliga teskari bo'lgan adaptatsiya omili yuqori bo'lishi, o'smirlarda turli vaziyatlarda tez moslasha olish, emotsional holatlarini nazoart qilish va qaror qabul qilishdagi qiyinchiliklarni eng olish xususiyatlarini mavjudligi bilan xarakterlanadi.

Suitsidal xulq-atvor omilida ham omilida ham 2 ta guruh orasida statistik farq kuzatildi ( $U=1014$ ,  $p \leq 0,005$ ) (1-jadval).

Tadqiqotimizda T.N.Razuvayeva modifikatsiyasi asosidagi «Suitsidal xavf so'rovnomasi» metodika orqali olingan natijalarni gender jihatdan tahlil etildi, 2-jadvalga qarang.

## 2-jadval.

### T.N.Razuvayevaning «Suitsidal xavf so'rovnomasi» asosida olingan natijalar, o'smir qiz va o'gil bolalar tahlili (n=620)

| Omillar                    | O'smir<br>Qiz bolalar | O'smir<br>O'gil bolalar | <i>p</i>     |
|----------------------------|-----------------------|-------------------------|--------------|
| Namoyishkoronalik          | 20,0 ± 3,0            | 22,2 ± 1,9              | <b>0,002</b> |
| Affektivlik                | 50,3 ± 2,0            | 35,8 ± 3,2              | <b>0,000</b> |
| Noyoblik                   | 24,1 ± 2,9            | 16,1 ± 2,2              | 0,005        |
| Layoqatsizlik              | 30,8 ± 2,9            | 24,6 ± 2,6              | 0,005        |
| Ijtimoiy pessimizm         | 50,8 ± 2,5            | 41,3 ± 2,3              | 0,005        |
| Madaniy to'siqlarni buzish | 30,7 ± 2,3            | 31,7 ± 2,6              | 0,005        |
| Maksimalizm                | 41,3 ± 4,3            | 39,6 ± 3,3              | <b>0,002</b> |
| Vaqtinchalik perspektiva   | 17,5 ± 2,1            | 18,5 ± 1,6              | 0,005        |
| Antisuitsidal faktor       | 88,1 ± 2,7            | 84,2 ± 3,0              | 0,005        |

Izoh: \*- $p < 0,05$ , \*\*- $p < 0,01$ , \*\*\*- $p < 0,001$ .

Mazkur metodika bo'yicha olingan natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, deyarli barcha omillarda yigitlar va qizlarda statistik farqlar kuzatildi. Eng yuqori farqlar «namoyishkoronalik» (ishonchlilik darajasi ( $p > 0,002$ ), «affektivlik» (ishonchlilik darajasi ( $p > 0,000$ )) va «maksimalizm» (ishonchlilik darajasi ( $p > 0,002$ )) da aniqlandi. Masalan, qizlarda «namoyishkoronalik» omili yuqori ekanligi ulardagi salbiy emotsional holatlarda atrof-muhitni e'tiborini o'ziga tortishda bo'lgan harakatlarida, boshqalar ular uchun qayg'urishini istashlarida ko'rinadi. Yigitlarda esa mazkur omillar teskarisiga, ya'ni o'zi bilan bo'layotgan voqelarni atrof muhitdan nisbatan yashirishga intilar ekanlar.

«Affektivlik» omili esa qizlarga nisbatan yigitlarda ustun ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa ularda vaziyatlarni adekvat baholashda ko'pincha intellektal sohaga emas, balki emotsional sohaga e'tibor qaratishida namoyon bo'lar ekan. Qizlarda esa mazkur omil nisbatan pastroq ekanligi qayd etildi.



«Maksimalizm» omili qizlarda ustun ekanligi aniqlandi. Ya'ni aynan o'smirlik yoshida hos xususiyat bo'lib, atrofdagi narsa va hodisalarga faqat o'zining «qarichi» bilan munosabat bildirishidir. Ularning fikrlashi asosan ijtimoiy munosabatlarga zid bo'ladi. Bu esa ularda turli ko'rinishda, dezadaptatsiya, dustruktivlik, turli zararli odatlarga berilish bilan tugashi mumkin.

Mazkur metodika deviant xulq-atvorli o'smirlar va deviant xulq-atvorga ega bo'lmagan o'smirlar kesimida tahlil qilindi. Dissertatsiyaning ikkinchi bobida, ya'ni, tadqiqot ob'ekti haqidagi bo'limida deviant xulq-atvorli o'smirlarni viloyat, tuman kesimida aniqlab olgan edik. Tadqiqot maqsadi asosida har ikkala guruh respondentlaridagi suitsidal moyillik darajasi aniqlandi, 3-jadvalga qarang.

3-jadval.

T.N.Razuvayevaning «Suitsidal xavf so'rovnomasi» tahlili (n=620)

| Omillar                       | Deviant<br>xulq-avorli<br>o'smirlar | O'smirlar | U-Manna-<br>Uitni<br>mezoni | p     |
|-------------------------------|-------------------------------------|-----------|-----------------------------|-------|
|                               | M (o'rtacha qiymat)                 |           |                             |       |
| Namoyishkoronalik             | 3,1                                 | 3,2       | 867                         | 0,584 |
| Affektivlik                   | 3,6                                 | 2,7       | 356                         | 0,005 |
| Noyoblik                      | 3,2                                 | 3,4       | 962                         | 0,117 |
| Layoqatsizlik                 | 4,7                                 | 3,2       | 426                         | 0,005 |
| Ijtimoiy pessimizm            | 3,9                                 | 2,6       | 384                         | 0,005 |
| Madaniy to'siqlarni<br>buzish | 1,6                                 | 1,9       | 1014,2                      | 0,047 |
| Maksimalizm                   | 2,8                                 | 2,9       | 1123,2                      | 0,352 |
| Vaqtinchalik<br>perspektiva   | 3,4                                 | 2,4       | 364                         | 0,005 |
| Antisuitsidal faktor          | 3,2                                 | 3,9       | 983                         | 0,025 |

Izoh: \*-p<0,05, \*\*-p<0,01,\*\*\*-p<0,001.

Olingan natijalar tahliliga o'tadigan bo'lsak, har ikkala respondentlar guruhida ma'lum bir farqlar kuzatildi. Jumladan, «affektivlik» (U=356, p≤0,05), «layoqatsizlik» (U=426, p≤0,05), «ijtimoiy pessimizm» (U=384, p≤0,05) hamda «vaqtinchalik perspektiva» (U=364, p≤0,05) omillarida yuqori farqlar kuzatildi.

«Affektivlik» omili deviant xulq-avorli o'smirlar guruhida o'rtacha qiymat (Me=3,6) ni, deviant xulq-atvorga ega bo'lmagan o'smirlarda esa (Me=2,7) ni ko'rsatdi. Mazkur natijalar shuni anglatadiki, ularda stressli vaziyatga haddan tashqari hissiy munosabat bildirish tendensiyasi hamda kuchli emotsional holatlarda aqlning affektiv blokadasi o'zini namoyon qilar ekan.

«Layoqatsizlik» omili ham deviant xulq-avorli o'smirlar guruhida (Me=4,7) ni ko'rsatdi. Bu esa ularda hayotni anglashdagi muammolar, o'z rejalarini amalga oshirishda ishonchsizlik va o'ziga o'zi qarama-qarshi munosabatda bo'lishini anglatadi.

«Ijtimoiy pessimizm» ( $Me=3,9$ ) bo'yicha ham deviant xulq-avorli o'smirlarda natijalar salbiy ekanligini ko'rishimiz mumkin.

«Vaqtinchalik perspektiva» ( $Me=3,4$ ) omilida ham deviant xulq-avorli o'smirlarda 3 baldan yuqori natija qayd etildi. Bu esa mazkur guruhda kelajak hayotga bo'lgan ishonchsizlik, rejalashtirish qobiliyatining pastligi bilan belgilanadi. Bu esa ularning ayni holatidagi ruhiy zo'riqishlar, havotirlanish darajasining yuqoriligidan ham kelib chiqishi mumkin. Yuqoridagi ma'lumotlardan aytish mumkinki, deviant xulq-atvorli o'smirlarda mazkur omillar suitsidal holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Biroq, mazkur guruhda «antisuitsidal faktor» ( $Me=3,2$ ) ham majud bo'lib, suitsidal holatlarga ta'sir etuvchi omillar ularda yuqori chiqqan bo'lsada, ulardagi ma'suliyat, burj hislari mazkur holatlarni pasaytirishi mumkin.

4-jadvalga qarang.

4-jadval.

**Suitsidal xulq-atvorni aniqlash so'rovnomasi hamda suitsidal xavf so'rovnomasi orasidagi korrelyatsion bog'lanish natijalari ( $n=620$ )**

| Omillar                    | Xavotirlanish | Umidsizlik | Tajovuzkorlik | Dezadaptatsiya |
|----------------------------|---------------|------------|---------------|----------------|
| Namoyishkoronalik          | 0,118         | 0,434**    | 0,147         | 0,142          |
| Affektivlik                | 0,150         | 0,110      | 0,599**       | 0,118          |
| Noyoblik                   | 0,138         | 0,062      | 0,150         | 0,128          |
| Layoqatsizlik              | 0,042         | 0,137      | 0,120         | 0,215          |
| Ijtimoiy pessimizm         | 0,646**       | 0,172      | 0,225         | 0,466**        |
| Madaniy to'siqlarni buzish | 0,091         | 0,238      | 0,198         | 0,105          |
| Maksimalizm                | 0,039         | 0,142      | 0,463**       | 0,254          |
| Vaqtinchalik perspektiva   | 0,247         | 0,570**    | 0,230         | 0,122          |

**Izoh:** \*- $p<0,05$ , \*\*- $p<0,01$ , \*\*\*- $p<0,001$ .

Tadqiqotimiz davomida suitsidal xulq-atvorni aniqlash so'rovnomasi hamda suitsidal xavf so'rovnomasi orasidagi korrelyatsion bog'lanishlar aniqlandi. Bundan asosiy maqsad deviant xulq-atvorli o'smirlardagi suitsidal holatlarga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash edi. 4-jadvalda keltirilgan malumotlar tahliliga o'tadigan bo'lsak, bunda eng ko'p korrelyatsion bog'lanish «Ijtimoiy pessimizm» omilida kuzatildi. Agar o'smirlarda qanchalik atrofdagi olamga va o'zining ijtimoiy taraqqiyotiga salbiy qarashlar, dushmanlik ruhidagidek olamni qabul qilish va atrofdagilar bilan qoniqarsiz munosabatda bo'lish darajalari yuqori bo'lsa, ularda «xavotirlanish» ( $r=0,646^{**}$ ) va «dezadaptatsiya» ( $r=0,466^{**}$ ) omillari ham yuqori bo'lishi aniqlandi. «Namoyishkoronalik» omili «Umidsizlik» bilan o'zaro korrelyatsion bog'liqligi kuzatildi ( $r=0,434^{**}$ ). Bu shundan dalolat beradiki, agar o'smirlarda o'zining baxtsizligiga atrofdagilar diqqatini tortish

xohishi, achinishga bo'lgan xarakatlarining ustun bo'lishi, ulardagi o'z istaklarni qondira olmaslik, g'azab, xavotir yoki disforiya ifodalari bilan hissiy darajaga ta'sir qilishi bilan belgilanadi. «Affektivlik» ( $r=0,599^{**}$ ) va «Maksimalizm» ( $r=0,463^{**}$ ) omillari «**Tajovuzkorlik**» bilan bog'liqlik kuzatildi (4-jadval). Deviant xulq-atvorli o'smirlarda tajovuzkorlik sifatini yuqori bo'lishi, ularning ijtimoiy munosabatlarni baholashda intellektual nazorat ustidan emotsiyalarning balandligi hamda jamiyatdagi voqea-hodisalarga o'ta jiddiy munosabatda bo'lishi bilan izohlanadi. Demak, deviant xulq-atvorli o'smirlardagi suitsidal holatlarni aniqlash hamda uni oldini olishda mazkur holatga ta'sir etuvchi omillarni kompleks tarzda o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotimizning navbatdagi metodikasi «Nizoli vaziyatlarni hal qilish usullarini aniqlash» (K.N.Tomas) bo'lib, mazkur metodikani qo'llashimizdan asosiy maqsad, deviant xulq-atvorli o'smirlarning shaxslararo munosabatlardagi o'rnini aniqlash edi. Chunki, shaxslararo munosabatlarda nizoli vaziyatlarning ko'payishi, ulardagi o'z ijtimoiy hayotidagi norozilik, o'z-o'zidan qoniqmaslik, o'ziga nisbatan past baho berishiga olib kelishi mumkin. Tomas testi asosida tadqiqotimiz davomida olingan o'ziga xos empirik tahlillar talqini deviant xulq-atvorli o'smirlardagi ziddiyatli holatlardan chiqish motivatsiyasi bilan bog'liq holatlarini ilmiy interpretatsiya qilishni taqozo etadi. Chunki, mazkur yo'nalishdagi tahlil asosida deviant xulq-atvorli o'smirlarning turli xil muammolar bilan bog'liq turli xil ziddiyatlardan chiqish motivatsiyasi ko'rsatkichlari haqida tegishli ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin bo'ladi. Zero, ushbu test natijalarini tahlil qilishdan asosiy maqsad shuki, unda har bir o'smir uchun xarakterli bo'lgan motivatsiya ko'rsatkichlariga empirik jihatdan baho berish orqali ulardagi ziddiyatli muammolarni bartaraf etishga qaratilgan o'ziga xos individual – psixologik yondashuvlar ko'lamini belgilab olishdir.

**Xulosa:** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, deviant xulq-atvorli o'smirlarda suitsidal holatlarni uchrashi, ularni ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarining buzilishi singari salbiy tendensiyalar, muhim hayotiy ahamiyatga ega tushunchalarning noto'g'ri idrok etilishi natijasida vujudga keladigan stixiyali ijtimoiylashuv, o'smirlarning o'zini namoyon qilishga intilishi bilan bog'liq ravishda shakllanadigan deviant xulq-atvor, dezadaptatsiya kabi sifatlarni rivojlanishi uchun xizmat qilishi mumkin.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. F.F.Usmonov, Z.S.Elov. SUICIDE – AS A GLOBAL PROBLEM FACING HUMANITY. WEB OF SCIENTIST: INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL. Volume 3, Issue 2, Feb., 2022 349-354
2. Elov Z.S. Berdiyeva D.Sh. PSYCHOLOGICAL REASONS FOR SUICIDE MOTIVATION IN ADOLESCENTS WITH DEVIANT BEHAVIOR. ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES SCIENTIFIC JOURNAL. VOLUME 2, ISSUE 2 February 2022 1003-1009
3. Z.S.Elov. Suicide as a global problem facing humanity. Science and Education №2. 2022 1247-1252



4. Elov Z.S. PSYCHOLOGICAL INFLUENCE OF SPEECH DISORDERS AND THE CAUSES THAT CAUSE THEM ON THE CHILD'S PSYCHE. ACADEMICA GLOBE: INDERSCIENCE RESEARCH Volume: 3, ISSUE 1, JANUARY-2022 39-42

5. Elov Z.S. CAUSES AND ANALYSIS OF SUICIDAL THOUGHTS AMONG ADOLESCENTS. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD) Volume: 6 | Issue: 11 | November 2021 75-76

6. Elov Z.S. PSIXODIAGNOSTIKA VA EKSPERIMENTAL PSIXOLOGIYA. O'quv-metodik qo'llanma. 2021. Buxoro 1-164.

7. Elov.Z.S. Qadimgi xalqlar urf-odatlari va rivojlangan jamiytda ўz joniga qasd qilişning ijtimoiy psixologik sabablari. Tarix va bugun (qadimgi xalqlar urf-odatlari va bugungi zamon) JAMIYAT VA INNOVASIYALAR. 10.2021 169-173

8. Элов З.С. СУИЦИД - ЎЗ ЖОНИГА ҚАСД ҚИЛИШ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК МУАММО СИФАТИДА CONFERENCE ON SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH. International Conference on Social Humanitarian Research 17-18 th September, 2021 Poland 188-189

9. Z.Elov. QOBILIYATNING SHAXS PSIXOLOGIYASIDAGI O'RNI VA DANNING-KRYUGER EFFEKTI. PEDAGOGIK MAHORAT 2021/10/30 No. 5 Stranitsy 143-144

10. Elov Z.S. CONDITIONS AND THE REASONS OF CASES OF THE SUICIDE AMONG THE STAFF OF LAW-ENFORCEMENT BODIES European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 5 2017

11. Элов З.С. ПРИЧИНЫ СУИЦИДАЛЬНОГО ПОВЕДЕНИЯ: СОЦИАЛЬНЫЕ И АСОЦИАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ. ВЕСТНИК ИНТЕРГАТИВНОЙ ПСИХОЛОГИИ 2016 14/112-115

12. Элов З.С. ИССЛЕДОВАНИЯ ПРИЧИН УСЛОВИЙ, ФАКТОРОВ СУИЦИДАЛЬНОГО РИСКА. Евразийский юридический журнал. 7 (86) 2015. 310-312

MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

**Elov Ziyodullo Sattorovich**

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

[elovziyo2021@gmail.com](mailto:elovziyo2021@gmail.com)

ORCID: 0000-0001-9437-9741

**Iqtibos uchun:** Elov.Z.S. Deviant xulq-atvorli o'smirlar orasida o'z joniga qasd qilish holati ijtimoiy-psixologik muammo sifatida. // Osiyo xalqaro universiteti axborotnomasi. 2024. №3. B.59–71.



## ЎСМИР ЁШЛИ 9-10 СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА КАСБ ТАНЛАШ МОТИВЛАРИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ТАШҚИ ИЖТИМОЙ- ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАР



© Хайдаров Исмоил Оллоқулович  
Ўзбекистон Республикаси  
Жамоат хавфсизлиги университети,  
Тошкент шаҳри

### Аннотация.

**КИРИШ:** Мақолада ўсмир ёшли 9-10 синфлар ўқувчилар ўртасида касб танлаш мотивларига таъсир этувчи ташқи ижтимоий-психологик омилларни аниқлаш бўйича ишлаб чиқилган ижтимоий-психологик сўровномаларлар, эмпирик ва статистик методлар, шунингдек илмий хулосалар билан танишишингиз мумкин..

**МАҚСАД:** Умумтаълим мактаблирида олиб бориладиган касбга йўналтириш ишлар самарадорлигини оширишга, ўсмир ёшдаги ўғил ва қиз болаларни тўғри касб танлашига ёрдам берадиган илмий асосланган амалий тавсиялар беришдан иборат.

**МАТЕРИАЛЛАР ВА МЕТОДЛАР:** Тадқиқот жараёнида суҳбат, анкета, кузатиш, методларидан, шунингдек, Маълум бир фаолият турига бўлган ўсмирларнинг қизиқиш ва интилишини Е.А.Климовнинг иккита методикаси асосига аниқладик 1974 йил 30 та савол. 1984 йилги ДДО методикаси 40 та саволдан иборат. Ўсмирларнинг қизиқишларини англаш мақсадида А.Е.Голомштоннинг “қизиқишлар харитаси” методикасидан фойдаландик 73 савол. С.С.Гриншпу томонидан “Касб танлаш мотивлари”, Э. М. Павлютенков томонидан касб танлашнинг асосий сабабларини аниқлаш методи, “Ўсмирларлардаги характер ва темпераментларини Райман Кеттелнинг 14 факторли ёшларга мўлжалланган методикасидан фойдаландик 142 савол. Ўсмирлардаги ҳаракатга ундовчи мотивлар Макс Люшер методикаси орқали аниқладик. Теширувчмлардаги умумий ақлий қобилиятлар савиясига Равен методикаси орқали ўлчадик. Олинган

натижаларни Пирсон корреляцияси, Спирман параметрик группалар аро тахлили ва Критерий Студент орқали математик тахлил қилиш.

**МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР:** Ўсмир ёшли 9-10 синфлар ўқувчилар ўртасида касб танлаш мотивларига таъсир этувчи ташқи ижтимоий-психологик омилларни очиқ берилган. Муаллиф ўсмир ёшдаги касб танлаш мотивлари ўғил болаларда ҳам қиз болаларда ҳам ташқи ижтимоий мотивлар билан белгиланиши аниқланган.

Касб танлашда ўғил болалар моддий ва фойдали мақсадларга эга бўлиб, обрў-эътиборни хоҳлашади. Қизларда обрў-эътибор ва моддий нарсалардан устун бўлган утилитар (фойда кўриш) мотивлар мавжуд. Шундай қилиб, йигитлар дўстлар орасида қадрланадиган, жамиятда обрўли мавқега эришишга имкон берадиган, тез кўтарилиш имконини берадиган, маълум имтиёзлар олишга имкон берадиган касбларни хоҳлайди. Қизлар юқори касбий таълимдан фойдаланган ҳолда, ўзларининг этакчилиги, тозалиги ва меҳнатининг қулайлиги билан боғлиқ касб танлашга мойил бўладилар ва шундан кейингина моддий неъматларга эътибор беришади.

**ХУЛОСА:** Олинган маълумотлар ва статистик маълумотларнинг натижалари асосида юқори синф ўқувчилари кўп ҳолларда ўзларининг ижтимоий-психологик индивидуал-психологик, характер хусусиятларига мос келмайдиган касб танлашлари аниқланди. Бу уларнинг келажақда касбий фаолиятдаги муваффақиятсизликка учраши мумкин эканлиги ҳақида гапиришга имкон беради. Бундан ташқари, юқори синф ўқувчиларининг кўпчилигида касбий танлов кўп ҳолларда ташқи таъсирларга берилиб танланаётганлигини ҳисобга олсак, умумтаълим мактабларида касбга йўналтиришнинг паст сифати ҳақида хулоса чиқариш мумкин.

**Калит сўзлар:** мотивация, эҳтиёж, касб танлаш мотивлари, касбий ўзини-ўзи белгилаш, касбий йўналиш.

## **ВНЕШНИЕ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА МОТИВАЦИЮ ВЫБОРА ПРОФЕССИИ У УЧАЩИХСЯ ПОДРОСТКОВ 9-10 КЛАССОВ**

### **Аннотация.**

**ВВЕДЕНИЕ:** В статье можно ознакомиться с социально-психологическими опросниками, эмпирическими и статистическими методами, а также научными выводами, разработанными для определения внешних социально-психологических факторов, влияющих на мотивы выбора профессии у учащихся 9-10 классов.

**ЦЕЛЬ:** Профориентационная ориентация, проводимая в общеобразовательных школах, имеет целью повысить эффективность труда, дать научно обоснованные практические рекомендации,

помогающие юношам и девушкам-подросткам правильно выбрать профессию.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** В ходе исследования мы определяли интерес и стремление подростков к определенному виду деятельности с помощью интервью, анкетирования, методов наблюдения, основываясь на двух методах Е.А. Климов, 1974, 30 вопросов. Методика DDO 1984 года состоит из 40 вопросов. Для понимания интересов подростков мы использовали методику «карта интересов» А. Е. Голомштона, 73 вопроса. Для определения характера и темперамента подростков мы использовали 14-факторную методику Раймана Кеттеля для подростков, 142 вопроса. Мотивы действия у подростков по методике Макса Люшера. Уровень общих умственных способностей мы измеряли в тестах по методике Равена. Математический анализ полученных результатов с использованием корреляции Пирсона, параметрического группового анализа Спирмена и критерия Стьюдента.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** Выявлены внешние социально-психологические факторы, влияющие на мотивы выбора профессии у учащихся 9-10 классов. Автор установил, что мотивы выбора профессии в подростковом возрасте определяются внешними социальными мотивами как у мальчиков, так и у девочек.

При выборе профессии мальчики преследуют материальные и полезные цели и хотят престижа. У девочек утилитарные мотивы преобладают над престижем и материальными вещами. Таким образом, молодые люди хотят профессий, которые ценятся среди друзей, которые позволяют им добиться престижного положения в обществе, позволяют быстро подняться по карьерной лестнице и позволяют получать определенные льготы. Девушки, получая высшее профессиональное образование, склонны выбирать профессию, связанную с их лидерством, чистоплотностью и удобством в работе, и только потом обращать внимание на материальные блага.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** По результатам полученных данных и статистических данных установлено, что старшеклассники во многих случаях выбирают профессию, не соответствующую их социально-психологическим индивидуально-психологическим особенностям характера. Это позволяет им говорить о возможности неудачи в дальнейшей карьере. Более того, учитывая, что большая часть выбора профессии старшеклассниками зачастую находится под влиянием внешних воздействий, можно сделать вывод о низком качестве профориентационной работы в общеобразовательных школах.

**Ключевые слова:** мотивация, потребность, мотивы выбора профессии, профессиональное самоопределение, профессиональная направленность.



## EXTERNAL SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FACTORS AFFECTING THE MOTIVATION OF CAREER CHOICE AMONG TEENAGE STUDENTS OF THE 9-10TH GRADES

### Annotation.

**INTRODUCTION:** In the article, you can familiarize yourself with socio-psychological questionnaires, empirical and statistical methods, as well as scientific conclusions, developed to determine the external socio-psychological factors that influence the motives of choosing a profession among students of the 9-10th grade.

**OBJECTIVE:** Vocational guidance conducted in general education schools aims to increase the efficiency of work, to give scientifically based practical recommendations that help teenage boys and girls to choose the right profession.

**MATERIALS AND METHODS:** In the course of the research, we determined the interest and aspiration of teenagers to a certain type of activity from interview, questionnaire, observation methods, based on two methods of E.A. Klimov, 1974, 30 questions. The DDO methodology of 1984 consists of 40 questions. In order to understand the interests of teenagers, we used A.E. Golomshton's "interest map" methodology, 73 questions. We used Ryman Kettel's 14-factor methodology for teenagers to determine the character and temperament of teenagers, 142 questions. Motives for action in teenagers using the Max Lüscher methodology We measured the level of general mental abilities in the tests using the Raven method. Mathematical analysis of the obtained results using Pearson correlation, Spearman parametric group analysis and Criterion Student.

**DISCUSSION AND RESULTS:** External socio-psychological factors influencing the motives for choosing a profession among students in grades 9-10 have been identified. The author found that the motives for choosing a profession in adolescence are determined by external social motives for both boys and girls.

When choosing a profession, boys pursue material and useful goals and want prestige. For girls, utilitarian motives prevail over prestige and material things. Thus, young people want professions that are valued among their friends, that allow them to achieve a prestigious position in society, allow them to quickly climb the career ladder and allow them to receive certain benefits. Girls, receiving higher professional education, tend to choose a profession related to their leadership, cleanliness and ease of work, and only then pay attention to material wealth.

**CONCLUSION:** Based on the results of the obtained data and statistical data, it was found that high school students in many cases choose a profession that does not match their socio-psychological individual-psychological, character traits. This allows them to talk about the possibility of failure in their future career. Moreover, taking into account that most of the high school students' career choice



is often influenced by external influences, it can be concluded about the low quality of career guidance in general education schools.

**Key words:** motivation, need, career choice motives, professional self-determination, professional orientation.

**Шахснинг** бирор бир касбга интилиши, авваламбор шу фаолият турига ижобий муносабат билан йўналтиришдир. Бунинг натижасида ўша фаолият тури, қизиқарли бўлиб қолмай, балки иш унумдорлиги ўсиб, сифатли маҳсулот етиштирилади, шунинг билан биргаликда лаёқатлар ривожланиб қобилият даражасига кўтарилади. Касблар лаёқатлар асосида танланса, фаолият қониқтрилганлигидан дарак беради. Шахснинг шакилланиши эса бринчи ўринда танланган касбининг қай даражада бажарилиши билан белгиланади.

Бизга маълумки касб танлаш учун энг қулай ёш бу ўсмир ёшдаги мактаб ўқувчилари ҳисобланади. Чунки ўсмирлар 9-10 синфни тугатиш арафасида ҳаётнинг мазмунан бир қийин даврига дучор бўлишади. Кўпчилик ўқувчилар шу ёшдан бошлаб маълум бир фаолият турига қизиқиб, хунар техника билим юртларига кетишни авзал кўришади. “Ким бўлиш, қайирга бориш” муаммоси ўсмир ёшдаги боларани ташвишгв солиб қўяди.

Ўсмир ёшдаги кўпчилик болалар, маълум бир фаолият турига бўлган лаёқатларини ички имкониятлари билан чамалаб кўриб, ўз ўзини англаган ҳолда, касб танлашади ва шу касблар юзасидан катталардан маслаҳат сўрашади. Яна бир турдаги ўсмир болалар, ўзининг кучли ва заиф томонларини аниққолмаганликлари сабабли, маълум бир касбни танлашга қийналишади. Бошқа бир турдаги ўсмирлар эса, психиканинг нотекс ривожланиши оқибатида, ташвишсиз ёшликда қолишаверади.

Илмий тадқиқотимизнинг долзарблиги шундан иборатки, биз биринчи марта ҳозирги ўсмир ёшдаги мактаб ўқувчиларида касбий мотивларни намоён бўлиши ва ривожланишига таъсир этувчи ташқи ижтимоий-психологик омилларни ҳар-томонлама ўрганишга ҳаракат қилинди. Ўсмир ёшидаги барча ўзгаришлар ҳисобга олинган ҳолда, лаёқатлар ҳам бу ёшда нотекс ривожланиши илмий асосланди. Лаёқатлар бринчи марта мотивларнинг ижобий ёки салбий муносабат асосида ҳар хил намоён бўлиши кўрсатиб ўтилади.

Чет эл олими К.Нюттен лаёқатда мотивлар ўрнини қуйдагича баҳолайди. Мотив организмнинг ҳолати бўлиб, маълум бир объектни излаб эҳтиёжини қондириш учун активликка йўналтирувчи манбадир деб кўрсатади.

Тадқиқот муаммоси турли жихатларда кўриб чиқилади: жамият ва таълимнинг ривожланиши нуқтаи назаридан (Б.М.Бим-Бад, Э.В.Бондаревская, А.В.Петровский ва бошқалар), шахснинг ижтимоийлашуви ва унинг таълим аспектида акс этиши (В. Франкл,

Э.Фромм), шахсинг ижтимоий мослашуви (Л.С.Виготский, А.Н.Леонтиев, Д.И.Фелдштейн) ва унинг ижтимоий етуклиги (Г. М. Андреева, Д. А.Леонтиев ва бошқалар).

Профессионал ҳодиса ўз тақдирини ўзи белгилаш ижтимоий позитсияни баҳолашнинг иккита нуқтасида аниқланади: касб учун шахс (С.Я.Батйшев, В.А.Поляков, С.Н.Чистякова асарлари) ва шахс учун касб (Е.Ф.Зеер, Е.А.Климов, Н.С.Пряжников, И.П.Смирнова ва бошқаларнинг тадқиқотлари). Муаммоларни ҳал қилиш учун тест ва статистик маълумотларни қайта ишлаш усуллари (Студент'с т-тест) каби тадқиқот усуллари қўлланилди. Қўлланиладиган усуллар: "Касб танлаш мотивлари" тести (С. С. Гриншпун), касб танлашнинг асосий мотивларини аниқлаш усуллари (Е.М. авлютенков), Д.Голланднинг шахс турини аниқлаш тести, дифференсиал диагностика тести - "Мен афзал кўраман" усул (Е.А.Климов), ақлий эҳтиёж соҳасидаги шахсинг ижтимоий-психологик муносабатларини диагностика қилиш усули (О. Ф. Потемкина).

К.В.Судаков ва В.М.Сминов ўз ишларида мотивлар бош мия қобилятини кузатиб активликка йўллайди. Шунинг эвазига доминатлик қилувчи мотивлар бош мия структурасини танланган кузатиш тариқасида юз беришини асослаганлар.

Лаёқатлилар ва мотивлар бирлигини олимлардан А.Н. Леонтьев В.Г. Асеев, П.В.Симонев, В.С.Мерлин ва бошқалар ўрганишган.

В.Г.Асеев мотивлар тушунчасини “ҳамма турдаги уйғонишлар” деб белгилайди. Бунда эҳтиёж, қизиқиш ва лаёқат, мақсад, интилиш буларнинг ҳаммасини Асеев бир сўз билан қўзғалиш деб номлайди. В.С.Мясишев мотивлар тушунчасига муносабат тушунчасини киритади.

В.С.Мерлин фикрича ҳар қандай мотив йуналтирилган бўлиб ижобий йки салбий муносабат билдириши мумкин. “Агар одам бирор бир предметга яқинлашиб уни эгаллашга ҳаракат қилса ва қулай билса, мотивлар ижобий муносабат намоён қилади. Агар одам предметдан ўзини олиб қочса, ундан ўзини химоя қилса унда мотивлар садбий муносабат намоён қилади”.

Ўсмирлик - шахсият ривожланишининг энг муҳим даврларидан бири. Бу ёшда турли хил меҳнат турларига ахлоқий муносабатнинг асослари шаклланади.

Тадқиқотимизнинг мақсади ўрта мактаб ўқувчиларининг касбий танлови учун мотивация хусусиятларини ўрганиш эди. Тадқиқот объекти ўрта мактаб ўқувчиларининг касбий ўзини ўзи белгилаш шартлари. Тадқиқот мавзуси – Тошкент шаҳридаги ўрта мактаб ўқувчиларининг касбий танлови учун мотивациянинг ўзига хос хусусиятларини аниқлашдан иборат эди.

Бу ишларни амалаг ошириш учун, қуйидаги вазифалар белгиланди: назарий ва услубий таҳлил ўтказиш, замонавий психология фанида муаммонинг ҳолатини аниқлаш;



ўрта мактаб ўқувчиларининг касбий танлови учун мотивация хусусиятларини ўрганиш учун тўпلام методикалар мажмуасидан фойдаланиш;

Тошкент шаҳридаги ўрта мактаб ўқувчиларининг касбий йўналишини ўрганиш; касб танлаш мотивацияси ва ўғил ва қизларнинг касбий йўналишини солиштириш учун қуйдаги вазифалар бажарилди:

Олинган натижалар шуни кўрсатадики, ўрта мактаб ўқувчиларининг касб танлаш мотивларини аниқлашда кўпчилик ўғил болалар ва баъзи қизлар учун касб танлашда ташқи салбий мотивлар устунлик қилиши аниқланди, бу эса келажакда уларнинг касбий таълимга, шунингдек, ишга бўлган мотивациясига қониқиш ва маҳсулдорлигига салбий таъсир кўрсатиши мумкин.

Йигитлар орасида касб танлашда обрў-эътибор, моддийлик ва фойдалилик мотивлари устунлик қилади. Қизлар учун, ўғил болалардан фарқли ўлароқ, утилитар мотивлар, сўнгра моддий ва обрўли мотивлар устунлик қилади. Яъни, йигитлар кўпроқ дўстлар орасида кадрли бўлган касбларга интилишади, уларга жамиятда муносиб ўрин эгаллашга, мансабда тез кўтарилишларига, маълум имтиёзларга эга бўлишларига имкон яратади. Қизлар одатда этакчи одамларни, шаҳарда ишлашни, тоза ва осон ишлашни, университетга эътибор қаратишни ва шундан кейингина моддий бойликка интилишни ўз ичига олган касбларни танлашади.

8. Выготский Л.С. Психология [Текст] / Л.С. Выготский. – М.: ЭКСМО-Пресс, 2000. – 1008 с.

9. Мельникова Н.В. Развитие нравственной сферы личности дошкольника [Текст]: дис. ... д-ра психол. наук / Н.В. Мельникова. – Казань, 2009. – 337 с.

<sup>33</sup> Калинина, Р.Р. Становление нравственности в дошкольном возрасте и социальное окружение [Текст]: дис. ... канд. психол. наук / Р.Р. Калинина. – СПб., 1998. – 193 с.

<sup>34</sup> Милорадова, Н.Г. Психология и педагогика [Текст] / Н.Г. Милорадова. – М.: Гардарики, 2005. – 335 с.

<sup>35</sup> Чудновский, В.Э. О некоторых «болевых точках» становления личности [Текст] // Психологический журнал. – 2006. – №3. – Т.27. – С. 5-17.



**MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]**

**Parmonov Bobir Erkinovich**

“Umumiy psixologiya” kafedrasida dotsenti vazifasini bajaruvchi,  
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Manzil: O'zbekiston, 200100, Andijon shahri

Tel.: + 998 90 060 67 08

El. manzil: [boburf@list.ru](mailto:boburf@list.ru)

**Iqtibos uchun:** Parmonov B.E. Maktabgacha yoshidagi bolalarda axloqiy tushunchalar shakllanishining  
psixologik determinantlari. // Osiyo xalqaro universiteti axborotnomasi. 2024. №3. B.87–97.

## SUD VA TERGOV FAOLIYATIDA PSIXOLOG KOMPETENTLIGINING NAMOYON BO‘LISHI



© Olimov Laziz Yarashovich

Buxoro davlat universiteti, Buxoro shahri

### Annotatsiya.

**KIRISH:** Ushbu maqolada sud va tergov faoliyatida psixolog kompetentligining o‘ziga xos jihatlari nazariy hamda amaliy metodologik asoslari ochib berilgan bo‘lib, sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligi va emotsional intellektini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar, komponentlarini aniqlash, sud psixolog ekspertidagi ijtimoiy-psixologik, kommunikativ, shaxslilik komponentlarining namoyon bo‘lishi va rivojlanishini tadqiq qilish; sud psixolog ekspertlarining sotsial-psixologik kompetentligini rivojlantirishda ularning sud-huquq tizimi bilan bog‘liqligi ochib berilgan.

**MAQSAD:** Sud va tergov faoliyatida psixolog kompetentligining o‘ziga xos jihatlari baholash orqali sud psixolog eksperti faoliyatida ijtimoiy-psixologik va kommunikativ kompetentlik omillarining namoyon etilishini aniqlash va ularning kasbiy kompetentlik bilan o‘zaro mutanosib rivojlanishi asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Zamonaviy psixologiyada sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligi namoyon etilishi va rivojlanishi muammosini o‘rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilar ekanmiz, ulardagi kasbiy va ijtimoiy-psixologik kompetentlik metodologiyasiga aloqador bo‘lgan ko‘plab psixologik xususiyatlarni nazariy jihatdan izohlashga alohida e‘tibor qaratdik. Bir qancha ilmiy adabiyotlarning tahliliga asoslanadigan bo‘lsak, ijtimoiy-psixologik kompetentlikni aniqlashga doir tadqiqotchilar tomonidan turlicha yondashuvlar mavjudligini ko‘ishimiz mumkin. Ijtimoiy-psixologik kompetentlik jarayoni nafaqat ijtimoiy va tatbiqiy psixologiya, balki ko‘pgina psixologiya fanlarining ham amaliyotda qo‘llanilishida ko‘rishimiz mumkin. Xuddi shunday kategoriya ilmiy adabiyotlarda o‘z ifodasini topgan bo‘lib, kasbiy faoliyat samaradorligiga faqat kompetentlik vositasi sifatidagi ijtimoiy-psixologik samaradorlik mezonini sifatida baholash uchun mukammal darajadagi yagona ilmiy metodologik ishlanma hali qabul qilinmagan.



Sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligini o'rganish bo'yicha olib borilgan kuzatishlarimiz va tadqiqot muammosiga aloqador bo'lgan fundamental adabiyotlar tahlili ijtimoiy-psixologik kompetentlik muammolari bilan shug'ullanuvchi olimlarning qarashlariga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi.

Sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligi deganda - sud psixolog ekspertining shunday kasbiy faoliyati nazarda tutiladiki, bunda etarlicha yuqori darajada amaliy kasbiy faoliyat, kasbiy muomalani amalga oshira olishi nazarda tutiladi. Ayni paytda, sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligi uning kasbiy bilim va malakalari, boshqa bir tomondan esa kasbiy pozitsiyasi va psixologik sifatleri mutanosibli bilan baholanishi mumkin.

**XULOSA:** Sud psixolog ekspertining u yoki bu insonlar bilan o'zaro adekvat munosabatga kirisha olishi, xususan, sudga oid psixologik ekspertizalarda yuqori darajada muloqotmandligi, muloqot vaziyatlarini tahlil etuvchanlik, suhbatdoshning xulq-atvori, hatti-harakatlari, ruhiy kechinmalariga nisbatan adekvat sezuvchanlik va turli xil vaziyatlarga nisbatan muayyan darajada moslashuvchanlik sifatlarining namoyon etilishi bilan xarakterlanadi.

Sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligining namoyon etilishi, har bir sud psixolog ekspertida o'ziga xos tarzda shakllangan kasbiy va kommunikativ kompetentlik kabi omillarga bevosita bog'liqligi ijtimoiy-psixologik kompetentlik, kasbiy faoliyati samaradorligini belgilashga va shaxs barkamolligini ta'minlashga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** sud psixolog eksperti, ijtimoiy-psixologik kompetentligi, sud psixologik ekspertizasi, kasbiy kompetentlik, kompetentlik, emotsional intellekt, kasbiy faoliyat.

## ДЕМОНСТРАЦИЯ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПСИХОЛОГА В СУДЕБНОЙ И СЛЕДСТВЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

### Аннотация.

**ВВЕДЕНИЕ:** В данной статье раскрыты теоретические и практические методологические основы специфики компетентности психолога в судебной и следственной деятельности, выявлены социально-психологические факторы, компоненты, развивающие социально-психологическую компетентность и эмоциональный интеллект судебного психолога, проведено исследование проявления и развития социально-психологических, коммуникативных, личностных компонентов судебного психолога-эксперта; проведено исследование особенностей компетентности судебного психолога-эксперта. выявлена их связь с судебно-правовой системой в развитии социально-психологической компетентности.



**ЦЕЛЬ:** путем оценки конкретных сторон компетентности психолога в судебно-следственном процессе определить проявление факторов социально-психологической компетентности в деятельности судебного психолога и разработать практические рекомендации, основанные на их пропорциональном развитии с профессиональными. компетентность.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** Анализируя научные исследования, направленные на изучение проблемы проявления и развития социально-психологической компетентности судебных психологов-экспертов в современной психологии, необходимо теоретически осмыслить многие психологические характеристики, связанные с методологией профессиональной и социальной -психологическая компетентность на них мы обратили внимание. На основе анализа ряда научной литературы мы видим, что существуют разные подходы исследователей к определению социальной и психологической компетентности.

Процесс социально-психологической компетентности мы можем видеть не только в социальной и прикладной психологии, но и в практике многих психологических наук. Подобная категория выражена в научной литературе, и до сих пор не принята единая научно-методическая разработка совершенного уровня, позволяющая оценивать эффективность профессиональной деятельности только как критерий социально-психологической эффективности как средства компетентности.

Наши наблюдения по изучению социально-психологической компетентности судебного психолога и анализ фундаментальной литературы, связанной с проблемой исследования, требуют обратить особое внимание на взгляды ученых, занимающихся проблемами социально-психологической компетентности.

Под социально-психологической компетентностью судебного психолога-эксперта понимается профессиональная деятельность судебного психолога-эксперта, предполагающая способность осуществлять практическую профессиональную деятельность и профессиональное лечение на достаточно высоком уровне. При этом социально-психологическая компетентность судебного психолога может быть оценена по соразмерности его профессиональных знаний и умений, с другой стороны, его профессиональному положению и психологическим качествам.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** Способность судебного психолога иметь адекватные взаимоотношения с тем или иным лицом, в частности, высокий уровень общения при судебно-психологических экспертизах, умение анализировать ситуации общения, адекватная чувствительность к поведению, действиям, психическим переживаниям собеседника и различным ситуации, характеризующиеся проявлением качеств гибкости на определенном уровне.

Проявление социально-психологической компетентности судебных психологов-экспертов, прямая зависимость от таких факторов, как профессионально-коммуникативная компетентность, которая формируется уникальным образом у каждого судебного психолога-эксперта, служит определению социально-психологической компетентности, эффективности профессиональной деятельности. и обеспечить целостность личности.

**Ключевые слова:** судебный психолог-эксперт, социально-психологическая компетентность, судебно-психологическая экспертиза, профессиональная компетентность, компетентность, эмоциональный интеллект, профессиональная деятельность.

## DEMONSTRATION OF THE PSYCHOLOGIST'S COMPETENCE IN COURT AND INVESTIGATION ACTIVITIES

### Abstract.

**INTRODUCTION:** This article reveals the theoretical and practical research of the specific aspects of the psychologist's competence in the judicial and investigative process, the identification of the socio-psychological factors and components that develop the socio-psychological competence and emotional intelligence of the forensic psychologist, the communicative, emotional and personality of the forensic psychologist. study the manifestation and development of its components; in the development of socio-psychological competence of forensic psychologists, their relationship with the legal system is revealed.

**GOAL:** by evaluating the specific aspects of the psychologist's competence during the court and investigative process, it is to determine the manifestation of the socio-psychological competence factors in the activity of the court psychologist and to develop practical recommendations based on their proportional development with professional competence.

**MATERIALS AND METHODS:** Analyzing the scientific research works aimed at studying the problem of the manifestation and development of the socio-psychological competence of forensic psychologist experts in modern psychology, it is necessary to theoretically interpret many psychological characteristics related to the methodology of professional and socio-psychological competence in them. we paid attention. Based on the analysis of several scientific literature, we can see that there are different approaches by researchers to determine social and psychological competence.

We can see the process of social-psychological competence not only in social and applied psychology, but also in the practice of many psychological sciences. A similar category is expressed in scientific literature, and a single scientific methodological development of a perfect level has not et been adopted to assess the effectiveness of professional activity only as a criterion of socio-psychological efficiency as a means of competence.

Our observations on the study of the socio-psychological competence of a forensic psychologist and the analysis of the fundamental literature related to the research problem require paying special attention to the views of scientists dealing with the problems of socio-psychological competence.

Socio-psychological competence of a court psychologist expert means the professional activity of a court psychologist expert, which implies the ability to perform practical professional activities and professional treatment at a sufficiently high level. At the same time, the socio-psychological competence of a forensic psychologist can be assessed by the proportionality of his professional knowledge and skills, and on the other hand, his professional position and psychological qualities.

**CONCLUSION:** The ability of a forensic psychologist to have an adequate relationship with one or another person, in particular, a high level of communication in forensic psychological examinations, the ability to analyze communication situations, adequate sensitivity to the interlocutor's behavior, actions, mental experiences and different situations characterized by the manifestation of the qualities of flexibility at a certain level.

The manifestation of socio-psychological competence of forensic psychologist experts, the direct dependence on factors such as professional and communicative competence, which is formed in a unique way in each forensic psychologist expert, serves to determine socio-psychological competence, the effectiveness of professional activity and ensure the integrity of the individual.

**Key words:** forensic psychologist expert, socio-psychological competence, forensic psychological expertise, professional competence, competence, emotional intelligence, professional activity.

**Z**amonaviy psixologiyada sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligi namoyon etilishi va rivojlanishi muammosini o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilar ekanmiz, ulardagi kasbiy va ijtimoiy-psixologik kompetentlik metodologiyasiga aloqador bo'lgan ko'plab psixologik xususiyatlarni nazariy jihatdan izohlashga alohida e'tibor qaratdik. Bir qancha ilmiy adabiyotlarning tahliliga asoslanadigan bo'lsak, ijtimoiy-psixologik kompetentlikni aniqlashga doir tadqiqotchilar tomonidan turlicha yondashuvlar mavjudligini ko'ishimiz mumkin.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlik jarayoni nafaqat ijtimoiy va tatbiqiy psixologiya, balki ko'pgina psixologiya fanlarining ham amaliyotda qo'llanilishida ko'rishimiz mumkin. Xuddi shunday kategoriya ilmiy adabiyotlarda o'z ifodasini topgan bo'lib, kasbiy faoliyat samaradorligiga faqat kompetentlik vositasi sifatidagi ijtimoiy-psixologik samaradorlik mezonini sifatida baholash uchun mukammal darajadagi yagona ilmiy metodologik ishlanma hali qabul qilinmagan.



Sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligini o'rganish bo'yicha olib borilgan kuzatishlarimiz va tadqiqot muammosiga aloqador bo'lgan fundamental adabiyotlar tahlili ijtimoiy-psixologik kompetentlik muammolari bilan shug'ullanuvchi olimlarning qarashlariga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi.

Sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligi deganda - sud psixolog ekspertining shunday kasbiy faoliyati nazarda tutiladiki, bunda etarlicha yuqori darajada amaliy kasbiy faoliyat, kasbiy muomalani amalga oshira olishi nazarda tutiladi. Ayni paytda, sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligi uning kasbiy bilim va malakalari, boshqa bir tomondan esa kasbiy pozitsiyasi va psixologik sifatleri mutanosibligi bilan baholanishi mumkin.

Hozirgi kunda kompetentlik asosan, inson qobiliyati sifatida qaralsa, u holda insonning turli xil qobiliyati va iste'dodi haqida fikr yuritish imkoniyatini beradi. Bunda "qobiliyat" tushunchasi talqiniga turlicha yondashuvlar mavjudligini ko'ramiz.

Funksional-genetik yondashuvda qobiliyatni u yoki bu psixik jarayonni amalga oshiruvchi funksional tizimlarning samaradorlik tavsifi sifatida talqin etiladi. Bu holatda shaxs tuzilmasidagi motivatsion, xulq-atvor va kognitiv komponentlarning birlashuvini aks ettiruvchi "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalari qobiliyatlar sifatida qaralishi mumkin.

A.I.Subetto kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining sifat, xususiyat, mahorat toifalari doirasida o'rganadi. Uning ta'kidlashicha, kompetentlik va kompetensiya tushunchalari murakkab strukturali va dinamik ta'lim jarayonidir, ammo sifat va xususiyat toifalariga nisbatan ikkinchi darajali hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida quyidagi umumiy tamoyillarga bo'ysunadi:

- yaxlitlik va tizimlilik tamoyili, bunda sifatning ichki tuzilmasi asos qilinadi;

- ob'ektning sifatini yuqori sifat darajasida, sifatning tashqi tuzilmasi esa, ob'ekt yoki jarayonning tashqi muhit bilan o'zaro ta'siri sifatini real sifat darajasida aniqlaydi;

- sifatning vujudga kelishi va rivojlanishida potensial va dolzarb tashqi va ichki ziddiyatlar tizimining mavjudlik tamoyili;

- turli jarayonlar sifatini natijalarda aks ettirish tamoyili.

Kompetentlik va kompetensiya kategoriyalarining tuzilmasini o'rganish jarayonida bir nechta yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Ko'pgina mualliflar faoliyatli yondashuvni istiqbolli deb baholaydilar, shuningdek ular kompetentlikni kasbiy faoliyatda namoyon bo'ladi va shu bilan bir qatorda uning asosi ham, deb hisoblaydilar. Bunday holatda kompetentlik jarayonning aniq doirasida samarali harakatni yuzaga keltirish uchun zarur bo'lgan ichki resurslar tizimi sifatida tushuniladi. Kompetentlik tuzilmasi quyidagi komponentlarga ajratiladi: yo'naltiruvchi va ijrochi, mazmunli (bilim) va jarayonli (ko'nikma), kognitiv va operatsional.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlik muammosining umumiy jihatlari G.M.Andreyeva, Ye.A.Abulxanova-Slavskaya, V.P.Bederxanova, A.A.Bodalev, M.Kyarest, V.A.Labunskaya, A.N.Leontev, A.K.Markova, D.Mayers, Ye.S.Mixaylova, A.V.Petrovskiy, S.L.Rubinshteyn, A.V.Xutorskiy, A.J.Yujaninova kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

A.K.Markova ijtimoiy kompetentlikni mazmun jihatdan tahlil qilib, uning jarayonli va natijali tomonlarini ajratib ko'rsatgan. Muallif kompetentlik tuzilmasini jarayon (pedagogik faoliyat, pedagogik muloqot, o'qituvchi shaxsi) va pedagogik faoliyat natijalari, ya'ni ta'lim oluvchining ta'lim olganlik va tarbiyalanganlik nuqtai nazaridan tizimlashtirilgan.

Chunonchi, mehnat faoliyatining barcha jihatlari uchun psixologik modul deb nomlanuvchi kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar, kasbiy psixologik xususiyatlar ishtirok etadi. Shuningdek, kompetentlik tuzilmasi faoliyatning ichki vositasi, ya'ni motiv, bilim, ko'nikma va malaka kabi elementlarni qarab chiqish uning jarayonli va natijali ko'rsatkichlarini hisobga olish haqidagi tasavvur paydo bo'ladi.

A.V.Xutorskiyning o'tkazgan ilmiy izlanishlarida, kompetentlik – o'ziga xos individual-psixologik xususiyat sifatida namoyon bo'lishi, kompetensiya esa insonning aniq bir muhitda samarali va sifatli faoliyati uchun zarur bo'lgan tayyorgarlikka qo'yilgan va oldindan belgilangan ijtimoiy talablardan iboratligini ta'kidlaydi.

Bizning fikrimizcha, kompetentlik faqatgina individual psixologik xususiyat bo'libgina qolmasdan, balki hissiy-irodaviy sifatlarni ham o'z ichiga oladi. Agarda mana shu hissiy-irodaviy sifatlarni bo'lmaganida edi, sud psixolog eksperti o'z kasbiy faoliyatlarini samarali tashkil qila olmas edilar.

M.Kyaerst tadqiqotlarida kompetentlikning mohiyati va uning asosi sifatida (qobiliyatlar, iqtidor, bilim), inson faoliyati jarayon sifatida (ta'riflar, tavsiflar, alomatlar), faoliyat natijalari (ish natijalari, faoliyat ob'ektidagi o'zgarishlar) kabi komponentlar kiritiladi. Muallif kompetentlik mazmuniga quyidagi tavsiflarni kiritgan:

- lavozimda ishlayotgan shaxs(xodim)ga majburiy bo'lgan masalalarga intellektual mosligi;
- mutaxassis tomonidan shakllantirilgan va hal etilgan masalalarning asosiy ishdagi miqdori va sifati;
- asosiy masalalarni hal etishdagi muvaffaqiyat;
- muammoli masalalar echimining samaradorligida namoyon bo'luvchi shaxsning xususiyatlari. Bu erda olim kompetentlik tushunchasiga ko'proq insonning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olib yondashgan.

Psixologik kompetentlik tuzilmasida J.G.Garanina quyidagi ikkita darajaning mohiyatini bilim, ko'nikma, malaka va fikrlash asosida talqin qiladi:

1) kategoriyalar, hissiy-emotsional obrazlar, ijtimoiy etalonlar, stereotiplar va boshqalar, hamda fikrlash tizimlari (ijtimoiy muammolarni hal etish bo'yicha refleksiv aqliy faoliyat);

2) amaliy, ijrochilik, ya'ni insonlar bilan o'zaro ta'sir o'tkazish malaka va ko'nikmalar tizimi. Yuqoridagi ikkala yo'nalish kompetentlikning refleksiv va progressiv xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, agar shu ikki daraja bo'lmaganida edi kompetentlik tushunchasining mohiyati u qadar to'laonli hisoblanmasdi.

O.A.Bulavenkoning ta'kidlashicha, kompetentlikni kasbiy faoliyatning o'ziga xos chizgisi sifatida emas, balki shaxsning turg'un oshirilgan yoki pasaytirilgan faollikda namoyon bo'luvchi holati sifatida qarash kerakligini taklif etadi. Fikrimizcha, kompetentlik faqat faol kasbiy faoliyatda namoyon bo'ladi, faoliyatda qanaqadir turg'unlik bo'lishi uni muvaffaqiyatga erishishida to'siq bo'lishi mumkin.

I.A.Zimnaya kompetentlikni yo'naltirilganlik, maqsadni qo'ya bilish, xulqning hissiy-irodaviy boshqarilishi, qadriyatli-mazmunli munosabatlarni o'z ichiga olgan shaxs xususiyatlari sifatida qaraydi. Uning fikricha, kompetentlik tuzilishi quyidagi komponentlar tizimidan iborat:

a) shaxsning ichki psixik, tashqi xulqiy harakatida ushbu xususiyatlarni namoyon qilishga tayyorlik;

b) muvaffaqiyatga erishish uchun vazifalarni bajarishning vositasi, metodlari va dasturlarini anglash, ijtimoiy va kasbiy masalalarni echa olish, tartib-intizom talablari va o'ziga xos bo'lgan me'yorlariga rioya qilish. Bu kompetensiyaning asosiy mazmun-mohiyatini quyidagicha mazmunda ochib beradi;

c) bilimlarni amaliyotda qo'llay olish tajribasi, ya'ni ko'nikma va malaka;

d) hissiy-irodaviy regulyatsiya, kompetentlikni namoyon qila olish qobiliyati, uning ijtimoiy va kasbiy o'zaro ta'sir holatlariga bog'liq holda namoyon bo'lishini muvofiqlashtirish sifatida.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, kompetensiya tarkibida ijtimoiy-psixologik va kasbiy kompetentlikning namoyon bo'lish holatlarida o'zini-o'zi nazorat qilish, shaxsiy va kasbiy imkoniyatini namoyon qilish qobiliyatini aks ettiruvchi o'ziga xos belgilarni ajratish zarur. Sud psixologik ekspertizasi jarayonida o'z bilim, ko'nikma va malakalarni samarali qo'llash sud psixolog ekspertidan o'zini-o'zi idora qilish va o'zini-o'zi boshqarishning psixologik mexanizmlarining shakllanishini talab qiladi.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlik jarayoni nafaqat ijtimoiy va tatbiqiy psixologiya, balki ko'pgina psixologiya fanlarining ham amaliyotda qo'llanilishida ko'rishimiz mumkin. Xuddi shunday kategoriya ilmiy adabiyotlarda o'z ifodasini topgan bo'lib, kasbiy faoliyat samaradorligiga faqat kompetentlik vositasi sifatidagi ijtimoiy-psixologik samaradorlik mezonini sifatida

baholash uchun mukammal darajadagi yagona ilmiy metodologik ishlanma hali qabul qilinmagan.

Sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligini o'rganish bo'yicha olib borilgan kuzatishlarimiz va tadqiqot muammosiga aloqador bo'lgan fundamental adabiyotlar tahlili ijtimoiy-psixologik kompetentlik muammolari bilan shug'ullanuvchi olimlarning qarashlariga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi.

Sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligi deganda - sud psixolog ekspertining shunday kasbiy faoliyati nazarda tutiladiki, bunda etarlicha yuqori darajada amaliy kasbiy faoliyat, kasbiy muomalani amalga oshira olishi nazarda tutiladi. Ayni paytda, sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligi uning kasbiy bilim va malakalari, boshqa bir tomondan esa kasbiy pozitsiyasi va psixologik sifatleri mutanosibligi bilan baholanishi mumkin.

Hozirgi kunda kompetentlik asosan, inson qobiliyati sifatida qaralsa, u holda insonning turli xil qobiliyati va iste'dodi haqida fikr yuritish imkoniyatini beradi. Bunda "qobiliyat" tushunchasi talqiniga turlicha yondashuvlar mavjudligini ko'ramiz.

Funksional-genetik yondashuvda qobiliyatni u yoki bu psixik jarayonni amalga oshiruvchi funksional tizimlarning samaradorlik tavsifi sifatida talqin etiladi. Bu holatda shaxs tuzilmasidagi motivatsion, xulq-atvor va kognitiv komponentlarning birlashuvini aks ettiruvchi "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalari qobiliyatlar sifatida qaralishi mumkin.

Sud psixologik ekspertiza bugungi kunda yuridik faoliyat amaliyotiga chuqur kirib bormoqda. Sud psixologik ekspertizasining mohiyatini to'laroq anglash va amaliyotga keng doirada tadbiq etish uchun esa uning shakllanish yo'lini, tarixiy rivojlanishini bilish talab etiladi.

Huquqbuzarlik jarayonidagi ishtirokchilarning (ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlik beruvchi, xolis) psixik xususiyatlarini tadqiq qilish va o'rganishga qiziqish qadim-qadimdan mavjud bo'lgan.

Kishilik jamiyatining taraqqiy etib borishi, bir ijtimoiy tuzumning ikkinchi bir ijtimoiy tuzumga o'rnini bo'shatib berishi jamiyatda bir qator yangiliklarni, o'zgarishlarni keltirib chiqargan. Shu tariqa jamiyat taraqqiyoti barcha sohalar singari psixologiya ilmining ham rivojlanishiga turtki bo'ldi. Natijada huquqshunoslik amaliyotida psixologik tajribalarning ahamiyati yanada ortib, uni o'tkazish usullari takomillashib bordi. Bu o'z navbatida, tergov va sudlov jarayonlarining oshkoralik asosida, odilona olib borilishini ta'minladi. Biroq, tergov va sudlov jarayonlarining oshkora va odilona olib borilishi ko'p hollarda faqat sudya yoki tergovchining tajribasiga, ilmiga, malakasiga va vijdoniga bog'liqligicha qolaveradi. Bunday holat tabiiy ravishda sudlov va tergov jarayoniga boshqa sohalarining ham aralashishi zaruriyatini keltirib chiqaradi. Dastlab sudlov jarayonida psixologlar voyaga etmaganlarning psixik rivojlanishi



xususiyatlarini, xotira, tafakkur va idrok qilish va xayol jarayonlarini tadqiq qilishga alohida etibor qaratilgan.

Huquqshunoslik amaliyoti tarixidan ma'lum bo'lishicha, birinchi bo'lib 1810- yilda Napoleon "Jinoyat kodeksi"ga o'z hatti-harakatlarini boshqara olish yoki boshqara olmaslik layoqatini aniqlash tushunchasini kiritadi.

XIX-asrning ikkinchi yarmiga kelib, bir qator mamlakatlarning jinoyat protsessual kodekslariga ayblanuvchi (gumonlanuvchi shaxsi)ning o'z hatti-harakati yoki qilmishlariga javob bera olish yoki javob bera olmasligini aniqlashga doir tibbiy tushunchalar ham kiritila boshlandi.

Rossiyada 1864-yilda jinoyat ishlari bo'yicha sudlov nizomiga psixiatrik ekspertizasini o'tkazish zarurligi to'g'risidagi kodeks qo'shilib, ushbu psixiatrik ekspertiza tarkibiga psixologik ekspertizasini o'tkazish ham nazarda tutilgan edi. Shu vaqtdan e'tiboran Rossiyada psixologik ekspertiza o'tkazila boshlanadi.

XX asrning o'rtalariga kelib, eksperimental psixologiya va psixodiagnostika sohasi bo'yicha erishilgan yutuqlardan sud amaliyotida ham foydalanila boshlandi. Ushbu yo'nalish bo'yicha ilmiy tadqiqot laboratoriyalari tashkil etilib, ularda jinoyatchi shaxs xulq-atvoridagi o'zgarishlari, fiziologik affekt holati va shu kabilar o'rganila boshlandi.

1922-yilda Rossiya Federatsiyasida birinchi marta jinoyat protsessual kodeksi qabul qilindi. XX asrning boshlarida sobiq ittifoqning bir qator shaharlarida jinoyatchi shaxsini o'rganish bo'yicha markazlar ochilib, ularda sudga oid psixologik ishlar olib borila boshlandi.

XIX asrning oxiri XX asrning boshida sud psixologik ekspertizaning xulosalari isbot-dalillarning mustaqil manbai sifatida qo'llaniladi. Uning nazariy asoslari yirik olimlar tomonidan, xususan, Germaniyada - V.Shtern, G.Gross, Italiyada - E.Ferri va R.Garrofalo, Rossiyada - L.Vladimirov, A.Freze, V.Bexterev va boshqa olimlar tomonidan ishlab chiqilgan.

Sudga oid psixologik ekspertizasiga doir tadqiqotlarda sud psixolog eksperti faoliyatiga aloqador turli jihatlarini, xususan: K.Marbe psixolog jinoiy va fuqarolik ishlarda ekspert sifatidagi ishtiroki, V.Shtern sud psixolog ekspertining jinsiy jinoyat ishlari yuzasidan yosh guvohlar ko'rsatmalarini baholash va ekspertiza qilinayotganlarning aqliy qobiliyatlarni aniqlashning psixologik usullarini, G.Gross esa kriminal psixologiya sohasiga doir ekspertiza o'tkazish mexanizmlarini ochib bergan.

Guvohlik ko'rsatmalarini tadqiq etish sohasida psixologik ekspertiza o'tkazish va boshqa muammolar bo'yicha tadqiqot ishlari amalga oshirilib, psixolog A.Luriya tomonidan 1927-yilda Moskva guberniya prokuraturasi qoshida tashkil qilingan amaliy psixologiya laboratoriyasida jadal tadqiqot ishlari olib borilgan. U erda psixologik ekspertiza imkoniyatlarini kengaytirish va jinoyatlarni ochish uchun amaliy psixologiya usullarini qo'llash imkoniyatlari o'rganib chiqilgan.

Ta'kidlash joizki, amaliy psixologiyada yuridik amaliyot ehtiyojlari uchun uning qo'llanilishi asosan jinoiy jarayon ishtirokchilari ko'rsatmalarining haqiqiyligini aniqlash metodikalarini ishlab chiqish uchun qo'llanilgan. T.V.Saxnova yozishicha, bir tomondan qonunbuzar shaxsini o'rganib chiqishga e'tibor kuchayishidan darak bergan (ilgari u faqat qonunbuzarning o'zini o'rganilishida to'xtalgan), bu esa o'z navbatida, ob'ektiv va sub'ektiv tomonlarni inobatga olgan holda sodir etilgan qonunbuzarlikka aniq va to'g'ri baho berishga imkon bergan. Boshqa tomondan esa, jarayon (sodir etilgan holat) ishtirokchilarining ko'rsatmalarini haqiqiy ekanligini isbotlash uchun, ekspert sud yoki tergov jarayonida berilgan ma'lumotlar qay darajada haqiqiy ekanligini aniqlash bo'yicha vazifani o'z zimmasiga yuklatadi.

T.V.Saxnovaning fikricha, ekspertiza doirasida shaxsga tashxis qo'yish orqali haqiqatni aniqlash uchun qo'llanilgan. Respondentning erkin hikoyasi (o'zi bilan sodir bo'lgan holat yoki hodisa to'g'risida bildirgan fikrlari, yoki ko'rsatuvlari) va ekspert bergan savollarning javoblari asosida, ob'ektiv u yoki bu shaxs tipi bilan shartlangan, yolg'on belgilari mavjudligi (yoki mavjud emasligi) haqida xulosa qilinadi. Taxmin qilinishicha, sovuqqon, xo'mraygan va yopiq odamlar oldindan uylab qo'ygan yolg'onni aytishga tayyor bo'lishadi. Shuning uchun u bergan ko'rsatmalar ahamiyatli emas, deb baholash mumkin. Bajarilmagan istak-xohishlar majmui mavjud bo'lgan shaxsning ko'rsatmalari ham to'la haqiqiy deb tan olinmasligi mumkin, biroq boshqa sabablariga ko'ra: sub'ekt boshqalar nigohida o'z mavqeiga ega bo'lishi uchun, istaklarini qiziq tarzda amalga oshiradi. Bu turdagi ekspertizalar voyaga etmagan guvohlarga nisbatan samaralidir. Bu borada shuni ta'kidlash joizki, o'sha paytda ishonchli, ilmiy asoslangan shaxsni tadqiq etish bo'yicha metodikalar ishlab chiqilmagan edi, shu tufayli ekspert vazifasini ob'ektiv tarzda hal etish imkoni bo'lmagan.

O'rganish jarayonida keltirilgan vajlarning haqiqiyligini aniqlash ekspertizaning asosiy kamchiligi sifatida bundan iborat bo'lmagan. Ko'rsatmalarning haqiqiyligi haqida savolga javob berayotganda, ekspert-psixolog o'zining maxsus bilimlari chegarasidan, jarayondan tashqari, o'z vakolati doirasidan chiqib ketgan va sud vakolati chegaralariga kirgan. Rivojlanishining birinchi bosqichida sud ekspertizasi imkoniyatlariga vakolatidan ortiqcha baho berish, ehtimol qonuniydir, chunki amaliy psixologiya darajasi yuridik amaliyot ehtiyojlaridan ancha orqada qolgan edi. Bu esa o'z navbatida vazifalarni noto'g'ri, xato belgilashga va ularni echish uchun vositalarni noadekvat tanlashga olib kelar edi.

Sud psixologik ekspertizaga huquqiy holatlarni aniqlash vazifasi yuklanib, faqatgina ko'rsatmalar haqiqiyliginigina tekshirish emas, balki ularni isbotlash, qonunbuzarlikni sodir etgan shaxs hatti-harakatlarida aybdorlikni aniqlash vositasi sifatida mustahkamligini tekshirish ham kiritilganligini ko'rishimiz mumkin. Garchi bunga asos bo'lmasa ham, qandaydir ishonchsizlik haligacha ham oxirigacha bartaraf etilmagan. Aksincha, qonuniy sud ishida

mukammallashib borayotgan amaliyotning, o'sib borayotgan ehtiyojlari sharoitida, zamonaviy psixologiya fanining imkoniyatlariga etarlicha baho bera olmaslik o'rinlidir.

Olimlarning jiddiy tadqiqot ishlari (xususan, A.R.Luriya, M.M.Kochenov, A.R.Ratinov, V.L.Vasilev, V.F.Pirojkov, A.V.Dulov, V.F.Yengalichev, S.S.Shipshin va boshqalarning) jinoiy va fuqarolik ishlari bo'yicha sud jarayonlarining maqsadlariga nisbatan sifatli darajada psixologik vazifalarni qo'yish va hal etish imkonini beradi.


Sud psixolog ekspertlarining emotsional intellekti bilan ijtimoiy-psixologik kompetentlik ko'rsatkichlarining ijobiy shakllanayotganligini belgilovchi bir qancha statistik ahamiyatga ega bo'lgan alomatlar o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlikda o'z aksini topgan. Besh yilgacha ish stajiga ega bo'lgan sud psixolog ekspertlaridagi bunday ijtimoiy-psixologik imkoniyatning mavjudligi kasbiy faoliyatni to'g'ri tashkil qiluvchi omillardan biri sifatida xizmat qiladi. Ular ekspertiza qilinayotganlarning ishga oid ko'rsatuvlarini (xususan, berayotgan ko'rsatmalari rostmi, yoki yolg'onligi, ularning fantaziyaga berilayotganligi yoki yo'qligi) tinglash va tushunish uchun ortiqcha emotsional kechinmalarga berilish kerak emas, degan xulosaga kelganliklarini anglatadi. Natijada, sud psixolog ekspertlari ekspertiza jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan turli nizoli holatlar va o'zaro ziddiyatlarni bartaraf etish qobiliyatiga ega bo'lishni biladilar.

### 1-jadval

#### Kommunikativ ijtimoiy kompetentlik diagnostikasi bo'yicha olingan ma'lumotlar tahlili (n=102)

| Omillar  |                                    | besh yilgacha ish stajiga ega boʻlgan ekspertlar |       | besh yildan ortiq ish stajiga ega boʻlgan ekspertlar |      | Farq (% hisobida) |
|----------|------------------------------------|--------------------------------------------------|-------|------------------------------------------------------|------|-------------------|
|          |                                    | n1-41                                            |       | n2-61                                                |      |                   |
|          |                                    | n                                                | %     | n                                                    | %    |                   |
| «A» omil | Muloqotchan                        | 16                                               | 39,01 | 40                                                   | 65,6 | ±26,5             |
|          | Muloqotga kirishishga qiynaladigan | 25                                               | 60,9  | 21                                                   | 34,4 |                   |
|          | Jami                               | 41                                               | 100   | 61                                                   | 100  |                   |
| «B» omil | Mantiqiy fikrlaydigan              | 19                                               | 46,3  | 33                                                   | 54,1 | ±7,8              |
|          | Zaif fikrlaydigan                  | 22                                               | 53,6  | 28                                                   | 45,9 |                   |
|          | Jami                               | 41                                               | 100   | 61                                                   | 100  |                   |
| «C» omil | Barqaror                           | 13                                               | 31,7  | 43                                                   | 70,5 | ±38,8             |
|          | Beqaror                            | 28                                               | 68,3  | 18                                                   | 29,5 |                   |
|          | Jami                               | 41                                               | 100   | 61                                                   | 100  |                   |
| «D» omil | Optimizm                           | 16                                               | 39,01 | 34                                                   | 55,7 | ±16,6             |
|          | Pessimizm                          | 25                                               | 60,09 | 27                                                   | 44,3 |                   |
|          | Jami                               | 41                                               | 100   | 61                                                   | 100  |                   |
| «K» omil | Ijodiy tafakkuri rivojlangan       | 14                                               | 34,1  | 38                                                   | 62,3 | ±28,2             |
|          | Realist                            | 27                                               | 65,9  | 23                                                   | 37,7 |                   |

|          |                                     |    |      |    |      |       |
|----------|-------------------------------------|----|------|----|------|-------|
|          | Jami                                | 41 | 100  | 61 | 100  |       |
| «N» omil | O'zini nazorat qila oladigan        | 19 | 46,3 | 45 | 73,8 | ±27,5 |
|          | Nazoratda qiyinchilikka uchraydigan | 22 | 53,7 | 16 | 26,2 |       |
|          | Jami                                | 41 | 100  | 61 | 100  |       |
| «M» omil | O'ziga yo'nalgan                    | 18 | 43,9 | 28 | 45,9 | ±2    |
|          | O'zgalarga yo'nalgan                | 23 | 56,1 | 33 | 54,1 |       |
|          | Jami                                | 41 | 100  | 61 | 100  |       |
|          | Jami                                | 41 | 100  | 61 | 100  |       |



### 1-rasm. Kommunikativ ijtimoiy kompetentlikning namoyon bo'lishi

Sud huquq tizimida sud psixologik ekspertizalarni Oliy ta'lim muassasalarida (asosan psixologiya sohasi bo'yicha kadr tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari) faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilar o'tkazishlarini inobatga oladigan bo'lsak, sud psixolog ekspert faoliyati ikkinchi kasbiy faoliyat ekanligini, ularning pedagogik faoliyati bilan bog'liq holda emas, balki sud psixolog eksperti sifatida baholanganligini qayd etish lozim.

“Kommunikativ ijtimoiy kompetentlik diagnostikasi” metodikasidan olingan natijalar tahliliga ko'ra “A” omil bo'yicha “muloqotchanlik” besh yilgacha ish stajiga ega bo'lgan ekspertlarga nisbatan besh yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan ekspertlarda 65,6% (+26,5%) ni, aksincha, muloqotga kirishishga qiynalish 34,4 % (-26,5%) tashkil qildi. Ko'rinib turibdiki, sud psixolog eksperti faoliyati ish staji va tajribasining ortib borishi bilan bog'liq omil hisoblanadi. “B” omil bo'yicha “mantiiy fikrlash” darajasi besh yil stajiga ega bo'lganlarga nisbatan besh yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan ekspert 54,1% ni (+7,8%), “zaif fikrlash darajasi” esa besh yilgacha mehnat faoliyati davomiyligiga ega bo'lgan sud psixolog ekspertlarda 53,6% ni (-7,8%) ko'rsatdi. Lekin bu omil bo'yicha



besh yil va besh yildan ko'p ish stajiga ega bo'lgan sud psixolog ekspertlari ko'rsatkichlari o'rtasidagi farq oralig'i ( $\pm 7,8$ ) keskin tafovut qilmaganligini ko'rishimiz mumkin. "Mantiqiy fikrlash" qobiliyati sud psixolog eksperti faoliyati uchun muhim jihat hisoblanib, bu qobiliyat yillar mobaynida shakllanishi aniqlandi. Bunda bevosita intellektual rivojlanish jarayonning roli beqiyosdir. "Barqarorlik" va "beqarorlik" omillari bo'yicha ham besh yildan ortiq 70,5%, beqarorlik esa besh yilgacha 68,3% ni ( $\pm 38,8$ ) tashkil etdi. Bundan ma'lum bo'ldiki, barqaror ijtimoiy munosabatlar yillar davomida taraqqiy qiladi. Keyingi mezon, ya'ni, "optimizm" va "pessimizm" omili bo'yicha besh yilgacha optimizm 39,01% ni, "pessimizm" esa besh yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan sud psixolog ekspertlarda 60,09 % ni tashkil etdi. Optimizm, ya'ni yuqori kayfiyatda atrofdagilar bilan munosabatga kirishish 5 dan ortiq ish tajribasiga ega bo'lgan sud psixolog ekspertlarda ustun bo'lsa, pessimizm – ya'ni kayfiyatdagi o'zgarishlar, shaxsiy pragmatik kelishmovchiliklar va muloqot jarayonidagi uzilishlar besh yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan psixologlarda yuqori o'rin egallashi aniqlandi ( $\pm 16,6\%$ ).

"K" omili bo'yicha "ijodiy tafakkuri rivojlanganlik darajasi" besh yilgacha 34,1 % ni, realistlar esa 65,9 % ni tashkil qildi. Bundan ko'rinib turibdiki, muloqot qilish davomida besh yilgacha realistik tafakkur besh yildan ortiq ish stajiga ega bo'lganlarda esa voqealarga kreativ yondashish, erkin munosabat bildira olish va tahlil qilish kabi sifatlar rivojlanar ekan.

Keyingi omil bo'yicha "O'zini nazorat qila olish" omili besh yilgacha 19 nafar shaxsda 46,3 % ni, "O'zini nazorat qilishda qiynalish" esa besh yildan ortiq stajlilarda 45 respondent ishtirokida 73,8 % da namoyon bo'ldi. So'nggi omil bo'yicha tahlil qilinganda "o'ziga yo'nalganlik" besh yildan ortiqish stajiga ega bo'lgan 28 nafar respondent ishtirokida 45,9%ni "o'zgalarga yo'nalganlik" 23 nafar respondent bilan besh yilgacha 56,1%ni tashkil qildi. Unga ko'ra kommunikasion muomala jarayonida o'ziga bo'lgan munosabatning ustunligi besh yildan ortiq vaqt ichida to'liq shakllanadi, ungacha esa o'zgalarga ya'ni ijtimoiy muhitga e'tibor bevosita ustunlik qiladi. Ushbu tahlillar 1-jadval va 1-rasmda yanada aniqroq o'z aksini topgan.

Demak, yuqoridagilarga asoslanib shuni aytish mumkinki, sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligiga tayanch kompetensiyalarini faoliyat jarayonida shakllantirilishi kognitiv, emotsional, xulqiy omillarni o'zaro mutanosib ravishda rivojlanishi faoliyat samadorligini ta'minlashda individual va differensial farqlarga bog'liqligi haqidagi g'oyalarimiz o'z tasdig'ini topdi. Bu borada ijtimoiy-psixologik kompetentlik, eng avvalo, kasbiy faoliyat samadorligini belgilashga va shaxs barkamolligini ta'minlashga xizmat qilishi aniq.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES**

1. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.
2. Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.
3. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o‘quv qo‘llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. T. 2020. -B. 820.
4. Olimov L.Ya., Nazarov A.M.. Xulqi o‘gishgan bolalar psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. “Tafakkur avlodi” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.
5. Olimov L.Ya., Bahronova M.O‘.O‘smirlar ma’naviyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 407-413 p.
6. Olimov L.Ya., M.B.Rasulova. O‘smir shaxsi shakllanishida ahloqiy normalarning ijtimoiypsixologik ahamiyati. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 675-683 p.
7. Olimov L.Ya. Sotsialno-psixologicheskii podxod k issledovaniyu konfliktov. Vestnik integrativnoy psixologii.(jurnal dlya psixologov). 2019 god, Vipusk 19. 379-381 st.
8. Olimov L.Ya. Teoreticheskie osnovi pedagogicheskoy texnologii. Vestnik integrativnoy psixologii.(jurnal dlya psixologov). 2018 god, Vipusk 18. 163-165 st.
9. Olimov L.Ya. Teoreticheskiy analiz problemi kreativnosti v psixologii. Vestnik integrativnoy psixologii jurnal dlya psixologov. Vipusk № 23, 2021 g. S 237-241.
10. Olimov L.Ya., Jumaev N.Z. Pedagogicheskoe obshchenie pedagoga so studentami. Vestnik integrativnoy psixologii.(jurnal dlya psixologov). 2017 god, Vipusk 15. 198-203 st.
11. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. Diagnostika Upravlencheskix Sposobnostey. Vestnik integrativnoy psixologii jurnal dlya psixologov. Vipusk № 2, 2020 g. S 204-209.
12. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. Psixologicheskie mexanizmi deviantnogo povedeniya. Psixologiya XXI veka. Yaroslavl., 2020. –S. 125-127.
13. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. Stressli vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlari va koping xulq-atvor namoyon bo‘lishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Psixologiya. Uchrediteli: Buxarskiy gosudarstvenniy universitet, 31-38.
14. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. Stressli vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlari va koping xulq-atvor namoyon bo‘lishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari: stressli vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlari. Psixologiya ilmiy jurnali. 2020 yil, 4 son 109-115 b.



15. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. O'smirlarda psixologik himoya mexanizmlarining namoyon bo'lishining o'ziga xosligi. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 yil, 4 son 103-112 b.

16. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. Ekstremal vaziyatlarda koping xulq-atvor va strategiyalar namoyon bo'lishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 yil, 3 son 98-106 b.

**MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]**

**Olimov Laziz Yarashovich**

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

azizbekyarasev@mail.ru

ORCID: 0000-0001-9437-9741

SCOPUS ID 57215004089

**Iqtibos uchun:** Olimov L.Y. Sud va tergov faoliyatida psixolog kompetentligining namoyon bo'lishi // Osiyo xalqaro universiteti axborotnomasi. 2024. №3. B.99–114.

## TURLI EKSTREMAL VAZIYATLARDA SHAXSNING XULQ- ATVORIDAGI DINAMIK REAKSIYALAR



© **Avezov Olmos Ravshanovich**

Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro shahri

### **Annotatsiya.**

**KIRISH:** Mazkur maqolada, ruhiy tushkunlikda shaxsga psixologik yordam ko'rsatishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari shuningdek ekstremal vaziyatlarda shaxs psixikasida yuzaga keladigan stressli vaziyatlar va ularni oldini olish haqida tushunchalar ochib berilgan.

**MAQSAD:** Turli ekstremal vaziyatlarda shaxsning individual jihatlarini baholash orqali tasodifiy holatlarda paydo bo'ladigan konstruktiv va destruktiv xulq- atvor omillarining namoyon etilishini aniqlash va ularning tashqi shart-sharoitlar bilan o'zaro mutanosib rivojlanishi asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Bugungi kunda ekstremal vaziyatlarda shaxsdagi psixologik zo'riqishlarning kelib chiqishiga ko'ra inqirozli vaziyatlarda "ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishni kutishga yo'nalganlik"ning regressiya, o'rin almashtirish, siqib chiqarish psixologik himoya mexanizmlariga integrativ rivojlanishi tufayli shaxs hissiy-emotsional sohasida stressbardoshlikning differensial strategiyalarini namoyon bo'lishi dalillangan;

ekstremal vaziyatlarda shaxsga psixologik xizmat ko'rsatishning psixologik mexanizmlari o'z hissiyotlarini, hatti-harakatlarini to'g'ri boshqara olish, o'zini-o'zi tartibga solish qobiliyatlarining "Topshiriqni hal qilishga", "emotsiyaga"ga yo'nalgan xulq-atvorga o'zaro uyg'un shakllanganligi sababli turli xil vaziyatda uchraydigan favqulotda holatlarda o'zini-o'zi adekvat baholay olish imkoniyati ustuvor rivojlanishini ta'minlash asosida isbotlangan;

ekstremal vaziyatlarda shaxsga psixologik xizmat ko'rsatish jarayonida debriefingni qo'llash natijasida shaxs psixoemotsional holatini barqarorlashtirish, stressga chidamlilikni rivojlantirishning shaxsning emotsional o'zini-o'zini baholashga integratsiyasi tufayli «konfrontatsiya», «masofa saqlash», «o'z-o'zini



nazorat qilish», «ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni izlash» strategiyalarini ustuvor shakllanishi isbotlangan.

#### **XULOSA:**

Muayyan himoya turlari o'rtasidagi farqlarga qaramasdan, ularning vazifalari o'xshash. Ular psixikaga kiruvchi hodisalarning shikast etkazish ta'sirini kamaytirish, shaxsiy tashvish darajasini pasaytirish, shaxsning o'zini namoyon qilishning barqarorligi va o'zgaruvchanligini saqlab qolishdan iborat.

Shundan kelib chiqib izohlash mumkinki, ekstremal vaziyatda tabiiy rashishda shaxs xulq-atvorning faoliyat uslubi va samaradorligiga ta'siri kuchayadi va inson o'zining tug'ma dasturlarini boshqaradi, bu esa kishidan minimal energiya darajasini va tartibga solish vaqtini talab qiladi.

**Kalit so'zlar:** Psixologik stress, surunkali stressorlar, stress va kasbiy salomatlik, ta'sirning intensivligi, fiziologik va ruhiy o'zgarishlar, hissiy rang belgisi, vaziyatni sub'ektiv baholash, zaiflik nuqtalari, stressli hodisa, vaziyatni idrok etish va javob berish usuli, stressorlar, uzoq muddatli stresslar, hissiy reaksiyalar.

### **ДИНАМИЧЕСКИЕ РЕАКЦИИ ЛИЧНОСТИ В РАЗЛИЧНЫХ ЭКСТРЕМАЛЬНЫХ СИТУАЦИЯХ**

#### **Аннотация.**

#### **ВВЕДЕНИЕ:**

В данной статье раскрываются социально-психологические особенности оказания психологической помощи человеку, находящемуся в депрессии, а также понятия о стрессовых ситуациях, возникающих в психике человека в экстремальных ситуациях, и их профилактике.

#### **ЦЕЛЬ:**

Он заключается в определении проявления конструктивных и деструктивных поведенческих факторов, возникающих в случайных ситуациях, путем оценки отдельных сторон личности в различных экстремальных ситуациях и разработки практических рекомендаций, основанных на их пропорциональном развитии с внешними условиями.

#### **МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:**

Сегодня по возникновению психологического напряжения у человека в экстремальных ситуациях, в кризисных ситуациях, в связи с интегративным развитием «направления на ожидание социальной поддержки» к механизмам психологической защиты регрессии, замещения, вытеснения, у человека происходит больший уровень стрессоустойчивости в эмоционально-эмоциональной сфере, доказано, что проявляются дифференцированные стратегии;

психологические механизмы оказания психологической помощи человеку в экстремальных ситуациях, способность правильно управлять

своими эмоциями, поведением, навыки саморегуляции, «решение задач», «эмоциональное» поведение - доказано на основе обеспечения приоритета развитие возможности адекватной самооценки в нештатных ситуациях, возникающих в различных ситуациях, благодаря гармоничному формированию характера;

стабилизация психоэмоционального состояния человека в результате использования дебрифинга в процессе оказания психологической помощи человеку в экстремальных ситуациях, «конфронтация», «соблюдение дистанции», «самоконтроль» за счет интеграции Доказано развитие стрессоустойчивости в эмоциональной самооценке личности, формировании приоритета стратегии «поиска социальной поддержки».

### **ЗАКЛЮЧЕНИЕ:**

| слишком<br>высокая  | 5,5  | 7,3  | -   | 12,7 | -   | -    | 5,5 | 7,3 | -   |

\*А – адаптивные варианты копинг-стратегий;

\*ОА – относительно адаптивные варианты копинг-стратегий;

\*Н – неадаптивные варианты копинг-стратегий

У подростков с низкой мотивацией к успеху существенных различий в проявлении адаптивных, относительно адаптивных и неадаптивных вариантов когнитивных, эмоциональных и поведенческих копинг-стратегий не выявлено.

У подростков со средней мотивацией к успеху преобладает проявление адаптивных эмоциональных (29,1%) копинг-стратегий.

У подростков с умеренно высокой мотивацией к успеху проявляются в значительной степени адаптивные варианты когнитивных (21,8%), эмоциональных (27,3%) и поведенческих (20%) копинг-стратегий поведения и относительно адаптивные варианты поведенческого копинга (20%).

Испытуемые со слишком высокой мотивацией к успеху в большей степени проявляют адаптивные варианты эмоционального копинга (12,7%), а также адаптивные варианты когнитивного и поведенческого копинга (5,5 %) и относительно адаптивного когнитивного и поведенческого копинга (7,3 %). Неадаптивные варианты копинг-стратегий подростки с очень высокой мотивацией к успеху вообще не используют.

Таким образом, прослеживается общая тенденция использования подростками адаптивных и относительно адаптивных когнитивных копинг-стратегий. Причем адаптивные и относительно адаптивные когнитивные копинг-стратегии чаще проявляются у подростков с умеренно высокой мотивацией к успеху. Реже всего подростки используют неадаптивные когнитивные копинг-стратегии. А испытуемые со слишком высокой мотивацией достижения неадаптивные когнитивные копинг-стратегии не используют вообще. Заключение. Проведенное нами исследование позволило установить связь между уровнем мотивации к успеху и различными вариантами копинг-стратегий у подростков. Так у подростков с высокой, умеренно высокой и средней мотивацией к успеху в деятельности преобладают адаптивные и относительно адаптивные варианты копинг-стратегий. В большей степени данные адаптивные варианты совладающего поведения в подростковом возрасте проявляются в эмоциональном копинге.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Морозова, Т.Ю. Изучение особенностей копинг-поведения в юношеском возрасте [Текст] / Т.Ю. Морозова // Системная психология и социология: Всероссийское периодическое издание научно-практический журнал. – 2014. – № 1 (9). – С. 45–52.
2. Корытова, Г.С. Факторная структура копинг-поведения матерей, воспитывающих детей раннего возраста с нормативным уровнем психосоциального развития [Текст] / Г.С. Корытова, Ю.А. Еремина // Сибирский психологический журнал. – 2017. – № 65. – С. 22–39. DOI:10.17223/17267080/65/2
3. Нартова-Бочавер, С.К. «Coping behavior» в системе понятий психологии личности [Текст] / С.К. Нартова-Бочавер // Психологический журнал. – 1997. – № 5. – С. 20–30.
4. Набиуллина Р.Р., Тухтарова И. В. Механизмы психологической защиты и совладания со стрессом (определение, структура, функции, виды, психотерапев- тическая коррекция). Учебное пособие. – Казань, 2003.
5. Ю.А. Рокицкая. Факторная структура копинг-поведения. Вестник Челябинского государственного педагогического университета. 2018. № 3. – С. 220–230.

## MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

**Ostonov Jasur Shopirjonovich**

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

[jasurostonov19892021@gmail.com](mailto:jasurostonov19892021@gmail.com)

ORCID: 0000-0002-1629-6980

**Iqtibos uchun:** Остонов Ж.Ш. Факторная структура копинг-поведения подростков. // Osiyo xalqaro universiteti axborotnomasi. 2024. №3. В.131–138.

## IRODAVIY FAOLLIKNI TADQIQ ETISHDA JINS XUSUSIYATLARINING QIYOSIY TAHLILI



© Jo'rayev O'tkir Tashpulatovich

Termiz davlat universiteti, Termiz shahri

### Annotatsiya.

**KIRISH:** Ushbu maqolada irodaviy faollikning jins tafovutlarning psixodiagnostik usullar yordamida olingan empirik ma'lumotlari bayon etilgan. Tadqiqot mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda irodaviy sifatlarning shaxslilik va jinsiy farqlarini yoritishga e'tibor qaratilgan. Shuningdek irodani rivojlantirishga doir tavsiyalar keltirib o'tilgan.

**MAQSAD:** Oliy ta'lim muassasalari talabalarida irodaviy faollikning vaziyatli va shaxslilik jihatlari o'rtasidagi bog'liqlikni va jinsiy farqlarni o'rganish orqali ulardagi irodaviy sifatlarni rivojlantirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Jahonda shaxsdagi irodaviy faollikni rivojlantirish masalasi shaxs kamolotini ta'minlovchi omil sifatida e'tirof etilmoqda. Shaxsning o'z maqsadlariga erishishida, biror faoliyatga mas'uliyat bilan yondashishi, oldida turgan to'siqlarga qaramasdan mazkur vazifani bajarishda g'ayrat ko'rsatishi, qatiyatlilik va tashabbuskorlik namoyon etishi muvaffaqiyatli faoliyat garovi bo'lib qolmoqda. Darhaqiqat, insonning har qanday faoliyatda iroda etakchi o'rin egallaydi. Shu jihatdan bugungi kunda yoshlarni irodali, mas'uliyatli, tirishqoq, dovyurak qilib tarbiyalashga e'tibor ortib bormoqda.

Irodaning shaxsda namoyon bo'lish muammosi yuzasidan psixologiya sohasida juda keng tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ular turlicha nazariyalar, tamoyillar, yondashuvlar, yo'nalaishlarga asoslanib tadqiq qilingan. Diqqatga sazovar jihatlari shundan iboratki o'sha yondashuvlar hozirgi davrgacha o'z ahamiyatini tarixiy omil sifatida saqlab qolmoqda. Darhaqiqat, insonning har qanday faoliyatda iroda etakchi o'rin egallaydi. Irodaviy faollikning shaxslilik va gender tafovutlarini puxta va aniq tadqiq qilish bizning oldimizda turgan muhim vazifalardan biri sanaladi.



Shu munosabat bilan irodaviy faollikning shaxslilik va gender tafovutlarini aniqlash maqsadida rus psixologi Mihail Vladislavovich Chumakov tominidan ishlab chiqilgan «Shaxsning irodaviy sifatleri» so‘rovnomasidan foydalandik. Shuningdek tadqiqotning miqdoriy natijalarini qayta ishlashda, ma’lumotlarni ishonchlilik darajasini aniqlashda, o‘rtacha arifmetik qiymatlarni olishda va sinalluvchilarning hududiy va jinsiy tafovutlarni tahlil qilishda matematik – statistika metodlari, Mani-Uitni mezonni qo‘llanildi. Natijada bizga, irodaviy faollikning shaxslilik va gender tafovutlarini har tomonlama, sinchiklab diagnoz qilish imkoni yaratildi.

**XULOSA:** Shaxsda iroda namoyon bo‘lishi haqidagi yondashuvlarga qarab u mustaqil tarkib topgan psixik tuzilma, yoki nopsixologik tabiatga ega mustaqil kuch, balki motivatsion, aksincha emotsional voqelik, sifatida miya holati deb talqin qilinadi.

Irodaviy sifatlarini baholash, ularda aqliy va ixtiyoriy boshqaruvning tarkib topishi, o‘zini o‘zi nazorat qilish, irodaviy faollik va shaxslilik xususiyatlarining o‘zaro mutanosibligini tahlil qilish, psixologik tadqiqotlarning o‘ziga xos muhim yo‘nalishi sanaladi.

**Kalit so‘zlar:** iroda, faollik, gender, mas’uliyatlilik, tashabbuskorlik, qat’iyatlilik, matonat, mustaqillik, tirishqoqlik, g‘ayratlilik, ziyraklik, sobidqadamlik.

## ГЕНДЕР В ДОБРОВОЛЬЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ИССЛЕДОВАНИЙ СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ХАРАКТЕРИСТИК

### Аннотация.

**ВВЕДЕНИЕ:** В статье описаны эмпирические данные о гендерных различиях в волевой деятельности, полученные с помощью психодиагностических методов. Исследование было сосредоточено на выявлении личностных и половых различий волевых качеств в зависимости от характера содержания. Также приведены рекомендации по развитию воли.

**ЦЕЛЬ:** Заключается в разработке предложений и рекомендаций по развитию произвольных качеств у студентов высших учебных заведений путем изучения взаимосвязи ситуативных и личностных аспектов произвольной деятельности и гендерных различий.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** В мире вопрос развития произвольной активности человека признается фактором, обеспечивающим совершенствование личности. Залогом успешной деятельности остается способность человека достигать поставленных целей, ответственно подходить к деятельности, проявлять энтузиазм при выполнении этой задачи, несмотря на стоящие перед ним препятствия, проявлять

решительность и инициативу. Фактически воля занимает ведущее место в любой деятельности человека. В связи с этим сегодня уделяется внимание воспитанию молодежи волевыми, ответственными, трудолюбивыми и смелыми.

По проблеме проявления воли у человека проведены обширные исследования в области психологии, основанные на различных теориях, принципах, подходах, направлениях. Примечательно, что эти подходы сохраняют свое значение как исторический фактор до настоящего времени. Фактически воля занимает ведущее место в любой деятельности человека. Тщательное и точное изучение личностных и гендерных различий в произвольной деятельности считается одной из важных задач, стоящих перед нами.

В связи с этим для определения личностных и гендерных различий в волевой деятельности мы использовали опросник «Волевые качества личности», разработанный российским психологом Михаилом Владиславовичем Чумаковым. Также для обработки количественных результатов исследования, определения уровня достоверности данных, получения средних арифметических значений и анализа региональных и половых различий испытуемых были использованы математико-статистические методы, критерий Mani-Uitni. В результате нам удалось комплексно диагностировать личностные и половые различия в волевой деятельности.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** В зависимости от подходов к проявлению воли у человека она трактуется как состояние мозга как самостоятельной психической структуры, либо как самостоятельная сила непсихологической природы, но и мотивационная, скорее, эмоциональная реальность.

Оценка волевых качеств, содержания психического и произвольного контроля, самоконтроля, волевой деятельности и анализ взаимосвязи свойств личности считаются особо важным направлением психологических исследований.

**Ключевые слова:** активность, пол, ответственность, инициатива, настойчивость, упорство, независимость, усердие, усердие, сообразительность, настойчивость.

## GENDER IN VOLUNTARY ACTIVITY RESEARCH COMPARATIVE ANALYSIS OF THE CHARACTERISTICS

### Abstract.

**INTRODUCTION:** This article describes the empirical data of volitional activity obtained using psychodiagnostic methods of personality and gender differences. The study focuses on highlighting the personality and gender

differences of volitional qualities based on the essence of the content. Recommendations for the development of power are also cited.

**GOAL:** It consists of developing proposals and recommendations for the development of voluntary qualities in students of higher educational institutions by studying the relationship between situational and personal aspects of voluntary activity and gender differences.

**MATERIALS AND METHODS:** Around the world, the issue of developing a person's voluntary activity is recognized as a factor ensuring personal improvement. The key to successful activity remains a person's ability to achieve set goals, take a responsible approach to activities, show enthusiasm in carrying out this task, despite the obstacles facing him, and show determination and initiative. In fact, will occupies a leading place in any human activity. In this regard, today attention is paid to educating young people to be strong-willed, responsible, hardworking and courageous.

On the problem of the manifestation of will in humans, extensive research has been carried out in the field of psychology, based on various theories, principles, approaches, and directions. It is noteworthy that these approaches retain their significance as a historical factor to the present day. In fact, will occupies a leading place in any human activity. Careful and precise study of personality and gender differences in voluntary activities is considered one of the important tasks facing us.

In this regard, to determine personal and gender differences in volitional activity, we used the "Volitional Personality Qualities" questionnaire, developed by Russian psychologist Mikhail Vladislavovich Chumakov. Also, to process the quantitative results of the study, determine the level of data reliability, obtain arithmetic average values and analyze regional and gender differences among the subjects, mathematical and statistical methods and the Mani-Uitni criterion were used. As a result, we were able to comprehensively diagnose personality and gender differences in volitional activity.

**CONCLUSION:** Depending on the approaches to the manifestation of will in a person, it is interpreted as a state of the brain as an independent mental structure, or as an independent force of a non-psychological nature, but also a motivational, rather, emotional reality.

Assessment of volitional qualities, the content of mental and voluntary control, self-control, volitional activity and analysis of the relationship between personality traits are considered a particularly important area of psychological research.

**Key words:** activity, gender, responsibility, initiative, tolerance, perseverance, independence, diligence, zeal, elegance, steadfastness.

Jahonda insonning o'z imkoniyatlaridan samarali foydalanishi, biror faoliyatga qat'iyat bilan kirishishi, qiyinchilik va to'siqlarga qaramasdan mazkur ishni amalga oshirishda shijoat ko'rsatishi, tirishqoqlik va tashabbuskorlik namoyon etishi muvaffaqiyatli faoliyat garovi bo'lib qolmoqda. Psixologiya sohasida iroda tushunchasi kishilik jamiyatining ijtimoiy-tarixiy, ijtimoiy-psixologik taraqqiyotining har bir bosqichida muayyan darajada o'rganilgan. Chunki taraqqiyotning har bir davri uchun shaxs kamoloti alohida ahamiyat kasb etgan, uning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan irodaviy sifatlar, ularning turmushdagi o'rni qat'iy ta'kidlangan. Jamiyat farovonligini harakatlantiruvchi kuchi sifatida shaxsning yuksak darajada ulug'lanishi va baholanishi unga nisbatan diqqat-e'tibor sira pasaymagan. Shuning uchun iroda falsafa va psixologiya fanlarining tadqiqot predmetida puxta o'rin egallaganligi uning dolzarb mavzu ekanligini bildiradi.

Hozirgi davrda mamlakatimizda barkamol avlod shakllanishiga munosabat davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi tufayli mazkur muammo keng ko'lamda tadqiq qilinishga loyiq.

Irodaviy faollik muammosi tadqiqotchi va olimlarni o'zining murakkab va to'liq o'rganilmaganligi bilan o'ziga rom etadi. Shu sababli ham so'nggi yillarda bu mavzuga qiziqishning oshishi xorij psixologiyasidagi va mintaqamizdagi ilmiy tadqiqotlarning ortishi bilan asoslash mumkin.

Tadqiqotchi olim Y.Kul irodaviy boshqaruvni shaxsiy intilishlarini amalga oshirishda mavjud qiyinchiliklar bilan bog'laydi. Rus olimi I.P.Pavlov irodani «erkinlik instinkti», tirik organizmning bu faoliyatni cheklovchi to'siqlarga duch kelgandagi ongli faoliyatining namoyon bo'lishi deb hisoblagan. V.Shtern irodaning o'ziga xos xususiyatlarini quydagicha tariflaydi, u haqiqiy harakat bilan emas, balki kelajakda amalga oshirilishi kerak bo'lgan harakat bilan bog'liq va iroda insonni oldinga intilishga chorlovchi istiqbolli harakatidir. Shuningdek Venalik mashhur olim V.E.Frankl irodani hayotiy vazifalarning eng asosiysi ekanligini takidlaydi. [1] Fransuz faylasufi A.Bergson tomonidan tavsiya etilgan volyuntaristik an'anaga binoan, iroda-idrokdan oldin turadigan voqelikning fundamental xossasi bo'lib, jamiki tushuntirish modellarining asosi hisoblanadi. [2] V.I.Selivanov boshqaruv mohiyatini "shaxs tomonidan ko'zlangan xatti-harakat va xulq-atvorni amalga oshirishda uchraydigan qiyinchilik va to'siqlarni bartaraf etishda uning psixik va jismoniy imkoniyatlari mobilizatsiyasi" deb tushunadi. [3] P.V.Simonov irodani erkinlik refleksi oldidagi to'siqni engib o'tishga bo'lgan reaksiya sifatida talqin etadi. [4].

Gruzin akademigi D.N.Uznadze ta'limotida irodaning shakllanishini shaxsning mehnat jarayoni bilan bog'laydi, qachonki iroda faol ehtiyojsiz ham ro'yobga chiqadi va subyektning ehtiyojlariga bog'liq bo'lmagan qadriyatlarni yaratishga yo'naladi. D.N.Uznadze iroda muammosining ildizini shunda ko'radiki, bunda iroda faoliyat yoki xulq-atvorning manbasi ilg'or ehtiyojlarning



impulsi emas, aksincha butunlay boshqa narsa tarzida ko‘rinishga ega bo‘lib, hatto unga qarama-qarshi xususiyat kasb etadi. [5]

Darhaqiqat, biz tomonimizdan tadqiqot doirasida o‘rganilgan yondashuvlardan ko‘rinib turibdiki, psixologiyaning barcha sohalari bo‘yicha o‘xshashlik mavjud. Shu sababli, ushbu yondashuvning dolzarb masalalari irodaviy jabhalardan tanlov muammosini ajratib olish va ularni eksperimental tahlili uchun oqilona, to‘g‘ri psixodiagnostik metodlarni tanlab olish va qulay yangi metodikalarni ishlab chiqish, ayrimlarini moslashtirish bizning oldimizda turgan muhim vazifalardan sanaladi.

Zamonaviy psixologiyada irodaviy faollikni shaxslilik va gender tafovutlarini o‘rganishga oid qator ilmiy tajribalar amalga oshirilgan. Psixologik manbalarga nazar solsak, shaxs faolligining turli ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, ular funksional jihatdan bir-biridan tafovutlanadi, lekin iroda inson faolligini alohida, o‘ziga xos shaklidan iboratligi bilan ajralib turadi. [4]

Bizning mavzumizga dahldor tadqiqotlardan biri N.D.Skryabin tomonidan amalga oshirilgan. [6] U o‘z tadqiqotlarida ikki jins sinaluvchilarning jasurlik sifatlarini davriy o‘zgarishlarini asoslab berishga harakat qilgan.

Irodaviy faollikning individual xususiyatlari mavjud bo‘lib, u shaxs faoliyatini ma’lum bir maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirishni ta’minlaydi. Shaxs faoliyatida iroda ichki qiyinchiliklarini engishga yonaltirilgan ongli tuzilmadan iborat bo‘lib, u o‘zini o‘zi boshqarish sifatida namoyon bo‘lib, o‘z ichki kechinmalarini hamda faolligini tartibga solishga xizmat qiluvchi psixologik hodisadir. Irodaning kuchi yoki kuchsizligini aks ettiruvchi holatlar uning individual xususiyatlarini namoyon qiladi. Ana shu atamalardan kelib chiqqan holda irodasi kuchli va irodasi sust (kuchsiz) odamlar hamda ularning ijobiy va salbiy fazilatlarini, sifatlarini, hislatlarini, illatlarini to‘g‘risida mulohaza yuritiladi. Irodasi sustlikning patologiyasi mavjud bo‘lib, ular abuliya (yunoncha abulia – qat’iyatsizlik degan ma’noni anglatadi) va apraksiya (yunoncha apraxia-harakatsizlik ma’nosini bildiradi) atamalarini bilan ifodalanadi. Abuliya - bu miya patologiyasi negizida vujudga keladigan faoliyatga intilishning mavjud emasligi, harakat qilish, uni amalga oshirish uchun qaror qabul qilish zarurligini anglagan tarzda shunday qila olmaslikdan iborat inson o‘jizligidir. [7]

Mavzumiz mazmun mohiyatidan kelib chiqib mazkur muammoga taalluqli tadqiqotlarni amalga oshirdik. Tajribalarimiz Surxondaryo va Xorazm viloyatlari hamda Toshkent shahrida joylashgan oliy ta’lim muassalarida tahsil olayotgan jami 315 nafar talabalarda sinovdan o‘tkazildi. Tadqiqotni tashkil etishda yigit va qizlarning tadqiqot guruhida nisbatan teng taqsimlandi. Bu esa sininaluvchilarimiz shaxsining jins xususiyatlarini obyektiv o‘rganishda, ishonchli dalillarga ega bo‘lishda katta ahamiyatga egadir. Quyida tajribaviy sinov natijalarimizdan ba’zilarini keltirib o‘tamiz.

### M.V.Chumakovning “Shaxsning irodaviy sifatleri” so‘rovnomasini bo‘yicha jins tafovutlari. (N=315)

| Shkalalar       | Sinaluvchilarni<br>ng jinsi | N   | O‘rtacha<br>rang | Mani-Uitni<br>mezoni | Ishonch<br>darajasi |
|-----------------|-----------------------------|-----|------------------|----------------------|---------------------|
| Ma’suliyatlilik | Yigitlar                    | 150 | 170,35           | -2,374               | ,018*               |
|                 | Qizlar                      | 165 | 146,77           |                      |                     |
| Tashabbuskorlik | Yigitlar                    | 150 | 169,68           | -2,193               | ,028*               |
|                 | Qizlar                      | 165 | 147,38           |                      |                     |
| Qat’iyatlilik   | Yigitlar                    | 150 | 165,06           | -1,344               | ,179                |
|                 | Qizlar                      | 165 | 151,58           |                      |                     |
| Mustaqillik     | Yigitlar                    | 150 | 172,00           | -2,645               | ,008**              |
|                 | Qizlar                      | 165 | 145,27           |                      |                     |
| Matonat         | Yigitlar                    | 150 | 176,13           | -3,412               | ,001***             |
|                 | Qizlar                      | 165 | 141,52           |                      |                     |
| Tirishqoqlilik  | Yigitlar                    | 150 | 167,34           | -1,777               | ,076                |
|                 | Qizlar                      | 165 | 149,51           |                      |                     |
| G‘ayratlilik    | Yigitlar                    | 150 | 183,80           | -4,869               | ,000***             |
|                 | Qizlar                      | 165 | 134,55           |                      |                     |
| Ziyraklik       | Yigitlar                    | 150 | 172,72           | -2,785               | ,005**              |
|                 | Qizlar                      | 165 | 144,62           |                      |                     |
| Sobitqadamlilik | Yigitlar                    | 150 | 158,56           | -,108                | ,914                |
|                 | Qizlar                      | 165 | 157,49           |                      |                     |

**Izoh:**  $p < 0,05^*$ ,  $p \leq 0,01^{**}$ ,  $p \leq 0,001^{***}$

Tadqiqot natijalariga binoan ikki jins vakillarida irodaviy sifatlarining namoyon bo‘lishida sezilarli farqlar kuzatildi.

Yuqoridagi jadvalda “Shaxsning irodaviy sifatleri” so‘rovnomasidan olingan miqdoriy ko‘rsatkichlardan ma’lumki sinaluvchilarning umumiy kontengenti misolida ikki jins vakillari natijalari qiyoslandi. Tadqiqot natijalariga binoan birinchi shkala bo‘yicha yigitlarning qizlarga nisbatan sezilarli darajada mas’uliyatlilik darajasi yuqori ekanligi aniqlandi. ( $U = -2,374$ ,  $p < 0,05^*$ ).

Tashabbuskorlik shkalasi bo‘yicha yigitlarning arifmetik ko‘rsatkichlari - 2,193 ni tashkil etdi. Natijada  $p < 0,05^*$  ishonch darajasida qizlarga nisbatan erkaklarda tashabbuskorlik sifati yuqori ekanligini ma’lum bo‘ldi. Bunga asosiy sabab qilib o‘zbek oilalarida shakllangan yigitlarning oila boshqaruvida etakchilikni qo‘lga olishi va ayollarimizning oila boshiga bo‘ysinishini ko‘rsatishimiz mumkin. So‘rovnoma talabiga binoan bunday shaxslar yaratuvchanlik qobiliyati yuqori, hayotda biror narsani o‘zgartirishga intilib yashaydilar. Bu kishilar o‘zlarini o‘zgaruvchan vaziyatda yaxshi his qiladilar va islohotlar o‘tkazishga tayyordirlar. Ularda yuqori ijodkorlik qobiliyati mavjud bo‘lib intellektual salohiyat bilan samarador faoliyat olib borishlari mumkin.

Qat’iyatlilik shkalasida ikki jins vakillarida sezilarli farqlar kuzatilmadi. Ammo yigit va qizlarning o‘rtacha arifmetik qiymatlari ushbu shkala bo‘yicha past ko‘rsatkichni tashkil etmoqda. Bundan ko‘rinadiki sinaluvchilarda ikkilanuvchanlik, shubhalanuvchanlik, ishonchsizlik kabi sifatlar yuqori turadi.

Mustaqillik shkalasi bo'yicha yigitlarda yuqori natija kuzatildi. Buday natija mustaqil ravishda qaror qabul qilishga intiladigan, ko'p holatlarda o'zgalarning psixologik qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj sezmaydigan, o'zining nuqtai nazariga qarama-qarshi kelsa, guruhning qarashlariga qarshi chiqa oladigan shaxslarda kuzatiladi. Qizlarda esa ushbu shkala bo'yicha yigitlarga nisbatan farqlar kuzatildi. ( $U=-2,645$ ,  $p<,008^{**}$ ) Qizlar mustaqil qaror qabul qilishdan oldin taklif sifatida bayon etishadi. Bu xususiyat ularda asrlar davomida etnopsixologik muhit va oilaviy tarbiya jarayonida shakllangan.

Matonat shkalasida ham yigitlarda yuqori ko'rsatkich kuzatildi. Bular o'z his-tuyg'ularini tartibga sola oladigan, stressli holatlarga bardosh bera oladigan motonatli shaxslar sanalishadi. Shuningdek yuqori natija kuzatilgan sinaluvchilar vaziyatni o'zgartirishda oqilona qaror qabul qilib, mashaqqatli qiyin vaziyatlarda sabr-toqat bilan bardosh bera oladigan shaxslar sanalishadi. Qizlarimizda ushbu shkala ko'rsatkichlarida ham farqlar kuzatildi. Ular o'z hissiyotlarini erkin namoyish qiladigan shaxslar sanalishadi. ( $U=-3,412$ ,  $p<,001^{**}$ )

Tirishqoqlik shkalasi bo'yicha sinaluvchilarning olingan natijalarida tafovutlar kuzatilmadi. Unga ko'ra ikki jins vakillarida tirishqoqlik darajasi past ekanligi arifmetik ko'rsatkichlarda o'z aksini topdi.

G'ayratlilik shkalasi bo'yicha ham ishonch darajada jinsiy farqlar mavjudligi aniqlandi. Unga ko'ra tatqiqotda ishtirok etgan yigitlarning natijalarida qizlarga nisbatan faol, tezkor, kuchli, bardoshli, ishchan, sermahsul ekanligi 99,9 % ishonch darajasida farqlar mavjudligi aniqlandi. ( $U=-4,869$ ,  $p<,000^{***}$ ).

Ziyraklik shkalasida ham uch hududda o'tkazilgan tahlil natijalariga binoan sinaluvchilarda 99.9 % ishonch darajasida jinslar o'rtasida farqlar kuzatildi. Ushbu shkalda ham yigitlarimiz qizlarga nisbatan e'tiborli va si ekenliklari ma'lum bo'ldi. ( $U=-2,785$ ,  $p<,005^{**}$ ).

Sobitqadamlik shkalasi bo'yicha ikki jins vakillarida sezilarli farqlar kuzatilmadi va ushbu shaxslar o'z maqsadlari yo'lida tirishqoqlik bilan shiddatli harakatlanishlarida o'xshashlik mavjudligi aniqlandi. Odatda o'z vaqtini va amalga oshiradigan ishlarini tartibini rejalashtirishga harakat qiladigan shaxslarda kuzatiladi.

Tajriba-sinov natijalariga binoan yigitlar ekstrimal vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishda va turli og'ir jismoniy kuch talab qiladigan vazifalarni bajarishda qizlarga nisbatan faol ekanliklari aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda, shaxsda iroda namoyon bo'lishi haqidagi yondashuvlarga qarab u mustaqil tarkib topgan psixik tuzilma, yoki nopsixologik tabiatga ega mustaqil kuch, balki motivatsion, aksincha emotsional voqelik, sifatida miya holati deb talqin qilinadi.

Tadqiqotimizning dastlabki bosqichlarida bir qancha maqsad va vazifalarni belgilab olgan edik va maqsadimizga erishdik yani:

Tadqiqot mavzusiga oid ilmiy nazariy adabiyotlarni tahlili amalga oshirildi;

Uch hududda ta'lim olayotgan talabalarining irodaviy sifatlarni psixodiagnostik metodikalar yordamida jinsiy tafovutlari ishonch darajasida taxlil qilindi va tegishli xulosalar ishlab chiqildi.

Har bir insonda irodani rivojlantirish va uni mustaqil ravishda tarbiyalash uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Irodani ongli ravishda tarbiyalash jarayoni qanchalik tez boshlansa, shunchalik ko'p muvaffaqiyatlarga erishish mumkin.



## ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Jo'rayev O.T. Xorij psixologiyasida iroda muammosining tadqiqi. O'zbekiston Milliy universiteti xabarлари ilmiy jurnali 75-77 betlar. 2021. [1/6] ISSN 2181-7324
2. Turdimurodov D.Yu. Possibilities of physical education means in the formation of volitional qualities in schoolchildren. Journal of innovations in pedagogy and psychology. Vol. 4, Issue 7, 2021, pp. Vol. 4, Issue 7, 2021, pp.74-80
3. Ғозиев Э.Ғ Умумий психология Тошкент 2010 йил. 223-226-бетлар.
4. Сатторова Г.И. Илк ўспирин ёшида иродавий сифатларни ўрганишнинг психодиагностик имкониятлари. Монография. Қарши. Насаф нашриёти. 2014
5. Г.А. Гюрджян Становление волевых характеристик будущих специалистов в сфере безопасности жизнедеятельности на раннем этапе профессионализации. Текст научной статьи по специальности «Психологические науки» 2011.
6. Salixov M.SH, Salimova L.N. Hissiy irodaviy boshqaruv namoyon bo'lishining yosh va jins xususiyatlariga bog'liq o'zgarishi. "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 April 2022 / Volume 3 Issue 4 915-920.
7. R.R. Ashurov Yoshlarda irodaviy sifatlarni shakllantirishning psixologik xususiyatlari. "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 May 2022 / Volume 3 Issue 5
8. Жураев, У. Т. (2020). Практический анализ функционирования ситуационных и личностных детерминант волевой деятельности. *Проблемы современной науки и образования*, (1 (146)), 108-110.

## MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

### Jo'rayev O'tkir Tashpulatovich

Termiz davlat universiteti katta o'qituvchisi

Manzil: O'zbekiston, 190111, Termiz shahri

otkir\_0606@mail.ru


ORCID: 0000-0003-4602-0309

SCOPUS ID 0000000000

**Iqtibos uchun:** Jo'rayev O.T. Irodaviy faollikni tadqiq etishda jins xususiyatlarining qiyosiy tahlili. // Osiyo xalqaro universiteti axborotnomasi. 2024. №3. B.139–147.



## O'SMIRLARDA HISSIY-IRODAVIY SIFATLAR VA UNI TARBIYALASH.



© **Narziyeva Shaxnoza Rustamjon qizi**  
Osiyo xalqaro universiteti, Buxoro shahri

### **Annotatsiya.**

**KIRISH:** Ushbu maqola his-tuyg'ularning ifodalanishi his-tuyg'ular va faoliyat, his-tuyg'ularning asosiy sifatlari, emotsional holatlar: stress va uning bosqichlari, bartaraf etish yo'llari; affekt, kayfiyat, depressiya, frustratsiya, ruhlanish, ehtiros, yuksak his-tuyg'ular haqida so'z boradi.

**MAQSAD:** O'smir shaxsida yuzaga keladigan buzilishlar natijasida uning hissiy-irodaviy sifatlaridagi psixologik jarayonlarni tahlil qilish va shu orqali o'smirlar salbiy xulq-atvoridagi ayrim kamchiliklarni bartaraf etish.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Ko'pincha emotsiyalar o'zining ta'sirchanligi bilan bir-biridan ajralib turishiga qaramay, bunday sifatni hissiy holatlar stenik (yunoncha so'zdan olingan bo'lib, kuch degan ma'noni anglatadi) xususiyatli deyiladi. Bunda emotsiyalar dadil xatti-harakatlarga, mantiqiy mulohazalarga, nisbiy izlanishlarga kuch quvvat, qanoat bag'ishlaydi.

Ba'zi hollarda emotsiyalar o'zining sustligi, motorli, kuchsizligi bilan tavsiflanadi. Bunday hissiy holat astenik (yunoncha so'zdan olingan bo'lib, kuchsizlik, zaiflik ma'nosini bildiradi) deb atashadi. Bunday hissiyot insonni bo'shashtiradi, uni xayolga cho'mdiradi, xayolparast qilib qo'yadi. Shu sababdan favqulotda shaxsdagi befoyda emotsional kechinmaga, uyalish, vijdon azobi, andisha esa qo'rqqolikka aylanib qolishi xavfi kuchli.

**XULOSA:** Tizimli irodaviy sifatlar ongning bir yonalishli korinishlarining ma'lum bir assotsiatsiyasini ifodalaydi. Irodaviy sifatning izchilligi funksional sohalarning keng doirasi bilan bogliq - irodaviy, hissiy, intellektual. Shu bilan birga, asosiy (birlamchi) irodaviy sifatlar tizimli (ikkilamchi) sifatning asosini, ularning ozagini tashkil etishini bilish zarur.

**Kalit so'zlar:** biologik omillar, fobiyalar, depressiya, bezovtalik, ijtimoiy muhit, iroda, aks ettirish, hissiy ton, affekt, stress.

## ЭМОЦИОНАЛЬНЫЕ КАЧЕСТВА ПОДРОСТКОВ И ЕГО ОБРАЗОВАНИЕ.

### Аннотация.

**ВВЕДЕНИЕ:** В данной статье описаны проявления эмоций, эмоций и деятельности, основные качества эмоций, эмоциональные состояния: стресс и его стадии, способы его преодоления; это относится к аффекту, настроению, депрессии, разочарованию, вдохновению, страсти, сильным эмоциям.

**ЦЕЛЬ:** Анализ психологических процессов в эмоционально-волевых качествах подростка как следствие нарушений, происходящих в его личности и тем самым устранение некоторых недостатков негативного поведения подростков.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** Несмотря на то, что эмоции часто отличаются своей аффективностью, эмоциональные состояния этого качества называются стеническими (от греческого слова, означающего силу). В этом случае эмоции дают силу и удовлетворение смелым действиям, логическим рассуждениям и относительным исследованиям.

В ряде случаев эмоции характеризуются медлительностью, моторностью, слабостью. Такое эмоциональное состояние называется астеническим (от греческого слова, означающего слабость, слабость). Такое чувство расслабляет человека, погружает его в воображение, делает его мечтательным. По этой причине существует сильная опасность того, что чрезвычайная ситуация обернется у человека бесполезным эмоциональным переживанием, а стыд, вина и тревога - трусостью.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** Систематические волевые качества представляют собой определенное объединение односторонних проявлений сознания. Согласованность волевых качеств связана с широким спектром функциональных сфер - волевой, эмоциональной, интеллектуальной. При этом необходимо знать, что главные (первичные) волевые качества составляют основу систематических (вторичных) качеств, их субстанцию.

**Ключевые слова:** биологические факторы, фобии, депрессия, тревога, социальное окружение, воля, рефлексия, эмоциональный тонус, аффект, стресс.

## EMOTIONAL QUALITIES IN ADOLESCENTS AND ITS EDUCATION.

### Abstract.

**INTRODUCTION:** This article describes the expression of emotions, emotions and activities, the main qualities of emotions, emotional states: stress and its stages, ways to overcome it; it refers to affect, mood, depression, frustration, inspiration, passion, high emotions.

**GOAL:** Analyzing the psychological processes in the emotional and volitional qualities of a teenager as a result of the disturbances that occur in his

personality and thereby eliminating some of the shortcomings in the negative behavior of teenagers.

**MATERIALS AND METHODS:** Despite the fact that emotions are often distinguished by their affectivity, emotional states of this quality are called sthenic (derived from the Greek word meaning power). In this case, emotions give strength and satisfaction to bold actions, logical reasoning, and relative research.

In some cases, emotions are characterized by their slowness, motor, weakness. Such an emotional state is called asthenic (derived from the Greek word meaning weakness, weakness). Such a feeling relaxes a person, immerses him in imagination, makes him dreamy. For this reason, there is a strong danger that an emergency will turn into a useless emotional experience in a person, and shame, guilt, and anxiety will turn into cowardice.

**CONCLUSION:** Systematic volitional qualities represent a certain association of one-sided manifestations of consciousness. Consistency of volitional qualities is related to a wide range of functional areas - volitional, emotional, intellectual. At the same time, it is necessary to know that the main (primary) volitional qualities form the basis of the systematic (secondary) qualities, their substance.

**Key words:** biological factors, phobias, depression, anxiety, social environment, will, reflection, emotional tone, affect, stress.

**Hissiyot haqida tushuncha** Odam tashqi muhitdagi turli-tuman narsa va hodisalarni idrok qilar ekan, hech vaqt bu narsalarga batamom befarq bo'lmaydi.

Odamning aks ettirish jarayoni doimo faol xarakterga egadir.

Aks ettirish jarayoni quyidagilarni qamrab oladi:

a) shaxsning ehtiyojni qondirish imkoniyatiga egaligini;

b) qondirishga yordam beradigan yoki qarshilik ko'rsatadigan obyektlarga subyekt sifatida qatnashishi;

v) uni harakat qildiruvchi bilimga intiltiruvchi munosabatlar va hokazo.

Chunki odam atrofidagi har turli narsalarni idrok qilib aks ettirar ekan, bu narsalarga nisbatan ma'lum munosabatda bo'ladi. Masalan, bizga ayrim narsalar yoqsa, ya'ni kayfiyatimizni ko'tarib yuborsa, boshqa bir narsalar yoqmaydi va kayfiyatimizni buzib, dilimizni xira qiladi. Ba'zi bir ovqatni odam juda ham yoqtiradi, boshqa bir ovqatni esa mutlaqo ko'rgisi kelmaydi yoki ayrim odamlar bizga xush keladi yoki boshqa bir odamlar esa noxush keladi. Umuman odam atrofidagi hamma narsalarga nisbatan munosabatda bo'ladi va uning munosabatlari ham aks ettiriladi. Kishilar idrok qilayotgan, ko'rayotgan, eshitayotgan, bajarayotgan, o'ylayotgan, orzu qiladigan narsalarga befarq bo'lmaydilar. Bir xil predmetlar, shaxslar, xarakterlar, voqealar bizni quvontiradi, boshqalari xafa qiladi yana boshqalari g'azab, nafratimizni uyg'otadi. Biz xavf ostida qolganimizda qo'rquvni his qilamiz, dushman ustidan g'alaba qozonish yoki qiyinchilikni engish zavq uyg'otadi. Hissiyot tushunchasiga adabiyotlarda

turlicha ta'riflar uchraydi jumladan; A.V.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan «Umumiy psixologiya» darsligida hissiyot – kishining o'z hayotida nimalar yuz berayotganiga, nimalarni bilib olayotganiga yoki nima bilan mashg'ul bo'layotganiga nisbatan o'zicha turli xil shaklda bildiradigan kichik munosabatdir. M.Vohidovning «Bolalar psixologiyasi» o'quv qo'llanmasida hissiyot deb – tashqi olamdagi narsa va hodisalarga bo'lgan ichki kechinmalarimizning ongimizda aks ettirilishga aytiladi. Q.Turg'unov muallifligidagi lug'atda hissiyot-shaxsning voqelikdagi narsa va hodisalarga, kishilarga hamda o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarida kelib chiqadigan yoqimli yoki yoqimsiz kechinmalardan iborat. Professor E.G'oziyev muallifligidagi «Umumiy psixologiya» darsligida hissiyot odamda, tirik mavjudotlar miyasida, ya'ni shaxslarning ehtiyojlarini qondiruvchi va unga monelik qiluvchi obyektlarga nisbatan uning munosabatlarini aks ettirish ma'nosida qo'llaniladi.

Hissiyot bizning tuyg'ularimizning o'ziga xos aks ettirish jarayoni bo'lib, bunda narsa va hodisalarni aks ettirish jarayonida bizda tug'iladigan ichki kechinmalar va munosabatlar aks ettiriladi. Adabiyotlarda hissiyot bilan birga emotsiya tushunchasi ham keng doirada qo'llaniladi.

Emotsiya – shaxsning voqelikka o'z munosabatini his qilishidan kelib chiqadigan, uning ehtiyoj va qiziqishlari bilan bog'liq bo'lgan yoqimli yoki yoqimsiz kechinmalaridir. Keltirilgan ta'riflardan ko'rinadiki, hissiyot tushunchasi emotsiyaga nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, shaxsning kundalik hayoti, turmush tarzidagi barcha jabhalarni qamrab oladi.

Hissiyot boshqa hamma psixik jarayonlar kabi bosh miya po'sti qismining faoliyati bilan bog'liqdir. Bosh miya hissiyotlarning kuchini va barqarorligini idora qilib turadi. Hissiyotlar boshqa bilish jarayonlaridan farqli bosh miya po'stining faoliyatidan tashqari organizmning ichki a'zolari faoliyati bilan ham bog'liqdir, boshqacha qilib aytganda hissiyotlar vegetativ nerv tizimining faoliyati bilan ham bog'liqdir.

Odamda uchraydigan yuksak ma'naviy hissiyotlar ham o'zining nervfiziologik asosiga ega bo'lishi kerak (chunonchi intellektual, ahloqiy, estetik hissiyotlar). Bu jihatdan akademik I.P.Pavlovning dinamik streotip haqidagi ta'limoti juda katta ahamiyatga egadir. Bu haqda akademik I.P.Pavlov shunday deb yozgan edi: «Menimcha, ko'pincha odatdagi turmush tartibining o'zgargan paytlarida odat bo'lib, qolgan birorta mashg'ulot yaqin kishidan judo bo'lganda, aqliy iztirob chog'ida kechiriladigan og'ir hissiyotlarning fiziologik asosi xuddi eski dinamik streotipning o'zgarishi, uning yo'qolishi va yangi dinamik streotipning qat'iylik bilan hosil bo'lishidan iborat bo'lsa kerak».

Hissiyot vegetativ nerv tizimi orqali boshqariladigan ichki a'zo faoliyati bilan bog'liq bo'lsa ham bari bir bosh miya po'sti orqali idora qilinadi. Chunki akademik I.V.Pavlovning fikricha, odamning butun a'zoyi badanida bo'ladigan har qanday hodisalarning hammasini bosh miya po'sti qismidagi neyronlar idora



qiladi. Ana shu jihatdan olganda hissiyotning nervfiziologik asosi bosh miya po'sti bilan bog'liq.

Hissiy holatlarning ifodalanishi birinchidan, ifodali harakatlar (yuz ifodasi, qo'l, oyoq harakatlari), ikkinchidan organizmdagi turli hodisalarni, ya'ni ichki a'zolar faoliyatining va holatining o'zgarishida, uchinchidan tabiatda, ya'ni organizm qon tarkibidagi va boshqa suyuqliklardagi kimyoviy o'zgarishlarni, shuning bilan birga modda almashinuvida bo'ladigan o'zgarishlarni o'z tarkibiga oladi.

**Hissiy ton.** Hissiyot ko'pincha faqat hissiy tus sifatidagi ruhiy jarayonlarning o'ziga xos tomoni tariqasida namoyon bo'ladi. Yoqimli suhbatdosh, kulguli voqea, yoqimsiz hid, zerikarli kitob, ko'ngildagi mashg'ulot, hushchaqchaq sayohat, og'ir ish kabilar. Hissiy ton tushunchasiga ko'pgina adabiyotlarda turlicha ta'riflar uchraydi. Jumladan, A.V.Petrovskiyning "Umumiy psixologiya" darsligida hissiy ton sezgi yoki idrok jarayonida shaxsning idrok qilingan narsa va hodisaga munosabatini ifodalovchi maxsus hissiy bo'yoq yoqimli yoki yoqimsiz idrok bilan bog'langan hissiyot, deb ta'riflanadi.

Ko'pincha emotsiyalar o'zining ta'sirchanligi bilan bir-biridan ajralib turishiga qaramay, bunday sifatni hissiy holatlar stenik (yunoncha so'zdan olingan bo'lib, kuch degan ma'noni anglatadi) xususiyatli deyiladi. Bunda emotsiyalar dadil xatti-harakatlarga, mantiqiy mulohazalarga, nisbiy izlanishlarga kuch quvvat, qanoat bag'ishlaydi.

Ba'zi hollarda emotsiyalar o'zining sustligi, motorli, kuchsizligi bilan tavsiflanadi. Bunday hissiy holat astenik (yunoncha so'zdan olingan bo'lib, kuchsizlik, zaiflik ma'nosini bildiradi) deb atashadi. Bunday hissiyot insonni bo'shashtiradi, uni xayolga cho'mdiradi, xayolparast qilib qo'yadi. Shu sababdan favqulotda shaxsdagi befoyda emotsional kechinmaga, uyalish, vijdon azobi, andisha esa qo'rqqolikka aylanib qolishi xavfi kuchli.

L.N.Tolstoy o'z asarlarida odamning ruhiy holatini ifodalovchi nigohlarning 85 xilini va kulishning 97 xilini tasvir etgan. «Har xil sabab bilan yig'lagan paytda odamning boshi va og'zi har xil qiyofada o'zgaradi» - degan edi.

Har bir kishi ham o'z hissiyotlarining tashqi ifodalarini ma'lum darajada o'zgartirishi mumkin. Odamlarni kundalik muomalalarida badanning xilma-xil ifodali xarakatlari, imo-ishoralar xususan, ko'z bilan qilinadigan imo-ishoralar, tovushning ohangi, g'amginligi muhim ahamiyatga ega. Shunchaki bir xo'mrayish, salgina jilmayib kulish, elka qisish kabi ifodali harakatlar kishining maqsadini anglatadi.

Kayfiyat tushunchasiga psixologik manbalarda turli nuqtai nazardan yondashilgan taqdirda ham mazmunan ular bir xillikni anglatadi.

Kayfiyatning xush yoki noxush bo'lishi, birinchi navbatda odamning sihatsalomatligi bilan ham bog'liqdir. Masalan, ichimiz qattiq og'rib turgan vaqtda kayfiyat chog' bo'lmaydi. Odatda odamda kayfiyatning u yoki bu turi,

ya'ni xushchaqchaqlik xursandlik yoki g'amginlik, ma'yuslik, tushkunlik ustun bo'lishi mumkin. Ana shunga qarab odamlar xushchaqchaq, g'amgin, sertashvish deb turli guruhlarga bo'linadilar. Lekin shuni aytish kerakki, odam o'z kayfiyatining quli bo'lib, qolmay, uni boshqara bilishi kerak. O'z kayfiyatini idora qila biladigan odamlarning har doim ruhi tetik, kayfiyati chog' va ishida unum bo'ladi. Kayfiyatni idora qila olmaydigan odamlar bilan yashash juda qiyin bo'ladi. Bunday odamlar arzimagan narsadan kayfiyatini buzib, to'msayib yuradigan yoki arazlab yotadigan odamlar bo'ladi. Bunday odamlarni odatda «sirkasi suv ko'tarmaydigan» yoki «jahli burnini uchida turadigan» odamlar deyishadi. Agar odam har doim o'ylab, aql bilan ish tutsa, kayfiyatini bo'lgan bo'lmagan narsalarga buzavermaydi.

### **Shaxsning irodaviy sifatleri va klasifikatsiyasi.**

Intizomlilik - xarakter hislati bolib, jamiyat talablariga ongli ravishda o'z ixtiyori bilan bo'ysina bilishda ko'rinadi. Intizomlilik, jumladan, belgilangan tartibga aniq rioya qilishda, olingan va'dani vijdonan bajarishda, o'z burchiga ongli ravishda bo'ysinishda o'z ifodasini topadi.

Intizomli kishi mustaqil tashabbuskor bolib, ayni vaqtda qabul qilingan qarorlarni so'zsiz ijro etadi, jamiyat manfaatlariga va axloq tamoyillariga itoat qila biladi.

Mustaqillik ayni vaqtda irodaning kuchli ekanligini ham ko'rsatadi. Iroda kuchi katta to'sqinliklarni bartaraf qila olish qobiliyati bilangina ifodalanmay, tashabbuskorlik korsatish, mustaqillik, dadillik korsatish va qabul qilingan qarorlar uchun, o'z xatti-harakatlari uchun mas'uliyat sezish bilan ham ta'riflanadi.

Irodaning axloqiyligi hayot va faoliyatda iroda kuchi, uning mustaqilligiga ijobiy yoki salbiy baho berganda qanday tosqinlik va qiyinchiliklar bartaraf qilinganligini nazarda tutish bilangina cheklanib qolmay, asosan kishining axloqiy qiyofasi irodaviy harakatlarda qanchalik ifodalanishi, biron odamning irodasi naqadar axloqiy ekanligi ham nazarda tutiladi.

Irodaning axloqiyligi deganda odatda kishi oz oldiga qanday maqsadlar qoyilishi, bu maqsadlarga qanday vositalar bilan erishishi, irodaviy intilishlar (xohishlar) qanday mayllar tufayli kelib chiqishi va ma'lum bir qarorga kelishida qanday tamoyillarga amal qilishni nazarda tutamiz.

Chidamlilik va o'zini tuta bilish, bu zarurat tugilganda o'z his-tuygularini tiya olish, impulsiv va oylamasdan harakatlarning oldini olish, ozini tuta bilish va ozini kozlangan harakatni bajarishga majburlash qobiliyatida, shuningdek, xohlagan narsani qilmaslikda namoyon boladi. qilish, lekin bu mantiqsiz yoki

noto'g'ri ko'rinadi. Shunday qilib, chidamlilik va oz-ozini tarbiyalash qabul qilingan qarorni amalga oshirishga xalaqit beradigan harakatlar, his-tuyg'ular va fikrlarni sekinlashtirish (zaiflashtirish yoki sekinlashtirish) qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Energiya - bu iroda kuchi bilan faollikni tezda kerakli darajaga ko'tarish qobiliyati.

Sabr - bu ichki tosiqlar (charchoq, yomon kayfiyat, kichik og'riqli ko'rinishlar) bo'lsa, ma'lum darajadagi ish intensivligini qoshimcha kuch bilan ushlab turish qobiliyatidir.

Jasorat - xavf tug'ilganda (hayot, sog'liq yoki obro-e'tibor) aqliy funktsiyalarni tashkil etishning barqarorligini saqlab qolish va faoliyat sifatini pasaytirmaslik qobiliyatidir. Jasorat qorquvga qarshi turish va ma'lum bir maqsad tufayli haqli tavakkal qilish qobiliyati bilan bogliq.

Xulosa qilib aytganda, tizimli irodaviy sifatlar ongning bir yonalishli korinishlarining ma'lum bir assotsiatsiyasini ifodalaydi. Irodaviy sifatning izchilligi funksional sohalarning keng doirasi bilan bogliq - irodaviy, hissiy, intellektual. Shu bilan birga, asosiy (birlamchi) irodaviy sifatlar tizimli (ikkilamchi) sifatning asosini, ularning ozagini tashkil etishini bilish zarur.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Shamsheva A.K., Melibayeva R.N., Usmanova X.E., Xaydarov I.O. Umumiy psixologiya, O'quv qo'llanma. Toshkent, 2018 y.

2. Ғозиев Э.Ғ. Умумий психология. –Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти. 2010 й.

3. Реан А.А., Бордовская Н.В., Психология и педагогика, Учебник. Питер. 2010 г.

4.Elov Z.S. Yuridik psixologiya. Darslik. Buxoro-2023 Kamolot nashriyoti 486b

5.Elov Z.S. Sud-psixologik ekspertizasi tarixi va rivojlanish bosqichlari (ilmiy manbalar tahlili asosida). Journal of Pedagogical and Psychological Studies 2 (1), 3-8. 2024

5. G'oziev E.G'. "Ontogenez psixologiyasi". Noshir tahriri ostida. 2020 yil.

6. Менделевич В.Д. "Психология девиантного поведения". М.:2016 yil

7. Shoumarov G', Umarov B, Akramova F. "Yoshlarda xulq og'ishi va tarbiya buzilining oldini olish bo'yicha psixologik maslahatlar". Toshkent.:2015 yil

8. Narziyeva Shahnoza Rustamovna. (2023). Talabalarda empatiyani rivojlantirish. Sharqiy akademik va ko'p tarmoqli tadqiqotlar jurnali,

1(3), 127-131. <https://inno-world.uz/index.php/ojamr/article/view/76>



9.Narziyeva Shaxnoza Rustamjon qizi. (2023).O'smirlarda empatiyaning psixologik xususiyatlari.Amerika jamoat diplomatiyasi va xalqaro tadqiqotlar jurnali(2993-2157), 1(9), 132-134.

10.Shahnoza Rustamovna, N. (2023). Empatiyani tushunish, inson aloqasining asosiy komponenti. American Journal Xalq diplomatiyasi va xalqaro tadqiqotlar (2993-2157), 1(10), 378-382.

11.Narziyeva, S. (2023).Kasb tanlov haqida psixologik qarashlar. Zamonaviy fan va tadqiqotlar, 2(10), 333-336.

**MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]**

**Narziyeva Shaxnoza Rustamjon qizi**

Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

shaxnozanarziyeva772@gmail.com

**Iqtibos uchun:** Narziyeva Sh.R. O'smirlarda hissiy-irodaviy sifatlar va uni tarbiyalash // Osiyo xalqaro universiteti axborotnomasi. 2024. №3. B.148–155.



## DEVIANT XULQ-ATVOR VA TARBIYA



© Amonova Dilsora Akmal qizi

Osiyo xalqaro universiteti, Buxoro shahri

**Annotatsiya.**

**KIRISH:** Mazkur maqolada bola kamolotida tarbiyaning ahamiyati, jamiyat va muhitning o'rni, og'ma xulq-atvor paydo bo'lish sabalari, deviant xulq turlari, sharq mutafakkirlarining ota-onaning oiladagi vazifalariga oid qarashlari, shaxs shakllanishi va kamol topishida va komil inson bo'lishida ma'naviyatning o'rni haqida so'z yuritiladi.

**MAQSAD:** Oila qo'rg'onida deviant xulqli bolalar emas, balki etuk shaxs, qobiliyatli inson voyaga etishi uchun ko'rsatmalar berish orqali psixolog faoliyatida ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarining namoyon etilishini aniqlash va ko'rsatmalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Bugungi kunda deviant xulq-atvor murakkab ijtimoiy hodisa bo'lib, uning sabablar va oqibatlari ko'p qirrali, shuningdek, og'ma xulq muammosini sotsiologiya, psixologiya, ijtimoiy psixologiya, huquqni muhofaza qilish organlari kabi sohalar o'rganadi va tadqiq qiladi.

Zamonaviy dunyoda deviant xatti-harakatlar muammosi ayniqsa keskin. Iqtisodiy tengsizlik, ommaviy globallashuv, axborotdan erkin foydalanish, demokratiyaning rivojlanishi, shuningdek, ijtimoiy hodisalar ko'pincha o'smirlar muhitida salbiy reaksiyalarni keltirib chiqaradi. Yoshlar adolatsizlikka qarshi isyon ko'taradilar, axloqiy me'morlarni o'rnatdilar yoki o'rnatdilar. Ko'pincha bu norozilik nafaqat yosh "inqilobiy" ga, balki butun jamiyatga zarar keltiradigan o'ta xavfli shakllarga aylanadi. Deviant xatti-harakatlarning oldini olish va uning sabablarini bartaraf etish uchun siz odamga tushunadigan va umumiy manfaatlarga ega bo'lgan guruhni topishda yordam berishingiz kerak. Variant sifatida musiqa, sport maktabiga yoki sport turistik klubiga yuboring. Bularning barchasi shaxsning ishtiyoqi va qiziqishlariga bog'liq. Deviantlik xatti-harakati yoshlarni tarbiyalashda hisobga olinishi kerak bo'lgan ijtimoiy, biologik va

psixologik omillarga bog'liq. Og'ma xulqni kamaytirish uchun turli chora-tadbirlar ko'rilishi mumkin ta'li va tarbiya, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, qonun va tartib, psixologik yordam.

**XULOSA:** Barcha uchun nafi tegadigan, komil shaxs tarbiyalashda oilaning, jamiyat, mahalla, maktabning o'rni va hamkorligi beqiyosdir. Go'zal axloqli shaxs bugun globallashuv zamonining zarurati. Oilada deb atalmish muqaddas dargohda kelajak egalari tarbiya topar ekan, bu maskan egalari ota va ona, avvalo, axloqli va ma'naviy etuk bo'lmog'i lozim.

**Kalit so'zlar:** ruhiy tarbiya, anomiya, og'ma xulq, oila, axloqiy-huquqiy me'morlar.

## ДЕВИАНТНОЕ ПОВЕДЕНИЕ И ОБРАЗОВАНИЕ

### Аннотация.

**ВВЕДЕНИЕ:** В данной статье говорится о роли воспитания в становлении ребенка личностью, о роли социума и среды в воспитании ребенка, о причинах появления отклонений в поведении, о девиантном поведении, о взглядах восточных ученых об обязанностях родителей в семье, о роли духовности в развитии и становлении личности ребенка.

**ЦЕЛЬ:** Заключается в определении проявления факторов социально-психологической компетентности в деятельности психолога путем дачи указаний на основе выработки практических рекомендаций для того, чтобы в семейной крепости рос не девиантный ребенок, а зрелый и способный человек, личность.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** Сегодня девиантное поведение представляет собой сложное социальное явление, его причины и последствия многогранны, а проблема общего поведения изучается и исследуется такими областями, как социология, психология, социальная психология, правоохранительные органы. Проблема девиантного поведения стоит особенно остро в современном мире. Экономическое неравенство, массовая глобализация, свободный доступ к информации, развитие демократии, а также социальные явления часто вызывают негативную реакцию в среде подростков. Молодые люди восстают против несправедливости, или устанавливают моральные нормы. Нередко этот протест принимает крайне опасные формы, наносящие вред не только молодому «революционеру», но и всему обществу. Чтобы предотвратить девиантное поведение и устранить его причины, нужно помочь человеку найти понимающую и имеющую общие интересы группу. Как вариант, отдать в музыкальную, спортивную школу или спортивно-туристический клуб. Все зависит от увлечений и интересов человека. Девиантное поведение зависит от социальных, биологических и психологических факторов, которые необходимо учитывать при воспитании молодежи. Для

снижения плохого поведения могут быть приняты различные меры: образование и воспитание, социальная поддержка, обеспечение правопорядка, психологическая поддержка.

### **ЗАКЛЮЧЕНИЕ**

Роль и сотрудничество семьи, общества, соседей и школы несравненны в воспитании совершенной личности, полезной для всех. Человек с хорошими моральными принципами необходим в современную эпоху глобализации. Поскольку хозяева будущего воспитываются в так называемой святыне семье, а главы этого места, отец и мать, должны быть прежде всего морально и духовно зрелыми.

**Ключевые слова:** духовное воспитание, anomia, общее поведение, семья, морально-правовые нормы.

## **DEVIA NT BEHAVIOR AND EDUCATION**

### **Abstract.**

**ANNOTATION:** In this article, the importance of upbringing, the role of society and environment in the development of a child the reasons for the appearance of abnormal behavior, types of deviant behavior, the views of eastern thinkers on the duties of parents in the family, the role of spirituality in the formation and maturation of a person and becoming a perfect person are discussed.

**GOAL:** It consists in determining the manifestation of socio-psychological competence factors in the psychologist's activity by giving instructions so that not deviant children, but a mature person, a capable person will grow up in the family fortress and develop practical recommendations based on the instructions.

**MATERIALS AND METHODS:** Today, deviant behavior is a complex social phenomenon, its causes and consequences are multifaceted, and the problem of general behavior is studied and researched by such fields as sociology, psychology, social psychology, and law enforcement agencies.

The problem of deviant behavior is particularly acute in the modern world. Economic inequality, mass globalization, free access to information, the development of democracy, as well as social phenomena often cause negative reactions in the environment of adolescents. Young people rebel against injustice, establish or establish moral standards. Often, this protest turns into extremely dangerous forms that harm not only the young "revolutionary", but the entire society. To prevent deviant behavior and eliminate its causes, you need to help a person find a group that understands and has common interests. As an option, send to a music, sports school or a sports tourist club. It all depends on the passion and interests of the individual. Deviant behavior depends on social, biological and psychological factors that must be taken into account in the upbringing of

young people. Various measures can be taken to reduce bad behavior: education and upbringing, social support, law and order, psychological support.

**CONCLUSION:** The role and cooperation of the family, society, neighborhood, and school is incomparable in bringing up a perfect personality that is beneficial for everyone. A person with good morals is a necessity in today's globalization era. As the future owners are educated in the so-called holy place in the family, the owners of this place, father and mother, must first of all be morally and spiritually mature.

**Key words:** spiritual education, anomie, general behavior, family, moral and legal standards.

**O**damning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun zarur bo'lgan sabablar tarbiya va ijtimoiy muhit hisoblanadi. Noqobil farzand qayerdan, qanday paydo bo'ladi? Ota-onaning tarbiyadagi befarqligi, murabbiyning ta'lim berishdagi loqaydligi va hafsalasizligi, ustoz yo'l-yo'riqlaridagi noqislik, bolani o'rab turgan atrof-muhit ta'siri, shuningdek, qondagi genning xususiyatlari oqibatida bu toifadagi zurriyot paydo bo'ladi.<sup>37</sup>

Darhaqiqat, yildan-yilga o'smirlar xulq-atvoridagi buzilishlar - ularning intellektual, xissiy, irodaviy rivojlanishda ham orqada qolish holatlari ortib borayotganidan dalolat bermoqda. Hozirgi davrda o'smirlikka xos deviant xulqining shakllanishida oilaning ta'sirini o'rganishga e'tibor ortgan. Zamonaviy psixologiya fanlarida ushbu muammoga bag'ishlangan tadqiqotlarning o'rni salmoqlidir. Ammo, bizningcha, tarbiyasi «qiyin» o'smirlarning shakllanishida oilaviy muhitning qay darajada o'rin egallashi va oiladagi nizolarning ta'sirini o'rganish dolzarbligi oshib bormoqda. L.S.Vigotskiy fikricha, "O'g'ishgan xulq" o'smirning qiyin xayotiy munosabatlar xarakterining yig'indisidir. Bular avvalo qaysar, injiq, bolalar. Ularni qiziqarli faoliyat turiga tortish ularni tarbiyalashning asosiy usullaridan biridir. Ularda ma'lum bir xususiyat intizomsiz, qo'pol bo'ladilar. Ularning faolligini maqsadga muvofiq o'zgartirish, ularga ba'zi bir huquqlarni berish bilan ularga tasir o'tkazish mumkin.

Bolaning ma'nan sog'lom, axloqan pok, mehnatsevar, madaniyatli intellektual salohiyatli bo'lib o'sishidan yurtimiz manfaatdor. Ta'lim muassasalarning tarbiya borasidagi ishlari qanchalik yaxshi yo'lga qo'yishdan qat'iy nazar, tarbiya masalalarini oila hal qiladi. Bog'cha va maktablar ta'lim bersa va tarbiyalasa, ota-onalar faqat tarbiyalabgina qolmay, ular bilan birga yashaydilar. Ota-onalarning farzandiga doimo g'amxo'r bo'lishi o'zbek millatiga xos bo'lgan ajoyib fazilatdir. Jumladan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlagandek "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala-bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan rivojlanyapti.Bu

<sup>37</sup> Obiddin Mahmudov. "Farzandnoma"2018-yil,173-bet.



rivojlanishlarni hammadan ham ko‘p his etadigan kim?-yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da‘vat ularning qalbida doimo aks sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimani hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”.

Afsuski, oramizda shunday bolalar ham uchraydiki, ular jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilmasdan, balki unga to‘siq bo‘luvchi me‘mordan og‘ish holatlarini yuzaga keltiradilar. Jamiyatda o‘rnatilgan ijtimoiy me‘morlardan chetga chiqish holatlari sotsiologiyada «deviantlik holatlari», undan tug‘iluvchi xulq-atvorni «deviant xulq-atvor» deb nomlanadi. Rossiyalik olim Ya.I.Gilinskiy tomonidan deviant xulq-atvorning madaniylashtirilgan jihatini o‘rganilib “deviant xulq-atvor” tushunchasini fanga kiritilgan.

Deviant xulq-atvor muammosini sotsiologiya fani doirasida dastlab E.Dyurkgeym maxsus o‘rgangan bo‘lsa-da, jamiyatning eng qadimiy muammolaridan biri sifatida deviant holatlarga munosabatlar qadim davrlardan shakllanib kelgan. Qadimgi xalqlarning diniy-mifologik tasavvurlari, xususan, Misr, Hindiston va Xitoy diniy qonun-qoidalaridagi axloqiy me‘morlar bu sohada dastlabki qarashlar edi. Qadimgi yunon va Rim faylasuflari ham o‘z asarlarida mazkur muammolarni tahlil qilib berganlar.

O‘rta asrlarda axloq me‘morlari diniy qarashlar ta’siri ostida rivojlandi va ulardan chekinish diniy nuqtai nazardan baholangan. Yevropada xristian dini barcha sohada hukmronlik qilgan bo‘lsa, Sharq dunyosida axloqiy-huquqiy me‘morlar va ular haqidagi ta’limotlar islom falsafasi ta’sirida rivojlandi.

Ijtimoiy me’yordan og‘ish holatlarini tushuntiruvchi dastlabki ta’limot – E.Dyurkgeym (1858-1917) ning “anomiya” g‘oyasidir. Anomiya - bu jamiyatda me‘morlarning mavjud emasligini yoki ba’zi bir shaxslarning ijtimoiy qo‘yilgan maqsadlariga erishishiga to‘sqinlik qiladigan ijtimoiy tartibsizlikni anglatadi.. Dyurkgeymning fikriga ko‘ra, mehnat taqsimoti tabiiy ravishda birdamlikni qo‘zg‘atmasa, buning sababi uning paydo bo‘lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmaganligi. Aynan shu holatlarda anomiya holati yuzaga keladi deb ta’kidlaydi.

Deviant xulq-atvorning asosiy ko‘rinishlari:

- Jinoyatchilik
- Ichkilikbozlik (Alkogolizm)
- Giyohvandlik (Narkomaniya)
- Fohishabozlik
- Suitsid

Farzand tarbiyasida ularning yoshga oid va psixologik xususiyatlarini bilish hamda hisobga olish o‘ta muhimdir. Shuningdek, ularda o‘ziga ishonch, o‘z xulqini yaxshilash motivlarini quyidagicha shakllantirish zarur:

– bolalarni o‘z xulq-atvorini o‘zi baholashga o‘rgatish;

- farzandiga bo‘lgan ishonch;
- oilada oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarishda erishgan yutuqlarini rag‘batlantirish;
- tarbiya berishning optimal strategiyasini aniqlash;
- bolalarga mustaqil faoliyat (o‘qish, o‘yin, mehnat, xobbi va qiziqishlari)ni tanlash uchun imkoniyat berish kabi holatlarni shakllantirish birlamchi vazifadir.

Ruhiy tarbiya – insonning o‘zini boshqara olish qobiliyati. Hayotda nafaqat jismoniy jihatdan baquvvatlik, balki kishining irodasi, hattoki fikrlashi ham juda katta ahamiyatga ega. Islom ilmida ota-onalar qo‘lida bolalar aziz omonatdirlar, shuning uchun ularni go‘zal tarbiya etmoq, yaxshi xulqlariga o‘rgatmoq va ko‘rkam odatlarni tushuntirmoq lozimligi uqtiriladi. Ruhii tarbiya esa, shaxsning ichki dunyosini, hissiyotlarini, fikrlash jarayonlarini va ijtimoiy munosabatlarini rivojlantirish jarayonidir. Ruhii tarbiya quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Emotsional intellektni rivojlantirish
- Ijtimoiy ko‘nikmalarni oshirish
- O‘z-o‘zini anglash va boshqarish
- Axloqiy qadriyatlarni shakllantirish

Ruhiy tarbiya shaxsning umumiy rivojlanishiga va jamiyatda muvaffaqiyatli integratsiyalashishiga yordam beradi.

Ruhiy tarbiya deviant xulqni oldini olishda muhim rol o‘ynashi mumkin. Quyidagi yo‘llar orqali ruhiy tarbiya deviant xulqni kamaytirishga yordam beradi:

- Shaxsning o‘zini anglash va boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirish
- Stress va salbiy emotsiyalarni boshqarish usullarini o‘rgatish
- Ijtimoiy munosabatlar va aloqa ko‘nikmalarini oshirish
- Axloqiy va etika qadriyatlarini shakllantirish

Sharqda bola tarbiyasida ota-onaning o‘rni haqida juda ko‘p gapirilgan. Ayniqsa, onaning bola tarbiyasidagi o‘rni haqida alohida uqtiriladi. Jumladan, mutafakkir Ibn Sino oila boshlig‘i oldiga katta talablar qo‘yadi, farzandlarni bir-biriga nisbatan mehr-oqibat tuyg‘usi orqali tarbiyalash, iliq ruhiy muhitni yaratishni uqtiradi. Oiladagi noxush tarbiya faqat shu oilagagina salbiy ta‘sir qilib qolmasdan, balki boshqa oilalarga ham xuddi shunday ta‘sir qilishini oqilona tarbiya oila baxtining muhim asosi ekanligini ta‘kidlaydi. Ibn Sino bola yomon hulq, xislatni egallashini kutmasdan turib, uni ijobiy fazilatlar bilan tanishtirib, bolaga yaxshi odobni singdirish kerak, – deb yozadi. Uning ta‘kidlashicha, sharoit (muhit) qanday bo‘lishidan qat‘i nazar, farzand kamoloti ota-onalarning asosiy vazifasidir, ular davlat boshlig‘imi yoki jamiyatning oddiy bir a‘zosi, bari bir tarbiya masalasida ular uchun bir xil talab qo‘yilishi kerak, chunki bu ijtimoiy ehtiyojdir.

Hazrati Umarning “Bola otadan qanchalik uzoqlashsa, yomon ishlarga moyil bo‘laveradi, u o‘ziga hamrohni oilaning tashqarisidan izlaydi va bu ko‘pincha yomon oqibatlarga olib keladi” deb ta‘kidlashlari ham aynan bola qarovsizligiga, uning oqibatlariga borib taqaladi.<sup>38</sup>

<sup>38</sup> “OILADAGI IJTIMOY TARBIYA O‘SMIRLAR DEVIANT XULQ-ATVORI OLDINI OLISH KAFOLATI SIFATIDA” ResearchBib  
Impact Factor: 9.576 / 2023

Xulosa qilib aytganda, bugungi tez sur'atlarda rivojlanayotgan globallashuv zamonida farzand tarbiyasi eng dolzarb vazifalaridan biridir. Zero, Yusuf Xos Hojib o'zining asarlarida oilaviy muhitni shaxs axloqiy taraqqiyotining asosi, deb hisoblagan: “Agar bolaning xulqi yomon bo'lsa, bunda bolaning aybi yo'q, hamma ayb – otasida” deydi. Demak, tarbiyaning, ruhiy tarbiyaning farzand kamolotida ahamiyati beqiyosdir. Yaxshi tashkil etilgan ruhiy tarbiya tizimi deviant xulqqa olib keladigan omillarni kamaytirishga va shaxsning salomatligi va farovonligini ta'minlashga yordam beradi. Go'zal xulqli farzandlar yurt kelajagi bunyodkorlari, shunday ekan sog'lom fikrli, vujudli yoshlarni voyaga etkazaylik.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

- 1.Olimov Temir Hasanovich, G'afurova Sayyora Jamolovna “OILADAGI IJTIMOIIY TARBIYA O'SMIRLAR DEVIANT XULQ-ATVORI OLDINI OLISH KAFOLATI SIFATIDA” ISSN (E): 2992-9148 ResearchBib Impact Factor: 9.576 / 2023 VOLUME-2, ISSUE-1 ( 85-87-betlar)
2. Jo'rayev Bahodir Alisher o'g'li “ INSON KAMOLOTIDA TARBIYANING O'RNI”
3. N.To'ymurodova. (2022). Ta'lim-tarbiya jarayonida hadislardan foydalanishning ilmiy-amaliy ahamiyati. Science and Education. Vol. 3, Issue 2, 855-859-betlar.
4. Rahimov S. Abu Ali ibn Sino ta'lim va tarbiya haqida. – Toshkent: O'qituvchi, 1967. –B. 88–89
5. Umarov B.M. O'zbekistonda voyaga etmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik muammolari. Monografiya. – Toshkent, “Fan” nashriyoti – 2008, 314- bet
6. Obiddin Mahmudov “Farzandnoma” adabiy-badiiy nashr.-Toshkent, “O'qituvchi”nashriyoti-2018,173-bet
7. “O'SMIRLAR DEVIANT XULQ-ATVORINING PROFILAKTIKASI”  
ISSUE 2 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021= 5.423

#### MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

##### **Amonova Dilsora Akmal qizi**

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

**Iqtibos uchun:** Amonova D.A. Deviant xulq-atvor va tarbiya. // Osiyo xalqaro universiteti axborotnomasi. 2024. №3. B.156–162.

## PEDAGOG KASBIY KOMPETENTLIGI VA EMOTSIONAL JARAYONLARINING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI



© Ro'ziyeva Zuxra Saidazimxojayevna  
Osiyo xalqaro universiteti

### Annotatsiya.

**KIRISH:** Ushbu maqolada pedagog kasbiy kompetentligi, uning o'ziga xos xususiyatlari, pedagog faoliyatida emotsional yonish holatlari tadqiqi haqida so'z boradi. Pedagogning kasbiy faoliyatida kuzatilishi mumkin bo'lgan emotsional yonish holatining kelib chiqish sabablari, unga sabab bo'luvchi asosiy omillar, ayni sindrom yuzaga kelganida qanday belgilar namoyon bo'lishi va bu vaziyatda pedagogga qanday psixologik yordam berish mumkinligi haqida ochib berilgan.

**MAQSAD:** Pedagog faoliyatida emotsiya va emotsional yonish holatlarini tadqiq qilish orqali uning kasbiy kompetentligini oshirish, zarur holatlarda pedagogga psixologik yordam berishning ilmiy va maliy asoslarini o'rganish va shu asnosida millat muallimlarining ish sifatini yaxshilash, ta'lim tizimida ishlovchi ustozlarning psixologik yordamga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish borasida amaliy takliflar berishdan iborat.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish va undagi emotsional yonish holatlarini o'rganishga oid ilmiy tadqiqot ishlarini o'rganish asosida bu mavzuda dunyo va mahallif psixologlarimiz tomonidan ko'plab tadqiqotlar o'tkazliganligidan xabar topdik. Ulardagi yondashuvlar, qarashlar va amaliy takliflar turlicha bo'lib, ularning har biri o'ziga xos ahamiyatga ega va hech birini bir-biridan ayro holda tasavvur qilish mumkin emas. Aksincha, bu tadqiqotlar bir-birini to'ldiradi, birda etmagan ma'lumotni ikkinchisi beradi va mavzuning to'laqonli o'rganilishiga o'zining hissasini qo'shadi. Shunday bo'lsa-da, pedagoglarda emotsional yonish holatlari yoshlar bo'yicha, jinslar bo'yicha tadqiq qilingan, uning sabablari o'rganilgan bo'lsa ham hali ayni mavzuning o'rganilishi va yoritilishi kerak bo'lgan jihatlari ko'p ekanligi ko'rinadi. Masalan, ko'pgina ilmiy ishlarda ayni



holatga olib keluvchi sabablar ko'rsatilsa-da, uning echimi sifatidagi xulosalar etirlicha emas. Bu mavzuga doir ilmiy-ommabop kitobchalar, metodik qo'llanmalar etarli emasligi, pedagogga amalda yonish sindromini bartaraf etish uchun etarlicha shart-sharoitlar yaratilmaganligini ko'rishimiz mumkin. Aynan shuning uchun ham bu mavzu o'zining dolzarbligini hali beri yo'qotmaydi va o'ylaymizki, hali bu mavzuda yana ko'plab tadqiqot ishlari olib borilishi zarur.

Pedagogning emotsional yonishi nafaqat uning o'ziga, balki, u dars beradigan ta'lim maskanidagi o'quvchilar kayfiyatiga, hamkasblariga, pedagogning oilasiga ham katta salbiy ta'sir ko'rsatishini hisobga olsak, mavzuning qanchalik muhimligi yanada aniqroq namoyon bo'ladi. Ayni mavzuga daxldor ilmiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish asosida ona tilimizda emotsional yonish sindromini tadqiqiga bag'ishlangan alohida nashrlarning yo'qligi, bu yo'nalish ayrim ilmiy ishlarda qisman yoritib o'tilganligi e'tiborimizni tortdi. Pedagog kasbiy faoliyatiga jiddiy zarar etkazuvchi ushbu sindrom profilaktikasiga oid ishlatishga qulay, psixologlar uchun oson so'rovnomalar, treninglar, metodologik ishlanmalarga ehtiyoj katta.

**XULOSA:** Pedagog faoliyatida o'z kasbiy kompetentligini to'la namoyon qila olishi, ta'lim jarayonida o'z ishiga mehr bilan munosabatda bo'lishi uchun unda emotsional yonish holatlari profilaktikasi uchun psixologlar tomonidan amaliy ishlar olib borilishi zarur.

Pedagog faoliyatining samarali bo'lishi millat farzandlarining yaxshi ta'lim olishi, sifatli dars olishi va yuksak natijalarga erishishida muhim omil ekan bu mavzuning dolzarbligini yanada oydinlashadi.

**Kalit so'zlar:** emotsiya, emotsional yonish, befarqlik, kasbiy kompetentlik, charchoq, emotsional intellekt, hissiy toliqish, bezovtalik, ishonchsizlik, xotiradagi o'zgarishlar.

## СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ И ЭМОЦИОНАЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ ПЕДАГОГА

### Аннотация.

**ВВЕДЕНИЕ:** В данной статье говорится о профессиональной компетентности педагога, ее характеристике, а также изучении случаев эмоционального выгорания в работе педагога. Выявлены причины эмоционального выгорания, которое можно наблюдать в профессиональной деятельности педагога, основные факторы, вызывающие его, симптомы, возникающие при возникновении этого синдрома, а также способы оказания психологической помощи учителю в данной ситуации.

**ЦЕЛЬ:** Повысить профессиональную компетентность педагога путем исследования случаев эмоция и эмоционального выгорания в деятельности педагога, изучить научную и финансовую основу психологической

поддержки педагога в необходимых случаях, и в этом контексте дать практические предложения по повышению качества работы педагогов страны, удовлетворению потребностей педагогов, работающих в системе образования, в психологической поддержке.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** На основе изучения научно-исследовательских работ, связанных с развитием профессиональной компетентности педагога и изучения случаев эмоционального выгорания у него, мы узнали, что на эту тему проведено множество исследований мировыми и отечественными психологами. Их подходы, взгляды и практические предложения различны, каждое из них имеет свое значение и ни одно из них невозможно представить отдельно друг от друга. Напротив, эти исследования дополняют друг друга, дают информацию, которой не хватает одно в другом, и вносят неисчислимый вклад в полное изучение предмета. Тем не менее случаи эмоционального выгорания среди педагогов исследованы по молодежному и половому признаку, и даже если его причины изучены, видно, что существует еще множество аспектов одной и той же темы, требующих изучения и выяснения. Например, хотя во многих научных работах указаны причины, приводящие к одной и той же ситуации, выводов по ее решению недостаточно. Мы видим, что по данной теме недостаточно научно-популярных буклетов и методических пособий, не созданы достаточные условия для устранения педагогом синдрома выгорания на практике. Именно по этой причине данная тема не потеряла своей актуальности и мы считаем, что необходимо провести еще много исследований по этой теме.

Если принять во внимание, что эмоциональное выгорание педагога оказывает большое негативное влияние не только на него самого, но и на настроение учащихся учебного заведения, где он преподает, его коллег, семьи педагога, важность темы становится более ясным. На основе изучения и анализа научной литературы, посвященной данной теме, мы заметили отсутствие отдельных публикаций, посвященных изучению синдрома эмоционального выгорания на родном языке, а также то, что это направление частично освещено в некоторых научных работах. Существует большая потребность в удобных, удобных в использовании анкетах, тренингах и методических разработках для психологов, связанных с профилактикой этого синдрома, который серьезно вредит профессиональной деятельности педагога.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** Чтобы педагог мог в полной мере проявить свою профессиональную компетентность, с любовью относиться к своей работе в образовательном процессе, необходимо проводить практическую работу психологов по профилактике эмоционального выгорания.

Эффективность работы учителя является важным фактором для того, чтобы дети нации получили хорошее образование, получили качественные уроки и достигли высоких результатов.

**Ключевые слова:** эмоция, эмоциональное выгорание, апатия, профессиональная компетентность, утомляемость, эмоциональный интеллект, эмоциональное истощение, беспокойство, неуверенность в себе, изменения памяти.

## SOCIAL PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF TEACHER'S PROFESSIONAL COMPETENCE AND EMOTIONAL PROCESSES

### Abstract.

**INTRODUCTION:** This article talks about the professional competence of the pedagogue, its specific features, the study of cases of emotional burnout in the pedagogue's work. The causes of emotional burnout that can be observed in the professional activity of a teacher, the main factors that cause it, what signs appear when this syndrome occurs, and how psychological support can be given to a teacher in this situation are revealed.

**GOAL:** It is to improve the professional competence of the teacher by researching the cases of emotion and emotional burnout, to study the scientific and financial basis of psychological support to the teacher in necessary situations, and to improve the quality of work of the teachers of the nation, and to make practical suggestions to meet the needs of teachers working in the educational system for psychological support.

**MATERIALS AND METHODS:** Based on the study of the scientific research works on the development of the professional competence of the teacher and the study of the cases of emotional burning in him, we have learned that many studies have been conducted on this topic by world and local psychologists. Their approaches, views and practical suggestions are different, each of them has its own importance and none of them can be imagined without each other. On the contrary, these studies complement each other, provide information that is lacking in one, and make an incalculable contribution to the full study of the subject. Nevertheless, cases of emotional burnout among pedagogues have been researched according to youth and gender, and even if its causes have been studied, it seems that there are still many aspects of the same subject that need to be studied and clarified. For example, although many scientific works show the reasons leading to the same situation, the conclusions as to its solution are not enough. We can see that there are not enough scientific and popular booklets and methodical manuals on this topic, and that sufficient conditions have not been created for the pedagogue to eliminate burnout syndrome in practice. It is for this reason that this topic has not lost its relevance and we think that it is necessary to conduct many more researches on this topic.

If we take into account that the emotional burning of the pedagogue has a great negative impact not only on him, but also on the mood of the students in the educational institution where he teaches, his colleagues, and the family of the pedagogue, the importance of the topic becomes more clear. Based on the study and analysis of scientific literature related to this topic, we noticed the absence of separate publications dedicated to the study of emotional burnout syndrome in our native language, and the fact that this direction is partially covered in some scientific works. There is a great need for easy-to-use, easy-to-use questionnaires, trainings, and methodological developments for psychologists related to the prevention of this syndrome, which seriously harms the professional activity of a teacher.

**CONCLUSION:** In order for the pedagogue to be able to fully demonstrate his professional competence, to treat his work with love during the educational process, it is necessary to carry out practical work by psychologists for the prevention of emotional burns.

Effectiveness of the teacher's work is an important factor in the good education of the nation's children, quality lessons and achieving high results.

**Key words:** emotion, emotional burnout, apathy, professional competence, fatigue, emotional intelligence, emotional exhaustion, restlessness, distrust, changes in memory.

**Psixologiya** yoʻnalishida pedagogning kasbiy kompetentligi va undagi emotsional yonish sindromi muammosini oʻrganishga bagʻishlangan ilmiy tadqiqot ishlarini oʻqish va oʻrganish jarayonida ulardagi ayni sindromga sabab boʻluvchi omillarga turlicha talqin qilinganligini koʻrishimiz mumkin. Pedagog kasbiy kompetentligi va ulardagi emotsional yonish holatlari tadqiqi boʻyicha kuzatishlarimiz va tadqiqot mavzusiga oid ilmiy adabiyotlar tahlili turli olimlarning qarashlariga va tahlillariga jiddiy eʼtibor berish kerakligini koʻrsatadi.

Kompetentlik soʻzi aslida psixologik tadqiqotlar natijasida pedagogikaga kirib kelgan boʻlib u oʻzida bir qancha tushunchalarni ifodalaydi. Kuchli raqobat sharoitida mehnat bozorida pedagogga qoʻyilayotgan talablar ham ortib borishi, oʻquvchilarning axborot asridagi koʻp maʼlumotlar bilan taʼminlanganligi oʻqituvchini har kuni oʻz ustida ishlashini, zamon bilan hamnafas boʻlishini talab qiladi. Shu maʼnoda pedagog har kuni oʻqishga, izlanishga majbur. Kasbiy kompetentligi yaxshi pedagog deganda nimani tushunamiz? U muloqotga oson kirishadi, stressli vaziyatlardan oqilona chiqish yoʻllarini biladi, kutilmagan holatlarda oʻzini yoʻqotib qoʻymaydi, nizoli holatlardan ham oqilona chiqish yoʻllarini biladi.

Kompetentlik mavzusida A.K.Markova, B.Nazarovalar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. B. Nazarova oʻz tadqiqotlarida kasbiy kompetentlikka erishishda oʻz ustida ishlash, oʻz-oʻzini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega ekanligini, oʻz-oʻzini rivojlantirish esa oʻzini tahlil qilish va oʻzini baholash orqali aniqlanishini



yozadi. O‘z ustida ishlash- pedagogning izchil ravishda o‘zining kasbiy bilim, malka va ko‘nikmalarini va shaxsiy sifatlarini rivojlantirib borish yo‘lida amaliy harakatlarni tashkil etishi. O‘z ustida ishlash quyidagilarda ko‘rinadi – kasbiy Bkmni takomillashtirib borish, faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondoshish, kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish, ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish, salbiy odatlarni bartaraf etib borish, ijobiy sifatlarini o‘zlashtirish.

Bu kabi o‘z ustida ishlash, o‘zini-o‘zi tadqiq qilish aksariyat hollarda ijobiy natida beradi, shaxsning kamol topishida uning kasbiy va shaxsiy hayotida yutuqlarga erishishida namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda e‘tibor bersak, farzandi maktabga chiqadigan ota-ona zir yugurib yaxshi o‘qituvchi qidirib qolganligiga guvoh bo‘lamiz. Aslida o‘qituvchi ham, maktab ham juda ko‘p. Har bir tumanda, mahallada maktablar va pedagoglar etarli. Ammo ota-ona yaxshi ustoz uchun farzandini uzoq joyga olib borib olib kelishga ham tayyor. Nima uchun ba‘zi pedagoglar faoliyatiga nisbatan bunday ishonchsizlik paydo bo‘ldi degan haqli savol tug‘iladi. Ayni shu joyda ayrim pedagoglarda emotsional yonish holatining mavjudligi ularni o‘z ishiga nisbatan befarq qilib qo‘yganligi, bu esa ta‘lim jarayoniga salbiy ta‘sir ko‘rsatib ba‘zi ota-onalarning pedagoglarga ishonchi susayishiga olib keladi. Aslida, emotsional yonish sindromi qanday xususiyatlarga egaki u pedagogni ham ishidan sovutsa, ham uning shaxsiy hayotiga salbiy ta‘sir o‘tkaza olsa?

Bu sindrom haqida birinchi marta Gerbert Freydenberg 1974-yilda gapiradi. Gerbert Freydenbergning o‘zi kuniga 15 soatlab ishlaydi va aynan o‘zida emotsional yonish sindromini boshdan kechiradi. Shuning uchun ham u bu mavzuda tadqiqotlar olib boradi. Emotsional yonish nima? U insonning ham jismonan, ham ruhan toliqishidir. Bu sindrom asosan inson inson bilan ishovchi soha vakillarida ko‘proq kuzatiladi. Ofis xodimlari, shifokorlar, pedagoglar, psixologlar, huquq-tartibot xodimlari, sotuvchilar o‘rtasida bu sindrom ko‘proq uchrashi kuzatilgan. Bu mavzuda K. Maslach, U. Nuber, V. Boyko, E. G‘oziyev, V. Karimova, Z. Nishanovalar ilmiy tadqiqotlarida atroflicha to‘xtalib o‘tishgan va bu boradagi tadqiqotlar hamon davom etmoqda.

Gerbert Freydenberger va uning hamkasbi Geyl Nort charchashning 11 bosqichini aniqladilar:

Muvaffaqiyatli xodimlarga va hamkasblariga o‘z qadr-qimmatini ko‘rsatishga moyillik;

Ishdan to‘xtash va chalg‘ishga imkon yo‘qligi;

ehtiyojlarni e‘tiborsiz qoldirish: tartibsiz uyqu, ovqatlanishning buzilishi, aloqa etishmasligi;

muammolarni inkor etish, tashvish, tahdid va vahima hissi;

qadriyatlarni buzgan holda ish bilan shug‘ullanish;

hamkasblarga nisbatan murosasizlik, ishga sovuqqonlik, tajovuzkorlik;

faollik va ijtimoiy o‘zaro ta‘sirlarning kamayishi, ko‘pincha spirtli ichimliklar va giyohvand moddalar yordamida stressdan xalos bo‘lish zarurati;

do'stlar va oila a'zolarini tashvishga soladigan xatti-harakatlardagi aniq o'zgarishlar;

odam o'zini va boshqalarni qadrlashni to'xtatadi, uning ehtiyojlarini sezmaydi;

ichki bo'shliq hissini ortiqcha jinsiy aloqa, spirtli ichimliklar yoki giyohvand moddalar bilan to'ldirishga urinishlar bo'lishi mumkin;

depressiya va charchash sindromi: yo'qotish va noaniqlik hissi, charchoq, kelajakning g'amginlik hissi; to'liq ruhiy va jismoniy qulashni o'z ichiga olishi mumkin; Ushbu bosqichda tibbiy yordam talab qilinishi mumkin.

Emotsional yonish sindromi – ishdagi surunkali stress natijasida yuzaga keladigan hissiy, ruhiy charchoq va jismoniy charchoq holatidir. Bu ishda mahsuldorlikning pasayishi, charchoq, uyqusizlik, somatik kasalliklarga moyillikning oshishi, befarqlik, barcha narsaga negativ qarash, umidsizlik, sal narsaga bezovtalanish kabi belgilar bilan namoyon bo'ladi. Ushbu sindromning rivojlanishi, eng avvalo, odamlarga yordam berish ustunlik qiladigan kasblar uchun xosdir. "Qiyin" mijozlar bilan ishlash ham insonni charchatadi. Emotsional yonishda xulq-atvorda zerikish, ishga borishga qarshilik qilish, kechikish, ijodkorlikning pasayishi kuzatiladi. Ayni sindromni boshidan kechirayotgan inson tuyg'ularida ham o'zgarishlar ko'zga tashlanadi. Bunda ruhiy tushkunlik, aybdorlik hissi, sal narsaga asabiylashish, achchiqlanish sezilsa, fikrlashdagi o'zgarishlar diqqatning pasayishi, shubha, jabrlanuvchi ruhiyati, qo'pollik kuzatiladi. Bularning barchasi esa inson sog'ligida ham o'z izini qoldiradi va unda immunitetning pasayishi va turli kasalliklarga moyillik ortadi.

Psixolog Jerrold Grinberg o'zining "Stressni boshqarish" kitobida hazil tuyg'usining yo'qolishini emotsional yonishning birinchi alomati sifatida aniqladi. Bu haqidagi tadqiqotlarga ko'ra, emotsional yonish sindromida inson yana qanday muammolarga duch kelishi mumkinligini bilib olamiz.

Emotsional yonish sindromida inson ming urinsa ham diqqatni jamlashga qiynaladi, hatto bonuslar uchun ham yangi loyihalarni qabul qilish istagi yo'q, ko'p ishlayotganga o'xshaydi lekin xuddi g'ildirak loyga botib qolgandek ish aslo oldinga siljimayotganga o'xshaydi, dushanba kunidanoq dam olish kunini kutadi. Tanada esa charchoq kun oxirida emas, balki ertalab ham seziladi, yoki ishtaha pasayadi yoki aksincha ochlik hissi bo'lmasa ham, bu inson tez-tez ovqatlanaveradi, uzoq vaqt uxlashga qiyinchilik seziladi, tez-tez kasalliklarga chalinadigan bo'lib qoladi. Eng e'tiborga molik jihati esa emotsional yonayotgan insonni hech kim tushunmayotganga o'xshaydi, u doimiy tashvish va asabiylashish ichida bo'ladi, kelajak qo'rquvini his qiladi, u hech kimni hatto eng yaqinlarini ham ko'rishni istamaydi. U na g'alabalardan xursand bo'ladi va na muammolardan xafa bo'ladi. Afsuski, u emotsional yonish jarayonida barcha ijobiy his-tuyg'ulardan butunlay mahrum bo'lishi mumkin, u boshqa odamlar bilan muloqotga va umuman hayotga qiziqishi yo'qoladi.

Ana shu belgilar millat bolasiga ta'lim va tarbiya berayotgan ayrim pedagogda kuzatilayotgan bo'lsa u o'ziga umid va qiziqish bilan termulib turgan

sinfidagi 20-25 nafar o'quvchiga sifatli ta'lim bera oladimi? Pedagoglar bu holatda o'z oilasiga tarli e'tibor bera oladimi? Bu kabi dolzarb savollar biz o'rganayotgan mavzuning naqadar muhimligini anglatadi.

Kuzatishlarimiz natijasida pedagoglarning emotsional yonish jarayonida ularga psixologik yordam berishning etarlicha metodik asoslari o'zbek tilida mavjud emasligi, maktab psixologlari pedagoglar bilan ushbu mavzuda keraklicha seminar treninglar o'tkazmayotganligi ma'lum bo'ladi.

Pedagog har kuni o'zi kutgan va kutmagan jurayonlarga duch keladi. U o'quvchilarning turli kayfiyati, erkaligi, ba'zida agressiyasiga duch kelishi mumkin. Shu bilan birga ba'zi ota-onalarning kutilmagan noroziligiga, gohida esa janjaliga ham guvoh bo'ladi. Afsuski, pedagogik etika nuqtayi nazaridan u har doim ham o'zining ichki kechinmalarini, fikrlarini erkin ifoda eta olmaydi. Bu esa undagi his-tuyg'ularning bostirilishiga sabab bo'ladi. Bu bostirilgan his-tuyg'ular afsuski, bir kun yoki bir oy emas, balki, yillab davom etishi va pedagogning sog'ligiga ziyon etadigan darajaga kelib qolishi mumkin. O'zigaki resurslari etmayotgan pedagog shaxsi o'quvchilariga sifatli ta'lim berishi va ularga hamdard bo'la olishi esa savol ostida qoladi. Pedagog Anastasiya Goncharova esa bolalarga resurslarga to'la katta odam kerak degan fikrni ilgari suradi. Uning yutub kanalida bergan intervyusida esa ustozlar doim shovqinda bo'lganidan keyin 10-15 daqiqa mutlaqo tinch joyda bo'lishlari lozim degan fikrni bildiradi.

Amalda esa biz pedagog biroz tin olishi uchun vaqt ajratish hali qonunchilikda ko'rilgani yo'q. Eng achinarlisi esa pedagog o'zining emotsional yonish holatida ekanligini bilmaydi va bu holat u hattoki sog'ligini yo'qotgunicha davom etishi mumkin.

Shu mavzuda izlanishlar olib borgan I.Yu.Kurganovanning ta'kidlashicha "pedagoglar o'ziga va atrofdagilarga nisbatan juda yuqori talab qo'yishi uni stressga tushiradi. Kasbiy o'sish va professional rivojlanish yo'lidagi doimiy tashvishlanish insonning ancha kuchini olib qo'yadi, sog'ligiga ziyon etkazadi". Xalqaro darajadagi, O'zbekiston, Belarus va Rossiya davlatlarida faoliyat yuritish huquqiga ega klinik psixolog Ziyodillaxon Asadullayev o'zining yutub kanalida emotsional yonish sindromiga quyidagicha ta'rif beradi:

"Insonning o'ta charchashi, juda ham toliqishini emotsional kuyish deb aytamiz. Bunday vaziyatda insonda psixologik, fiziologik o'zgarishlar yuzaga keladi. Agarki insonning ish faoliyati insonlar bilan bog'liq bo'lsa unda ish faoliyatining qaysidir bosqichida emotsional kuyish sodir bo'ladi. Vaqtida bu sindromga etarlicha e'tibor qaratilmasa jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Bu sindromning simptomlari:

- Tez-tez charchash;
- Uyquning buzilishi;
- Tez-tez kasallikka chalinadigan bo'lib qolish;
- Bosh og'rig'i;
- Oshqozon-ichak bilan bog'liq muammolar;

Kechqurun yaxshi uxlab ham ertalab uyquga to'ymagan holda uyg'onish. Bunday odamlar normal ovqatlanmaydi, normal kun tartibi yo'q, jahldor bo'lib qoladi. Inson yaxshi maosh olishi mumkin, lekin olayotgan puli uni xursand qilmay qo'yadi, ayollar yig'loqi bo'lib qolishi mumkin.

Insonga go'yoki u o'z joyida emasdek tuyuladi, ertasini ko'ra olmaydi. Ishga borgisi kelmaydi, o'z-o'zidan ich ketishi holatlari kuzatiladi. Inson o'z ishida qandaydir xatolar qilishni boshlaydi, hujjatlarda xato qilib qo'yadi, topshirishi kerak bo'lgan hujjatlarni topshirmaydi, u o'zi bilan nima sodir bo'layotganini tushunmaydi, go'yoki o'zini yo'qotib qo'yganga o'xshaydi.

Insonni hech narsa xursand qilmaydi, u rohatni sezmaydi. Lavozimi oshsa ham quvonch sezmaydi. Kayfiyat juda tez o'zgaradi, tuz xursand bo'ladi, tez xafa bo'ladi. Bu erda insonning tanasi ham, markaziy asab tizimi ham juda charchagan bo'ladi.

Sabablarga kelsak, inson o'zining sohasida bo'lmasa, faqat pul topish uchun ishlayotgan bo'lsa uning emotsional kuyish ehtimoli shuncha yuqori bo'ladi. Ilkkinchi guruhdagilar esa o'z ishini yaxshi ko'radi, lekin inson bir xillikka kirib qolishi va bir xil ishni qayta-qayta bajaraverishi ham unda emotsional yonishga chalinish xavfini yuzaga keltiradi. Shuningdek inson mehnatiga yarasha haq ololmasa ham unda emotsional yonishga chalinish xavfi yuqori bo'ladi. Ayrim hollarda emotsional kuyishning sababi ish emas, shaxsiy hayotida bo'ladi. Inson ishga o'z shaxsiy muammolarini ko'tarib boradi va ishdan qiynalayapman deb o'ylaydi".

Pedagoglarda emotsional yonish holatlari tadqiqi mavzusini o'rganish asnosida qilinishi kerak bo'lgan vazifalar ko'pligini ko'rish mumkin.

Pedagoglar uchun psixologlar yillik ish rejasiga albatta emotsional yonish mavzusiga oid ishlarni ko'paytirish lozim. Pedagoglarga emotsional yonish holatlarining o'ziga xos xususiyatlari va uning oqibatlari haqida batafsil ommaviy axborot vositalari orqali ma'lumot berish, emotsional yonish haqida bannerlar chop etish kerak. Pedagoglar xonalariga psixologik yordam beruvchi aromaterapiya, qum terapiyasi, art-terapiyaga oida buyumlar qo'yish va ulardan foydalanishni targ'ib qilish, sog'lom turmush tarziga rioya etishga targ'ib qilish, ish va oila o'rtasidagi muvozanatni saqlashga o'rgatish, ayni mavzuda kitob va metodik qo'llanmalar chop etishni ko'paytirish shular jumlasidandir. Pedagog millat bolalarini tarbiya qilarkan, uning sog'ligi, ruhiyati, psixologik ahvoli haqida qayg'urish har doim dolzarbligicha qolaveradi.



**ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES**

1. Trends.rbs.ru/trends/social
2. Klinika34.ru/dispensary/psikhoterapiya/sindromemotsionalnogo-vygoraniya
3. tmatm.uz
4. Astenik nevroz/ emotsional kuyish/emotsionalnoye vygoreniye/ menejer sindromi)

**MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]**

**Ro'ziyeva Zuxra Saidazimxojayevna,**

Osiyo xalqaro universiteti pedagogika va psixologiya yo'nalishi  
magistranti

Manzil: O'zbekiston, 200100, Toshkent shahri  
zuxraroziyeva6@gmail.com

**Iqtibos uchun:** Ro'ziyeva Z.S. Pedagog kasbiy kompetentligi va emotsional jarayonlarining ijtimoiy psixologik xususiyatlari // Osiyo xalqaro universiteti axborotnomasi. 2024. №3. B.163–172.

## MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALAR NUTQIDA UCHRAYDIGAN NUQSONLARNING BOLA RUHIYATIGA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TA'SIRI



© Sharipova Ferangiza Sayodovna

Osiyo Xalqaro Universiteti, Buxoro shahri

### Annotatsiya.

**KIRISH:** Ushbu maqolada nutqida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshidagi bolalar bilan ishlash jarayonida nutq nuqsonlari bo'lgan bolalarni pedagogik-psixologik tuzatishning maqsad va vazifalari keltirib o'tilgan.

**MAQSAD:** nutq nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishini o'rganish. Maqsadga muvofiq quyidagi vazifalari shakllantirish:

1. Tadqiqot muammosi bo'yicha psixologik-pedagogik adabiyotlarni ko'rib chiqish.

2. Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda nutq rivojlanishining buzilishi muammosini o'rganish, ODD bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishining xususiyatlari, dizartriya katta maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Maxsus psixologiyaning zamonaviy korrektsion pedagogikasida bolalarda nutqiy ko'nikmalarni o'zlashtirish qobiliyatini shakllantirish uchun shart-sharoit yaratish dolzarb yo'nalishlardan biridir.

Muloqot ijtimoiy faoliyatning birinchi turi bo'lib, uning yordamida bola o'zining shaxsiy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni oladi. Nutq aloqa vositasi sifatida muloqot jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi va maktabgacha ta'lim muassasalarining asosiy vazifasi bolalarning og'zaki muloqotini to'g'ri tashkil etish va faollashtirishdir.

Nutqni rivojlantirish jarayonida barcha asosiy aqliy jarayonlar ham, umuman bolaning shaxsiyati ham shakllanadi. Bolaning to'laqonli shaxsini shakllantirish, uyg'un psixofizik rivojlanishi va maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olishning shartlaridan biri bu to'g'ri nutqni o'z vaqtida o'zlashtirish va muloqotda undan faol foydalanishdir.

Nutq bolaning psixikasi, kognitiv faolligi va kontseptual tafakkurini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shakllangan nutq qobiliyatlari shaxslararo aloqalarni amalga oshirishning zaruriy sharti bo'lib, bu bolaning atrofidagi dunyo haqidagi g'oyalarini kengaytirishga yordam beradi.

Nutq rivojlanishining turli xil buzilishlari bo'lgan bolalar soni ortib bormoqda. Nutq bolaning fikrlashi va umuman faoliyatini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lganligi sababli, maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishining buzilishini oldini olish va tuzatish masalasi muhim o'rin tutyapti.

**XULOSA:** Nutqning rivojlanishi bolaning psixikasi, uning kognitiv faolligi, fikrlash va muloqot faoliyati shakllanishining eng muhim asosi bo'lib hisoblanadi. Bu bolaning hayoti haqidagi g'oyalarini kengaytirishga imkon beradi. Bugungi kunda nutq rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar soni ortib bormoqda, bu esa maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini optimallashtirish uchun profilaktika va tuzatish choralari ishlab chiqishni talab qiladi.

**Kalit so'zlar:** nutq, nuqson, kognitiv faollik, nutqiy nuqson, frontal mashg'ulot, logoped, nutq buzilishi, ruhiyat.

## ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ ДЕФЕКТОВ РЕЧИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНИКОВ НА ПСИХОЛОГИЮ РЕБЕНКА

### Аннотация.

**ВВЕДЕНИЕ:** В данной статье обозначены цели и задачи педагогико-психологической коррекции детей с дефектами речи в процессе работы с детьми дошкольного возраста с дефектами речи.

**ЦЕЛЬ:** изучение психического развития детей дошкольного возраста с речевыми нарушениями. В соответствии с целью формируются следующие задачи:

1. Обзор психолого-педагогической литературы по проблеме исследования.

2. Рассмотреть следующие аспекты: изучение проблемы нарушений речевого развития в психолого-педагогических исследованиях, особенности психического развития дошкольников с ОДР, особенности речевого развития дошкольников с дизартрией.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** В современной коррекционной педагогике специальной психологии создание условий для формирования у детей способностей к овладению речевыми навыками является одним из актуальных направлений.

Общение – первый вид социальной деятельности, с помощью которого ребенок получает информацию, необходимую для его личностного развития. Речь как средство общения возникает и развивается в процессе общения, и основной задачей дошкольных образовательных учреждений является правильная организация и активизация устного

общения детей. В процессе речевого развития формируются все основные психические процессы и личность ребенка в целом. Одним из условий формирования полноценной личности ребенка, гармоничного психофизического развития и успешного обучения в школе является своевременное овладение правильной речью и активное ее использование в общении.

Речь играет важную роль в развитии детской психики, познавательной деятельности и понятийного мышления. Сформированные речевые навыки являются предпосылкой межличностного общения, способствующей расширению представлений ребенка об окружающем мире.

Количество детей с различными нарушениями речевого развития увеличивается, и поскольку речь важна для развития мышления и общей деятельности ребенка, большое значение имеет вопрос профилактики и коррекции речевых нарушений у детей дошкольного возраста.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** Развитие речи является важнейшей основой формирования психики ребенка, познавательной деятельности, мышления и коммуникативной деятельности. Это позволяет ребенку расширить свои представления о жизни. Сегодня количество детей с нарушениями речевого развития увеличивается, что требует разработки профилактических и коррекционных мероприятий по оптимизации речи детей дошкольного возраста.

**Ключевые слова:** речь, дефект, познавательная деятельность, речевой дефект, фронтальная тренировка, логопед, речевое расстройство, психика.

## PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL EFFECTS OF PRESCHOOL CHILDREN'S SPEECH DEFECTS ON THE CHILD'S PSYCHOLOGY

### Abstract.

**INTRODUCTION:** In this article, the goals and tasks of pedagogical and psychological correction of children with speech defects in the process of working with children of preschool age with speech defects are mentioned.

**GOAL:** study of mental development of preschool children with speech disorders. In accordance with the purpose, the following tasks are formed:

1. Review of psychological and pedagogical literature on the research problem.
2. Consider the following aspects: study of the problem of speech development disorders in psycho-pedagogical research, features of mental development of older preschool children with ODD, specific features of speech development of older preschool children with dysarthria.



**MATERIALS AND METHODS:** In the modern correctional pedagogy of special psychology, creating conditions for the formation of the ability to master speech skills in children is one of the current trends.

Communication is the first type of social activity, with the help of which the child receives information necessary for his personal development. Speech as a means of communication appears and develops in the process of communication, and the main task of preschool educational institutions is to properly organize and activate children's oral communication. In the process of speech development, all the main mental processes and the child's personality in general are formed. One of the conditions for the formation of a child's full-fledged personality, harmonious psychophysical development and successful education at school is the timely acquisition of correct speech and its active use in communication.

Speech plays an important role in the development of a child's psyche, cognitive activity and conceptual thinking. Formed speech skills are a prerequisite for interpersonal communication, which helps to expand the child's ideas about the world around him.

The number of children with various disorders of speech development is increasing, and since speech is important for the development of the child's thinking and general activity, the issue of prevention and correction of speech disorders in preschool children is of great importance.

**CONCLUSION:** The development of speech is the most important basis for the formation of the child's psyche, cognitive activity, thinking and communication activities. This allows the child to expand his ideas about life. Today, the number of children with speech development disabilities is increasing, which requires the development of preventive and corrective measures to optimize the speech of preschool children.

**Key words:** speech, defect, cognitive activity, speech defect, frontal training, speech therapist, speech disorder, psyche.

Jahon maktabgacha yoshdagi nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar oilasiga korreksion-pedagogik yordamga jalb etish texnologiyalari amaliyotga tadbiiq etilgan. Sog'liqni saqlash tashkilotlarining ma'lumotlariga ko'ra, yangi tug'ilgan chaqaloqlar orasida 6-9% holatda tug'ma jismoniy, aqliy, va og'ir surunkali xastaliklarga ega bo'lgan bolalar tug'ilishi holatining ortib borayotgani qayd etilmoqda. Dakar deklaratsiyasi asosida qabul qilingan "Ta'lim hamma uchun" reja-dasturi asosida butun jahonda jismoniy va psixik rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni jamiyatimizning teng huquqli a'zolari safiga qo'shilishlariga yordam berish, ular ta'limini izchil amalga oshirish, kompleks tadbirlarni kengaytirish asosida nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarni mikro muhitda muloqot qilish, hayotga ijtimoiylashuvini shakllantirish, oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlarini hamkorligini kuchaytirish, profilaktika va reabilitatsiyaga muhtoj

oilalarga tibbiy-psixologik, iqtisodiy yordam ko'rsatish bo'yicha yirik amaliy loyihalarni hayotga tatbiq etish yuzasidan tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon maktabgacha ta'lim, gimnaziya, litseylar va tadqiqot markazlarida nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar tarbiyasida korreksion-pedagogik yordam berishni rivojlantirish, tibbiy-psixologik usullarga bag'ishlangan texnologiyalarni takomillashtirish, o'quv resurslarini yaratish, oilaviy munosabatlarni tashkil etish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni psixologik, ijtimoiy va somatik darajalarini takomillashtirish, nutq, kinestik va nutq analizatorlarini kuchaytirish, tibbiy-psixologik-pedagogik, korreksion-rivojlantiruvchi ishlarning yangi, innovatsion modellarini yaratish jamiyatga integratsiyalash va ijtimoiylashuvini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Alohida yordamga muxtoj bolalarning ta'lim-tarbiyasi muammolarini O'zbekiston Respublikasida L.R.Mo'minova, M.Yu.Ayupova, D.A.Nurkeldieva, Z.M.Axmedova, S.G.Kim, L.Nurmuhamedova, X.M.Po'latova, N.X.Raxmonqulova, R.Shomahmudova, M.F.Hakimova, N.Z.Abidova, Sh. Tax-tayarova, Sh. Shokirova, O.Bozorov tadqiq qilishgan.

Mualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar nutq nuqsoni bo'lgan bolalar ham, xuddi sog'lom tengqurlari kabi, ijtimoiy shaxs bo'lib etishishlari uchun barcha imkoniyatlarga ega ekanliklari hamda bu bolalarda mavjud kuchli imkoniyatlarni ishga solish nutqni rivojlantirish asosida amalga oshirilishi lozimligini isbotladi. Nutq nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiy moslashuvi jarayonida hal qiluvchi omil ota-onalar va oila a'zolarini korreksion-pedagogik jarayonga jalb etish zarurati aniqlandi.

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'rganish turli yo'nalishlarda amalga oshirildi: klinik (E.M.Mastyukova), psixolingvistik (V.K.Vorobyova, V.P.Gluxov, B.M.Grinshpun, V.A.Kovshikov, E.F.Sobotovich, L.B.Xalilova va boshqalar), psixologik-pedagogik (F.Garkusha, G.S.Gumennaya, L.N.Efimenkova, T.B.Filicheva, G.V.Chirkina, S.N.Shaxovskaya va boshqalar). Ko'pgina nashrlar bolalarda nutq faoliyatining tarkibiy qismlarida doimiy buzilishlar mavjudligini ko'rsatadi, bu esa muloqot jarayoniga salbiy ta'sir qiladi. PA Belova-David, PE Levina, E.M. Mastyukova, V.K. Orfinskaya, H.H.Traugott, O.N. Usanova, M.E. Xvattsev nutqning talaffuz tomoni, fonematik idrok etish, so'z boyligi, grammatik tuzilish va nutqni tushunishni shakllantirishdagi aniq og'ishlar haqida gapirar ekan, ushbu toifadagi bolalarning nutq faolligi pastligini ta'kidlaydi.

Nutqda nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarni pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash bolalarga har tomonlama yordam berishning eng murakkab turlaridan biri bo'lib, uning asoschilari- B.M.Grinshpuna, N.S. Jukova, R.E. Levina, N.A. Nikashina, L.F. Spirova, T.B. Filicheva, G.V. Chirkina, A.V. Yastrebova va boshqalar.

Nutq buzilishlari tarkibida etishmovchilikning ikki turi mavjud bo'lganligi sababli, T.I. Yanovich ishning ikki yo'nalishini ta'minlaydi:

- nutq komponentlarini shakllantirish (talaffuz, fonemik idrok, nutqni tempo-ritmik tashkil etish va boshqalar);
- kognitiv qobiliyatlarni, e'tiborni, xotirani, nutq xatti-harakatlarini rivojlantirish, shuningdek, hissiy-irodaviy sohani rivojlantirish va tuzatish.

Nutq komponentlari ustida ishlash uchun an'anaviy ravishda nutqni rivojlantirish uchun og'zaki, vizual va o'yin uslubiy usullarini o'zgartirish qo'llaniladi. Og'zaki usullar keng qo'llaniladi( nutq namunasi, takroriy talaffuz, tushuntirish, bolalar nutqini baholash, savol).

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish uchun turli xil usullar foydalaniladi. Bu usullardan foydalanishning o'ziga xosligini L.N.Efimenkova, N.S. Jukova, G.A. Kashe, S.A.Mironova, T.B. Filicheva va boshqalar o'rganganlar.

Pedagogik jarayonning majburiy komponentlari nafas olish, artikulyatsiya gimnastikasi, nozik va qo'pol motorli ko'nikmalarni rivojlantirishdir.

Psixologik va pedagogik yordam bir necha darajalarni o'z ichiga oladi:

- bolalar bilan o'zaro munosabat,
- ota-onalar bilan o'zaro munosabat
- o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatlar.

I.Yu. Lebedenko bolalar bilan o'zaro munosabatlarni uchta darajada tashkil etishni taklif qiladi:

- maktabgacha ta'lim dasturini o'zlashtirishda muayyan bolaga individual maxsus yordam sifatida;
- nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar ishtirok etadigan alohida guruh bilan ishlash
- barcha guruhlar bilan bir jamoada tarbiyalangan va o'qiyotgan bolalarning yagona jamoasi sifatida ishlash.

N.V. Lavrenyuk ota-onalar bilan o'zaro munosabatlarni ko'rib chiqadi, bu ham bir necha yo'nalishda amalga oshiriladi: ota-onalar o'quv jarayonining ishtirokchisi sifatida, ota-onalar maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o'zaro munosabatlarning ishtirokchisi sifatida, ota-onalar tuzatish va rivojlantirish ishlarining ishtirokchisi sifatida.

O'qituvchilar bilan o'zaro munosabatlar V.S.Gorynina to'rt tomondan ko'rib chiqdi: o'quv jarayonini tashkilotchilari bilan, hamfikrlar jamoasi bilan, kasbiy hamjamiyat a'zolari bilan, tuzatish va rivojlantirish ishlari ishtirokchilari bilan.

Nutqiy nuqson deganda, ma'lum nutq buzilishining nutqiy va nutqsiz alomatlari hamda ularning bog'lanish xarakteri majmui tushuniladi. Nutqiy nuqson tuzilishida birlamchi, etakchi buzilish va ikkilamchi nuqsonlar ajratib ko'rsatiladi. Bu buzilishlar bir-birlari bilan sabab-oqibat munosabatida bo'ladi.

Nutqiy nuqsonning turlicha tuzilishi birlamchi va ikkilamchi alomatlarining alohida bog'lanishlarida o'z aksini topadi va biror maqsadga qaratilgan logopedik ta'sir etishning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi

Nutq buzilishlarining paydo bolishi ko'p hollarda biologik va ijtimoiy omillarning o'zaro murakkab ta'siri bilan bog'langan bo'ladi. Nutq buzilishlarini samarali logopedik tuzatish uchun buzilishning har bir alohida holda buzilish etiologiyasi, mexanizmlari, alomatlarini aniqlash, etakchi buzilishlarni ajratib ko'rsatish, nuqson tuzilishidagi nutqiy va nutqsiz belgilarning o'zaro munosabatlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Nutq buzilishlarini o'rganish va tuzatishda didaktik tamoyillar: ko'rgazmalilik, tushunarlik, onglik, yakka tartibda yondashish va boshqalar muhim o'rin tutadi.

Bolalarda nutq rivojlanishining buzilishlari logopediyada o'rganiladi va mutaxassislarining sa'y-harakatlari nutq nuqsonlarini maksimal darajada bartaraf etishga qaratilgan. Nutq o'zaro ta'sirning kommunikativ funksiyasining to'liqligi, bolaning har tomonlama rivojlanishi va tarbiyasi, uning xarakterini shakllantirish, mehnat va ijtimoiy hayotda ishtirok etishi uchun juda muhimdir.

Nutq nuqsoniga ega bolalarga mo'ljallangan maktabgacha tarbiya muassasalarida barcha tuzatish jarayonlarini aniq tashkil qilish ko'zda tutiladi.

Tuzatish ishlari quyidagilar, ya'ni:

- bolalarni o'z vaqtida tekshirish;
- mashg'ulotlar jadvalini oqilona tuzish;
- har bir bola bilan olib boriladigan individual ishni rejalashtirish;
- frontal mashg'ulotlarni rejalashtirish;
- mashg'ulotlarni kerakli jihozlar va ko'rgazmali qurollar bilan ta'minlash;
- logopedning tarbiyachi va ota-onalar bilan o'zaro hamkorlik qilishi orqali ta'minlanadi.

Nutqida kamchiligi bor shaxslarning barcha yosh guruhlarida nutq bilish faoliyati, emotsional irodaviy sohalaridagi nuqsonlarni bartaraf etish imkoniyatlari tibbiy va pedagogik ta'sirlar kompleksining o'z vaqtida va aynan bir xil qo'llanishiga bog'liqdir

Demak, yuqoridagilarga asoslanib shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim muassasalarida nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ajralmas tizimdir. Uning maqsadi tashkilotning ta'lim faoliyatini tizim sifatida tashkil etish, shu jumladan diagnostika, profilaktika va tuzatish va rivojlanish jihatlari, nutqning yuqori, ishonchli darajasini, bolaning intellektual va aqliy rivojlanishini ta'minlashdir. Psixologik-pedagogik yordamning mazmuni nutqni rivojlantirishning barcha jihatlari (nutqning fonetik tomoni, fonemik jarayonlar, grammatik tuzilma, so'z boyligi, izchil nutqning rivojlanishi) hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va bolaning nutqi, kognitiv, jismoniy, badiiy integratsiyasini ta'minlaydi.





## ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Белякова, Л.И., Волоскова Н.Н. Логопедия. Дизартрия. — М.: изд. центр ВЛАДОС, 2009.
2. Беккер К.П, Совак М. Логопедия. — М., 1981
3. Жирнова О.С. Психолого-педагогическое сопровождение детей с общим недоразвитием речи в ДОУ // Психологические науки: теория и практика: материалы II Междунар. науч. конф. (г. Москва, март 2014 г.). М.: Буки-Веди, 2014. С. 62-64
4. Калягин В.А., Овчинникова Т.С. Психолого-педагогическая диагностика детей и подростков с речевыми нарушениями
5. Logopediya (L. Mo'minova, M. Ayupova). — T., 1993.
6. Shomaxmudova R. Sh. Mo'minova L. Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish. — T., 1994
7. "Logopediya" (L. S. Volkova tahriri ostida). - M., 1989.
8. Mo'minova L.R, Shomaxmudova R. Bog'cha va kichik maktab yoshidagi bolalar talaffuzidagi nuqsonlarni tuzatish. Toshkent: O'qituvchi, 1981

## MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

**Sharipova Ferangiza Sayodovna**

Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti

Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri giza\_5851@mail.ru

**Iqtibos uchun:** Sharipova F.S. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar nutqida uchraydigan nuqsonlarning bola ruhiyatiga pedagogik-psixologik ta'siri. // Osiyo xalqaro universiteti axborotnomasi. 2024. №3. B.173–180.

## O'SMIRLARDA DEVIANT XULQ ATVORNING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI



© Sanoqulova Maftuna Erkinjon qizi  
Osiyo xalqaro universiteti, Buxoro shahri

### Annotatsiya.

**KIRISH:** Ushbu maqolada yoshlar orasida deviant xulq-atvorning o'sishi bilan jamiyatda jinoyatchilikning ko'payishi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud. Bolalar va o'smirlarning deviant xatti-harakatlari kuchaygan sari, noqonuniy ishlarni qilish istagi ham ortib bormoqda. Shu sababli, profilaktika choralari har bir ta'lim muassasasida keng qo'llanilishi zarur. Bu choralar o'spirinlarga har bir harakatning javobgarligini tushuntirishni maqsad qiladi.

**MAQSAD:** Zamonaviy dunyoda deviant xulq-atvor masalasi juda dolzarbdir. Iqtisodiy tengsizlik, globallashuv, axborotga erkin kirish, demokratiyaning rivojlanishi kabi ijtimoiy hodisalar ko'pincha o'smirlar orasida salbiy reaksiyalarni keltirib chiqaradi. Yoshlar adolatsizlikka qarshi isyon ko'taradi, axloqiy me'morlarni buzadi yoki yangilaydi. Ko'pincha bu norozilik nafaqat yosh "inqilobchilar" uchun, balki butun jamiyat uchun ham zararli bo'lgan xavfli shakllarga aylanadi.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Ushbu maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. O'smirlar deviant xulq-atvorining profilaktikasining shakllanish tarixi qiyosiy tahlil qilindi. L.I.Karimovanning o'quv qo'llanmasi metodologik manba sifatida tanlandi. Shu bilan birga, Sh.M. Mirziyoyevning asarlaridan keng foydalanildi.

**XULOSA:** Deviant xulq-atvorning oldini olish va uning sabablarini bartaraf etish uchun, insonga mos va umumiy manfaatlarga ega bo'lgan guruh topishda yordam berish kerak. Masalan, musiqaga, sport maktabiga yoki sport turistik klubiga yo'naltirish mumkin. Bularning barchasi shaxsning ishtiyoqi va qiziqishlariga bog'liq. Yoshlarni tarbiyalashda deviant xulq-atvor ijtimoiy, biologik va psixologik omillarni hisobga olish kerak.

**Kalit soʻzlar:** Deviant, yoshlar, xulq-atvor, ogʻish, profilaktika, axloq meʼmorlar, oʻgʻrilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, oʻz joniga qasd qilish, oʻspirinlar.

## ПРОЯВЛЕНИЕ ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ

### Аннотация.

**ВВЕДЕНИЕ:** В данной статье отмечается прямая связь между ростом девиантного поведения среди молодежи и ростом преступности в обществе. По мере роста девиантного поведения детей и подростков растет и желание совершать противоправные действия. Поэтому профилактические меры должны широко использоваться в каждом образовательном учреждении. Эти меры направлены на разъяснение подросткам ответственности за каждое действие.

**ЦЕЛЬ:** Вопрос девиантного поведения очень актуален в современном мире. Такие социальные явления, как экономическое неравенство, глобализация, свободный доступ к информации и развитие демократии, часто вызывают негативную реакцию среди подростков. Молодые люди восстают против несправедливости, нарушают или обновляют моральные нормы. Нередко этот протест переходит в опасные формы, вредные не только для молодых «революционеров», но и для общества в целом.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** В процессе анализа данной статьи широко использовались методы логичности, историчности, последовательности и объективности научного знания. Сравнительно проанализирована история становления профилактики девиантного поведения подростков. В качестве методического источника было выбрано учебное пособие «Социальная психология и реклама» Л.И. Каримовой. В то же время Ш.М. Широко использовались труды Мирзиёева.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** Чтобы предотвратить девиантное поведение и устранить его причины, необходимо помочь человеку найти подходящую группу, имеющую общие интересы. Например, можно обратиться в музыкальную, спортивную школу или клуб спортивного туризма. Все зависит от увлечений и интересов человека. Социальные, биологические и психологические факторы девиантного поведения должны учитываться при обучении молодежи.

**Ключевые слова:** Девиантность, молодежь, поведение, девиантность, профилактика, моральные нормы, воровство, алкоголизм, наркомания, суицид, подростки.

## CORRELATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF PROTECTIVE SERVICE PERSONNEL

### Abstract.

**INTRODUCTION:** This article notes a direct connection between the increase in deviant behavior among young people and the increase in crime in society. As the deviant behavior of children and adolescents increases, so does the desire to commit illegal acts. Therefore, preventive measures should be widely used in every educational institution. These measures are aimed at explaining to adolescents the responsibility for every action.

**GOAL:** The issue of deviant behavior is very relevant in the modern world. Social phenomena such as economic inequality, globalization, free access to information and the development of democracy often cause negative reactions among adolescents. Young people rebel against injustice, violate or renew moral norms. Often this protest turns into dangerous forms, harmful not only to young “revolutionaries”, but also to society as a whole.

**MATERIALS AND METHODS:** In the process of analyzing this article, methods of logic, historicity, consistency and objectivity of scientific knowledge were widely used. The history of the development of prevention of deviant behavior in adolescents is comparatively analyzed.

**CONCLUSION:** To prevent deviant behavior and eliminate its causes, it is necessary to help a person find a suitable group that has common interests. For example, you can contact a music, sports school or sports tourism club. It all depends on the person's hobbies and interests. Social, biological and psychological factors of deviant behavior must be taken into account when educating young people.

**Key words:** Deviance, youth, behavior, deviance, prevention, moral standards, theft, alcoholism, drug addiction, suicide, adolescents.

**H**ozirgi kunda deviant xulq-atvorning asosiy sababi o'smirlarning ijtimoiy tabaqalanishni boshdan kechirishi, yaxshi sharoitlarda yashay olmasligi va sifatli ta'lim ololmasligidir. Bu psixologik siljishlarga olib keladi, natijada tanqidlar, janjallar, asabiy buzilishlar, huquqbuzarliklar va uydan qochish holatlari sodir bo'ladi.

Agar o'smirlar ko'cha muhitiga, mushtlashuvchilarga, rokerlarga yoki ekstremal guruhlariga qo'shilsa, ular salbiy manfaatlar va kattalarning zararli xatti-harakatlarini qabul qilishadi. Bu erta jinsiy tajriba, giyohvand moddalar va spirtli ichimliklar iste'mol qilish kabi odatlarni rivojlantiradi.

Bunday hodisalarning asosiy sababi ota-onalarning beparvoligi, bolalarga etarli e'tibor bermasligi va beparvo munosabatda bo'lishidir. Shu sababli, deviant xulq-atvorning dastlabki belgilarida o'qituvchilar ota-onalar bilan yaqin aloqada bo'lib, oilaviy muhitni aniqlashlari lozim.

Bolalar bilan profilaktik ishlarning turli shakllari mavjud:



1. **Professional psixologlar ishtirokidagi o'yinlar va treninglar:** Bu tadbirlarning maqsadi bolalarning o'z shaxsiga to'g'ri munosabatini shakllantirishdir.

2. **Deviant xulq-atvor mavzusida darslar va ma'ruzalar:** O'spirinlarga nima uchun Konstitutsiya buzilishi mumkin emasligi va uning qanday xavflar keltirib chiqarishini tushuntirish uchun mo'ljallangan.

3. **Deviant xatti-harakatlarning oldini olish dasturlari:** Bir nechta sinflar seriyasini o'z ichiga olgan dasturlar.

O'smirlar deviant xulq-atvorining profilaktikasi:

O'smirlik yoshida deviyatsiya namoyon bo'lishining ortib borishi ijtimoiy pedagoglar oldiga bu o'smirlar bilan ishlashning yangi usullari va texnologiyalarini izlash hamda qo'llash vazifasini qo'yadi. Ilmiy nazariya va amaliyotda ikki asosiy texnologiya keng tarqalgan: profilaktika va reabilitatsiya. Profilaktika - o'smirlar xulq-atvorida ijtimoiy normalardan og'ishning turli shakllarini keltirib chiqaruvchi asosiy sabab va sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy, tibbiy, tashkiliy, tarbiyaviy va davlat tadbirlarining majmuasidir. Bu chora-tadbirlar asosan bolani o'rab turuvchi muhitga bog'liq bo'ladi.

Profilaktika chora-tadbirlarini amalga oshirishda ijtimoiy pedagog quyidagi qoidalarga suyanadi:

1. **Ijtimoiy madaniy normani o'zlashtirish:** Shaxs ijtimoiylashuvi jarayonida amalga oshadi. Qadriyatlar, g'oyalar va boshqa ramziy tizimlarni o'zlashtirmay inson jamiyatning to'la qonli a'zosi sifatida faoliyat yurita olmaydi.

2. **Ijtimoiy madaniy normaning muxolifi:** Bolalarning ijtimoiy madaniy va pedagogik qarovsizligi bo'lib, bu nafaqat bola rivojining g'ayrinormal alomati balki uning zimmasiga anomal ijtimoiy holatlarni yuklatishning natijasi sifatida qaraladi.

3. **Bolalar qarovsizligining profilaktikasi:** Mavhum ijtimoiy madaniy normadan emas, balki muayyan sharoitda yashashga majbur bo'lgan boladan kelib chiqishi lozim.

4. **Bola reabilitatsiyasi:** Faoliyat sub'ekti, ijtimoiy sub'ekt va shaxs darajasida amalga oshirilishi kerak.

"Profilaktika" atamasi o'zi noxush oqibatlarni keltirib chiqaruvchi sabablarni bartaraf etish ma'nosini bildiradi. Ijtimoiy og'ishlar turli sabab va holatlardan kelib chiqishini inobatga olsak, profilaktik chora-tadbirlarning bir nechta turlarini ajratsa bo'ladi:

- Neytrallashtiruvchi
- O'rnini to'ldiruvchi
- Ijtimoiy og'ishlarga sabab bo'luvchi holatlarning yuzaga kelishini ogohlantiruvchi
- Bu holatlarni bartaraf etuvchi
- O'tkaziladigan profilaktika ishlarini nazorat qiluvchi

Deviant xulq-atvoriga ega bolalarning ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiyasi.

O'smirlik yoshida deviant xulq-atvor namoyon bo'lishining tinimsiz oshib borishi ijtimoiy pedagoglar oldiga bu o'smirlar bilan ishlashning yangi usullari va texnologiyalarini izlash va ularga tatbiq etish vazifasini qo'yadi. Ilmiy nazariya

va amaliyotda ikki asosiy texnologiya - profilaktika va rehabilitatsiya keng tarqalgan.

**Profilaktika:** Profilaktika o'smirlar xulq-atvorida ijtimoiy normalardan og'ishning turli shakllarini keltirib chiqaruvchi asosiy sabab va sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy, tibbiy, tashkiliy, tarbiyaviy va davlat tadbirlarining majmuasidir. Bu chora-tadbirlar asosan bolani o'rab turgan muhitga bog'liq bo'ladi.

O'zbekistonda deviant xulq-atvor sotsiologiyasi muammolari mustaqillik sharofati bilan o'rganila boshlandi. Turli deviant xulq-atvor ko'rinishlarini mamlakatimiz olimlari o'z tadqiqot ob'ektlari doirasida o'rganganlar. Misol uchun:

- **Faylasuflar:** X.Shayxova, Q.Nazarov, M.Xolmatova, N.Komilov (shaxs tarbiyasida ma'naviy-axloqiy tarbiya ta'siri masalalari)

- **Sotsiologlar:** M.B.Bekmurodov (ijtimoiy me'morlarga jamoatchilik fikrining ta'siri jarayonlari)

- **Huquqshunoslar:** A.Qulahmetov, Y.Karaketov, M.Usmonaliev (jinoyatchilikning umumiy jihatlari va o'smirlar jinoyatchiligi masalalari)

- **Psixologlar:** G'.B.Shoumarov, N.A.Sog'inov, S.A.Axunjanova, Z.R.Qodirova, E.Sh.Usmonov, B.M. Umarov (o'z joniga qasd qilish va jinoyatchilik muammolarining ruhiy-psixologik asoslari)

- **Pedagoglar:** O.Musurmonova, D.J.Sharipova (oilada barkamol shaxsni tarbiyalash hamda giyohvandlik, ichkilikbozlik, chekish kabi illatlarning oldini olish muammolari)

Jamiyatda insonlar faoliyati, xatti-harakatlari va xulq-atvorlarini ijtimoiy me'morlar boshqaradi. Ijtimoiy me'mor jamiyat boshqaruvining ajralmas qismi bo'lib, shaxs yoki ijtimoiy guruh xulq-atvorini muayyan sotsial muhitga moslashtiruvchi qoidalar majmuidir. Ijtimoiy me'morning bir necha turlari mavjud: huquqiy, axloqiy, diniy va urf-odatlariga oid me'morlar.

Ijtimoiy me'morning afzalligi shundaki, yoshligidanoq muayyan me'morlarga moslashtirilgan shaxslar umum tomonidan qabul qilingan tamoyillar doirasidan chetga chiqmaydi va boshqalardan ham shuni kutadi. Jamiyat taraqqiy etgan sari o'rnatilgan me'morlar ham eskirib boradi va yangi me'morlar o'rnatiladi. Yangi me'morlarni o'rnatish jarayoni jamiyatda o'rnatilgan mavjud me'morlar doirasini kengaytirish va o'zgartishdan iboratdir.

Jamiyat a'zolarini mazkur ijtimoiy me'morlarga amal qilib yashashlarini nazorat qiluvchi institutlar ijtimoiy nazorat institutlari deyiladi. Ushbu institutlarga oila, maktab, mahalla, huquqni muhofaza qilish organlari va hokazolar kiradi.

Insonlar bolalarga ijtimoiy me'morlarni o'rgatib borish bilan birga, xulq-atvor me'moriy talablarining to'g'ri bajarilishini nazorat etishadi va bu bilan ijtimoiy nazorat vakili vazifasini bajarishadi. Nazoratni yakka shaxs amalga oshirsa, bu individual tavsifga ega bo'ladi; agar butun bir jamoa, oila, do'stlar, maktab, mahalla (qo'ni-qo'shnilar) tomonidan amalga oshirilsa, bu ijtimoiy tavsifga ega bo'ladi va ijtimoiy nazorat deyiladi.

Ijtimoiy nazorat vakillari insonlar xulq-atvorini boshqarishning eng muhim vositasi bo'lib, deviant xulq-atvorning oldini olishda ham katta ahamiyatga ega.

**Oilaning roli:** Inson tarbiyasida eng birinchi va eng muhim ijtimoiy nazorat instituti oiladir. Farzand tarbiyasida va barkamol avlodni shakllantirishda sogʻlom oila muhitining oʻrni katta.

**Yoshlar uchun muhim jihatlar:**

- Farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi va his etadi.
- Jamiyatda oʻrnatilgan ijtimoiy meʼmorlardan chetga chiqish holatlari sotsiologiyada “deviantlik holatlari”, undan tugʻiluvchi xulq-atvor “deviant xulq-atvor” deb nomlanadi.

Bu jarayonlarning barchasi oʻsmirlar deviant xulq-atvorining profilaktikasi va reabilitatsiyasida muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy pedagogning dezadaptatsiya boʻlgan oʻsmirlar bilan ishlashining yana bir texnologiyasi ularning reabilitatsiyasidir. Reabilitatsiya keng koʻlamli vazifalar, elementar koʻnikmalardan tortib insonning jamiyatga toʻliq integratsiyalashuvigacha boʻlgan masalalarni hal qilishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi sifatida qaralishi mumkin.

Voyaga etmaganlarning xulq-atvori profilaktikasida ommaviy axborot vositalari orqali tashviqiy-maʼrifiy ishlarni olib borish muhim ahamiyatga ega. Jamoatchilik fikri soʻrovlari maʼlumotlariga koʻra, televideniye oʻsmirlar va yoshlar uchun axborot olishning afzalroq manbai hisoblanadi. Shu munosabat bilan, ijtimoiy reklamaning roli ortadi. Ijtimoiy reklama oʻz takliflari bilan mehnatni ragʻbatlantiradi, ijobiy maqsadlarga erishish uchun inson faoliyati motivatsiyasini kuchaytiradi. Reklama ijtimoiy qadriyatlarni yoyadi va targʻib qiladi, mamlakatlar va xalqlarning yashash tarzini va andozalarini shakllantirishga koʻmaklashadi. Reklamaning ijtimoiy funksiyasi turmush tarzini targʻib qilishni ham oʻz ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, buyuk davlat qurish uchun barkamol insonni tarbiyalash zarur. Shu sababli, yoshlarni huquqiy davlat tizimi va mohiyatini chuqurroq anglashga, qonun asoslarini bilishga, qonunlarni hurmat qilishga va ularga soʻzsiz boʻysunish madaniyatiga ega boʻlish ruhida tarbiyalash bugungi kunning asosiy vazifasidir.

Deviant xulq-atvorning eng yaxshi profilaktikasi - bu tarbiyaning vositalari, shakllari va usullarini aniq belgilab olgan holda voyaga etmaganlar ongiga maqsadga qaratilgan tashkiliy taʼsir koʻrsatishdir. Huquqiy tarbiyani oldini olish imkoniyatlari boshqa vositalarga qaraganda ancha samaraliroqdir, chunki huquqiy profilaktika choralari odatda kechikadi va qilmish sodir etilgandan keyin amal qila boshlaydi. Oldini olish bilan bogʻliq huquqiy choralari samarali boʻlishi uchun bolaning ongiga singdirilishi, uning eʼtiqodi va tajribasining bir qismiga aylanishi kerak. Buni aniq maqsadga qaratilgan tarbiyaviy taʼsir koʻrsatish orqali erishish mumkin.

**ADABIYOTLAR ROʻYXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES**

1. PULATOV SH.N. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Hindistondagi ijtimoiysiyosiy vaziyat. Academic Research In Educational Sciences. Volume 1. 2020 468-474 P.



2. Po‘latov, Sh.N., Rabindranat Tagorning Hindiston ilm-ma’rifatga qo‘shgan xissasi. // “SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 136-144 P.

3. Po‘latov, Sh.N., Hindistonda pedagogik ta’limning rivojlanish bosqichlari. // “SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 21-27 P.

4. Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi // Academic Research in Educational Sciences, 2 (Special Issue 1), 395-401

5. Saidov S.A., Ibn al-Muqaffaning islom tarjima san’atiga qo‘shgan hissasi. // “Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences” Scientific journal Volume 1, 2021. 332-336 P.

6. <http://genderi.org/>

7. <https://samarapedsovet.ru>

**MUALLIFLAR HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]**

**Sanoqulova Maftuna**

Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti

Manzil: O‘zbekiston, 200100, Buxoro shahri

**Iqtibos uchun:** Sanoqulova M.E. O‘smirlarda deviant xulq atvorning namoyon bo‘lish shakllari. // Osiyo xalqaro universiteti axborotnomasi. 2024. №3. B.181–187.



## YOSHLAR INTELLEKTUAL TARAQQIYOTINING BOSQICHLARI VA UNI TA'MINLOVCHI MUHIM OMILLAR



© **Pardaqulov Norbek**

Qarshi davlat universiteti, Qarshi shahri

### **Annotatsiya.**

**KIRISH:** Mazkur maqolada yoshlar intellektual taraqqiyotining bosqichlari va uni ta'minlovchi muhim omillar haqida so'z boradi. Layoqat, iqtidor, qobiliyat, iste'dod, geniallik va qobiliyat taraqqiyotining boshqa muhim jihatlari bilan bog'liq muallifning yondoshuvlari aks etgan.

**MAQSAD:** Yoshlar intellektual taraqqiyotining bosqichlari va uni ta'minlovchi muhim omillarni tadqiq qilish va o'rganish.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Qobiliyatlar muammosi eng avvalo inson aqlu - zakovatining sifati, undagi malaka, ko'nikma va bilimlarning borligi masalasi bilan bog'liq. Ayniqsa, biror kasbning egasi bo'lish istagidagi har bir yoshning aqli va intellektual salohiyati uning malakali mutaxassis bo'lib etishishini kafolatlangani uchun ham psixologiyada ko'proq qobiliyat tushunchasi aql zakovat tushunchasi bilan bog'lab o'rganiladi. Har bir normal odam o'zining aqlli bo'lishini xohlaydi, "Men aqlliman" demasa-da, qilgan barcha ishlari, gapirgan gapi, yuritgan mulohazasi bilan aynan shu sifat bilan odamlar uni maqtashlarini xohlaydi. "Aqlsiz, nodon" degan sifat esa har qanday odamni, xattoki, yosh bolani ham hafa qiladi. Yana shu narsa xarakterliki, ayniqsa, bizning sharq xalqlarida biror kimsaga nisbatan "o'ta aqlli" yoki "o'ta nodon" iboralari ham ishlatilmaydi, biz bu xususiyatlarni o'rtacha tasniflar doirasida ishlatamiz: "Falonchining o'g'li anchagina aqlli bo'libdi, narigining farzandi esa biroz nodon bo'lib, ota - onasini kuydirayotgan emish" degan iboralar aslida "aqllilik" kategoriyasi insonning yuragiga yaqin eng nozik sifatlariga aloqadorligini bildiradi.

**XULOSA:** Darhaqiqat, qobiliyatlar va intellektga bevosita tashqi muhit, undagi insoniy munosabatlar, yashash davri ta'sir ko'rsatadi. Buni biz bugungi kunimiz misolida ham ko'rib, his qilib turibmiz. Yangi avlod vakillari - kelajagini XX1 asr bilan bog'lagan o'g'il-qizlarning intellekt darajasi ularning ota - bobolarinikidan ancha yuqori. Hozirgi bolalar kompyuter texnikasidan tortib, texnikaning barcha turlarini juda tez o'zlashtirib olmoqda, jahon tillaridan bir

nechtasini bilish ko'pchilik uchun muammo bo'lmay qoldi, minglab topshiriqlardan iborat testlarni ham yoshlar o'zlashtirishda qiynalmayaptilar. Ko'rinib turganidek, yoshlar eng avval voqelikni bilishi, unga doir fikr yuritishi, ijtimoiy mohiyatini anglashi, tahlil qilishi, taqqoslashi, oldingilaridan muhim va afzal tomonlarini ajratib olishi, uni amaliyotda oqilona qo'llab ko'rishi orqali yangi narsaga erishishi mumkin. Bunday murakkab aqliy jarayon bola intellekti rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Intellektual taraqqiyot, ehtiyoj, qiziqish, anglanganlik, aqliy jarayon, fiziologik jarayon, pedagogik mahorat, ijtimoiy tajriba, sog'lom tarbiyaviy-psixologik muhit, biologik imkoniyat, layoqat, iqtidor, qobiliyat, iste'dod, geniallik.

## ЭТАПЫ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ МОЛОДЕЖИ И ВАЖНЫЕ ФАКТОРЫ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЕ ЭТО

### Аннотация.

**ВВЕДЕНИЕ:** В данной статье говорится об этапах интеллектуального развития молодежи и важных факторах, обеспечивающих его. Отражены авторские подходы, связанные со способностями, талантом, способностями, талантом, гениальностью и другими важными аспектами развития способностей.

**ЦЕЛЬ:** Исследование и изучение этапов интеллектуального развития молодежи и важных факторов, обеспечивающих его.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** Проблема способностей связана, прежде всего, с качеством человеческого интеллекта, навыков, умений и знаний. Тем более, что ум и интеллектуальный потенциал каждого молодого человека, желающего стать обладателем профессии, гарантированно сделают его квалифицированным специалистом, понятие способностей изучается в психологии в связи с понятием интеллекта. Каждый нормальный человек хочет быть умным, даже если он не говорит «я умный», он хочет, чтобы люди хвалили его этим качеством во всем, что он делает, говорит и думает. Прилагательное «глупый, невежда» оскорбляет любого человека, даже маленького ребенка. Характерно также, что, особенно у наших восточных народов, мы даже не употребляем по отношению к кому-либо выражения «чрезвычайно умный» или «крайне глупый», мы употребляем эти характеристики в рамках усредненных классификаций: «Такой-то сын довольно умен. Высказывания типа «чужой ребенок немного невежественен и лох, который обжигает своих родителей» на самом деле означают, что категория «интеллект» относится к наиболее чувствительным качествам, близким сердцу человека. .

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** В действительности на способности и интеллект напрямую влияют внешняя среда, взаимоотношения людей в ней, период



жизни. Мы видим и чувствуем это даже сегодня. Интеллектуальный уровень представителей нового поколения - юношей и девушек, связавших свое будущее с XXI веком, - значительно выше, чем у их отцов и дедушек. Сегодняшние дети очень быстро осваивают все виды техники, начиная с компьютерных, знание нескольких языков мира для многих уже не является проблемой, и молодые люди без труда осваивают тесты с тысячами заданий. Как видно, молодые люди могут достичь чего-то нового, предварительно познав реальность, подумав о ней, поняв ее социальную сущность, проанализировав, сопоставив, выделив важные и выгодные аспекты от предыдущих, рационально подкрепив ее на практике. Столь сложный психический процесс является одним из важных факторов, обеспечивающих развитие интеллекта ребенка.

**Ключевые слова:** интеллектуальное развитие, потребность, интерес, осознанность, психический процесс, физиологический процесс, педагогическое мастерство, социальный опыт, здоровая образовательно-психологическая среда, биологическая возможность, способность, талант, способность, талант, гениальность.

## STAGES OF YOUTH INTELLECTUAL DEVELOPMENT AND IMPORTANT FACTORS ENSURING IT

### Abstract.

**INTRODUCTION:** This article talks about the stages of intellectual development of young people and important factors that ensure it. The author's approaches related to ability, talent, ability, talent, genius and other important aspects of ability development are reflected.

**GOAL:** Research and study of the stages of intellectual development of young people and important factors that ensure it.

**MATERIALS AND METHODS:** The problem of abilities is first of all related to the quality of human intelligence, skills, abilities and knowledge. Especially since the mind and intellectual potential of every young person who wants to become the owner of a profession is guaranteed to make him a qualified specialist, the concept of ability is studied in psychology in connection with the concept of intelligence. Every normal person wants to be smart, even if he doesn't say "I'm smart", he wants people to praise him with this quality in everything he does, says, and thinks. The adjective "stupid, ignorant" offends any person, even a young child. It is also characteristic that, especially among our eastern peoples, we do not even use the expressions "extremely intelligent" or "extremely stupid" in relation to someone, we use these characteristics within the framework of average classifications: "So-and-so's son is quite intelligent. The sayings like "the child of the other person is a bit ignorant and the sucker who burns his parents" actually means that the category of "intelligence" is related to the most sensitive qualities close to the heart of a person.

**CONCLUSION:** In fact, abilities and intelligence are directly influenced by the external environment, human relationships in it, and the period of living. We see and feel this even today. The intellectual level of the representatives of the new generation - the boys and girls who connected their future with the 21st century - is much higher than that of their fathers and grandfathers. Today's children are learning all types of technology very quickly, starting with computer technology, knowing a few world languages is no longer a problem for many, and young people have no difficulty mastering tests with thousands of tasks. As it can be seen, young people can achieve something new by first knowing the reality, thinking about it, understanding its social essence, analyzing, comparing, distinguishing important and advantageous aspects from the previous ones, and rationally supporting it in practice. Such a complex mental process is one of the important factors that ensure the development of a child's intelligence.

**Key words:** intellectual development, need, interest, awareness, mental process, physiological process, pedagogical skill, social experience, healthy educational and psychological environment, biological possibility, ability, talent, ability, talent, genius.

**Kishi** o‘zida muayyan faoliyatga qobiliyat bor yoki yo‘kligini sezish yoki sezmasligini bildiradigan omil ta’lim metodikasi xisoblanadi. Ta’lim metodikasi (ta’lim va tarbiya berish san’ati) qaerda ojiz bo‘lsa, o‘sha erda qobiliyatlarning tug‘ma ekanligi xaqidagi gaplar paydo bo‘ladi. O‘z-o‘zidan ma’lumki, metodika doim takomillashib boradi, bu esa «tug‘ma qobiliyatlar» doirasini torayib borishiga olib keladi.

Qobiliyatlar va iste’dodlarni shakllantirish muammosi katta ijtimoiy va davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan masaladir. Sotsiologik tadqiqotlar natijalari iqtidorli bolalarni o‘rganish va ularni tarbiyalash ishlarining yanada olg‘a siljishiga ko‘p jihatdan ota-onalar, tarbiyachilar, o‘qituvchilar va keng jamoatchilikning qobiliyat va qobiliyatning turli ko‘rinish darajalarini ifodalovchi psixologik atamalarining nomlanishini (mohiyatini) ilmiy asosda tushunishlari bilan ham uzviy bog‘liqligini ko‘rsatmoqda.

Qobiliyat va shunga bog‘liq atamalar (layoqat, iqtidor, qobiliyat, iste’dod, talant, geniy, dohiy, darg‘a) haqida hanuzgacha etarli tushuntirishlar yo‘q ekanda, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak.

Hozir amaldagi rus va o‘zbek tilida chop etilgan psixologik adabiyotlarda qobiliyat haqida ba’zi izohlar berilgan, biroq bundan hamma ham birdek xabardor emas. Hatto hamma uchun ahamiyatli bo‘lgan va keng jamoatchilikka mo‘ljallangan «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da ham psixologik tushunchalar mukammal izohlanmaganligini ko‘ramiz.

Jumladan, unda layoqat-biror ishga yaroqlilik, qobillik, biror ishni bajarish, uddalash qobiliyati;

Iqtidor - kuch, qudrat, qodirlik;



Qobiliyat - biror ishga qobiliyatlilik, yaroqlilik; biror ishni bajara olish, qila olish xususiyati, layoqati;

Iste'dod – ijodiy qobiliyat, layoqat, talant;

Talant – katta qobiliyat, iste'dod;

Geniy – misilsiz iste'dodli, zakovatli;

Dohiy – favqulodda aql zakovatga ega bo'lgan dono, oqil yo'l boshchi kabi yo'sinda izohlangan bo'lib, o'rganuvchilarni qaysidir darajada yoki qaysidir ma'noda qanoatlantirishi mumkin.

Keng jamoatchilik bu tushunchalarni psixologik mazmuni, ularning mohiyatini ilmiy asoslangan holda tushunishlari maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Shunga ko'ra, layoqat – taraqqiyotning dastlabki tabiiy sharti sifatida ko'rinadigan insonga xos miya tuzilishini va nerv tizimining morfologik hamda funksional xususiyatlarga xos imkoniyat ekanligini bilish kerak.

Iqtidor – bola tashqi olamdagi narsa va hodisalar bilan munosabatga kirishib, o'zidagi biologik imkoniyatlardan foydalanganda bu imkoniyat o'z quvvati va mohiyati bilan boshqa kishilardagi (bolalardagi) imkoniyatlardan o'zining yaxshiligi, ma'qulligi bilan kishilarning e'tiborini torta olsa, ana shunday xususiyatlarning borligiga qarab bunday bolalarni iqtidorli deyish mumkin.

Qobiliyat – shaxsning mazkur faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va buning uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan individual psixologik xususiyatdir.

Qobiliyat odamning ma'lum bir ish yoki muammoni boshqa odamlarga nisbatan osonlik va chaqqonlik bilan bajara olishida namoyon bo'ladi. Yoki qobiliyatli kishi deb, biror (yoki ko'p) sohani chuqur bilgan hamda shu bilgan bilimlarini ishlata olish mahoratiga (sifatlariga) ega bo'lgan kishini tushunamiz.

Talant – o'zbek tilida yunon tilidan o'tib kelgan (o'zlashgan) bo'lib o'zbekcha muqobili – iste'doddur. Iste'dod – shaxs psixik sifatlarining shu qadar murakkab birikmasiki, uni qandaydir birorta yagona qobiliyat bilan belgilab bo'lmaydi. Iste'dod juda ko'p faoliyatlarni yuksak darajada amalga oshirish imkoniyati bilan ta'minlovchi psixik sifatlarining eng xarakterli guruhi tarzida namoyon bo'ladi.

Iste'dod deb odamga murakkab mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli, mustaqil va original tarzda bajarish imkonini beradigan qobiliyatlar uyushmasiga aytiladi. Geniyni, masalan genial matematik yoki darg'alar ma'nosida tushunish mumkin. Bunday kishilar shu fanni mukammal egallash asosida yuksak aql-zakovatga ega bo'lib, ular shu fan xulosalarini hayotning hamma tomonlariga oqilona qo'llay olish imkoniyatlariga ega bo'ladilar va shu fanda katta-katta kashfiyotlar ochishga ma'naviy qodir kishilardir.

Dohiylar – «favqulodda» aql-zakovatga ega bo'lgan kishilar bo'lmay, bir yoki bir necha fannigina emas, hatto hamma fanlarda aniq fikr yurita oladigan, umuman tabiatning, jamiyatning va inson tafakkurining eng umumiy qonuniyatlarini chuqur anglagan, shunga tayanib oqilona ish tutadigan kishilardir.



Qisqasi, har bir ishning samarali bo'lishi shu ishni boshlashdan avval uning mohiyatini to'la - to'kis tushunish bilan uzviy bog'liq. Bunday tushunish eng avvalo kishidagi qobiliyatga xos imkoniyatlarga asoslanadi.

Qobiliyatning irsiyat yo'li bilan o'tishi haqidagi g'oya ilmiy nazariyaga ziddir. Kishi taraqqiyoti va uning qobiliyatlarini rivojlantirish ijtimoiy – tarixiy qonuniyatlar bilan boshqariladi. Qobiliyatning uyg'onishi ijtimoiy shart-sharoitlarga bog'liq bo'lib, dastlab bolaning ehtiyojlarida va qiziqish yo'nalishlarida namoyon bo'ladi.

Kishilarda qobiliyatni tarbiyalash uchun ota-ona, tarbiyachi, o'qituvchi va boshqa tarbiya bilan bog'liq kishilarning qobiliyat mohiyatini va uning o'ziga xos rivojlanish qonuniyatlarini bilishlari maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, inson qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim omillari – barqaror maxsus qiziqishlardan iborat. Maxsus qiziqishlar – bu insoniyat faoliyatining qandaydir soha mazmuniga bo'lgan qiziqishlari bo'lib, bu qiziqishlar ana shu turdagi faoliyat bilan kasb tariqasida shug'ullanish moyilligiga o'sib ko'tariladi. Bilishga doir qiziqish bu o'rinda faoliyat usullari va uslublarini amaliy ravishda egallab olishni rag'batlantiradi.

Biror mehnat yoki o'kuv faoliyatida qiziqishning paydo bo'lishi bu faoliyatga nisbatan qobiliyatlarning uygonishi bilan chambarchas bog'likligi va qobiliyatlarning rivojlanishi uchun dastlabki zamin sifatida xizmat qilishi qayd etilgan.

Odamlarning o'quv, mehnat va ijodiy faoliyatidagi o'ziga xoslikni tushuntirish uchun psixologiya fani birinchi navbatda qobiliyatlar va iqtidor masalasiga murojaat qiladi. Chunki qobiliyatli odamdan avvalo jamiyat manfaatdor, qolaversa, o'sha insonning o'zi ham qilgan har bir xarakatidan o'zi uchun naf ko'radi.

Qobiliyatlar muammosi eng avvalo inson aqlu - zakovatining sifati, undagi malaka, ko'nikma va bilimlarning borligi masalasi bilan bog'liq. Ayniqsa, biror kasbning egasi bo'lish istagidagi har bir yoshning aqli va intellektual salohiyati uning malakali mutaxassis bo'lib etishishini kafolatlangani uchun ham psixologiyada ko'proq qobiliyat tushunchasi aql zakovat tushunchasi bilan bog'lab o'rganiladi. Har bir normal odam o'zining aqli bo'lishini xohlaydi, "Men aqlliman" demasa-da, qilgan barcha ishlari, gapirgan gapi, yuritgan mulohazasi bilan aynan shu sifat bilan odamlar uni maqtashlarini xohlaydi. "Aqlsiz, nodon" degan sifat esa har qanday odamni, xattoki, yosh bolani ham hafa qiladi. Yana shu narsa xarakterliki, ayniqsa, bizning sharq xalqlarida biror kimsaga nisbatan "o'ta aqli" yoki "o'ta nodon" iboralari ham ishlatilmaydi, biz bu xususiyatlarni o'rtacha tasniflar doirasida ishlatamiz: "Falonchining o'g'li anchagina aqli bo'libdi, narigining farzandi esa biroz nodon bo'lib, ota - onasini kuydirayotgan emish" degan iboralar aslida "aqllilik" kategoriyasi insonning yuragiga yaqin eng nozik sifatlariga aloqadorligini bildiradi.

Ilm - fandagi an'analar shundayki, aql va idrok masalasi, odamning intellektiga bog'liq sifatlar juda ko'plab tadqiqotlar ob'ekti bo'lgan. Olimlar qobiliyatlarning rivojlanish mexanizmlari, ularning psixologik tarkibi va tizimini aniqlashga, ishonchli metodikalar yaratib, har bir kishining aqli sifatiga aloqador bo'lgan ko'rsatgichni o'lchashga uringanlar. Ko'pchilik olimlar odam intellektida uning verbal (ya'ni so'zlarda ifodalanadigan), miqdoriy (sonlarda ifodalanadigan), fazoviy ko'rsatgichlarni aniqlab, ularga yana mantiq, xotira va hayol jarayonlari bilan bog'liq jihatlarni ham qo'shganlar.

Ch.Spirmen faktorli analiz (omilli tahlil) metodi yordamida yuqorida sanab o'tilgan ko'rsatgichlar o'rtasida bog'liqlik borligini isbot qilib, aqlning haqiqatan ham murakkab tuzilmaga ega bo'lgan psixik jarayon ekanligini ko'rsatdi. Boshqa bir olim Dj. Gilford esa aqlni bir qator aqliy operatsiyalar (analiz, sintez, taqqoslash, mavhumlashtirish, umumlashtirish, sistemaga solish, klassifikatsiya qilish) natijasida namoyon bo'ladigan xususiyat sifatida o'rganishni taklif etgan. Bu olimlar aql so'zidan ko'ra intellekt so'zini ko'proq ishlatib, bu so'zning o'ziga xos talqini borligiga e'tiborni qaratganlar. Chunki ularning fikricha, intellektual potensialga ega bo'lgan shaxsnigina qobiliyatli, deb atash mumkin. Intellektual potensial esa bir tomondan hayotdagi barcha jarayonlarga, boshqa tomondan - shaxsga bevosita aloqador tushuncha sifatida qaralgan va uning ahamiyati shundaki, u borliqni va bo'ladigan xodisalarni oldindan bashorat qilishga imkon beradi.

"Intellekt" so'zining lug'aviy ma'nosini tahlil qilganimizda lotincha - intellectus - tushunish, bilish va intellectum - aql so'zlari negizidan paydo bo'lgan tushuncha bo'lib, u aql - idrokning shunday bo'lagiki, uni o'lchab, o'zgartirib hamda rivojlantirib bo'ladi. Bu - intellekt va u bilan bog'liq qobiliyatlar ijtimoiy xarakterga ega ekanligidan darak beradi.

Darhaqiqat, qobiliyatlar va intellektga bevosita tashqi muhit, undagi insoniy munosabatlar, yashash davri ta'sir ko'rsatadi. Buni biz bugungi kunimiz misolida ham ko'rib, his qilib turibmiz. Yangi avlod vakillari - kelajagini XXI asr bilan bog'lagan o'g'il-qizlarning intellekt darajasi ularning ota - bobolarinikidan ancha yuqori. Hozirgi bolalar kompyuter texnikasidan tortib, texnikaning barcha turlarini juda tez o'zlashtirib olmoqda, jahon tillaridan bir nechtasini bilish ko'pchilik uchun muammo bo'lmay qoldi, minglab topshiriqlardan iborat testlarni ham yoshlar o'zlashtirishda qiynalmayaptilar. Ko'rinib turganidek, yoshlar eng avval voqelikni bilishi, unga doir fikr yuritishi, ijtimoiy mohiyatini anglashi, tahlil qilishi, taqqoslashi, oldingilaridan muhim va afzal tomonlarini ajratib olishi, uni amaliyotda oqilona qo'llab ko'rishi orqali yangi narsaga erishishi mumkin. Bunday murakkab aqliy jarayon bola intellekti rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan hisoblanadi. Qolaversa, oila muhitining aql o'sishiga ta'sirini hamma bilsa kerak. Agar bola oilada ilk yoshligidan ma'rifiy muhitda - sog'lom turmush tarzida tarbiyalansa, uning dunyoqarashi keng, xohlagan soha predmetlaridan beriladigan materiallarni juda tez va qiyinchiliksiz o'zlashtira oladi, hattoki,

bunday bolaga oliy o'quv yurtida beriladigan ayrim predmetlar mazmuni ham o'ta tushunarli, ular yanada murakkabroq masalalarni echishni va o'rganishni xohlaydilar.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Абулханова-Славская К.А. Стратегия жизни. М.:Мысл, 1991. С. 125-156.
2. Болотова А.К. Разветие самосознания личности: временной аспект. Вопросы психологии, №2, 2006, ст. 116-125.
3. Jabborov A. M. O'qituvchi etnopsixologiyasi. Qarshi "Nasaf". 2015. – 180 b.
4. Jabborov A.M. Milliy psixologiyaning shakllanish manbalari. Qarshi "Nasaf". 2017. – 72 b.
5. G'oziev E.G'. Jabborov A. M. Faoliyat va xulq - atvor motivatsiyasi. T.: 2003.
6. G'oziyev E. Ontogenez psixologiyasi.T.: 2010. – 360 b.

#### MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

##### **Pardaqllov Norbek**

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti,  
Manzil: O'zbekiston, 200100, Qarshi shahri

**Iqtibos uchun:** Pardaqllov N. Yoshlar intellektual taraqqiyotining bosqichlari va uni ta'minlovchi muhim omillar// Osiyo xalqaro universiteti axborotnomasi. 2024. №3. B.188–195.



## BAHOUDDIN NAQSHBANDIY QARASHLARIDA SHAXS TARBIYASINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI



© Sadilloyev Odiljon Oripovich

Osiyo xalqaro universiteti, Buxoro shahri

### Annotatsiya.

**KIRISH:** Maqolada bugun dunyoda eng ixlosmandi ko'p bo'lgan Islom dinidagi mashhur tariqat hisoblangan, "Xo'jagon" tariqatining davomi hisoblangan "Naqshbandiya" tariqati va uning shaxs tarbiyasidagi muhim o'rni haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, ushbu tariqatning asoschisi Hazrat Xo'ja Bahovaddin Naqshband hayoti va ul zotning ayrim fikr va mulohazalari tahlil qilingan.

**MAQSAD:** Naqshbandiya tariqatining zamonaviy shaxslarni tarbiyalashdagi asosiy vazifalarining o'ziga xos xususiyatlarini hamda ushbu tariqatning bugungi sharoitda din psixologiyasi rivojlanishidagi asosiy tendensiyalarning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Naqshbandiya xojagon tariqati negizida paydo bo'lib, Yusuf Hamadoniy, Abduxoliq G'ijduvoni, Ahmad Yassaviy qarashlarini omuxta etdi, ularga yangi ruh berib rivojlantirdi. XV-XVIII asrlarda savdo va hunarmandchilik bilan shug'ullanadigan shahar aholisi hamda ko'chmanchi chorvador aholi orasiga keng yoyildi. Naqshbandiya ta'limotining asosida "ko'ngil xudoda bo'lsin-u, qo'l ish bilan band bo'lsin" ("dil ba yoru, dast ba kor") shiori yotadi. Naqshbandiyada pir-u muridlik qoidalari hiyla osonlashtirilgan, sirdan turib e'tiqod qo'yish, imon mustahkamligi, Haqtaologa sidqidildan itoat etish, ixlos va ma'naviy kamolot asosiy o'rin egallaydi.

Rasm-rusumlar, odatlarni ko'r-ko'rona ado etish, riyo, soxta dindorlik qoralanadi. Axloqiy poklik, qanoatli, sabrli bo'lish, ixtiyoriy faqirlik bilan Allohga intilish yuksak fazilat hisoblanadi. Naqshbandiyada odamning qadri mansabi, boyligi bilan emas, ma'naviy komilligi bilan o'lchanadi. Naqshbandiyada hunar, kasb egallab, o'z mehnati bilan halol luqma eb yashash talab qilinadi, tilanchilik, darbadarlik bilan kun kechirish sufiy uchun isnod sanaladi. Qul, xizmatkor saqlash, o'zganing mehnatidan foydalanish ham man etiladi.

Naqshbandiyaning yuqoridagi shiori tarkidunyochilikka, tekinxoʻrlikka qarshi qaratilgan. Naqshbandiyada manmanlik, sufiy, shayxman deb kerilish, shovqin-suron koʻtarib zikru samoʻ bilan odamlar diqqatini oʻziga qaratish qoralanadi. Naqshbandiyada asosiy talab - qalbni dunyo gʻuborlaridan tozalash, oʻz nafsini bilan kurashib ruhda charogʻonlik topish, qalbdan Alloh nomlarini naqshlab borish usullari ishlab chiqilgan.

**XULOSA:** Axloq va tarbiya masalasi ushbu tariqatning shaxsni tarbiyalashdagi asosiy jarayoni hisoblanadi. Ushbu jarayonni bugungi psixologik holatlar bilan agar ilmiy taqqoslasak, faoliyat, ayniqsa mehnat faoliyati shaxs va uning taraqqiyotida juda muhim oʻringa ega ekanligini koʻrishimiz mumkin. Ushbu tariqat ham xalol mehnat qilishni va xalol yashashni targʻib qiladi.

**Kalit soʻzlar:** din, Islom, tariqat, shariat, maʼrifat, haqiqat, paygʻambar, ishonch, shaxs, komillik, eʼtiqod.

## СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ЛИЧНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В МНЕНИЯХ БАХУДДИНА НАКШБАНДИ

### Аннотация.

**ВВЕДЕНИЕ:** В статье рассматривается секта Накшбандия, которая сегодня считается самой религиозной исламской сектой в мире, продолжающей секту Ходжагона, и ее важная роль в личностном воспитании. Также анализируется жизнь основателя этой секты Хазрата Ходжи Бахавуддина Накшбанди, некоторые его мысли и мнения.

**ЦЕЛЬ:** Научно исследовать особенности основных задач секты Накшбандия в воспитании современной личности и особенности основных направлений развития психологии религии в современных условиях этой секты.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** Накшбандия возникла на базе секты Ходжагана, развила взгляды Юсуфа Хамадони, Абдухолика Гиждувани, Ахмада Яссави и придала им новый дух. В XV-XVIII веках оно широко распространилось среди горожан, занимавшихся торговлей и ремеслами, и кочевых скотоводов. В основе учения Накшбандии лежит девиз «пусть сердце будет в Боге, пусть рука будет занята работой» («дил ба ёру, даст ба кор»). В Накшбандии правила пир-у-мурида упрощены обманом, главное место занимает вера извне, твердость веры, искреннее послушание Хактаолу, искренность и духовное совершенство.

Обряды, слепое соблюдение обычаев, лицемерие и ложная религиозность осуждаются. Нравственная чистота, довольство, терпение, стремление к Богу при добровольной бедности считаются высокими добродетелями. У Накшбанди ценность человека измеряется не его положением или богатством, а его духовным совершенством. Также запрещено держать рабов, прислугу, использовать чужой труд.

Приведенный выше лозунг Накшбандии направлен против секуляризма и эгоизма. В Накшбанди осуждается высокомерие, выдавать себя за суфия, шейхмана, привлекать к себе внимание громким зикром само. В Накшбанди главным требованием является очистка души от пыли мира, борьба со своим эго и обретение света в душе, а также разработаны методы вышивания имен Аллаха в душе.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** Вопрос нравственности и воспитания является основным процессом личного воспитания этой секты. Если научно сравнить этот процесс с сегодняшними психологическими условиями, то можно увидеть, что деятельность, особенно труд, занимает очень важное место в развитии человека. Эта секта также пропагандирует халяльную работу и халяльный образ жизни.

**Ключевые слова:** религия, ислам, секта, шариат, просвещение, истина, пророк, доверие, личность, совершенство, вера.

## SOCIAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PERSONAL EDUCATION IN BAHOUDDIN NAQSHBANDI'S VIEWS

### Abstract.

**INTRODUCTION:** The article discusses the Naqshbandiyya sect, which is considered to be the most devout Islamic sect in the world today, a continuation of the Khojagon sect, and its important role in personal education. Also, the life of the founder of this sect, Hazrat Khwaja Bahavuddin Naqshband, and some of his thoughts and opinions are analyzed.

**GOAL:** To scientifically research the specific features of the main tasks of the Naqshbandiya sect in educating modern individuals and the specific features of the main trends in the development of the psychology of religion in today's conditions of this sect.

**MATERIALS AND METHODS:** Naqshbandiya appeared on the basis of Khojagan sect, and developed the views of Yusuf Hamadoni, Abdukholiq Gijduvani, Ahmad Yassavi, and gave them a new spirit. In the 15th-18th centuries, it spread widely among the townspeople engaged in trade and handicrafts and the nomadic pastoralists. Naqshbandiya's teaching is based on the motto "let the heart be in God, let the hand be busy with work" ("dil ba yoru, dast ba kor"). In Naqshbandi, the rules of pir-u-murid are simplified by trickery, the main place is to believe from the outside, firmness of faith, sincere obedience to Haqtaol, sincerity and spiritual perfection.

Rituals, blind observance of customs, hypocrisy, and false religiosity are condemned. Moral purity, contentment, patience, striving for God with voluntary poverty are considered high virtues. In Naqshbandi, the value of a person is measured not by his position or wealth, but by his spiritual perfection. In Naqshbandi, it is required to acquire a trade and profession, to live by one's own

work, and to live by begging and darbadar is considered an isnad for a Sufi. It is also forbidden to keep slaves, servants, and use the labor of others.

The above slogan of Naqshbandiya is directed against secularism and selfishness. In Naqshbandi, arrogance, pretending to be a Sufi, sheikhman, and drawing people's attention to oneself with loud zikr samo' are condemned. In Naqshbandi, the main requirement is to clean the soul from the dust of the world, fight with one's ego and find light in the soul, and methods of embroidering the names of Allah in the soul have been developed.

**CONCLUSION:** The issue of morals and education is the main process of personal education of this sect. If we scientifically compare this process with today's psychological conditions, we can see that activity, especially work, has a very important place in the development of a person. This sect also promotes halal work and halal living.

**Key words:** religion, Islam, sect, Sharia, enlightenment, truth, prophet, trust, personality, perfection, faith.

**Naqshbandiya tariqati Qur'oni Karim va hadisi sharifdagi talimotga asosan shakllangan.** Tariqat pirlarining asosiy maqsadi – payg'ambar alayhissalomning sunnatlarini qayta tiriltirish. Ikkinchi vazifalari esa bid'at va xurofotga qarshi kurashish. Zero, Payg'ambar alayhissalom: "bid'at va xurofotga berilganlar eng yomon kishilardir, bid'at xurofotga berilgan odam to uni tark etmaguncha uning qilgan savob ishlarini Tangri qabul qilmaydi", deganlar. Shu o'rinda Islom dini haqida so'z yuritir ekanmiz, avvalo din nima ekanligini bilishimiz zarur.

Din (arabcha: دين, – e'tiqod, "ishonch", "itoat") jamoat tomonidan shifrlangan qadimiy yozuvlar mifologiya va rituallarga qat'iy amal qilingan holda bajariluvchi harakatlar to'plamidir. Shuningdek, shaxsiy e'tiqod hamda mistik kechinmalardan iborat bo'lishi ham mumkin. "Din" atamasi ham jamoat e'tiqodiga oid shaxsiy amaliyotlarni, ham guruh tomonidan bajariluvchi rituallarga qo'llanadi. Islom diniga yanada chuqurroq kirar ekanmiz "Allohning buyukligi va yagonaligiga, Muhammad (s.a.v) uning payg'ambari ekanligiga iymon keltiramiz". Payg'ambarimiz Muhammad Mustafó (s.a.v) ni yodga olish barobarinda islom olamidagi eng buyuk sahoba, Hazrat Bahouddin Naqshbandni yodga olamiz.

Muxammad ibn Muxammad Bahouddin an Naqshband al-Buxoriy (ko'proq xalq orasida Bahouddin yoki Xoji Bahouddin Balogardon, Xo'jan Buzruk, Shoxi Naqshband nomlari bilan dunyoga mashxur bo'lgan). U zot Buxoro viloyatining, hozirgi Kogon tumanida tug'ilgan.

Bahouddin Naqshband (1318-1389) mashxur avliyo, Naqshband tariqati asoschisidir. U o'z ta'limotini yaratishda Yusuf Xamadoniy, Abdulholiq G'ijduvoniy va boshqa mashoyixlar g'oyalariga asoslangan. U naqshbandiya ta'limoti asoschisi sifatida Xojagon tariqatining otiflik aqidalari majnun-ta'limotini aks ettiruvchi 8 ta "Kalimai qudsiya"ga quyidagilarni qo'shgan.



1. Vuqufi zamoni - inson qanday kechayotganligidan ogoh bo'lish, ularga umr, hayot bir marta berilishi, xayrli va ezgu ishlar qilishlari lozimligi, umrning biror daqiqasini ham bekorga o'tkazmay, kasb-hunar o'rganishlari, foydali ishlar bilan shug'ullanishlari, har daqiqa soniyadagiamallarida hisob berishlari, g'aflatda qolmasliklari va hayotda loqayd bo'lmasliklari;

2. Vuqufi adadi - butun borliq yagona iloxiy moxiyatga ega ekanligini anglab, uning in'ikosi bo'lganligi uchun bir-biriga bog'liqligixar bir ilohiy hikmat bilan yaratilganligini anglash va ularga muhabbat bilan qarash;

3. Vuqufi qalbi - inson o'z qalbidan voqif bo'ishi, doimiy uni poklashi zarurligi, Zikri xafiyni tasavvufdagi zikrning asosiy shakllaridan biri sifatida qaror toptirgan. Tabiat, barcha turik jonzotu o'simliklarga, xayvonu insonlarga birdek mutloq ezgulik, mehr-shavqat ko'rsatishdek orifiy talabni ilk bor bashariyat va koinot, borliqning umumiy birdan-bir fundamental tamoyili darajasiga ko'targan. Bahouddin Naqshband ma'rifatni keng ma'noda tushunadi. U ruxiy kamolotning maqsadini ma'rifatli bo'lishdir, deb biladi. Ma'rifatni – ijmoliiy (qisqa) va tafsoliy (to'liq) deb ikkiga ajratadi. Ijmoliiy ma'rifat bosqichida dalilu xujjat qilish bilan, ya'ni aqlu tafakkur ila amal qilish mumkinligini aytadi. Tafsoliy ma'rifat orqali esa kashf va ayonlik ila, ya'ni tangri inoyati orqali xosil bo'ladi, deydi. U ilm va aqlning yo'li to fano sohiligachadir, ya'ni bu moddiy olam bilan bog'langan narsalarni o'rganishda ilm va aql ko'maklashadi, deya ta'rif beradi. Fano holatiga etib yo'qlik olamiga kirgandan keyin xayrat va benishonlik boshlanadi, ya'ni tafsoliy bilish jarayonida dalil va isbot emas, irrotsional bilish usullari zarurligini aytmoqchi bo'ladi.

Bahouddin Naqshband irfoniyy jarayonda aql emas, ruxiy bilish qalb ko'zi asosiy o'rinni egallashni ta'kidlaydi. U ma'rifatli bo'lish jarayonida xalol luqma va xushyorlikka alohida e'tibor bergan. Bahouddin Naqshband Musohibiyning o'z-o'zini nafsini nazorat etish, vaqtni qadrlash g'oyalarini, Junayd Bog'dodiy asoslagan xushyorlik yo'lini Xakim Termiziyning valiylik ta'limotini rivojlantirgan.

Bahouddin Naqshband ta'limoti bunyodkorlik ruhi bilan sug'orilgan ta'limotdir: "Dil-ba-yor-u, dast-ba-kor" ma'nosi, "ko'ngling xudoda bo'lsin-u, qo'ling ish bilan bo'lsin"- degani. Mustaqilligimizning yuksalishida haqshbandlikda ilgari surilgan xalollik, mexnatsevarlik, tog'rilik, sofdillik, muxtojlariga yordam berish, saxiylik, iymonli va e'tiqodli bo'lish, mexrshavqat kabi xulq-odob qoidalari kata ahamiyatga ega. Naqshbandiya xojagon tariqati negizida paydo bo'lib, Yusuf Xamadoniy, Abdulholiq G'ijduvoniyy, Axmad Yassaviy qarashlarini omuxta etib, ularga yangi ruh berib rivojlantirgan.

Butun dunyoda Jo'naydiya, Qodiriya, Naqshbandiya, Kubroviya, Chishtiya, Suhravardiya tariqati ma'lum va mashhurdir. Tariqat degan so'z aslida to'g'ri yo'l, rost yo'l degan ma'nolarni anglatib keladi. Tariqat ahli so'fiylardir. Shariat – qonun, tariqat – yo'l, bu yo'l kishini Haqqa yaqinlashtiradi. Mashoyihlar

haqqa etmoq uchun shariat birinchi, tariqat ikkinchi, haqiqat esa uchinchi zinadir, deganlar.

Islom olamining eng mashhur avliyolaridan biri, naqshbandiya tariqatining asoschisi Xoja Bahouddin Naqshband haqida, uning ta'limoti xususida, naqshbandiy shayxlar to'g'risida talay asarlar yaratilgan. Birgina O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasining o'zida naqshbandiyaga doir 195 kitob mavjud.

Jumladan, Saloh ibn Muborak al-Buxoriyning "Anisut-tolibiyin va uddatu - solikiy" (Toliblar oshnasi va soliklar rahnomasi) asarida Bahouddin Naqshbandning hayot tarzi, kashfu karomatlari va purhikmat so'zlaridan namunalar beriladi. Bu asar "Maqomati hazrati Xojai Naqshband" nomi bilan yuritiladi. Shu muallifning 4 qismdan iborat "Manoqibi Xoja Bahouddin Naqshband" (Xoja Bahouddin Naqshbandning ta'rif va tavsiflari) asari ham bor.

Bulardan tashqari Bahouddin Naqshbandning suyukli xalifasi Xoja Muhammad Porso yozib qoldirgan bir necha asar orqali valiylikning ta'rifi, Bahouddin Naqshbandning tariqatdagi ilk davrlari, uning suhbatlari va hikmatli so'zlari bilan tanishish, islom aqidasi, ibodat, shariat va tariqat ahkomlaridan baxramand bo'lish mumkin.

"Maqomati Shoxi Naqashband"da yozilishicha, Hazrat Bahouddin Hazrat Xizir alayhissalom bilan bir necha marotaba hamsuhbat bo'lgan. Naql qilinishicha, Shayx Amir Husayn dedi: bir kun Qasri Orifonda Hazrat Hojamiz (ya'ni Bahouddin) menga ish buyurdilar. Men shul yumush bilan band edim. Ko'rdimki, Hazrat Xojamiz ul aziz bilan hovuz labida o'tirib, suhbatlashdilar. Hazrat Xojamiz ul azizni kuzatib menga dedilarki: ey Amir Husayn, Xizr alayhissalomni ko'rding. Men esa: sizning xizmatigiz bilan band edim, deb javob berdim.

Bir necha kundan keyin hazrat Xojamiz meni Buxoro shahriga ish bilan yubordilar. Bozorga o'tayotganimda Chor sudi ko'rdimki, ul aziz masjidda o'tiribdilar. Hazrati Xizrning yonlariga boray deb ikki qadam qo'ydim, xotiringa keldiki, xojam meni yumush bilan jo'natganlar. Darhol qaytdim va Xojam va vazifalarini ado etib, Qasri Orifonga keldim. Meni ko'rishlari bilan Xoja dedilarki: yana bir qadam Xizrga qarab qo'yganingda dinu dunyoning barbod bo'lar edi.

"Maqomati Shoxi Naqashband"da qayd qilinganki, Sultonul Orifin (yani Boyazid Bastomiy) aytibdurlarki, bu yo'lga kirganlar har qancha yurganlar bilan, alarning oxirgi qadamiga bizning birinchi qadamimiz etur. Xojamiz (yani Bahouddin) buyuribdilarki, g'ayrat yuzasidan Haq Taolo suhbat harom bo'lsin ul 5 kishigaki, uning birinchi qadamini Boyazidning oxirgi qadamiga etmasa va dedilarki, biz intihonni ibtidoda darj ayladik.

Quyidagi bayt Hazrat Bahouddin Naqashbandnikidur:

*Hechi mo neyu hechimo kam ne,*

*Az payi hech mo g'am ne.*

*Janda dar pushtu pusht go 'riston,  
Gar mirem mo hech motam ne.*

**Mazmuni:** hech narsamiz yug'u hech narsadan g'amimiz ham yuq. Hech narsamiz yuqligi uchun g'amimiz ham yo'q. Jandamiz orqamizda – ortda go'riston, gar o'lsak, hech qanday motam ham yo'qdir.

Bahouddin Naqshbandning umri asosan Buxoro va uning atrofidagi qishloqlarda o'tgan. G'aribona hayot kechirgan, faqat o'z mehnati bilan kun ko'rgan. Xizmatkor yoki qul saqlamagan. O'z ta'limotini yaratishda Yusuf Hamadoni va Abdulxoliq G'ijduvoni nazariyalariga asoslangan. Ta'limoti asosida: **“Dil – ba yor-u, dast – ba kor”** (“Ko'ngil Allohda bo'lsin-u, qo'l ish bilan band bo'laversin”), – degan shior yotadi. Tasavvufdagi har qanday tariqat kabi, xojagon-naqshbandiya tariqati ham o'z g'oyalari, tartib-qoidalar, odoblari va qat'iyatlarini shakllantirishda juda qadim rishtalardan suv ichgan. Ammo tariqatning butun mohiyatini uning bosh shiori bo'lmish: **“Dil – ba yor-u, dast – ba kor”** hikmati hamda yana o'n bir qoida belgilab beradi. Bu qoidalar “rashhalar”, ya'ni “tomchilar” deb yuritilgan. Rashhalar Yusuf Hamadoni, Abdulxoliq G'ijduvoni va Bahouddin Naqshband taraflaridan asoslangan.

Eng ko'p tarqalgan tasavvuf tariqatlaridan biri naqshbandiylikdir. Bahouddin Naqshband **“Az-zohir lil-xalq al-botin lil Haq”**, ya'ni zohirda xalq, botinda Haq bilan bo'lib, tasavvufiy hayot kechirishga chaqirgan. Naqshbandiylik tariqatining ijtimoiy, dunyoviylik jihatini uning ilohiylik jihatidan ustun bo'lib, Bahouddin Naqshband va uning izdoshlari faqat yaxshilikni o'ylab, yaxshilik qilishdan charchamaslik, ezgu xulq-atvorga ega bo'lish, muhtojlar hojatini chiqarish, yoshlarimiz uchun juda muhim.

Bahouddin Naqshband yaratgan ta'limot asosidagi mehnatsevarlik, insonparvarlik, ilm-ma'rifatga intilish va butun borliqqa muhabbat g'oyasi bugungi kunda ham komil insonni tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Sh. Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T. 2017 y.
2. A.Zunnunov. Pedagogika tarixi. T. 2000 y.
3. M.Nishonov. Sharq va G'arb mutafakkirlarining falsafiy qarashlari. qo'llanma. F.. 2019 y.

#### MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

**Sadilloev Odiljon Oripovich**

Osiyo xalqaro universiteti magistri,

Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

**Iqtibos uchun:** Sadilloev O.O. Bahouddin Naqshbandiy qarashlarida shaxs tarbiyasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. // Osiyo xalqaro universiteti axborotnomasi. 2024. №3. B.9–15.

## O'SMIRLAR O'RTASIDAGI SUD EKSPERTIZASINING MAQSAD VA VAZIFALARI.



© **Tojiyeva Nilufar Tohirjon qizi**  
Osiyo Xalqaro Universiteti, Buxoro shahri

### Annotatsiya.

**KIRISH:** O'smirlar o'rtasidagi sud ekspertizasi so'nggi yillarda tobora dolzarblashib bormoqda. Yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilikning o'sishi, zamonaviy ijtimoiy omillar va texnologiyalar ta'siri ostida o'smirlarning huquqiy muhitda o'z o'rnini topishi dolzarb muammolardan biriga aylangan. Bu maqolaning maqsadi - o'smirlar o'rtasidagi sud ekspertizasining maqsad va vazifalarini aniqlash va tahlil qilishdir. Shu bilan birga, maqola sud ekspertizasining umumiy tushunchasini, o'smirlar bilan bog'liq xususiyatlarini va amaliy misollarini yoritib beradi. Bunda, o'smirlarning huquqiy himoyasi va sud ekspertizasining o'ziga xos xususiyatlariga alohida e'tibor qaratiladi.

**MAQSAD:** O'smirlar o'rtasidagi sud ekspertizaning asosiy maqsadi o'smirlar o'rtasidagi jinoyatchiliklarni oldini olish, to'g'ri taxlil qilish ularni jamiyatdagi endi o'sib borayotgan yoshlar ongiga ta'sirini kamaytirishdan iborat. Sud ekspertizasi aynan mana shu oqibatlarga aniqlik kiritilishini taminlaydi.

O'smirlar hatti harakatlari asosan xis tuygularga fikrlarga hamda fikrlardan qilingan xulosa undovlar tasirida jinoyatchilik qilib qoyishlari ko'p bor tasdiqlangan. Demak sud ekspertizasi - bu sud jarayonida dalillarni aniqlash, tekshirish va baholash maqsadida amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot faoliyati. Ushbu faoliyat sud tomonidan tayinlanadi va ekspertlar tomonidan amalga oshiriladi. Sud ekspertizasining asosiy vazifasi sud jarayonida isbotlash jarayoniga yordam berishdir. Bunda ekspertlar o'z sohasidagi ilmiy bilim va tajribalariga tayangan holda dalillarni tahlil qiladilar va xulosalar beradilar.

**MATETIALLAR VA METODLAR:** Prosotsialga toifaga ijtimoiy hulq atvorga yordam berish baham ko'rish va hamkorlik qilish kiradi yani nosog'lom oilada yoki yon atrofidagi do'stlarining nosog'lom muhitda voyaga etayotgan o'smirlar tarbiyasiga o'z fikrini undovlari bilan ta'sir o'tkazish ruhiy bosim o'tkazish kiradi. Annosotsial toifaga hatti harakatlar, muxolif va tajovuzkor xatti harakatlarning turli shakllarini o'z ichiga oladi o'z o'zini ruhiyatini boshqara



olmasligi qattiq tushkunlik atrofida qilargalarga salbiy munosabtlar ham annosotsial harakat hisoblanadi.

**XULOSA:** Maqolada o‘smirlar o‘rtasidagi sud ekspertizasining maqsad va vazifalari batafsil ko‘rib chiqildi. Sud ekspertizasining asosiy maqsadi adolatni ta‘minlash bo‘lsa, uning vazifalari dalillarni tekshirish, psixologik va ijtimoiy holatni aniqlash va ekspert xulosalarini berishdan iborat. Kelajakdagi tadqiqotlar uchun o‘smirlar bilan ishlashning yangi usullari va yondashuvlarini o‘rganish tavsiya etiladi. O‘smirlar bilan bog‘liq sud ishlarining dolzarbligi va ahamiyati bugungi kunda yuqori darajada bo‘lib, bu sohada ko‘proq ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilishi zarur.

**Kalit so‘zlar:** sud, o‘smir, tergov, jinoyat, voyaga etmagan, ekspertiza, tekshiruv, shaxs, guruhij jinoyat

### ЗАДАЧИ И ОБЯЗАННОСТИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ СУДЕБНО-МЕДИЦИНСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ.

#### Аннотация.

**ВВЕДЕНИЕ:** В последние годы ювенальная судебная экспертиза становится все более актуальной. Рост преступности среди молодежи, под воздействием современных социальных факторов и технологий, поиск места подросткам в правовой среде стал одной из актуальных проблем. Цель данной статьи - выявить и проанализировать цели и задачи судебно-медицинской экспертизы среди подростков. Вместе с тем в статье освещается общее понятие судебно-медицинской экспертизы, ее особенности применительно к подросткам и практические примеры. Особое внимание уделено правовой защите подростков и особенностям проведения судебно-медицинской экспертизы.

**ЦЕЛЬ:** Основная цель судебно-медицинской экспертизы среди подростков – предупреждение преступлений среди подростков, корректировка анализа и снижение их воздействия на сознание молодых людей, взрослеющих в обществе. Судебно-медицинская экспертиза дает выяснение именно этих последствий. Много раз доказано, что действия подростков становятся преступлениями главным образом из-за чувств и мыслей и выводов, сделанных из мыслей. Следовательно, судебная экспертиза – это научно-исследовательская деятельность, которая осуществляется с целью выявления, проверки и оценки доказательств в судебном процессе. Эта деятельность назначается судом и осуществляется экспертами. Основной функцией судебно-медицинской экспертизы является содействие доказыванию в суде. При этом эксперты анализируют доказательства и дают выводы, основанные на их научных знаниях и опыте в своей области.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** К категории просоциального относится помощь социальному поведению, обмену и сотрудничеству, т.е. влияние на воспитание подростков, растущих в нездоровой среде нездоровой семьи или соседских друзей, с поощрением их мнения, психологическое давление включает перенос. К антисоциальной категории относятся различные формы действий, оппозиционное и агрессивное поведение, неспособность контролировать собственную психику, выраженная депрессия, негативное отношение к другим людям также являются антисоциальными действиями.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** В статье подробно рассмотрены цели и задачи судебно-медицинской экспертизы среди подростков. Если основной целью судебной экспертизы является обеспечение справедливости, то ее задачами являются исследование доказательств, определение психологического и социального состояния, предоставление экспертных заключений. Рекомендуются провести будущие исследования для изучения новых методов и подходов к работе с подростками. Судебные дела по делам несовершеннолетних сегодня имеют высокую актуальность и важность, и в этой области необходимы дополнительные исследования.

**Ключевые слова:** суд, несовершеннолетний, расследование, преступление, несовершеннолетний, экспертиза, следствие, лицо, групповое преступление.

## OBJECTIVES AND DUTIES OF JUVENILE FORENSIC EXPERTISE.

### Abstract.

**INTRODUCTION:** Juvenile forensics has become increasingly relevant in recent years. The growth of crime among young people, under the influence of modern social factors and technologies, finding a place for teenagers in the legal environment has become one of the urgent problems. The purpose of this article is to identify and analyze the goals and tasks of forensic examination among teenagers. At the same time, the article sheds light on the general concept of forensic expertise, its features related to adolescents and practical examples. Special attention is paid to legal protection of adolescents and specific features of forensic examination.

**GOAL:** The main goal of forensic examination among teenagers is to prevent crimes among teenagers, correct analysis and reduce their impact on the minds of young people who are growing up in society. Forensic expertise provides clarification of precisely these consequences. It has been proven many times that the actions of teenagers become crimes mainly due to feelings and thoughts and conclusions drawn from thoughts. Therefore, forensic examination is a scientific research activity that is carried out for the purpose of identifying, checking and evaluating evidence in the judicial process. This activity is appointed by the court

and carried out by experts. The main function of the forensic examination is to assist in the process of proof in the trial. In this, experts analyze the evidence and give conclusions based on their scientific knowledge and experience in their field.

**MATERIALS AND METHODS:** The category of prosocial includes helping social behavior, sharing and cooperation, i.e. influencing the education of adolescents growing up in an unhealthy environment of unhealthy family or neighborhood friends with the encouragement of their opinion, psychological pressure. includes transfer. The antisocial category includes various forms of actions, oppositional and aggressive behavior, the inability to control one's own psyche, severe depression, and negative attitudes towards others are also antisocial actions.

**CONCLUSION:** In the article, the goals and tasks of forensic examination among teenagers were considered in detail. If the main goal of forensic examination is to ensure justice, its tasks are to examine evidence, determine the psychological and social condition, and provide expert opinions. Future research is recommended to explore new methods and approaches for working with adolescents. Juvenile court cases are of high relevance and importance today, and more research is needed in this area.

**Key words:** court, juvenile, investigation, crime, juvenile, expertise, investigation, person, group crime

**O‘smirlar uchun sud ekspertizasi alohida yondashuvni talab qiladi, sud psixologiyasi balog‘atga etmaganlar adliya tizimida qimmatli manba sifatida ishlaydi ushbu tizim kattalar uchun odatiy adliya tizimi bilan bog‘liq bolsa-da, u huquqbuzarlarni odatda qamoqhonaga o‘tkazish yoki o‘smirlarni reabilitasiya qilishda ishlashga urg‘u berish kabi ba’zi asosiy qoidalarga amal qiladi. O‘smirlar bilan bog‘liq sud ishlarining ahamiyati shundaki, bu jarayonlarda yoshlar psixologiyasi, ijtimoiy holati va boshqa omillar inobatga olinishi zarur. O‘smirlar hatti harakatlarida ijtimoiy hatti harakatlar ikki toifaga ajratish mumkin prosotsial va annosotsial.**

Hozirgi vatqda o‘smirlar o‘rtasidagi jinoyatlarni to‘rt turi ommalashib bormoqda bular birinchisi - individual yani yakka tartibda ichki ruhiy undovlar oqibatida, ikkinchisi -guruhlar tamonidan turli oqimlar, ijtimoiy tarmoqlardagi katta miqdordagi pul mablaglari evaziga, tez boyib ketish haqidagi aldovlar, o‘smirlarni qo‘llab quvvatlashi oqibatida sodir etiladi, uchunchisi – uyushgan o‘smirlar o‘z do‘stlari yoki avvallari o‘z qilmishlari uchun jazolanib kelgan sobiq maxbuslar o‘z atrofiga tushkun kayfiyatga yoki juda ham alamzada o‘smirlarni to‘plab turli qonunbuzarliklarni, jinoyatchiliklarga undash to‘rtinchisi – vaziyatli biror qulay fursat tufayli o‘zining kino qahramonlaridek ko‘rsatib bilmay jinoyatchilikka qol urishi. Hozirgi davrda ushbu yuqorida sanab o‘tilgan jinoyatchilik osmirlar orasida kop taqalayotganlaridi.

Qolaversa o'smirlarning ruhiy va jismoniy rivojlanishi etuk bo'lmaganligi sababli, ularning jinoyatga moyilligi yoki jabrlanuvchi sifatidagi holatini aniqlashda maxsus metodlar qo'llaniladi.

- Yoshga xos psixologik o'zgarishlarni hisobga olish: O'smirlar psixologiyasi o'ziga xos va o'zgaruvchan bo'ladi. Shu sababli, ekspertlar o'smirlarning ruhiy holatini baholashda maxsus yondashuvlardan foydalanadilar.

- O'smirlarning rivojlanish darajasi va shaxsiy xususiyatlarini o'rganish: Har bir o'smirlarning rivojlanish darajasi va shaxsiy xususiyatlari individualdir. Shu sababli, sud ekspertizasi jarayonida bu omillar inobatga olinishi zarur.

- Huquqiy bilimlar va tajribani inobatga olish: O'smirlar ko'pincha etarlicha huquqiy bilim va tajribaga ega bo'lmaganligi sababli, ularning huquqiy muhitda to'g'ri yo'naltirilishi muhimdir.

### **O'smirlar bilan bog'liq sud ishlarining ahamiyati**

O'smirlar bilan bog'liq sud ishlarining ahamiyati bir necha omillar bilan belgilanadi:

- Ijtimoiy mas'uliyat: O'smirlarning jinoyatlarga aralashishi kelajakda katta ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, ularni o'z vaqtida to'g'ri yo'naltirish va rehabilitatsiya qilish muhimdir.

- Huquqiy himoya: O'smirlar o'z huquqlarini to'liq anglab etmaganligi sababli, ularning himoyasi uchun maxsus yondashuvlar zarur.

- Psixologik yordam: Sud jarayonida o'smirlarning ruhiy holatini barqarorlashtirish va ularni qo'llab-quvvatlash muhimdir.

### **Sud ekspertizasining turlari**

Sud ekspertizasining bir necha turi mavjud bo'lib, har biri o'ziga xos metodologiya va usullarga ega:

- Kriminalistika ekspertizasi: Bu turli jinoyat sodir etilgan joylarda topilgan dalillarni, jumladan, barmoq izlari, ashyolar, biologik materiallarni o'rganishni o'z ichiga oladi.

- Sud tibbiyot ekspertizasi: Bu tibbiy masalalarni, jumladan, o'lim sabablarini aniqlash, jarohatlarning xarakterini belgilash va sog'liq holatini baholashni o'z ichiga oladi.

- Sud psixologiya ekspertizasi: Bu shaxslarning psixologik holatini, ruhiy sog'lig'ini va jinoyatga moyilligini baholashni o'z ichiga oladi.

- Sud iqtisodiy ekspertizasi: Bu iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq dalillarni, jumladan, moliyaviy hisobotlar, soliqlar, korrupsion faoliyatlarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Sud ekspertizasining asosiy maqsadi adolatni ta'minlashdir. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

Sud ekspertizasining asosiy maqsadi adolatni ta'minlashdir. Dalillarni to'g'ri aniqlash va baholash orqali sud jarayonida adolat qaror topishiga erishiladi. Bu esa jinoyat sodir etgan shaxslarning jazolanishini va aybsizlarning oqlanishini ta'minlaydi. O'smirlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish



uchun ekspertlar ularning holatini chuqur o'rganadilar. Bu jarayonda o'smirlarning ruhiy va jismoniy holati, ijtimoiy muhitlari va boshqa omillar inobatga olinadi. Shu tariqa, o'smirlarning huquqiy himoyasi ta'minlanadi.

Ekspertiza orqali sud jarayonining adolatli va xolis o'tishi ta'minlanadi. Bu esa sud qarorlarining adolatli va qonuniy bo'lishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, ekspert xulosalari sud jarayonini tezlashtirish va aniqlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Sud jarayonida taqdim etilgan dalillarni ilmiy asosda tekshirish va ularning ishonchliligini baholash. Bunda ekspertlar dalillarni tahlil qilish va ular asosida xulosalar chiqarish uchun maxsus metodlardan foydalanadilar. Dalillarni tekshirish jarayoni sud qarorlarining adolatli bo'lishiga xizmat qiladi.

O'smirlarning psixologik va ijtimoiy holatini o'rganish, ularning jinoyatga moyilligi yoki jabrlanuvchi sifatidagi holatini aniqlash. Bu jarayonda ekspertlar o'smirlarning ruhiy holatini baholash va ularning ijtimoiy muhitini o'rganish uchun maxsus test va tadqiqotlardan foydalanadilar.

Sudga o'z vaqtida va aniq ekspert xulosalarini taqdim etish. Ekspertlar o'z sohasidagi bilim va tajribaga tayangan holda sud jarayoniga oid masalalarni tahlil qiladi va xulosalar chiqaradi. Bu esa sud qarorlarining adolatli va qonuniy bo'lishiga xizmat qiladi. O'smirlar bilan bog'liq sud ekspertizasida qo'llaniladigan amaliy usullar ishlab chiqilgan bolib bu usullar bilan osmirlardagi jinoyat sodir etilgan vaqtdagi o'smirning ruhiy holati qanday vaziyatda ekanligi va nima sababdan jinoyatga qo'l urganligini aiqlashda ekspertga kata yordam beradi bu usullar sud hukmiga asos bolmasada ammo holis fikrlashga asos boladi. Bu misollar quyidagilar:

- **Psixologik testlar:** O'smirlarning psixologik holatini aniqlash uchun turli psixologik testlardan foydalaniladi. Bu testlar o'smirlarning ruhiy holatini baholashda va ularning jinoyatga moyilligini aniqlashda yordam beradi.

- **Ijtimoiy tadqiqotlar:** O'smirlarning ijtimoiy muhitini o'rganish uchun ijtimoiy tadqiqotlar o'tkaziladi. Bu tadqiqotlar o'smirlarning ijtimoiy sharoitlari va ularga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashda yordam beradi.

- **Ekspert suhbatlari:** O'smirlar bilan individual suhbatlar o'tkazilib, ularning psixologik holati va jinoyatga bo'lgan munosabati o'rganiladi. Bu jarayonda ekspertlar o'smirlarning shaxsiy xususiyatlari va ularning jinoyatga munosabatini aniqlash uchun maxsus metodlardan foydalanadilar.

Maqolada o'smirlar o'rtasidagi sud ekspertizasining maqsad va vazifalari batafsil ko'rib chiqildi. Sud ekspertizasining asosiy maqsadi adolatni ta'minlash bo'lsa, uning vazifalari dalillarni tekshirish, psixologik va ijtimoiy holatni aniqlash va ekspert xulosalarini berishdan iborat. Kelajakdagi tadqiqotlar uchun o'smirlar bilan ishlashning yangi usullari va yondashuvlarini o'rganish tavsiya etiladi. O'smirlar bilan bog'liq sud ishlarining dolzarbligi va ahamiyati bugungi kunda yuqori darajada bo'lib, bu sohada ko'proq ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilishi zarur.



## ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O'zbekiston. 2016. 23-bet.

1. Elov Z.S. Yuridik psixologiya. Darslik. Buxoro-2023 Kamolot nashriyoti 486b

2. Elov Z.S. SUD-PSIXOLOGIK EKSPERTIZASI TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI (ilmiy manbalar tahlili asosida). Journal of Pedagogical and Psychological Studies 2 (1), 3-8. 2024

3. Tojiyeva N.T., Elov Z.S., Voyaga etmaganlarga sudga oid psixologik ekspertizasini o'tkazilishining psixologik xususiyatlari. 2024 ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР 1 (№1), 9-14

4. Elov Z.S. Sud-psixologik ekspertizalar o'tkazishning huquqiy va tashkiliy asoslari. 2024 TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN 2 (2), 58-69

## MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

**Tojiyeva Nilufar Tohirjon qizi**

Osiyo xalqaro universiteti magistranti,

Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

[tajievanilufar840@gmail.com](mailto:tajievanilufar840@gmail.com)

**Iqtibos uchun:** Tojiyeva N.T. O'smirlar o'rtasidagi sud ekspertizasining maqsad va vazifalari. // Osiyo xalqaro universiteti axborotnomasi. 2024. №3. B.203–209.

## DIN VA AXLOQ O'RTASIDAGI MUNOSABATLARNI TADQIQ ETISHNING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI



© Xayrullayeva Zebuniso Tojiddin qizi  
Osiyo xalqaro universiteti, Buxoro shahri

### Annotatsiya.

**KIRISH:** Ushbu maqolada bugungi kunda butun dunyoda dunyo dinlari deb tan olingan dinlar ya'ni: islom dini, xristian dini, buddaviylik hamda yahudiylik dinlari ularning paydo bo'lish va rivojlaish tarqalish bosqichlari hamda ijobiy axloqiy xususiyatlari haqida so'z borgan.

Diniy axloq-har bir inson uchun katta ahamiyatga ega kategoriyadir. Din butun insoniyatning ma'naviy evolyutsiyasining bo'g'inlaridan biri bo'lib, jamiyat tarixidagi katta bosqich u bilan bog'liq. U odamlarning tevarak-atrofdagi voqelik va o'zini anglashining tarixiy va ijtimoiy shartli shakli sifatida vujudga kelgan va mavjud bo'lgan. Tezisdan mualliflar turli diniy konfessiyalarda ushbu axloqning kelib chiqish tarixi va asoslari haqida fikr yuritadilar.

**MAQSAD:** Hozirgi kunda jamiyatimizdagi shaxslarning diniy bilimini kengaytirish, ularga dinlarning kelib chiqish tarixi hamda odamlarning tevarak-atrofdagi voqelik va o'zini anglashining tarixiy va ijtimoiy shartli shakllarini etkazib berish. Diniy bilimlar doirasida o'zlari mustaxkam e'tiqodga ega bo'lgan holda uning axloqiy hamda ijtimoiy-psixologi xususiyatlarini shakllantirish.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Qadimdan mavjud bo'lgan turli e'tiqodlar va dinlarni o'rganish jarayonida ularning bir-biriga o'xshash jihatlari hamda bir-biridan farq qiluvchi jihatlari ham yaqqol ko'zga tashlanadi, ayni damda bazilari ularni o'zaro bir birini to'ldirishi yokida davomi sifatida kelib chiqqani, ularning axloqiy me'yorlari o'zaro yaqin xususiyatlari ham mavzuni o'rganish davrida aniqlik kiritdik.

**XULOSA:** O'rganilgan empirik natijalar asosida shuni aytish mumkinki din jamiyat hayotida insonning yashash tarzi o'zaro insonlar bilan aloqasi, hayodidagi yashash uchun zarur bo'lgan qadriyatlarni belgilashda, unga axloq normalarini aniqlash va ularga rioya etish, ularning ruhiy kechinmalari shuningdek ishonch, mexr, sabr, yaxshilik ezgu amallarni bajarish,

yomonliklardan o'zini tiyish hamda o'zaro hurmat e'tibor kabi tuyg'ularni shakllantiradi.

**Kalit so'zlar:** diniy etika, buddizm, yahudiylik, xristianlik, musulmonlik, axloq, shaxs.

## СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ИССЛЕДОВАНИЯ ВЗАИМОСВЯЗИ РЕЛИГИИ И МОРАЛИ

### Аннотация.

**ВВЕДЕНИЕ:** В данной статье говорится о религиях, признанных сегодня мировыми: исламе, христианстве, буддизме и иудаизме, этапах их возникновения, развития и распространения, а также об их положительных нравственных характеристиках.

Религиозная мораль является категорией огромной важности для каждого человека. Религия является одним из звеньев духовной эволюции всего человечества, с ней связан великий этап в истории общества. Оно возникло и существовало как исторически и социально обусловленная форма окружающей действительности и самосознания людей. В диссертации авторы размышляют об истории и основах этой морали в различных религиозных конфессиях.

**ЦЕЛЬ:** Расширение религиозных знаний личности в современном обществе, предоставление им истории возникновения религий и историко-социально обусловленных форм окружающей действительности и самосознания людей. Формирование нравственных и социально-психологических особенностей религиозного знания при наличии твердой веры.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** В процессе изучения различных вер и религий, существовавших с древнейших времен, отчетливо видны их сходства и различия, при этом некоторые из них дополняют друг друга. Мы выяснили, что они возникли как продолжение, и их нравственные нормы близки друг другу. В ходе изучения темы.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** На основе изученных эмпирических результатов можно сказать, что религия – это образ жизни человека в жизни общества, во взаимоотношениях с другими людьми, в определении ценностей, необходимых для проживания в жизни, определении моральных норм и наблюдение за ними, их духовными переживаниями, а также доверие, доброта, терпение, доброта формирует такие чувства, как совершение добрых дел, воздержание от зла и взаимное уважение.

**Ключевые слова:** религиозная этика, буддизм, иудаизм, христианство, мусульманин, мораль, личность.



## SOCIAL PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF RESEARCH ON THE RELATIONSHIP BETWEEN RELIGION AND MORALITY

### Abstract.

**INTRODUCTION:** This article talks about the religions that are recognized as world religions today: Islam, Christianity, Buddhism and Judaism, the stages of their emergence, development and spread, as well as their positive moral characteristics.

Religious morality is a category of great importance for everyone. Religion is one of the links of the spiritual evolution of the whole humanity, and a great stage in the history of society is connected with it. It arose and existed as a historically and socially conditioned form of people's surrounding reality and self-awareness. In the thesis, the authors reflect on the history and foundations of this morality in various religious denominations.

**GOAL:** Expanding the religious knowledge of individuals in our society today, providing them with the history of the origin of religions and the historical and socially conditioned forms of the surrounding reality and self-awareness of people. Formation of moral and socio-psychological features of religious knowledge while having strong faith.

**MATERIALS AND METHODS:** In the process of studying different faiths and religions that have existed since ancient times, their similarities and differences are clearly visible, while some of them complement each other. We clarified that it originated as a continuation, and their moral standards are close to each other during the study of the topic.

**CONCLUSION:** Based on the studied empirical results, it can be said that religion is the way of life of a person in the life of society, the relationship with other people, in determining the values necessary for living in life, determining the moral norms and observing them, their spiritual experiences, as well as trust, kindness, patience., goodness forms feelings such as doing good deeds, refraining from evil and mutual respect.

**Key words:** religious ethics, Buddhism, Judaism, Christianity, Muslim, morality, personality.

**Diniy axloq** - bu dunyo dinlari bitiklarida bayon qilingan ilohiy amrlarga asoslangan inson xulq-atvori va axloqiy ong mazmuni haqidagi axloqiy g'oyalar majmuasini bildirish uchun qo'llaniladigan atama. So'zning tor manosida diniy etikani axloq nazariyasi - "axloqiy ilohiyot" deb ham atashadi. Diniy axloqning o'ziga xos xususiyatlari shunda-ki, u odamlar o'rtasidagi munosabatlardan tashqari, Xudo bilan insoniy munosabatlar normalarini ham o'rnatadi va axloqiy me'yorlarni mutlaq ahamiyatga ega bo'lgan ilohiy institutlar sifatida talqin qiladi.

Muqaddas tartib g'oyasi yordamida dunyoni tushuntirish bo'yicha o'zining asosiy vazifasini bajarib, din oxir-oqibat odamlar o'rtasidagi o'zaro



munosabatlarning axloqiy jihatini o'z doirasiga jalb qiladi. Miloddan avvalgi 1-ming yillik o'rtalaridan boshlab axloqiy dinlarning paydo bo'lishi bilan din borliqning ma'nosini o'rnatibgina qolmay, dunyoni insonga tushunarli qiladi, balki inson o'zgalar va o'ziga qanday munosabatda bo'lishi kerakligini ham ko'rsatadi. Axloqiy tarbiya diniy e'tiqodning o'zagiga aylanadi. Diniy etika bilan parallel ravishda falsafiy etika ham vujudga keladi. Agar diniy etika axloqiy ko'rsatmalar va taqiqlarni ilohiy hokimiyatdan so'nggi chora sifatida olsa, falsafiy axloq, aksincha, bu ko'rsatmalar va taqiqlarni aniqlab, asoslash bilan band, ularni ma'lum bir axloqiy tizimning umumiy tamoyilidan kelib chiqadi. Biroq, diniy axloq, garchi muqaddas bitiklarning bir vaqtlar o'rnatilgan tamoyillariga asoslangan bo'lsada, ular bilan tugamaydi. U sharhlar va talqinlar bilan to'lib-toshgan, o'zgaruvchan sharoitlar va asl retseptlarni ularga moslashtirish zarurati bilan duch kelgan.

Buddizm VI asrda Hindistonda paydo bo'lgan. Miloddan avvalgi, bu birinchi monoteistik din va Xudosiz din - yaratuvchidir. Bu Xudo-inson harakat qiladigan birinchi din. "Budda" so'zi "ma'rifatli, uyg'ongan" degan ma'noni anglatadi. Tarixiy afsonalarga ko'ra, Budda - haqiqiy shaxs, shahzoda Siddxarta Gautama juda boy, ammo eng yuqori kasta Shakyamuni oilasiga kirmaydi. Ota o'g'lining mavjudligi uchun ideal sharoitlarni yaratdi, u tashqi dunyo bilan aloqa qilmadi. Ammo bir kuni u kasal odamni ko'rdi, keyin u bir chol bilan uchrashdi va keyin o'limga duch keldi. U o'z saroyini tark etib, o'z harakatsizligi uchun to'lovni va odamlarni baxtsizliklardan qanday qutqarish kerakligi haqidagi savolga javob topmoqchi bo'lib, dunyo bo'ylab kezib yurdi. Ammo etti yillik sarson-sargardonlikdan so'ng hech narsa uning savollariga javob bera olmasligini tushundi. Va keyin Budda tushundi: "Hayot - bu azob. Azob sababi hayotning o'zidir".

Dastlab, buddizm mafkurasi ko'pchilikni qiziqtirdi, chunki u odamlarning e'tiqodi, tabaqasi va ijtimoiy mavqeiga ko'ra har xil bo'linishlariga qarshi edi. Bu boshqa dinlarni jalb qildi. Boshqa tomondan, sakkizta yo'lning ko'plab qoidalariga rioya qilish ko'plab oddiy odamlar uchun imkonsiz edi. O'zining asl nusxasida buddizm rohiblar dini sifatida rivojlangan, ular erdagi hamma narsadan voz kechib, o'z oilalarini tashlab, najotning monastir yurish tartibiga qo'shilgan. Ular sadaqa bilan yashashdi, ishlamadilar, chunki ish o'z-o'zini yaxshilashga xalaqit berdi. Monastir mavjudligining o'ziga xos xususiyati shundaki, istalgan vaqtda tartibni tark etish mumkin edi. Ilk buddizmدا ekstremal qanot paydo bo'ldi, uning rohiblari barcha ko'rsatmalarni o'ta qat'iy bajardilar. Misol uchun, tezis - "Birovga azob-uqubat keltirmang" - to'liq ma'noda qabul qilingan.

Yahudiylilik dunyodagi eng qadimgi dinlardan biridir. Yahudiylilik Muso payg'ambarning Sinay tog'ida bevosita Xudodan olgan amrlariga asoslanadi. Yahudiylilik ta'limotlari o'ldirishni, o'g'irlashni, zino qilishni, hasad qilishni taqiqlagan. Ular ota-onalariga g'amxo'rlik qilishni, haftaning bir kunini ma'naviy kamolotga bag'ishlashni, Xudoni va yaqinlarini sevishni buyurdilar.

Xudoning barcha asosiy amrlarini qayd etgan Tavrot va Talmud har kuni, har yili, bayramlarda va shanba kunida bajarilishi kerak bo'lgan ko'rsatmalarning butun majmuasidir. Biroq, yahudiylar Tavrot va Talmud qonunlarini o'rganishga katta e'tibor berishadi, ularning yordami bilan odamlar yaxshi ishlar qilishlari mumkinligiga ishonishadi. Garchi yahudiylik Eski Ahdning faqat birinchi besh Injil kitobini tan olsa-da, ular axloqiy tamoyillarga oid ko'plab dono ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi. Ular axloqsiz ishlardan, yolg'on vasvasalardan va qalbdagi noto'g'ri istaklardan ogohlantiradilar. Yahudiy ta'limotida adolat butun dunyo turadigan asosiy tamoyillardan biridir. Adolat ravvinlarga vaziyatni har tomonlama o'rganish asosida hukm chiqarishni buyurdi, toki inson juda engil yoki qattiq jazoga duchor bo'lmasin. Odamlarga nisbatan ular rahm-shafqat bilan boshqarilishi kerak edi. Bu Xudo odamlar bilan muloqot qiladigan asosiy tamoyildir.

Yahudiylarning tushunishida amrlarga rioya qilish xarakterni tarbiyalash uchun zarurdir. Biroq, yahudiylikni tan olganlar uchun ish faqat qoidalarga rioya qilish bilan tugamaydi, ular orqali ma'naviy va axloqiy rivojlanish, Xudoga xizmat qilish amalga oshiriladi. Inson nafaqat axloqiy jihatdan yaxshilanadi, balki dunyoga muqaddaslikni ham keltiradi.

Xristianlik axloqqa kiritgan asosiy narsa - yaxshilik va yomonlikni baholash mezonlarining o'zgarishi. Oldingi barcha etika oqilona baholashga murojaat qildi: aql, ta'lim, ob'ektiv qonunlar. Xristianlik mezonni shahvoniy mezonga o'zgartirishni taklif qildi: asosiy mezon - bu sevgi, lekin Xudoga bo'lgan muhabbat emas, balki solishtirganda qo'shniga bo'lgan muhabbat. Mezonlarning bunday o'zgarishi axloqni shakllantirishning ijtimoiy asoslarini kengaytirdi. Agar hamma ham aql bilan baholay olmasa, unda hamma sevishi mumkin, shuning uchun ularning harakatlarini baholash qobiliyatiga shubha yo'qoldi. Asosiysi, axloqni baholash funksiyasini bajarish imkoniyati bilan ta'minlash edi. Zero, axloq ijtimoiy psixologiya (hissiyotlar, his-tuyg'ular, kechinmalar) darajasida shakllanadi. Agar dastlabki bosqichlarda xristian axloqi umuminsoniy omon qolish negizida shakllangan bo'lsa, kelajakda cherkov axloqni shakllantirish vazifasini o'z zimmasiga oldi. Musulmonlarning axloq haqidagi ta'limoti Qur'on tomonidan o'rnatilgan axloq normalarining mutlaq ma'nosidan kelib chiqadi. Bu me'yorlarni ijtimoiy taraqqiyotning o'ziga xos tarixiy sharoitlari va kishilar ehtiyojlaridan ajratib, ularni abadiy va o'zgarmas, har qanday davrga mos deb e'lon qiladi. Alloh mutlaq mukammaldir.

Yaxshilik va yomonlik muammosini hal qilishda ba'zi ilohiyot olimlari. Qur'onning "yaxshilik Allohdan, yomonlik insondan" degan hukmiga asoslanib, yomonlikni Alloh yaratmagan, bu insonning yaratilishi, degan fikrni ilgari suradilar. Aytishlaricha, Xudo odamlarni sinash, niyatlarini aniqlash va keyingi dunyoda jazo olish uchun yomonlikni saqlaydi. Boshqa ilohiyotchilar yaxshilik ham, yomonlik ham buyuk Alloh taoloning ijodi ekanligini, eng rahmdil zot o'zining qudratliligi bilan ularni inson manfaati uchun yaratganligini va

o'zining "aniq kitobi"da yaxshilik va yomonlikning barcha turlarini belgilab berganligini, shunda insonlar yaxshi amallar qilishlarini ta'kidlaydilar. Islom dini hech qachon amalning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini inkor etmagan. Dindorlarni mehnatga, xayriya ishlariga chaqirdi.

Musulmon axloqiy ta'limotlarida xulq-atvorning eng oliy ideali kamtarlik, sabr-toqat va yovuzlikka qarshilik qilmaslik bo'lganlar etarlicha. Islomning asosiy aqidalaridan biri ilohiy taqdir haqidagi aqidadir. Inson Alloh belgilagan yo'lni afzal ko'rishi kerak. Boshqa yo'lni tanlashga uringanlar esa Alloh tomonidan jazolanadi. Oxir oqibat, diniy axloq mo'minlar ongida boshqa dunyo jazosiga intilish zarurligi to'g'risidagi e'tiqodni shakllantirishga olib keladi, bu yo'l Xudoga ishonish, diniy marosim va ko'rsatmalarga rioya qilish orqali yotadi.

Shunday qilib, ko'rib turganimizdek, islom dinining diniy-axloqiy tamoyillari ham boshqa dinlar kabi umuminsoniy g'oyalar, ma'naviy qadriyatlar ustuvorligini e'lon qilish bilan chambarchas bog'liqdir. Inson Xudoni anglab, chinakam insoniy fazilatlarga ega bo'ladi va diniy va axloqiy ko'rsatmalar insonda yuksak axloqiy qadriyatlarning ildiz otishiga yordam beradi. Din inson hayotiga eng olis, qadim zamonlarda paydo bo'lgan va kirib kelgan. Bu butun insoniyatning ma'naviy evolyutsiyasining bo'g'inlaridan biri bo'lib, jamiyat tarixidagi katta bosqich u bilan bog'liq. U odamlarning tevarak-atrofdagi voqelik va o'zini anglashining tarixiy va ijtimoiy shartli shakli sifatida vujudga kelgan va mavjud bo'lgan. Diniy e'tiqodlarning ko'p asrlik mavjudligi, albatta, qimmatli, bardoshli narsalarni olib yurishining tasdig'idir.

Din qadimgi davrlarda paydo bo'lgan va insoniyat hayotida mustahkam ildiz otgan, jamiyat taraqqiyoti tarixidagi ulkan bosqich u bilan bog'liq. Dinda ko'p avlodlar hayoti tomonidan sinovdan o'tgan donolik, adolat mavjud. Diniy etika zamonaviy axloqiy ta'limotlar tizimida alohida o'rin tutadi, inson va uning qadriyatlari muammolarida etakchi rol o'ynaydi, bu ijtimoiy ish mutaxassislari uchun uning qiymatini belgilaydi.

Diniy axloq, uning qadriyat toifalarini bilish insonga jahon dinlari tarixida to'plangan ma'naviy tajribaga qo'shilish imkoniyatini beradi, shaxsni har tomonlama rivojlantirish uchun potentsial imkoniyatlar yaratadi va din qadriyatlarini o'rganish orqali umuminsoniy g'oyalar va qadriyatlarga qo'shilishni anglatadi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Abramov. A. V - “Этика ислама: основные нравственные принципы Корана”
2. Guseynov A. A – “Краткая история этики.” - М.: Мысль, 1987. - 589 б.
3. Lijko E. V.- Профессионально-этические основы социальной работы. Курс лекций: учеб. пособие. - Красноярск: Сибирский федеральный университет, 2010. - 183 б.





4. Kanaykina E. A – философский анализ нравственных систем православия, католичества и протестантизма. Дисс. канд. соц. наук. - Екатеринбург, 2014.

**MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]**

**Xayrullayeva Zebuniso Tojiddin qizi**

Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti

Manzil: O'zbekiston, Buxoro shahri

**Iqtibos uchun:** Xayrullayeva Z.T. Din va axloq o'rtasidagi munosabatlarni tadqiq etishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari // Osiyo xalqaro universiteti axborotnomasi. 2024. №3. B.210–216.

## ILK O'PIRINLARDA (16-18 YOSH) YUZAGA KELADIGAN DEPRESSIV HOLATLAR VA ULARNI OLDINI OLISHNING TARBIYAVIY USULLARI



© Ne'matova Iroda Ibroxim qizi  
Qarshi davlat universiteti, Qarshi shahri

### Annotatsiya.

**KIRISH:** Ushbu maqolada ilk o'pirinlarda (16-18 yosh) depressiv holatlarni shakllanishiga ta'sir etuvchi psixofiziologik omillar haqida fikr bildirilgan. Shuningdek, fanda depressiya atamasining yuzaga kelishi, yoshlarda depressiyaning namoyon bo'lishi va uni ifodalanish xususiyatlari hamda oqibatlari haqida mutaxassis olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilingan.

**MAQSAD:** Ilk o'spirinlik davrida yuzaga keladigan depressive holatlarning ijtimoiy-psixologik sabablarini tahlil qilish.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Gumanistik psixologiya vakillarning ta'kidlashicha, ruhiy tushkunlik jamiyat va shaxsning o'zini-o'zi anglashi yoki o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishga bo'lgan tug'ma intilishi o'rtasidagi nomuvofiqlik natijasida yuzaga keladi.

Amerikalik gumanistik psixolog Abraxam Maslouning nazariyasiga ko'ra, ruhiy tushkunlik, ayniqsa dunyo o'z-o'zini namoyon qiluvchi uchun "boylik" yoki "to'liqlik" tuyg'usiga to'sqinlik qilganda paydo bo'ladi deb tushuntiradi.

**XULOSA:** Darhaqiqat, ilk o'spirinlarni depressiv holatlardan saqlash va ularda yuksak irodaviy sifat hamda fazilatlarni shakllantirishda o'zbek xalq ijodidan foydalanishning ijtimoiy-psixologik ahamiyati beqiyosdir. Jumladan, ilk o'spirinlik davri psixologiyasi qonuniyatlariga amal qilib, psixodiagnostik va psixokorreksion usullardan foydalangan holda individual hamda guruh psixotreninglar yordamida o'smirlarda yuksak hissiy-irodaviy holatlarni, xarakter fazilatlarini, temreraiment tirlari va qobiliyatning noyob tomonlarini tarbiyalash uchun o'zbek xalq psixologiyasi aks etgan maqollardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

**Kalit so'zlar:** Melanxoliya, depressiya, ruhiy holat, tushkunlik, tobelik, ekzestensial, fobiya, shubha, kognitiv, psixodiagnostika, psixokorreksiya, psixoprofilaktika, terapiya.

## ДЕПРЕССИВНЫЕ СИТУАЦИИ, ВОЗНИКАЮЩИЕ В РАННЕМ ВОЗРАСТЕ (16-18 ЛЕТ), И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ ИХ ПРОФИЛАКТИКИ

### Аннотация.

**ВВЕДЕНИЕ:** В данной статье высказано мнение о психофизиологических факторах, влияющих на формирование депрессивных состояний у ранних подростков (16-18 лет). Кроме того, проанализированы научные взгляды специалистов на появление в науке термина депрессия, проявление депрессии у молодежи, особенности и последствия ее проявления.

**ЦЕЛЬ:** Анализ социально-психологических причин депрессивных состояний в раннем подростковом возрасте.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** Представители гуманистической психологии говорят, что депрессия вызвана несоответствием общества и самосознания личности или врожденным стремлением полностью реализовать свой потенциал.

Согласно теории американского психолога-гуманиста Абрахама Маслоу, депрессия возникает особенно тогда, когда мир препятствует ощущению «богатства» или «полноты» самовыражающегося человека.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** Действительно, социально-психологическая значимость использования узбекского народного творчества в предохранении ранних подростков от депрессивных состояний, формировании у них высокой силы воли и добродетели ни с чем не сравнима. В частности, следуя законам психологии раннего подросткового возраста, используя психодиагностические и психокоррекционные методы, с помощью индивидуальных и групповых психотренингов, отражается узбекская народная психология в целях воспитания подростков с высокими эмоционально-волевыми состояниями, качествами характера, чертами темперамента и уникальные аспекты способностей желателен эффективное использование пословиц.

**Ключевые слова:** Меланхолия, депрессия, психическое состояние, депрессия, зависимость, экзистенциальная, фобия, сомнение, когнитивная, психодиагностика, психокоррекция, психопрофилактика, терапия.

## DEPRESSIVE SITUATIONS THAT OCCUR IN EARLY AGES (16-18 YEARS OLD) AND EDUCATIONAL METHODS OF PREVENTING THEM

### Abstract.

**INTRODUCTION:** In this article, an opinion is expressed about psychophysiological factors influencing the formation of depressive states in early adolescents (16-18 years old). In addition, the scientific views of experts on

the emergence of the term depression in science, the manifestation of depression in young people, the features and consequences of its expression were analyzed.

**GOAL:** Analysis of the socio-psychological causes of depressive states in early adolescence.

**MATERIALS AND METHODS:** Representatives of humanistic psychology say that depression is caused by a mismatch between society and the individual's self-awareness or the innate desire to fully realize their potential.

According to the theory of American humanistic psychologist Abraham Maslow, depression occurs especially when the world hinders the sense of "richness" or "fullness" for the self-expressive person.

**CONCLUSION:** In fact, the socio-psychological importance of using Uzbek folk art in keeping early adolescents from depressive states and forming high willpower and virtues in them is incomparable. In particular, following the laws of psychology of early adolescence, using psychodiagnostic and psychocorrective methods, with the help of individual and group psychotrainings, Uzbek folk psychology is reflected in order to educate adolescents with high emotional and volitional states, character qualities, temperamental traits and unique aspects of abilities. effective use of proverbs is desirable.

**Key words:** Melancholy, depression, mental state, depression, dependence, existential, phobia, doubt, cognitive, psychodiagnosis, psychocorrection, psychoprophylaxis, therapy.

Depressiya atamasi lotincha "depression" bosilish, susayish yoki bosim ta'sirida susayish, degan ma'noni anglatadi. Depressiya ruhiy kasallik bo'lib, u odamda hayotga bo'lgan umidsizlik, odamlarga bo'lgan ishonchsizlik, tushkunlik, yolg'izlik, stressga tushish, to'xtovsiz havotirlanish va shu kabi yomon hissiyotlarni uyg'otishi mumkin. O'ta jiddiy holatlarda ba'zilar sigaret chekish, spirtli ichimliklar ichish, meyoridan ortiqcha o'xlash kabi yomon illatlar bilan o'zlarini chalg'itishga urinishadi. Ayniqsa, o'spirin yoshdagilarning juda ko'p musiqa tinglashi yoki o'zini xole joylarga olishi depressiyadan qiynalayotganligini bildiradi.

Qadimgi Yunonistonda depressiyani kasallik sifatida baholab, inson organizmidagi to'rtta asosiy suyuqlikning nomutanosibligi yoki o'zaro munosabatlarda insonga shafkatsiz munosabatda bo'lish tufayli paydo bo'lgan deb hisoblashgan. Gippokrat depressiyani melanxoliya deb nomlagan. Gippokrat melanxoliyani o'zining aforizmlarida o'ziga xos ruhiy va jismoniy alomatlarga ega bo'lgan alohida kasallik sifatida tasvirlagan, "qo'rquv va umidsizliklarni" kasallikning uzoq vaqt davom etadigan aromati sifatida ko'rsatgan.

Keyinchalik Kapadokiyalik Aretey xo'rlanganlarni "zerikarli yoki qattiqqo'l sharoitlarda, hech qanday sababsiz tushkun yoki asossiz ravishda g'azablangan" ekanligini ta'riflaydi. Fors va keyin musulmon dunyosi shifokorlari Islom oltin asrida melanxoliya haqida bir qator o'sha davr uchun asosli g'oyalarni ishlab



chiqdilar. Ishoq ibn Imron o'z qarashlarida melanxoliya va frenit tushunchalarini birlashtirgan. Zamonaviy tibbiyotning otasi Abu Ali ibn Sino melanxoliyani ruhiy holat buzilishining depressiv turi deb ta'riflagan, bunda odamda shubha paydo bo'lishi va ma'lum turdagi fobiyalar (qo'rquv va vahimalar)ning paydo bo'lishini nazarda tutadi.

XVII asrning muhim ilmiy ishi sifatida ingliz olimi Robert Burton ko'plab nazariyalar va o'z tajribalariga asoslangan holda "Melanxoliya anatomiyasi" kitobini yozgan edi. Burton, melanxoliyaga uchraganlar ko'proq sog'lom ovqatlanishi, etarlicha uxlashi, o'zi yoqtirgan musiqalarni tinglashi va do'stlari bilan shu muommoni echish yo'llari haqida gaplashishi yordamida samarali kurashishi mumkin deb taklif qiladi.

Zigmund Freyd o'zining 1917-yilgi "Motam va melanxoliya" nomli maqolasida melanxoliya holatini motam bilan taqqoslagan edi. U obektiv yo'qotish, masalan, o'lim yoki ishqiy ajralish orqali o'zi uchun eng qadrlı munosabatlarni yo'qotish, subektiv yo'qotishga olib keladi degan g'oyani ilgari suradi. Bunday yo'qotish motamdan ko'ra chuqurroq va og'ir melanxolik alomatlariga olib keladi, nafaqat tashqi dunyoga salbiy qaraladi, balki Ego ("Men")ning o'zi ham buziladi. Bemorning o'zini-o'zi idrok etish qobiliyatining pasayishi uning o'zini aybdor deb his qilishi, meyorlardan past turishi va odamlar loyiq bo'lgan narsalarga o'zi noloyiqligiga ishonish namoyon bo'ladi. Shuningdek, bu holat erta hayot tajribasini oldindan belgilovchi omil sifatida ta'kidlanadi.

Avstriyalik ekzestensial psixiatr Viktor Frankl depressiyani ongli odam uchun behudalik va ma'nosizlik hissi bilan bog'laydi. Viktor Frankl yaratgan logoterapiya o'spirinlar tushib qolgan depressiyani davolashga juda foydali hisoblanadi. Amerikalik ekzestensial psixolog Rollo Mey "depressiya kelajakni qura olmaslikdir" deb faraz qiladi. Umuman olganda, R.Mey depressiya kosmosdan ko'ra ko'proq vaqt o'lchamida yuzaga keladi deb yozgan va tushkunlikka tushgan odam vaqtini to'g'ri ko'ra olmaydi, ya'ni, o'tgan zamon, hozirgi zamon va kelajakni o'zaro bog'liqlikda, izchillikda baholay olmaydi deb hisoblagan.

Gumanistik psixologiya vakillarning ta'kidlashicha, ruhiy tushkunlik jamiyat va shaxsning o'zini-o'zi anglashi yoki o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishga bo'lgan tug'ma intilishi o'rtasidagi nomuvofiqlik natijasida yuzaga keladi. Amerikalik humanistik psixolog Abraxam Maslouning nazariyasiga ko'ra, ruhiy tushkunlik, ayniqsa dunyo o'z-o'zini namoyon qiluvchi uchun "boylik" yoki "to'liqlik" tuyg'usiga to'sqinlik qilganda paydo bo'ladi deb tushuntiradi.

**Kognitiv** (borliqni anglash – bilishni ustun quyuvchi) psixologlar 20-asrning o'rtalarida depressiya haqida nazariyalarini taklif qilishadi. 1950-yillardan boshlab, Albert Ellis depressiya aql bovar qilmaydigan "kerak" va "kerak emas" dan kelib chiqadi, deb ta'kidlaydi, shuningdek noo'rin o'zini ayblash, o'ziga achinish yoki qiyin paytlarda boshqalarga achinishga olib keladi. 1960-yillardan

boshlab Aaron Bek depressiya o'zi, insonning kelajagi va dunyo haqidagi salbiy fikrlash shakllarining "kognitiv triadasi" yoki "sxemalar" dan kelib chiqadi degan nazariyasini ishlab chiqdi.

Hozirgi zamon psixologiyasida depressiya holati ancha keng o'rganilayotgan bo'lib, o'spirinlarda depressiyani keltirib chiqaruvchi sabablarga quyidagilar kirishi alohida ta'kidlanadi:

**Garmonlar.** Tanadagi gormonlar muvozanatidagi o'zgarishlar depressiyani keltirib chiqarishi yoki qo'zg'atishi mumkin.

**Irsiy xususiyatlar.** Depressiya oldin qarindoshlari, masalan ota-onasi, yoki bobo, buvisi bo'lgan odamlarda ham uchraganligi sababli, ilk o'spirinlarda ham namoyon bo'lishi mumkin. Bu irsiyatdan o'tgan hisoblanadi.

**Erta bolalik travmasi.** Bolalik davridagi jismoniy yoki hissiy zo'ravonlik yoki ota-onani yo'qotishi kabi travmatik hodisalar miyada depressiya xavfini oshiradigan o'zgarishlarga olib keladi.

**Salbiy fikrlash.** O'spirin tinmay salbiy fikrlasa, har bir narsadan yomonlik izlayversa yoki ranjiyversa bu ularni stressga olib keladi, stresslar yig'ila-yig'ila depressiyaga aylanishi mumkin.

**Tengdoshlar bosimi.** Tengdoshlarning uning ustidan kulishi, erga urishi, yoki uni ajratib qo'yishi depressiyaga olib kelishi mumkin.

**Qashshoqlik.** Ko'plab oilalarda turmush tarzi to'g'ri rejalashtirilmaganligi yoki o'zaro munosabatlarda kamchiliklarga yo'l qo'yish oilada iqtisodiy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Endi katta hayotga qadam qo'yayotgan o'spirin bu dunyoda qanday yashab qolish, birovlardan kam bo'lmaslik haqida o'ylay boshlaydi. Bu unga biroz qiyin tuyulishi va pul ishlab topishning oson yo'lini izlashga undaydi.

**Yaqinlarini yo'qotish.** Ota-onasi, yaqin do'sti, sevgan insonini yo'qotish depressiyaga sabab bo'ladi.

**Ijtimoiy tarmoqlar.** Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlar juda jadallik bilan rivojlanib bormoqda. O'spirinlar juda ko'p vaqtini telefonda, kompyuterda o'tqazmoqda, bu qiziquvchanlik ularni kiberqullikka duchor qilishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarda joylagan rasmlari yomon izohlarga sabab bo'lsa, yoki layklar yig'masa bu o'spirin uchun ayanchli bo'lib tuyuladi, o'ziga bo'lgan ishonchi tushib ketishi, o'zini birovlardan past sanashi unga depressiyaga yo'l ochadi.

**Erta qurilgan turmush.** Ta'kidlash kerakki, hozir shifokorlar 16-17 yoshli qizlar turmushga tayyor emasligini, homiladorlik, tug'ruq holatlari ularni qiynab qo'yishi oqibatida ham ular depressiv holatga tushayotganlari kuzatilmoqda.

Jismoniy yoki jinsiy zo'ravonlik kabi zo'ravonlik qurboni bo'lgan yoki shunday holatlarni guvohi bo'lganlar ham depressiv halatga tushganligi aniqlangan.

**Qimorlar.** Hozirgi kunda onlayn qimorlar juda rivojlanib ketmoqda. Qimorlarda yutishdan ko'ra ko'proq yutqazish holatlari kuzatiladi. Onlayn

qimorlarda yutqazgan o'spirinlarda hattoki o'z joniga qasd qilish holatlari ham kuzatilmoqda.

O'spirinlarda yuzaga kelgan depressiyani oldini olmaslik va davolamaslik qanday murakkabliklarga olib kelishi mumkin:

- spirtli ichimliklar yoki giyohvand moddalarga ruju qo'yish;
- akademik muommolar;
- oiladagi nizolar va munosabatlardagi qiyinchiliklar;
- o'z joniga qasd qilish;
- O'spirinlarda depressiyani davolash usullari:
- iloji boricha toza havoda sayr qilish;
- faqat yaxshi narsalarni o'ylash;
- bekor (bo'sh) vaqt qolishiga yo'l qo'ymaslik;
- yaqin insolar bilan suhbat qilish;
- yangi maqsadlar qo'yish va shu tomon intilish;
- psixolog yoki psixoterapevtga murojaat qilish. Mutaxassis bilan ishlash va muommoni bartaraf etish;
- agar vaziyat suisid darajasiga etgan bo'lsa uni yolg'iz qo'ymaslik va unga juda kerakli inson ekanligini tushuntirish, unga mehr ko'rsatish;
- shifokor ko'rsatmasiga binoan antidepressantlar qabul qilish.

Depressiya, bugungi kunda yoshlarda ko'p uchraydigan murakkab hissiy-emotsional holat bo'lib, uni keltirib chiqaruvchi psixofiziologik omillarni aniqlash, depressiyaning kechish jarayonlarini o'rganish, yoshlar hayotidagi oqibatlarini tahlil qilish yoshlarni har tomonlama barkamol tarbiyalanishini yo'lga qo'yishda ota-onalar, tarbiyachilar va o'qituvchilar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunga ko'ra biz, o'spirinlarda namoyon bo'ladigan depressiv holatlarni oldini olish, ular uchun zarur bo'lgan irodaviy sifatlarni shakllantirishda o'zbek xalq og'zaki ijodining ahamiyatini (o'zbek xalq maqollari va hikmatlaridan foydalanish tizimini) ilmiy asoslashga harakat qildik.

Xalq donishmandligi namunalari ichida ayniqsa maqollar yoshlarni o'zini o'zi anglashida, ular uchun zarur bo'lgan irodaviy sifatlarni tarbiyalashga yo'naltirilganligi bilan ahamiyati beqiyosdir. Maqollar ixcham shaklga, ammo chuqur mazmunga ega bo'lib, ularda xalqning turmush tarzi, ma'naviy qiyofasi, dunyoqarashi, jamiyat va tabiatga bo'lgan munosabati yorqin ifodasini torgan. Maqollar xalqning ko'r asrlik hayotiy tajribalari asosida yuzaga kelganligi sababli ular o'zida kishilar hayotining g'oyat xilma-xil tomonlarini mujassamlashtirgan, ayniqsa, turmush tarzining qiyin, og'ir va muammoli, shu barobarida meyoriy – axloqiy jihatlarini aks ettirishi bilan bog'liq zarur bilim va irodaviy sifatlarni taqozo etadi.

Maqollar inson psixologiyasining, unda shakllangan insoniy sifat va fazilatlarining (shuningdek, irodaviy sifat va fazilatlarining) yoki insoniy sifat va

fazilatlarga bo'lgan munosabatning til vositasidagi ifodasidir. Har bir xalq yoki millat tomonidan yaratilgan xalq og'zaki ijodi, jumladan xalq maqollari va hikmatlari shu xalq farzandlari uchun tarixning hamma davrlarida inson hayoti uchun zarur bo'lgan bilim va tajribalarni egallash, hissiy-irodaviy sifatlarni tarbiyalash uchun xizmat qilib kelgan.

O'zbek xalq maqollari shu xalq rsixologiyasining amalda sinalgan in'ikosi bo'lganligi uchun hozirgi ta'lim tizimining hamma bosqichlarida undan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir. Vatanga sodiqlik, mardlik, qatilylik, dadillik, xalqqa muhabbat, qahramonlik, kamtarlik, haqgo'ylik, samimiylik, halollik kabi yuksak axloqiy va irodaviy fazilatlar bizda doimo qadrlangan. Zero, taniqli rus yozuvchisi L.N.Tolstoy maqollarning xalq hayoti, ruhiy dunyosi bilan naqadar yaqinligi haqida to'xtalib: «Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalqning siymosini ko'raman», deb yozgan edi.

Tadqiqotning boshlanishida o'zbek xalq og'zaki ijodi – milliy ongning in'ikosi ekanligi nazariy jihatdan o'rganilib tahlil qilindi. Unda milliy ongning rsixologik talqini haqidagi ilmiy qarashlar, o'zbek xalq milliy rsixologiyasi tarkibiy qismi bo'lgan hissiy-irodaviy holatlarning o'zbek xalq og'zaki ijodidagi talqini yoritildi. O'zbek xalq og'zaki ijodining muhim sohasi o'zbek xalq maqollari o'rganildi, o'smirlarda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida misollar va namuna sifatida foydalanishi zarur bo'lgan maqollar to'rlandi, tizimlashtirildi va tahlil qilindi hamda ijtimoiy- tarbiyaviy fanlarni o'qitishda ulardan o'rinli foydalanish rejalashtirildi. Shundan so'ng, o'qitish jarayonida foydalanish nazarda tutilgan o'zbek xalq maqollarining quyidagicha tasnifi yaratildi va ularning irodaviy sifatlarni rivojlantirishdagi mohiyati rsixologik nuqtai nazardan talqin qilindi.

Zamonaviy psixologiyada yoshlar hayotida yuzaga keladigan depressiv holatlarni oldini olish yoki depressiv holatlarga tushganda ularni bunday holatlardan chiqarish uchun ulardagi muhim irodaviy sifatlar: maqsadga intilish, intizomlilik, o'zini tuta bilish, o'ziga ishonganlik, chidamlilik (sabr-toqat), sabotlilik, qat'iyatlilik (dadillik), botirlik (matonatlilik), mustaqillik, mardlik kabi sifatlarni tarbiyalab borish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Maqsadga intilish** — shaxsning o'zidagi barcha kuch-quvvatlarni oldiga qo'ygan maqsadiga qaratish, o'z xatti-harakatlarini ko'zlagan maqsadiga erishish vazifasiga bo'ysundirish, har qanday qiyinchilik va to'siqlarga qaramay maqsadni amalga oshirish uchun intilish qobiliyatidir. “Azob ko'rmay – rohat yo'q”, “Barvaqt qilingan harakat – hosilga berar barokat”, “Baxt yalqovga begona”, “Bir yil tut ekan kishi, yuz yil gavhar terar”, “Yerga oshatsang osh bitar, oshatmasang – tosh”, “Mehnat qancha qiyin bo'lsa, keti shuncha shirin bo'lar”, “Mehnatdan kelsa boylik, turmushing bo'lar chiroylik”, “Tek turmasang – to'q bo'lasan”, “Tekinning minnati ko'r – mehnatning ziynati ko'r”, “Tog'ni baland dema, talab qilsang chiqasan”, “Halol mehnat – yaxshi odat, berur senga saodat”.



**Intizomlilik (mas'uliyatlilik)** – jamiyat qonunlariga, axloq normalari va qoidalariga, milliy (umumbashariy) urf-odatlariga, ixtiyoriy hamda ongli ravishda bo'ysunishda ifodalanuvchi inson sifatidir. “Har yuerni qilma orzu, har yyerda bor toshu tarozi”, “O'g'lingni sevsang, qulingdek ishlat”, “Qo'nimi yo'qning unimi yo'q”, “Gar bilguncha – ish bil”, “Yer egasi bo'lma, mehnat egasi bo'l”, “Ishlab torganning oshi lazzatli”, “Ko'klam – mehnat bilan ko'rkam”, “Yerinchoqni er olmas”, “Yalqovlik – oxiri xo'rlik”, “Qo'rqqoqning ko'zi katta, dangasaning – so'zi”, “Harakat, harakatda – barakat”.

**O'zini tuta bilish** – odamning o'z xatti-harakatlari, his-tuyg'ulari, xulq-atvori kabilarni boshqara bilishda aks etuvchi iroda sifatidir. “Yegri ko'chadan yursang ham, to'g'ri yur”, “Yo'ldan chiqsang ham, ko'rdan chiqma”, “Boylik boylik emas, birlik boylik”, “Dil og'ritgan do'st emas”, “Sen tinch – qo'shning tinch”, “Ishdan qo'rqmagan qishdan qo'rqmaydi”, “Avval o'yla, keyin so'yla”, “Kim garirganiga boqma, nima garirganiga boq”, “Nodon so'zlar, dono ibrat olar”, “Axmoqqa javob – sukunat”, “Oz so'zla, ko'r tingla”.

**O'ziga ishonganlik** – o'z oldiga qo'ygan maqsadlarni amalga oshirish jarayonida jamiyatda amaldagi qadriyatlar va meyorlarga amal qilish hamda o'zaro munosabatlarga kirishishda o'zidagi mavjud bilim, malaka va mahoratlarga ishonish, shuningdek, mazkur faoliyatda aniq muvaffaqiyatga erishishga yo'nalgan sifatlardir. “Botar kunning otar tongi bor”, “Bug'doy eksang – bug'doy o'rasan, arra eksang – arra o'rasan”, “Arslon bolasini tutmoq uchun, arslon uyasiga kirmoq kerak”, “Bitmas ishning boshiga, botir kelar qoshiga”, “Jasur bo'lsang yov qaytar”, “Ziyrakning aqli tosh yorar, nomardning mushti – bosh”, “Yigit so'zidan qaytmas, arslon – izidan”, “Yigitning botirini maydonda sina”, “To'g'ri yurdim, yyetdim murodga, yegri yurdim qoldim uyatga”.

**Chidamlilik (sabr-toqatlilik)** – maqsadga erishishda odamning ko'rincha sovuq va issiqqa ham, ochlik-tashnalikka ham, betoblik va boshqa shu singari qiyinchiliklarga qaramay, barcha to'siqlarni yyengib, o'z maqsadini ro'yobga chiqarishga intilishda aks etuvchi ijobiy sifatidir. “Sabr qilsang g'o'radan halvo bitar, besabrlar bosh-oyog'idan yyetar (yo'qolar)”, “Sabrning tagi – sariq oltin”, “Tindim tunda, tinmadim kunduzi, bo'ldi qo'y telragim qunduzi”, “Azob ko'rmay – rohat yo'q”, “Tirishgan tog'dan oshar”, “Odob bilan baxt torilar, sabr bilan taxt”, “Sabr achchiq mevasi shirin”, “Boyga kelin bo'lguncha, kambag'alga qiz bo'l”, “Boylik murod emas, yo'qlik uyat emas”.

**Sabotlilik** – shaxsning qabul qilgan qarorini bajarish va o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish uchun, ko'r vakt hamda muayyan qiyinchiliklarni yyengish talab etilishiga qaramay, og'ishmay intilishda gavgdalanuvchi iroda belgisidir. “Salobatli bo'lma – sabotli bo'l”, “Boshliq bo'lsang, boshli bo'l”, “Yyetti o'lchab bir kes”, “Aslning xatosi yo'q”, “Baxl avliyo bo'lmas, avliyo – baxl”, “Insofli oshini yyer, insofsiz – boshini”, “Non qadrini och bilar, kiyim qadrini – yalang'och”, “Nomardga ishi tushmagan – mardning qadrini bilmas”, “Qadrlasang qadring oshar, qadrsizdan hamma qochar”.

**Qat'iyatlik (dadillik)** – shaxsning vaziyatni tezda baholab, o'z vaqtida asosli, o'ylangan va mustahkam qaror qabul qilishi, hech qanday ikkilanishsiz uni bajarishga kirishishidan iborat fazilatidir. “Oltovlon ola bo'lsa, og'zidagin oldirar, to'rtovlon tugal bo'lsa, teradagin endirar”, “Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt”, “Vaqting ketdi – baxting ketdi”, “Farosatni befarosatdan o'rgan”, “Farosatsiz falokatga yo'liqar”, “Yaxshining nasihatiga kirmagan, yomonni yo'liga yurar”, “O'zi yuzsiz, so'zi tuzsiz”, “O'qish boshqa, uqish boshqa”, “Izzat tilasang ko'r dema, sihat tilasang ko'r yyema”.

**Botirlik (matonatlik)** – odam sog'lig'i yoki hayoti uchun xavfli va murakkab sharoitda ham biron qarorga kelishi va uni bajarishning uddasidan chiqqa bilish xislatidir. “Arslon bolasini tutmoq uchun, arslon uyasiga kirmoq kerak”, “Bilagidan ko'ra, yuragiga qara”, “Bitmas ishning boshiga, botir kelar qoshiga”, “Botirdan o'lim ham qo'rqrar”, “Botirlik shahar olar”, “Botir qiyinni yyengar, nomard bo'ynini egar”, “Jasur bo'lsang yov qaytar”, “Yigit so'zidan qaytmas, arslon – izidan”, “Yigitning botirini maydonda sina”, “Odam safarda bilinar, botir – xatarda”, “Yantoqdan atir chiqmas, qo'rqqoqdan – botir”.

**Mustaqillik** – insonning o'zicha biror qarorga kelishi va uni amalga oshirishidan, qarorni amaliyotga tatbiq etishning usul va yo'llarini o'zi mustaqil ravishda tanlashidan, har bir ishda o'zining bilimlari, dunyoqarashi va e'tiqodlariga amal (rioya) qilishidan iborat iroda sifatidir. “Hashar qildim – uy qurdim, unda ko'r hikmat ko'rdim” “Ko'r bilsang ham, ko'rdan ortiq bilmaysan”, “Ko'mak bo'lsa har ishga, bitadi qolmay qishga”, “Sir saqlaganga balo yo'q, saqlamaganga – davo”, “Sihat tilasang, ko'r yyema, izzat tilasang, ko'r dema”, “O'zingni er bilsang, o'zgani sher bil”.

**Mardlik** – oliy maqsadlarni ko'zlab ish ko'ruvchi, o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishda qat'iylik, vazminlik, sabr-matonat, chidamlilik, bardoshlilik, mustaqillik va dadillik ko'rsatuvchi xislatlar majmuasidir. “Jasur bo'lsang, yov qaytar”, “Mard yigit so'zidan qaytmas, arslon-izidan”, “Nolish bilan ish bitmas, mard nomardga tiz cho'kmas”, “O'z aybini bilgan mard”, “Qo'rqqanni ajal quvlar”, “Ko'r bo'lsa serlab ko'r, oz bo'lsa – erlab”, “Otni ayagan ot minar, to'nni ayagan to'n kiyar”, “Saqlasang ming kunlik, saqlamasang bir kunlik”, “Baland tog'da qor bo'lar, er kishida or bo'lar”.

O'zbek xalq psixologiyasida (og'zaki ijodida) odamning narsalar, hodisalar va mehnatga bo'lgan ijobiy munosabatlarini tarbiyalashga xos maqollar anchagina bo'lib, ulardan hayotiy misollar sifatida foydalanilsa, yoshlarda narsalarga to'g'ri baho berish, voqealarni real va obektiv baholash, halol mehnat qilishga o'rganish, mehnat qilishga xos irodaviy bilim, malaka va mahorat kabi insoniy sifat va fazilatlar (konstruktiv yoki enguvchi xulq - atvor) shakllanadi.



## ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Абулханова-Славская К.А. Типология активности личности // Психология личности и образ жизни. –М.: 1997. -С.10-11.
2. Бобнева М.И. Социальные нормы и регуляция поведения. –М.: 2004. -310 с.
3. Быков А.В. Генезис волевой регуляции: монография // М., 2003. – 248 с.
4. G'oziyev Ye. G'. Umumiy psixologiya. –T.: 2010. -544 b.
5. Jabborov A. M. O'qituvchi etnopsixologiyasi. Qarshi "Nasaf". 2015. – 180 b.
6. Jabborov A.M. Milliy psixologiyaning shakllanish manbalari. Qarshi "Nasaf". 2017.–72 b.

## MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

### Ne'matova Irodaxon Ibroxim qizi

Qarshi davlat universiteti, Psixologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Manzil: O'zbekiston, 200100, Qarshi shahri

**Iqtibos uchun:** Ne'matova I.I. Ilk o'pirinlarda (16-18 yosh) yuzaga keladigan depressiv holatlar va ularni oldini olishning tarbiyaviy usullari. // Osiyo xalqaro universiteti axborotnomasi. 2024. №3. B.217–226.



## MUNDARIJA:

|                                                                                                                                                       |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>E'TIROF</b>                                                                                                                                        |     |
| <b>Suxrob DEXKANOV.</b> Najot – ta'limda, najot – tarbiyada                                                                                           | 4   |
| <b>07.00.00 – TARIX FANLARI</b>                                                                                                                       |     |
| <b>Haitov Shadmon Axmadovich, Ahmadov Ahmadjon Asror o'g'li.</b> Rossiya va Afg'oniston munosabatlaridagi to'siq va muammolar D.N. Logofet talqinida. | 10  |
| <b>To'rayev Anvar Ismoilovich, Hayotov Feruz Umidjonovich.</b> Buxoro shahri inshootlarida amaliy bezak namunalarining aks etishi                     | 17  |
| <b>Sadullayev Umidjon Shokir o'g'li.</b> Zamonaviy mahalla-etnologik tadqiqot obyekti sifatida                                                        | 24  |
| <b>11.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>                                                                                                                  |     |
| <b>Teshaboyev Akram Yuldashevich.</b> Xato tahlili orqali o'quv materiallarini korreksiya qilish                                                      | 33  |
| <b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>                                                                                                                  |     |
| <b>Tairova Madinabonu Baxtiyarovna.</b> Bo'lajak tarbiyachilarning fasilitatorlik sifati va kasbiy kompetentsiyaga asoslangan yondashuv va metodlari  | 42  |
| <b>Юлдашев Собитали Зоҳиджон ўғли.</b> Сравнительный анализ показателей физического развития спортсменов и нормативных показателей студентов.         | 50  |
| <b>Qurbonova Zilola Ismoil qizi.</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-7 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning asosiy vazifalari        | 56  |
| <b>19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI</b>                                                                                                                 |     |
| <b>Elov Ziyodullo Sattorovich.</b> Deviant xulq-atvorli o'smirlar orasida o'z joniga qasd qilish holati ijtimoiy-psixologik muammo sifatida           | 63  |
| <b>Хайдаров Исмоил Оллоқулович.</b> Ўсмир ёшли 9-10 синф ўқувчиларида касб танлаш мотивларига таъсир этувчи таъқиқ ижтимоий-психологик омиллар        | 76  |
| <b>Parmonov Bobir Erkinovich.</b> Maktabgacha yoshidagi bolalarda axloqiy tushunchalar shakllanishining psixologik determinantlari                    | 91  |
| <b>Olimov Laziz Yarashovich.</b> Sud va tergov faoliyatida psixolog kompetentligining namoyon bo'lishi                                                | 103 |
| <b>Avezov Olmos Ravshanovich.</b> Turli ekstremal vaziyatlarda shaxsning xulq-atvoridagi dinamik reaksiyalar                                          | 119 |
| <b>Ashurov Ramzidin Ramazonovich.</b> O'quvchilarda bilish jarayonlarining rivojlanishi intellekt shakllanishining muhim omili sifatida               | 128 |
| <b>Остонов Жасур Шопиржонович.</b> Факторная структура копинг-поведения подростков                                                                    | 135 |





|                                                                                                                                                            |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Jo'rayev O'tkir Tashpulatovich.</b> Irodaviy faollikni tadqiq etishda jins xususiyatlarining qiyosiy tahlili                                            | 143 |
| <b>Narziyeva Shaxnoza Rustamjon qizi.</b> O'smirlarda hissiy-irodaviy sifatlar va uni tarbiyalash.                                                         | 153 |
| <b>Amonova Dilsora Akmal qizi.</b> Deviant xulq-atvor va tarbiya                                                                                           | 160 |
| <b>Ro'ziyeva Zuxra Saidazimxojayevna.</b> Pedagog kasbiy kompetentligi va emotsional jarayonlarining ijtimoiy psixologik xususiyatlari                     | 167 |
| <b>Sharipova Ferangiza Sayodovna.</b> Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar nutqida uchraydigan nuqsonlarning bola ruhiyatiga pedagogik-psixologik ta'siri | 177 |
| <b>Sanoqulova Maftuna Erkinjon qizi.</b> O'smirlarda deviant xulq atvorning namoyon bo'lish shakllari                                                      | 185 |
| <b>Pardaqllov Norbek.</b> Yoshlar intellektual taraqqiyotining bosqichlari va uni ta'minlovchi muhim omillar                                               | 192 |
| <b>Sadilloev Odiljon Oripovich.</b> Bahouddin Naqshbandiy qarashlarida shaxs tarbiyasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari                               | 200 |
| <b>Tojiyeva Nilufar Tohirjon qizi.</b> O'smirlar o'rtasidagi sud ekspertizasining maqsad va vazifalari.                                                    | 207 |
| <b>Xayrullayeva Zebuniso Tojiddin qizi.</b> Din va axloq o'rtasidagi munosabatlarni tadqiq etishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari                     | 214 |
| <b>Ne'matova Iroda Ibroxim qizi.</b> Ilk o'pirinlarda (16-18 yosh) yuzaga keladigan depressiv holatlar va ularni oldini olishning tarbiyaviy usullari      | 221 |

|                                                                                                                                                                                                           |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p><b>OSIYO XALQARO<br/>UNIVERSITETI<br/>AXBOROTNOMASI</b></p> <p><b>Ilmiy-nazariy va<br/>metodik jurnal</b></p> <p><b>3-son (2024-yil, may)</b></p> <p><b>Jurnal 2024-yildan chiqa<br/>boshlagan</b></p> | <p>Jurnal oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o'qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo'ljallangan.</p> <p>Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.</p> <p><b>Orginal maket uchun<br/>mas'ul:<br/>Mirshod SATTOROV</b></p> <p><b>Maqolalarni qabul<br/>qiluvchi:<br/>Ziyodullo ELOV</b></p> | <p>Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi.</p> <p>Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.</p> <p>Bosishga ruxsat etildi<br/>10.07.2024</p> <p>Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog'i – 14,6</p> <p>Adadi – 10 nusxa</p> <p>Buyurtma № 6<br/>Bahosi kelishilgan narxda.</p> <p><b>“BUXORO”<br/>DETERMINANTI”<br/>MCHJ</b><br/>bosmaxonasida chop etildi.</p> <p>Bosmaxona manzili:<br/>Buxoro shahri Namozgoh ko'chasi<br/>24-uy.</p> |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

<https://scientificjournal.uz/>



ISSN

ISSN 3030-3796